Jamoliddin Nurmuhammadov, Dilnavoz Yusupova,
Orifjon Olimjanov

ADABIYOT

9-sinf

Yangi nashr

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2025

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 821(100)(075.3)
KBK 83.3(0)ya72
N 87

Nurmuhammadov, J.
Adabiyot. 9-sinf [Matn]: darslik / Jamoliddin Nurmuhammadov, Dilnavoz Yusupova, Orifjon Olimjanov; muharrir Xayriddinmurod Abdulfaizov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2025. – 240 b.

Mas’ul muharrir:

Qunduzoy Husanboyeva – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Marg‘uba Abdullayeva – filologiya fanlari doktori, professor.

Mahfuza To‘ychiyeva – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Shahodat Abdullayeva – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 114-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Xalq ta’limi a’lochisi.

Nasiba Nig‘matxo‘jayeva – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 90-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Xosiyat Matyakubova – Toshkent shahri Yakkasaroy tumanidagi 48-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Xalq ta’limi fidoyisi.

ISBN 978-9910-584-06-0

© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

MILLIY XOTIRA VA INSON QISMATI

Kirish 4
“Alpomish” dostoni — milliy qadriyatlar qomusi 6
Usmon Azim 39
“Baxshiyona” turkumidan she’rlar 40
“Karvon ko‘rdim…” she’ri 42
“Tong titraydi...” she’ri 43
Nazariy ma’lumot. She’riy nutq va uning vositalari 45
Asqad Muxtor 47
“Chinor” romanidan parcha 48
Adabiy laboratoriya 67

TARIX VA ZAMON CHORRAHASIDA

Oybek 68
“Uzoqdan turib...” she’ri 70
“Na’matak” she’ri 71
“Yig‘i kelmaydi sira” she’ri 72
“Yor keldi...” she’ri 73
Odil Yoqubov 75
“Ulug‘bek xazinasi” romani 77

YELKADOSH TOG‘LAR

“Besh ganj”, “Egiz el” she’rlari 103
Qirg‘iz adabiyotidan namuna 105
Qozoq adabiyotidan namuna 106
Turkman adabiyotidan namuna 107
Tojik adabiyotidan namuna 109
Qoraqalpoq adabiyotidan namuna 111

KOMILLIK KALITI: RUH, UYG‘ONISH VA SINOV

Alisher Navoiy. Xamsanavislik an’anasi 114
“Farhod va Shirin” dostoni 117
Nazariy ma’lumot. “Farhod va Shirin” dostonida tasavvufiy timsollar va ularning ramziy ifodasi 144
Zahiriddin Muhammad Bobur 146
“Xatting aro uzoring...” g‘azali 148
“Tishing dur...” g‘azali 149
“Jonimdin o‘zga...”, “Keldi ul vaqtki...” 152
Jek London 155
“Hayotga muhabbat” hikoyasi 156
Adabiy laboratoriya 171
Abdulhamid Cho‘lpon 172
“Ko‘ngil” she’ri 174
“Buzilgan o‘lkaga” she’ri 175
“Uyqu” she’ri 178

RUHIYAT MANZARALARI VA PARVOZ ZAVQI

Shavkat Rahmon 180
“Tungi manzara” she’ri 181
“Tong ochar ko‘zlarin...” she’ri 182
“Jangda o‘lgan emas...” she’ri 184
Richard Bax 186
“Oqchorloq Jonatan Livingston” qissasi 188
Halima Xudoyberdiyeva 206
“Shunchaki” she’ri 207
“Dorilamon kunlar keldi...” she’ri 209
“Yo‘ldadirman” she’ri 211
Sharof Boshbekov 213
“Temir xotin” (jiddiy komediya) 215

KIRISH

Dars davomida:

– adabiyotning inson hayotidagi o‘rni haqida fikr almashamiz.

O‘ylab ko‘ring!

Sizningcha, inson uchun adabiyot nega zarur? Unga **ruhiy ehtiyojning** sabablari haqida o‘ylab ko‘ring.

Ko‘rsatma

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning *“Sadoi Turkiston” gazetasida e’lon qilingan quyidagi maqolasini o‘qish davomida o‘zingiz uchun muhim deb bilganlaringizni yozib oling.*

ADABIYOT NADIR?[1]

Adabiyot har bir millatning hisli ko‘ngul tarixining eng qorong‘u xonalarida maishat (tirikchilik) ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydirg‘on bir guldir. Ushbu yashadigimiz muhit doirasinda aning to‘lquni odamning har xil maishatiga qarab o‘zgaradir.

Har sinf, xalqning o‘ziga maxsus ohangi, o‘ziga ta’sir qiladurg‘on zori bo‘lur. Mana shul muhit bo‘shlig‘inda bo‘lgan qat’iy to‘lqunning bir-biriga birlashmagidan har odamga har xil shodliq va yo ko‘b achchiq ta’sir etmagindan odamning ko‘nglida o‘zi bilmasdan o‘rnashub qolg‘on va har vaqt, umrining oxiriga qadar saqlanaturg‘on qayg‘ulanmak va yo ko‘krak kerib ko‘b dam olurday oh urmaklar – hammasi ko‘ngilda har xil rangda, har xil kayfiyatda to‘lub yotqon adabiyot xosasindan sanalur. Kishi ba’zi vaqtda shodlikdan kulur va ba’zi vaqtda ko‘z yoshin to‘kib yig‘lar, oh tortar. Odamning mundog‘ har xil kayfiyatga kirub turmog‘i o‘z ixtiyori ila bo‘lmay, balki maishati yo‘lida har vaqt uchrab turadurg‘on falokatning anga ba’zi vaqtda zulm ko‘rsatmog‘i va ba’zi vaqtda bir yaxshilik ko‘rsatub suyundirmog‘idin kelub – yaxshi ko‘rganda suyunib, yomonliq ko‘rganda yig‘lab – shundog‘ bo‘lub ikki turli o‘zgarub turar, ba’zi vaqtda falak bir odamni qayg‘uga solar, ul o‘zi tushunib, o‘ylab turub, oh tortub yig‘lar. Bu hasratlarni o‘z ichiga sig‘dirolmas. Birovga aytsa, “Voy bechora” deyurmukin, deb o‘z qayg‘usini birovga aytmakka tilar. To‘p-to‘g‘ri aytganda u qadar ta’sir qilmas. Adabiyot ila aytganda albatta ta’sir qilar. Mening bir oshnamning o‘ldigi xabari kelar. Men hech xafalanmayman. Bir vaqtda maktub kelar, maktubda alarning ko‘rgan kunlari adabiyot ila bunday yozilur:

Gullar bila pok qayg‘uli mahzun boqurdi,
Ko‘z yoshlarimiz to‘xtamay tun-kun oqurdi.

Mana shuni o‘qub, albatta, bir ta’sir ila alarning qayg‘usiga qo‘shulurmiz. Bir bola uxlamasa, alla aytarlar. Bola tez uxlab ketar. Chunki ul andin bir lazzat his qilur. Eski bobolarining bir ma’shuqa uchun Qoshg‘ar taraflariga yayov borganini va yo‘lda o‘g‘rilar tarafidin o‘lturulgani g‘oyat yaxshi ohang bilan aytilur. Ul vaqtda bola ta’sirindan uxlab ketar. Shunga o‘xshash o‘zining shavkat

[1] Qisqartirishlar bilan berildi.

va g‘ayrati ila zamonasida butun dunyoni havor[1] va dahshatga solg‘on jahongirlarning o‘tkazgan kunlarin va davrlarin tarixlarda ko‘rsa va eshitsa, har kishi yuragida bir botirliq va bir fidokorlik his etar va qahramonona umidlarda bo‘linur.

Mana shunday qahramonona umid, qahramonona his va qahramonona g‘ayrat – barchalari tarixiy adabiyotning natijasidan boshqa narsa emasdir. Hech to‘xtamasdan harakat qilub turg‘on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o‘lmag‘on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur. Muni inkor qilib bo‘lmas. Inkor qilg‘on millat o‘zini inqirozda ekanun bildirur…

Adabiyot chin ma’nosi ila o‘lgan, so‘ngan qaralgan, o‘chgan, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladirg‘on, chang va tuprog‘lar to‘lgan ko‘zlarimizni artub tozalaydirg‘on buloq suvi bo‘lg‘onlikdan bizga g‘oyat kerakdir.

Endi, ey qardoshlar! Adabiyot o‘quyluk. Adiblar yetishdirayluk, “adabiyot kechalari” yasayluk. Ruh, his-tuyg‘u, fikr, ong va o‘y olayluk, bilayluk… Yuragimiz kundan kun toshdan ham qattig‘ bo‘lur. Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo‘lmayluk…

Hozirda bizga birdan bir lozim bo‘lg‘on narsa – adabiyot, adabiyot, adabiyot…

1914


Keling, muhokama qilamiz

1. Cho‘lponning qaysi fikr(lar)i sizni chuqur o‘yga toldirdi? Nima uchun?
2. Cho‘lponning oddiy xabar mazmunidagi so‘zlar bilan badiiy mazmundagi so‘zlar o‘rtasidagi farqni tushuntirish uchun keltirgan misollariga diqqat qiling. Nimalarni ilg‘adingiz? Izohlang.
3. *“Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o‘lmag‘on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur”.* Ijodkor nega bunday xulosaga kelgan bo‘lishi mumkin? Asoslashga urining.
4. Muallif nima uchun adabiyotni “ko‘ngil tarixining eng qorong‘u xonalarida” yetishgan deb ataydi? Sizningcha, adabiyot inson ichki dunyosining qaysi jihatlarini yoritadi?
5. Cho‘lpon adabiyotni inson ruhining *“toza ma’rifat suvi”*ga qiyoslaydi. Nega shunday qiyos qilingani haqida fikr yuriting.

Topshiriq

Siz *adabiyot taraqqiysi uchun* qanday takliflar bergan bo‘lardingiz? Nima uchun? Yozma javob tayyorlang.

[1] **Havor** – asoratga solmoq, ezmoq.



“ALPOMISH” DOSTONI – MILLIY QADRIYATLAR QOMUSI

Dars davomida:

– qahramonlik eposining ahamiyati haqida fikr yuritamiz;
– doston syujetini tahlil qilamiz;
– xalqimizga xos qadimiy marosim, urf-odat, milliy qadriyatlar haqida bilib olamiz;
– dostonning ifoda uslubi va badiiyatini tadqiq etamiz.

Har turkiyning o‘z Alpomishi bor. Ildizi bir xalqlar: o‘zbeklarda “Alpomish”, qoraqalpoqlarda “Alpamis“, qozoqlarda “Alpamis batir”, oltoyliklarda “Alip-Manash”, Qozon tatarlarida “Alpamsha”, “Alpamish”, boshqirdlarda “Alpamisha va Barsin hiluu” singari syujeti o‘xshash doston, ertak va rivoyatlar uchraydi.

Doston bizgacha yetib kelishining o‘ziga xos tarixi bor. O‘tgan asrning boshlarida folklor-etnografik ekspeditsiyalarga boshchilik qilgan G‘ozi Olim Yunusov o‘zbek eposhunosligi tarixida birinchi bo‘lib, 1922-yilning yozida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Hamroqul baxshilardan dostonni yozib olgan. “Alpomish” dostonining badiiy jihatdan eng mukammal varianti Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan 1928-yilda Mahmud Zarifov tomonidan yozib olingan.

“Alpomish” dostoni yaratilganligining 1000 yilligi keng nishonlanishi (1999-yil) munosabati bilan professor T. Mirzayev bu dostonning Berdi baxshi, Po‘lkan va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Saidmurod Panoh o‘g‘li variantlarini 1999-yilda alohida kitob holida to‘la nashr ettirdi. T. Mirzayev



Alpomish.
O‘zbekiston xalq rassomi, akademik Javlon Umarbekov illyustratsiyasi. 2010-yil

folklorshunoslik amaliyotida birinchi marotaba “Alpomish” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti matnini va rus tiliga ilmiy-adabiy tarjimasini akademik nashrga tayyorlab, chop ettirdi. Germaniyaning Bonn universiteti professori Karl Rayxel “Alpomish” dostonini nemis tilida nashr qildirgan.

Doston aka-uka – Boybo‘ri va Boysarining shajarasi, to‘y marosimi va ularning farzandsizligi muammosi tasviri bilan boshlanadi. Dostonni Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida mutolaa qilamiz.

E’tirof

El o‘z armonlariga, asriy dardlariga darmonni so‘zdan izlagan. Baxshilarning tunni tongga ulab aytgan dostonlarida elatning hurlikka, ozodlikka tashnaligi kuylangan, millat va Vatan tuyg‘usi mislsiz shavq bilan badiiy tadqiq etilgan, inson va shaxs erki tushunchalari teran ifodalangan. Dostonlarda, avvalo, kishining o‘z ichidagi yomonlikni yengib, ezgulikka yuz burishi, ezgulik qaror topishi uchun xizmat qilishi asos qilib olingan. Asrlar davomida xalq tilida, ommaga tushunarli qilib aytilgan dostonlar qadimiy tuproqda yashagan har bir inson qalbida aks sado berib kelganiga tariximiz guvoh. “Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining ming yillar oldingi madaniyatidan darak beruvchi bebaho merosdir. Doston orqali millatimizning unutilgan yoki unutilib ketayotgan urf-odatlari, ijtimoiy munosabatlari kechmishi haqida bilib olamiz. Shu ma’noda, “Alpomish”ni nafaqat ulug‘ g‘oyalarni asrlar osha bizga tashib kelayotgan xalq og‘zaki ijodiyotining betakror namunasi, balki “milliy qadriyatlar qomusi” sifatida e’tirof etish mumkin.

Alpomishning qaytishi

Bepoyon dalada bir botir uxlar,
Sochlari chatishib ketgan giyohga.
Qay sado botirni yana qaytarar
Bu ko‘hna, bu soqov, bu kar dunyoga?
…Chollar qayg‘uradi: “Kim uyg‘otar, kim?”
Kampirlar yig‘laydi: “Uyg‘onmas mangu!”
Shamollar guvullab o‘tar betinim.
Boshida bulutlar qotgan beuyqu.
Xira ko‘zlarini uzmay ufqdan
Donishmand cholgina yo‘lga termilar
Va aylar bashorat: **“Uni uyqudan**
Uyg‘ota oladi faqat bolalar”.

Xurshid Davron

O‘ylab ko‘ring!

Xurshid Davronning “Alpomishning qaytishi” she’rida uxlab yotgan Alpomishni faqatgina bolalar uyg‘ota olishi bashorat qilinadi. Nega? Botirni qanday bolalar uyg‘ota oladi deb o‘ylaysiz? She’rdagi ramziy mazmunni tahlil qiling.

ALPOMISH

(Doston)

1

Burungi o‘tgan zamonda, o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida Dobonbiy degan o‘tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o‘g‘il farzand paydo bo‘ldi. Alpinbiydan tag‘in ikki o‘g‘il paydo bo‘ldi: kattakonining otini Boybo‘ri qo‘ydi, kichkinasining otini Boysari qo‘ydi. Boybo‘ri bilan Boysari – ikkovi katta bo‘ldi. Boysari boy edi, Boybo‘ri shoy[1] edi. Bu ikkovi ham farzandsiz bo‘ldi.

Ana endi o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida bir chupronto‘y[2] bo‘ldi. Xaloyiq, elatiya[3] to‘yga aytildi. Shu to‘yga barcha xaloyiq yig‘ildi. Biylar[4] ham to‘yga keldi. To‘ydagi kattalar ilgarigiday izzat qilib, qadimgiday otini ushlamadi. Biylar: “Mazmuni, bu odamlar bizning kelganimizdan bexabar qoldi”, – deb otini o‘zi bog‘lab, ma’rakayi majlisga kelib o‘tira berdi.

Biylarning ko‘nglini xushlamadi, otini ushlamadi, ostiga libos tashlamadi. Osh tortdi – suzgan tovoqni choshlamadi, osh tortganda oshning ketini-betini tortdi. Bu qilgan xizmatni biylar ko‘rib, ilgari izzat ko‘rib yurgan odamlar aytdi: “Bizlar o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irotning boyi ham shoyi bo‘lsak, bizlar kelsak, otimizni ushlar edinglar, ko‘nglimizni xushlar edinglar, bu daf’a bizdan nima o‘tdi, bizni bunday behurmat qildinglar?”

Bu so‘zni eshitib, o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida poygabetdan[5] turib, bir chapanitob boyvachchasi aytdi: “Ey Boybo‘ri bilan Boysari! Bu to‘y o‘g‘illining o‘g‘lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?! O‘zing o‘lsang, molingga har merosxo‘r chiqadi, og‘ziga odam kirib ketadi[6]”.

Bulardan biylar bu gapni eshitib, xafa bo‘lib, sakson tillani chupronga tashlab, turib ketdi. Borib, chechib mindi bedov otti. Ikkovi uyga yetti. Ikkovi qildi maslahatti. Bu so‘z ikkoviga juda botib ketdi. Boybo‘ri turib aytdi: “Boysari uka, qariganda bizning molimiz besohibga[7] chiqdi. Endi bizlar bir farzand taraddi qilmaymizmi?” Boysari turib aytdi: “Tortib olib bo‘lmasa, sotib olib bo‘lmasa, Xudo bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!” Boybo‘ri aytdi: “Shu yerdan Shohimardon pirning[8] ravzasi[9] uch kunchalik yo‘l kelar ekan, har kim borib tunar ekan: davlattalab davlat tilar ekan, farzandtalab farzand tilar ekan, oxirattalab imon tilar ekan, qirq kun tunagan kishi murodiga yetib qaytar ekan. Biz ham borsak, nazr-u niyozimizni bersak, Shohimardon pirning ravzasida tunab, biz ham bir farzand tilab ko‘rsak”.

Shunda bu gap boylarning ikkoviga ham ma’qul tushib, bir-biriga: “Rost aytasan”, – deb nazr-u niyozni olib, biylar ikkovi Shohimardon pirning ravzasiga qarab jo‘namoqchi bo‘lib, mindi bedov otdi, uch kun tinmay yo‘l tortdi. Uch kun yo‘l yurib, Shohimardon pirning ravzasiga yetdi. Olib borgan nazr-u niyozini shayxlarga berib, biylar ravzada tunab yotdi. Oradan bir kam qirq kun o‘tdi. Bir kam qirq kun deganda ravzadan ovoz keldi: “Ey Boybo‘riman Boysari, sen bir kam qirq kundan beri tunab

[1] **Shoy** – shoh.
[2] **Chupronto‘y** – sunnat to‘yi.
[3] **Elatiya** – chorva bilan shug‘ullanadigan qavmlar.
[4] **Biy** – bek.
[5] **Poygabet** – bo‘sag‘a, eshikka yaqin joy.
[6] Odamni mensimaydi, uni yutib yuborguday bo‘ladi ma’nosida.
[7] **Besohib** – egasiz.
[8] **Pir** – avliyo, to‘g‘ri yo‘lga yetaklovchi ustoz, shayx.
[9] **Ravza** – maqbara, qabr ma’nosida.

yotibsan. Xudoning yaratgan sheri men bo‘lsam, bir kam qirq kundan beri bir oyog‘im bilan turib, sizlar uchun oraga tushib, Xudodan farzand tilayman. Yaratgan farzand bermayman, dedi”. Biylar bu ovozni eshitib: “Bizlar bir kam qirq kundan beri kelib, sizni tunab yotsak, Xudoning yaratgan sheri siz bo‘lsangiz. Bizlar uchun oraga tushib, biror farzand tilab olib bermasangiz, bizga pirligingiz yolg‘on, Xudoga sherligingiz yolg‘on. Bor, unday bo‘lsa, biz ham dunyoning bahridan o‘tdik”, deb tappa tushib, ravzada turbat[1]ning ostida yotdi.

Qirq kun o‘rtadan aniq o‘tdi, boz[2] ravzadan ovoz keldi: “Boybo‘ri, senga Xudoyim bir o‘g‘il, bir qiz berdi. Yolg‘iz emas, egiz berdi. Boysari, senga Xudoyim bir qiz berdi. Egiz emas, yolg‘iz berdi. Bundan borsang, farzandlarni ko‘rsang, xaloyiqni yig‘sang, to‘y-tomosha bersang, to‘yda qalandar bo‘lib borib, bolalaringning otini o‘zim qo‘yib kelaman”.

... Oydan oy, kundan kun o‘tib, to‘qqiz oy, to‘qqiz kun, to‘qqiz soat oradan o‘tib qoldi. Boybichalarning oy-kuni yaqin edi. Biylar ikkovi aytdi: “Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi, deb bir nechalar oldimizga yo‘lga chiqib, bizlardan tilla tanga in’om olsa”, – deb bu o‘ylarni o‘ylab, biylar ovga jo‘nab ketdi.

Boybichalarga shunda to‘lg‘oq vaqti yaqin yetdi. Ne kampirlar kelib, tulkini inlatgan[3] toziday bo‘lib, boybichalarni angnib[4], o‘rtaga olib turibdi. Biylar shu vaqtda ovdan qaytdi. Bu yoqdan farzandlar yer yuziga tushdi. Bir nechalar biylarning oldiga chiqib, suyunchi oldi.

Biylar ziyoda vaqtixush bo‘lib, mazgiliga[5] kelib, joy olib, vaqtixushligidan har tarafga xabar yuborib, to‘y-tomoshalar qilmoqchi bo‘lib, chog‘lanib, sozlanib, o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elining katta-kichik biylarini, oqsoqol, arboblarini yig‘dirib, to‘y qilamiz, deb maslahat qildi.

O‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elining odamlari, eshitgan xaloyiq gurros-gurros bo‘lib kelaverdi. Shunda katta-kichiklar kelib, biylar og‘zidan to‘y qilamiz, deganini eshitib, to‘yning asboblarini tuzab, qancha so‘qim so‘yib, osh-palovlarni damlab, fuqaro, beva-bechoralar to‘yib, shul alpozda o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irotning bor odami to‘yni qilib, hammasi jam bo‘lib, qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y qilib yotdi.

... To‘y tarqaydigan kun bo‘ldi. Bir vaqt biylar qarasa, uzoqdan bir qalandar ko‘rinib kelaverdi. Xaloyiq ham ko‘rdi: tarzi gul yuzli, shirin so‘zli, bir siyosatli kishi qalandar bo‘lib kelayotir. O‘zga kishilarga u qalandarning hol-ahvoli ma’lum emas. Ravzadagi so‘zlagan ovozni eshitgani sababli: “Shohimardon pirim shul kishi bo‘lmasa”, – deb biylar o‘rnidan turib, oldiga peshvoz chiqib, salom berib, ziyorat qilib, majlisxona[6]ga boshlab olib keldi. Shunda farzandlarning uchovini ham olib kelib, Shohimardon pirning etagiga soldi. Shohimardon pir Boybo‘rining o‘g‘lining otini Hakimbek qo‘ydi. O‘ng kiftiga besh qo‘lini urdi. Besh qo‘lining o‘rni dog‘ bo‘lib, besh panjaning o‘rni bilinib qoldi. Qizining otini Qaldirg‘ochoyim qo‘ydi. Boysarining qizining otini Oybarchin qo‘ydi. Ana shunda Shohimardon pir Hakimbekka Oybarchinni atashtirib, beshikkerti[7] qilib: “Bu ikkovi er-xotin bo‘lsin, Hakimbek bilan hech bir kishi barobar bo‘lolmasin. Omin, Ollohu akbar”, – deb fotihani betiga tortdi. Shohimardon pir turib, jo‘nab ketdi, odamlarning ko‘zidan g‘oyib bo‘lib ketdi. Ana shuytib biylarning to‘ylari ham tarqab ketdi.

[1] **Turbat** – yer, tuproq; qabr, go‘r, maqbara.
[2] **Boz** – yana.
[3] **Inlatgan** – inga qamagan.
[4] **Angnib** – poylab.
[5] **Mazgil** – manzil.
[6] **Majlisxona** – bazmxona.
[7] **Beshikkerti** – o‘g‘il va qizni bolaligidayoq unashtirib qo‘yish.

Shunda bolalar kundan kun o‘tib, oydan oy o‘tib, birdan ikkiga kirib, ikkidan uchga kirib, ularning tili chiqib, elga enib, tili chiqqandan keyin, elga engandan keyin tutib, uchovini ham maktabga qo‘ydi. Ular maktabda o‘qib yurib, yetti yoshga kirdi. Burro savodi chiqib, xat o‘qib, yozadigan mulla bo‘ldi. Shunda Boybo‘ribiy: “Endi o‘g‘limning savodi chiqib, mulla bo‘ldi. O‘g‘limga endi shohlik, sipohilik ilmini o‘rgatayin”, – deb mulladan chiqarib oldi. Boysari ham Boybo‘riga taassub qildi. Bu ham Oybarchin qizini maktabdan chiqarib oldi. “Qizimga Ko‘kqamish ko‘lida qo‘y sog‘dirib, chorvadorlik ilmini o‘rgatayin, qo‘y sog‘moqqa usta bo‘lsin”, – dedi.

Shunda Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birich[1]dan bo‘lgan parli yoy bor edi. Ana shunda yetti yashar Hakimbek shul o‘n to‘rt botmon yoyni qo‘liga ushlab, ko‘tarib tortdi, tortib qo‘yib yubordi. Yoyning o‘qi yashinday bo‘lib ketdi. Asqartog‘ning katta cho‘qqilarini yulib o‘tdi, ovozasi olamga ketdi. Shunda barcha xaloyiq yig‘ilib kelib aytdi: “Dunyodan bir kam to‘qson alp o‘tdi. Alplarning boshlig‘i Rustami doston edi, oxiri bu Alpomish alp bo‘lsin. To‘qson alpning biri bo‘lib, sanaga o‘tdi”, – dedi. Oxiri Alpomishbek alp bo‘lib, to‘qson alpning biri bo‘lib, sanaga o‘tib, alplik otini ko‘tardi, yetti yoshida Alpomish deb ot qo‘yildi.

Kunlardan bir kun Hakimbek kitob o‘qib o‘tirib, baxildan, saxiydan gap ochib qoldi. Boybo‘ribiy shunda o‘g‘li Alpomishdan: “Kishi nimadan baxil, nimadan saxiy bo‘ladi?” – deb so‘radi. Shunda o‘g‘li turib aytdi: “Vaqti-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joy bor bo‘lsa, ko‘nglini xushlab jo‘natsa, bul ham saxiy; agar joy bor bo‘la turib, joy yo‘q, deb qo‘ndirmay jo‘natsa, bul odam baxil. Vaqti-bevaqt bir kishi mozorotning qabatidan[2] o‘tsa, chap oyog‘ini uzangidan chiqarib, mozordagi odamlarning haqqiga duo o‘qib o‘tsa, bul ham saxiylik; agar har kim mozordan o‘tganda chap oyog‘ini uzangidan chiqarmay, mozorotning haqqiga duo qilmay o‘tsa, bul ham baxil. Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan”.

Bul so‘zni Boybo‘ribiy Hakimbekdan eshitib, fikr qilib: “Men o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elining ham boyi bo‘lsam, ham shoyi bo‘lsam, men kimga zakot beraman? Mening davlatimda yolg‘iz inim Boysari baxillikka chiqib ketmasin”, – deb, o‘z ko‘nglida: “Boysaribiy ukam menga zakot berishi kerak ekan”, – deb o‘yladi. O‘ylab: “Boysariga boringlar, Boysari o‘z rozichiligi bilan bir chichqoq uloqni zakot deb menga bersin. Zakot o‘rniga o‘tar-da, Boysari baxil bo‘lib, baxillikka chiqib ketmasin”, – deb o‘n to‘rt mahramga buyurdi.

Boysaribiy o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot eli bilan ko‘chib borib, Ko‘kqamish ko‘lida eliboylik[3] qilib, mollarini semirtirib, yaylovda yaylab yotib edi. O‘n ming uyli Qo‘ng‘irot elining boyvachchalari bilan yig‘ilib, bir yerga jam bo‘lib, baxmal o‘tovni tikib, shu o‘tovning ichida hamma boyvachchalar bilan qimiz ichib, o‘z kayf-u safosi bilan o‘tirib edi. Ana shunda (otining bo‘yniga) tilla qo‘tos taqilgan o‘n to‘rt mahram Boybo‘ridan Boysarini so‘rab borib qoldi. Shundagi boyvachchalar bularning kelganini bilib, eshikka chiqib, mahramlarning otini ushlab qoldi. Mahramlarni ichkariga olib kirdi. Boysari bulardan yo‘l bo‘lsin qilib savol so‘radi. Mahramlar savolga javob berib aytdi: “Biz akangdan kelgan zakotchi bo‘lamiz, bugun bizlar sening molingni zakot qilamiz. “Zakot qilinglar, bersa, zakotini olib kelinglar”, deb yuborgan”, – dedi.

Bu so‘zlarni mahramlardan eshitib, Boysari ko‘ngliga og‘ir olib, aytdi: “Ey, bizning molimiz shu vaqtgacha zakot bo‘lmagan, endi akamiz o‘g‘illi kishi bo‘lib, darrov bizning molimizni zakot qiladigan

[1] **Birich** – bronza.
[2] **Qabat** – oldi, yoni.
[3] **Eliboy** – chorvador.

bo‘libdi-da”. Zakot degan gapni eshitib, bu gap botib ketib, oldidagi o‘zining odamlariga buyurdi: “Ushla bachchag‘arlarni!” – dedi. Boyvachchalar mahramlarni bitta-bitta ushlab qoldi. ...Otiga chappa mingizib, otning ustiga tortib boylab: “Mana buni zakot deb aytadi”, – deb Qo‘ng‘irot tarafga haydab yubordi.

Shunchalik ishni qilsa ham Boysaribiyga zakot degan gap nihoyatda o‘tib ketgan ekan: “Endi biz o‘z yurtimizda sig‘indi bo‘lib, o‘z akamizga zakot berib yuradigan bo‘lsak, bul elda bizning turg‘iligimiz qolmadi”, – deb, o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot eliga qarab: “Endigi maslahat nima bo‘ldi?” – deb turgan ekan:

Oh urganda ko‘zdan oqar selob yosh,
Maslahat ber, o‘n ming uyli qarindosh,
Barchinoyim bo‘y yetgandir qalamqosh,
Zolim bilan hargiz bo‘lmanglar yo‘ldosh.
Qo‘ng‘irot eldan molga zakot kelibdi,
Maslahat ber, o‘n ming uyli qarindosh!
Qursin, Hakimbegi mulla bo‘libdi,
Bezakot mollarni harom bilibdi,
Qo‘ng‘irot eldan molga zakot kelibdi,
Maslahat ber, o‘n ming uyli qarindosh.

Dardli qul dardimni kimga yoraman,
Ayriliq o‘tiga bag‘ri poraman,
Muna[1] elda sig‘indi bo‘p turaman,
O‘z akama qanday zakot beraman?!
Maslahat ber, o‘n ming uyli qarindosh!
Muna elda men ham bekman, to‘raman,
O‘z akama qanday zakot beraman?!
O‘z akama o‘zim zakot berguncha,
Qalmoq borib, juzya[2] berib yuraman...

Ana shunda Boysaribiy bu so‘zlarni aytdi. Shu turgan xaloyiqdan hech bir sazo chiqmadi.

Shu majlisda bir Yartiboy oqsoqol degan bor edi. Majlisli kun bo‘lsa, to‘rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo‘sag‘aning oldida kovushga joy bermay, kovush bilan aralashib, it yiqilish bo‘lib, poygabetda yotar edi. To‘rda o‘tirgan kattaman deb yurganlarning hech qaysisidan gap, sazo chiqmagandan keyin poygabetdan Yartiboy o‘rnidan turib, maslahat shul-da, – deb Boysarining so‘ziga javob berib, Boysariga qarab, bir so‘z deb turibdi:

[1] **Muna** – manavi.
[2] **Juzya** – g‘ayridinlarga solinadigan katta miqdordagi soliq.



Maslahat bermaymiz Boysaribiyga,
Osilmaymiz Boybo‘rining doriga,
Biring – aka, biring – uka, Boysari,
Maslahatni, shohim, o‘zing bilasan.
... Biz bilmaymiz Boybo‘rining ishini,
Maslahatga yig‘ib shuncha kishini,
Kim maslahat bersa, kesar boshini.
Maslahat bermaymiz Boysaribiyga,
Osilmaymiz Boybo‘rining doriga.

Boysaribiy Yartiboydan bu so‘zni eshitib, tag‘i o‘zi bu turgan odamlarga qarab, bir so‘z dedi:

Quloq soling Boysarining tiliga,
Ko‘chib ketay menam Kashal eliga.
Davlat qo‘nsa bir chibinning boshiga,
Semurg‘ qushlar salom berar qoshiga,
Quloq soling Boysari nolishiga,
Qalmoq borib qo‘nsam Chilbir dashiga.
Kalma shahodat musurmonning tiliga,
Azamat bosh berar dinning yo‘liga,
Turarim yo‘q Boysun-Qo‘ng‘irot eliga.
O‘z elim deb yana bunda turgancha,
O‘z akama o‘zim zakot bergancha,
O‘z akamdan bunday xo‘rlik ko‘rgancha,
Qalmoq borib, juzya bersam bo‘lmaymi?
Zakot degan gapni akam chiqarib,
Mening toza ulsizligim bildirdi.

Boysaridan bu so‘zni Yartiboy eshitib, Yartiboy ham Boysaribiyga qarab bir so‘z dedi:

Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema,
Boshing eson, davlatingni kam dema,
Sen ketar bo‘lsang Qalmoq yurtiga,
Bul elatni qolar deb ham g‘am yema.
Qayga ko‘chsang, bizlar birga boramiz,
Bolalarni jahongashta qilamiz...

Yartiboy oqsoqolning aytgan gapi o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot eli katta-kichigining bariga ma’qul tushdi. Hammasi: “Boysari ko‘chsa, bizlar ham ko‘chib ketayik, Boysari o‘lik yerda – o‘lik, tirik bo‘lsa – tirik; endi Boysun-Qo‘ng‘irot yurtini Boybo‘riga bo‘shatib berayik, Boysun-Qo‘ng‘irot yurtini bir o‘zi yaylab olsin”, – dedi.

O‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elidan ekin ekmoqni bilmaydigan o‘n ming uyli eliboylar ayrilib, Boysariga qo‘shildi. Bular hammasi boy – qo‘yli, tuyali. Molining soni yo‘q edi. Bularning ichidan moli yo‘q degan kambag‘alining qirq ming tuyasi bor, qo‘yining sonini, adadini o‘zlari ham bilmas edi. Bir qo‘ra, ikki qo‘ra, o‘n qo‘ra, deb sanagani shul edi. Yilqi, mollarini bir uyur falon to‘qayda yuribdi, ikki uyur falon to‘qayda yuribdi, der edi. Sonini sanamoqni hech qaysisi bilmas edi. Bular qishdan yozga ekin ekmay, mol boylik qilar edi. Shuning bilan ovqatlarini o‘tkazar edi. Boysaribiyning yilqisining soni shul edi: to‘qson to‘qay yilqisi bor edi. To‘qson to‘qay degani – yilqisi har yerlarda: to‘qaylarda, tog‘larning darasida, to‘qayli yerlarda yaylab yurar edi. To‘qaylarda yilqisi yoyilib yurgani uchun Boysaribiyning to‘qson to‘qay yilqisi bor, der edi. Lekin yilqisining, molining sonini hech kim bilmas edi.

... O‘n ming uyli Qo‘ng‘irot talato‘p bo‘lib Kashal eliga, Qalmoq yurtiga qarab, “Ha!” deb ko‘cha berdi. Hammasi birdan ko‘chib, o‘n ming uyli el Boybo‘ridan araz urib, ... Boysari bilan birga ko‘chib jo‘nay berdi. Ayollarga ham yaxshi otlarni olib kelib tortdi. Bu ayollar ham otlarni minib, chog‘lanib, jo‘namoqchi bo‘lib, Barchinoyga, enasiga qarab turdi.

Ana shunda enasi Barchinoyni ham jo‘natmoqchi bo‘lib, Barchinoy uchun bir to‘riq yo‘rg‘a otni tabla[1]dan olib kelib, ustiga mayin, toza, muloyim baxmal parquvlardan solib, tilla yuganlarni boshiga

[1] **Tabla** – ot bog‘lanadigan joy, otxona.

solib, juda chog‘lab, otning jilovidan enasi ushlab olib keldi. Ana shunda enasining bul otni yetaklab olib kelganini ko‘rib, Barchinoy shunday qarasa, o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot elining hammasi ko‘chib talato‘p bo‘lib, shovqin qilib, jo‘nab ketib borayotibdi.

Chechanlar eplaydi gapning epini,
Shul zamonda oltmish norni cho‘ktirib,
Orta berdi Barchin suluv sepini.
Qo‘ng‘irot elning shundayg‘acha ko‘pi bor,
Boysarining ikki jildav[1] to‘pi bor,
Har ko‘chganda to‘p bo‘shatib jo‘nadi.
Qatorga tirkalgan lo‘k[2] bilan norcha[3],
Ustiga yuklangan qirmizi parcha.
Kamlikni ko‘rmagan satta[4] boyvachcha,
Yo‘l-yo‘lakay uloq chopib boradi.
Oshiqning fahmidir qorong‘i kecha,
Yig‘lasam, holima yig‘lar bir necha,
Xafa bo‘lib borar Barchin oyimcha,
Jafo tortib borayotir bir necha.
G‘am bilan sarg‘ayib guldayin diydor,
Ko‘rgani yo‘q qanday eldir qalmoqlar,
Orasida to‘qson dovon tog‘i bor,
Bellardan[5] oshadi ul zamon boylar.
Qaba[6] falak boshga soldi zulm deb,
Eliboylar bundan ko‘chib boradi,
Qoldi endi o‘ynab o‘sgan elim deb.
Ayriliq o‘tiga bag‘rini dog‘lab,
Borayotir Qalmoq elni so‘roqlab.

O‘n ming uyli qarindosh Boybo‘ridan arazlab, Kashal eliga qarab, Boysun-Qo‘ng‘irot elini tashlab, Boysari bilan birga ko‘chib jo‘nadi. Olti oy deganda to‘qson tog‘dan mollarini o‘tkazib, Qalmoq yurtiga yetdi. Toychixon mamlakatida, Chilbir cho‘lida o‘n besh kunlik yo‘l chetida cho‘zilgan ekinning maysasi bor edi. Ular ana shu maysalarga, ekinlarga mollarini ro‘para qilib, yedirib boraverishdi.

Shunday qilib, Boysari boylari bilan Qalmoq elida yashayverdi. Bundan xabar topgan Qalmoq shohi besh yuz mirg‘azab[7] jallodni chog‘lab, Chilbir cho‘liga, Oyna ko‘liga jo‘natdi.

Bundan talvasaga tushgan Boysari bunday dedi:

Men berayin qator-qator norimni,
Nor ustida yuklab kelgan zarimni.
Mol yetmasa, beray Barchin qizimni,
Hali ham bir ozod qilgin o‘zimni,
Dehqonlar ekinin o‘t deb yuribman,
Bilmaslikdan gunohkor bo‘p qolibman.

Bu gap Qalmoqshohga yetdi, Qalmoqshoh turib aytdi: “Davlati ham, moli ham, Barchin qizi ham o‘ziga nasib qilsin. Yetti yilgacha moli bezakot, betergov yura bersin”, – dedi.

[1] **Jildav** – g‘ildirakli, sudrama.
[2] **Lo‘k** – yuk tashiydigan tuya.
[3] **Norcha** – yosh erkak tuya.
[4] **Satta** – eng zo‘r.
[5] **Bel** – dovon.
[6] **Qaba** – tartibsiz, o‘zgaruvchan.
[7] **Mirg‘azab** – o‘limga hukm etilganlarni olib kelishga yuboriladigan askar.

Keling, muhokama qilamiz

1. Doston boshlanishida Sharq xalqlariga xos qanday urf-odatlarga duch keldingiz? Ulardan qay biri siz yashab turgan hududda hanuzgacha amalda?
2. O‘ylab ko‘ring-chi, chuprontoʻyda aka-ukalarning biri shoy, biri biy bo‘lsa ham, ular hammaning oldida izza qilinishi to‘g‘rimi? Nima uchun?
3. Boysarining zakot masalasida akasidan ranjishi o‘rinlimi? Nega u qilmishini to‘g‘ri deb hisoblaydi? Zakot so‘rab kelgan mahramlarga Boysarining munosabatini oqlaysizmi? Bu lavha orqali Boysarining xarakteriga qanday baho bergan bo‘lar edingiz?
4. *“Majlisli kun bo‘lsa, to‘rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo‘sag‘aning oldida kovushga joy bermay, kovush bilan aralashib, it yiqilish bo‘lib, poygabetda”* turadigan Yartiboy oqsoqolning “Boybo‘rining doriga osilmaslik” haqidagi maslahatiga Boysari eldoshlarining quloq tutishiga sabablar haqida o‘ylab ko‘ring.
5. Kuzatgan bo‘lsangiz, Qo‘ng‘irot eli har bir ishda o‘zaro kengashadi. Buning ahamiyati haqida fikringizni *eshitgan, bilgan va ko‘rganlaringiz* asosida bildiring.

Guruhlarda ishlash

Uch guruhga bo‘linib, quyidagi vaziyatlarni muhokama qiling:

1-guruh	O‘ylab ko‘ring-chi, aka nima uchun ukasining ko‘chib ketishiga to‘sqinlik qilmadi? U ukasi uchun qaroridan voz kechishi mumkinmidi? Yoki Boysari akasining oldiga borib kengashganida, vaziyat, balki, boshqa tomonga o‘zgararmidi? Fikringizni dalillang.
2-guruh	Dostonga asoslanib, farzandga ism qo‘yish alohida udum ekanini bilib oldingiz. Endi ayting-chi, nega Sharq xalqlarida ismni oilaning yoki elning ulug‘i qo‘yib berishi ma’qullanadi? Javobingizni bilgan, eshitgan, o‘qiganlaringizga tayanib dalillang.
3-guruh	Aka-ukaning farzandlarini o‘qitish va tarbiyalash usuliga diqqat qiling. Bugungi ta’lim-tarbiyadan qaysi jihatlari bilan farqlanadi? Sizningcha, qay biri afzalroq?

Topshiriq

“Alpomish” dostonining davomini (2) o‘qing.

ALPOMISH

2

Qo‘ng‘irotlarning Boysundan Qalmoqqa ko‘chib borganiga yetti yil bo‘lganda Oybarchin bo‘y yetib, suluv qizga aylanadi. Qizning ta’rifini Surxayil kampirdan eshitgan Qalmoq alplari unga og‘iz solishadi.

... Toychi viloyatinda, Qalmoq muzofotinda bir Surxayil degan kampir bor edi. Juda haddili zo‘r kampir edi, bu kampirning yetti o‘g‘li bor edi. Yettovi ham nomdor alp edi. Kattasini Ko‘kaldosh der edi, undan kichkinasini Ko‘kaman der edi, Ko‘kqashqa der edi, Boyqashqa, Toyqashqa, Qo‘shquloq, kenjatoyini Qorajon der edi. Shu yettoviga tirlashgani Qalmoqshoh har mamlakatdan alplarni olib kelib, Kashal g‘oridan joy berib, bularni To‘qayistonda boqib yotar edi.

Ul alplar qanday alp: yoyandoz, mergan alp. Har qaysisi to‘qson botmon temirdan sovut kiygan, har kuniga to‘qson shirbozning etini ta’til qilgan, bosh-boshiga har qaysisi podshohlikdan har oyda besh yuz so‘m moyana olgan xo‘b birlamchi zo‘r polvonlar. Boysarining qizi Barchinni bular ko‘rgani yo‘q. Shul vaqtlarda Barchin ham barkamol, bo‘yi yetgan, har yag‘rini o‘n besh qarich keladi. Bu ham alp. Orqavaron eshitib, shu musofir boylarda bir qiz bor emish, deb bular ham o‘zavon[1]da maslahat qiladi. Goh biri olmoqchi bo‘ladi, goh bari olmoqchi bo‘ladi, goh hammasi o‘rtada xotinli bo‘lib qolmoqchi bo‘ladi. Necha vaqtlar ko‘rmasi shu maslahatni qilib yurdi.

Ko‘kaldosh alp turib aytdi: “Bunday dalada chatoq qilib yurganimiz bo‘lmas. Yuringlar, to‘qsonimiz ham boraylik. O‘zbakning qizini yo birimiz olaylik, yo barimiz olaylik. O‘rtada javlik[2] xotinli bo‘lib qolaylik”, – deb javlik otlandi. Otini minib, Kashal g‘oridan jo‘nab, To‘qayistonni oralab, Chilbir cho‘liga chiqib, ko‘p elga qarab, Boysarinikini so‘rab, alplar borib qoldi. Hammasi Boysari uyining tevaragida jam bo‘ldi. Alplar to‘planib turdi. To‘qson alpning zo‘ri Ko‘kaldosh: “Kelganboy!” – deb chaqirdi. Boysari uyda o‘tirib edi: “Labbay”, – deb uyidan chiqdi. To‘qson alpning zo‘ri Ko‘kaldosh turib aytdi: “Kelganboy, sening bir qizing bor ekan. Qani, birimizga berasanmi, barimizga berasanmi? Birimiz olaylikmi yo barimiz olaylikmi? Shu so‘zga nima javob aytasan?”

Bu so‘zni eshitib, Boysari nima javob aytarini bilmay, xayoli qochib, nash’asi uchib, o‘ylanib: “Hoy alplar, ertan choshkagachayin muhlat beringizlar. Ertan choshkada aylanib kelingizlar. Yo biringizga berayik, yo baringizga berayik, biz bir o‘ylashib ko‘rayik”, – dedi.

Ertan choshkagachayin muhlat berib, alplar qaytdi.

... Endi Boysari semiz qo‘ylarni so‘yib, o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot elining odamman deganini jiyib[3], sho‘rvasiga to‘yib, go‘shtini korsonga sop, oldiga op kep qo‘yib: “Burungi kunimiz ham tuzuk ekan, ishimiz sop zo‘rga tushdi. Ertan choshka alplar kelsa, nima javob beramiz?” – deb qarindoshlariga qarab, Boysari maslahat so‘rab bir so‘z deb turgan ekan:

[1] **O‘zavon** – o‘zicha.
[2] **Javlik** – hamma, yoppa.
[3] **Jiyib** – yig‘ib, to‘plab.

Oh tortganda ko‘zdan oqar selob yosh,
Barchinoyim bo‘y yetgandir, qalamqosh.
Maslahat ber, o‘n ming uyli qarindosh,
Alplar kelsa, nima javob beraman,
Tong otgancha muhlat olib turaman,
Qalmoqlarga qizim qanday beraman?!

Yuragim to‘lgandir diydayi g‘amda
Barchinoyni o‘z tengiga qo‘shmasam,
Mahshar kuni Barchin qo‘li yoqamda.
Ko‘rdim bunda alplar juda zo‘rabor,
Buning bilan bo‘lolmasam barobar.

Bu so‘zni eshitib turgan xaloyiqdan hech sazo chiqmadi. Yartiboy oqsoqol Boysariga qarab, bir so‘z deb turgan ekan:

Xon Boysari, eshit aytgan so‘zimdi,
Bu ellarga boshlab kelgan o‘zingdi.
Tortinmay beraber endi qizingdi,
Hazil bilma, mening aytgan so‘zimdi.
Bu alplarni kuyov qilib olamiz,

Muna elga toza erkin bo‘lamiz.
Bolalarni tog‘a-jiyan qilamiz.
Muna elda bizlar davron suramiz,
Maslahatni senga shunday beramiz...

Bu so‘zni Yartiboydan eshitib, Boysarining ko‘ngli buzilib, bu ham bir so‘z deb turgan ekan:

Yuragimda ko‘pdir alamli dardlar,
Mening qizim – sening singling, nomardlar.
Qizing ber, deb mening ko‘nglim bo‘lasan,
Suyagimni yongan o‘tga solasan,
Qalmoqlardan battar izza qilasan.

Bu so‘zni Boysari aytdi. Shu qarindoshlardan nima maslahat chiqar ekan, deb Barchin kelib, tinglab turib edi. Qarindoshlarning so‘zlarini eshitib, otasining ko‘ngli buzilganini bilib, Barchin ham bir so‘z deb turgan ekan:

Juda ham gangidi, boy ota, boshing,
Maslahat berdi-ku qavmi qardoshing,
Ko‘p yig‘lama, jonim otam, darveshim,
Eshitmagin qarindoshlar so‘zini,
Qarindoshlar bera qolsin qizini!

Sen yig‘lading, ota, ko‘nglim buzildi,
Diyda giryon bo‘lib, bag‘rim ezildi.
Xafa qilma, ota, menday qizingdi,
Qo‘yaber alplarga mening o‘zimdi.

Bul so‘zni Barchindan eshitib, o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot hazar qildi:

– Bu ham o‘zboshimcha juvormak, alplarga baland-past gapirar, buning kasofatiga hammamizni oyoqosti qip bosib ketar. Javob bergich bo‘lsa, bizning ichimizdan chiqib, xolis yerda turib javob bersin.

Barchinning o‘tovini ko‘tarib, ovloq tepaning boshiga tikib qo‘ydi. Bul o‘tovda qirqin kanizlari bilan Barchin o‘tirdi. Kunning burni bilan ... to‘qson alp yig‘ilib kep turibdi: “Qani, Kelganboy, maslahatni qayerga qo‘yding? Birimizga bermoqchi bo‘ldingmi, barimizga bermoqchi bo‘ldingmi?” Boysari turib aytdi: “Biz maslahat qip, yil ag‘darib ko‘rdik, qizimizning yili chichqon ekan, yoshi o‘n to‘rtga chiqqan

ekan. Bizning o‘zbakning rasmi bunday bo‘ladi: qiz o‘n to‘rtga chiqqan so‘ng o‘z ixtiyori o‘zida qoladi. Bizning aytganimizga ko‘nmay, tepaning boshiga o‘tovini tikib o‘tiribdi. O‘ziga boringizlar, o‘zidan so‘rangizlar”.

Shunda qalmoqlar do‘g‘ilib[1], Barchinning ustiga qarab bora berdi. To‘qson alpning zo‘ri Ko‘kaldosh: “Yo birimizga teg, yo barimizga teg. Bir javob ayt”, – dedi. Barchin bir so‘z deb turgan ekan:

Eshitgin, qalmoqlar, aytgan tilimnan,
Meni olar kelmas sening qo‘lingnan.
Badbaxt qalmoq, qolma kelgan yo‘lingnan,
Meni olmoqqa hadding bormi, qalmoqlar,
Mening to‘ram, bilsang, Boysunning xoni,
Unga qurbon menday oyimning joni,
Oti Hakimbekdir, elda davroni,
Ko‘p aylanma bunda, qalmoq, bema’ni.
Xabar yetsa, alp Alpomish kelmaymi,
Qalmoqlarga qiyomat kun bo‘lmaymi,
Armon bilan senday alplar o‘lmaymi,
Holing bilib, to‘g‘ri yursang bo‘lmaymi?!

Bu so‘zni eshitib, Ko‘kaldosh turib aytdi: “Bu o‘zbakning qizining dami baland ekan. Ko‘kaman! Tushib, sudrab chiq bu yoqqa!” Ko‘kaman alp otdan tushib, otni uyning beldoviga ildirib, uyning ichkarisiga kirgan. Barchinning kanizlari qo‘rqib, uyning to‘rida to‘planib turgan. Barchin ibo qilib, teskari qarab turib edi, Ko‘kaman alp Barchinning burumidan[2] ushlab, poygaga torta boshladi. Barchin o‘zini o‘ng‘arib, qo‘lini uzatdi. Bir qo‘li Ko‘kamanning yoqasiga yetdi, bir qo‘li bilan belidan tutdi. “Yo Shohimardon pirim!” – deb ko‘tarib, chalqaramon qilib yerga qo‘ydi. Chap tizzasini ko‘kragiga qo‘yib turdi. Og‘zi-burnidan dirak-dirak qon keta berdi.

Ko‘kaldosh alp turib aytdi: “Ko‘kamanga qaranglar, bu ko‘rinmaydi, bu yoqqa chiqmadi. O‘zbakning qizi bilan aylanishib qoldimi?” Shunday kelib, birovi ot ustidan qarab, Ko‘kamanni ko‘rib: “Ey, o‘zbakning qizi Ko‘kamanni bosib o‘ldirib qo‘yibdi”, – dedi. Bu so‘zni eshitib, bir kam to‘qson alp otdan tashlay berdi. Barchin alplarning achchiq bilan tushganini bilib, qarab ko‘rdi. Alplarning zo‘ri Ko‘kaldosh ekanini bildi: zo‘rlik nomiga boshida tilla jig‘asi bor, ostida suvoraga minib yuradigan saman yo‘rg‘asi bor. Boshidagi sarjig‘ani ko‘rib, alplarning zo‘ri ekanini bilib, alplarga qarab, olti oy muhlat so‘rab, bir so‘z deb turgan ekan:

Saman otli, sarjig‘ali bek yigit,
Bir oltoyga sizdan muhlat so‘rayin.
Qo‘ng‘irot elga arza berib ko‘rayin,
Oltoygacha men yo‘liga qarayin,
Kelsa kelar Qo‘ng‘irot eldan Alpomish,
Kelmasa, men taqdirimdan ko‘rayin.
… Olmadayin so‘lgan gulday tarzim bor,
Mushtiparman, sizga aytar arzim bor.
... Muhlat so‘rab turgan menday gajakdor,
Oltoy muhlat bergin, davlatli shunqor.
Bu gap endi Ko‘kaldoshga xush kelar…

[1] **Do‘g‘ilib** – yig‘ilib, to‘dalashib.
[2] **Burumi** – soch o‘rimi.

“Bizda ko‘ngli bor ekan”, – deb Ko‘kaldosh alp vaqtixush bo‘lib: “Alplarning ichida meni xohlaganday bo‘ldi, balki, mening zo‘rligimni ham bildi, bizga ko‘ngil qildi. Bor, olti oy muhlat!” – deb yubordi. Haddi yo‘q o‘zga alplar ham: “Olti oy muhlat”, – deyapti. Olti oygacha alplar burilmasi bo‘p qaytdi…

… Barchin o‘n ming uyli Qo‘ng‘irotning yigitidan o‘n yigitni saylab oldi. Otasining to‘qson to‘qay yilqisidan o‘n otni saylab oldi. Otlarni sovitib tayyor qildi. Shunday arza yozdi Barchin: “Oltoychilik yo‘lga keldim, Qalmoqning eliga keldim. Zo‘r yovning qo‘lida qoldim. Olti oy muhlat oldim, mendan umidi bo‘lsa, Alpomish kelsin, bo‘lmasa, javobimni bersin”. Arzani o‘n boyvachchaga topshirdi. Otlarni egarlab, chog‘lab, yaxshi bor, deb duo qilib, bir so‘z aytib turgan ekan:

Kechani munavvar qilgan to‘lgan oy,
Savashli[1] kun tortiladi parli yoy.
Bandam desin, rahm aylasin bir Xudoy,
Kashalda talashda qoldi Barchinoy.
Borsang, salom o‘ynab-o‘sgan ellara,
Ko‘kqamishday mazgil joyim, cho‘llara.
Qalmoqlar yig‘latdi menday sanamdi,
Yuragimga to‘lgan dog‘-u alamdi.
Albatta, so‘ranglar maktab jo‘ramdi.
Mug‘oyib so‘z aytar menday mushtipar,
Kecha-kunduz shabgir torting[2], xizmatkor,
Jilovdoring bo‘lsin imom, chiltanlar.
... So‘z aytar sizlarga mendayin sanam,
Qalmoqda qolmasin guldayin tanam,
Qalmoqning zulmidan yig‘ladi enam.
Sen borib ko‘rarsan Qo‘ng‘irot elimdi,
Boshimdan ko‘tarsin qayg‘u, zulmdi...

... Otlar qorsoqday qotgan, to‘qson kecha-kunduz yo‘l tortgan, balki choparlar bilan bila bitgan. Qo‘ng‘irot eliga Boybo‘rining davlatxonasiga yetgan. Ot ustida turib, choparlar salom berdi. Bularni ko‘rib, Boybo‘ri aytdi: “Bular qanday odam ekan, beadablik bilan salom berdi menga?” Choparlar bog‘onog‘i[3] arzani chiqarib berdi. Arzani o‘qib ko‘rib, bildi: kelgan Barchinning chopari ekan. O‘n mahramga buyurdi, choparlarni bitta-bitta otdan ko‘tarib oldi. Choparlarga xizmat qildi. Bul arzani hech kimga bildirmay, olib borib sandiqqa solib tashladi. Choparlar yigirma kun yotdi, xo‘b izzat-ikrom qilib, qildi ziyofatti, ko‘p qildi xizmatti. Bergan arzasidan hech shobir[4] bo‘madi.

... Boybo‘rining Qultoy degan yilqichi quli bor edi. Alpomishga enchi[5] biyasi bor edi. Bir yarg‘oq qulun tug‘di, bul tulpor deb, Boybo‘riga op kep bergan edi. Necha yildan beri tablada boquvli turgan edi. Choparlar kelib ketgandan keyin tabladagi ot sag‘risi toshib, yoli qulog‘idan oshib, yulduzni ko‘zlab, taraqqos boylab o‘ynay berdi. Boybo‘ri: “Shu yomonlagurning o‘ynagani ham yaxshilik emas”, – deb sag‘risiga uch-to‘rt tayoq tushirib, tabladan chiqarib, Qultoyning qoshiga olib borib, yilqilarga qo‘shib yubordi.

Alpomishning Qaldirg‘och degan singlisi bor edi. Qirqin kanizlari bilan bir sandiqni ochib ko‘rayotib edi, bir xat chiqdi. Bul xatni o‘qib ko‘rdi: Barchin chechasining xati.

– Tunovgi o‘n chopar bul xatni olib kelgan ekan, buni bildirmay otam sandiqqa solib qo‘ygan ekan. Yuringlar, bek akamga borayik, bu xatni berayik. Qancha g‘ayrati bor ekan sinayik, – deb Hakimbekning qoshiga keldi. Bu xatni shunday berdi. Shu vaqtlarda Hakimbek o‘n to‘rt yoshga kirgan, mast bo‘lgan norday ko‘pik sochib o‘tirgan, necha mahramlar xizmatida turgan. Bu xatni o‘qib ko‘rdi. Xatda aytibdi:

[1] **Savashli** – jang-u jadalli.
[2] **Shabgir tortish** – tinmaslik, dam olmaslik.
[3] **Bog‘onog‘i** – boyagi.
[4] **Shobir** – xabar, ovoza, belgi.
[5] **Enchi** – atalgan.

“Oltoychilik yo‘lga keldim. To‘qson alpda toy-talashda qoldim. Olti oy muhlat oldim. Mendan umidi bo‘lsa, Alpomish kelsin, bo‘lmasa, javobimni bersin”, – degan xat ekan. Bu xatni o‘qib ko‘rib: “Oltoychilik yo‘l bo‘lsa, Qalmoqning elida bo‘lsa, zo‘r yovning qo‘lida bo‘lsa, bir xotin olamiz, deb sandirab o‘lamizma”, – deb xatni tizzasining ostiga bosib o‘tirdi. Qaldirg‘ochoyim akasiga qarab bir so‘z aytib turgan ekan:

... Aka, senga aytadigan arzim bor,
Talash bo‘pti biyning qizi – zulfakdor.
... Mard yigitning yori talash bo‘lami,
Er yigitning yorin qalmoq olami?
Barchin checham talash bo‘lib qolami,
Senday beklar bul bexabar turami?!
Kelar, debdi, sendan umid qilibdi,
Qalmoqdan oltoyga muhlat olibdi.
... Umid tortib senga arza qilibdi,
Xat ko‘tarib o‘n boyvachcha kelibdi.
Anglamay otama xatni beribdi,
Otam xatni bul sandiqqa solibdi.
Endi bilib, singling olib kelibdi,
Qalmoqlardan checham jabr ko‘ribdi.
Aka, aytgan so‘zim og‘ir olmagin,
Narmoda ishini bunda qilmagin...

Bu so‘zni eshitib, Hakimbek narmoda so‘zini ko‘ngliga og‘ir olib aytdi:

Emikdoshim, sening gaping ne bo‘ldi?
Mendayin akangni xafa qilasan,
Narmoda deb meni silkib solasan,
Juda ham akangni nomard bilasan.

Bu so‘zni aytib: “Yayov boramizmi esa?” – dedi. Qaldirg‘ochoyim: “To‘qson to‘qay yilqing bor. Yayov borib, mingani oyoq-ulov topmay yotibsanmi? Egar-abzalingni olsang, Qultoyning qoshiga borsang, ko‘nglingga yoqqanini xohlab minib keta bersang”, – dedi. Bu so‘zni eshitib: “Xayr esa”, – dedi. Qaldirg‘ochoyim egar-abzalni, sovut-qalqonni, yov-yaroq, asbobni ayil-pushtanga solib, o‘xshatib bo‘g‘ib, ko‘tartirib yubordi.

Boybo‘ri Alpomishning Qalmoq yurtiga borishini istamaydi. O‘g‘lini niyatidan qaytarish uchun unga ot bermaslikka urinadi.

Qultoyga turib aytdi: “Alpomish kelyapti, Kashaldan kelgan xabarni birov bildiribdi. Bul ish yomon bo‘pti, lekin o‘zi zo‘r-ku, zo‘r bo‘lsa ham juda qo‘rqoq, sal do‘qdanam qo‘rqadi o‘zi. Urib-so‘kib, yilqi bermay, do‘qlab qaytarib yuborgin”.

... Bu gapdan bexabar orqalanib Alpomish boryapti. Qultoyga yaqin yetdi. Qultoy Alpomishni ko‘rib, ko‘nglini xushlab, yilqi boqadigan qayqi[1] tayog‘ini qo‘liga ushlab, juda shamiyon qaytarib[2], do‘qlab, Alpomishga qarab aytib turgan so‘zi:

[1] **Qayqi** – egilgan, qiyshiq.
[2] **Shamiyon qaytarib** – gerdayib, hovliqib, vahima qilib.

Xazon bo‘lib bog‘da gullar so‘ldimi,
Oblo sening aql-u hushing oldimi,
Ajal yetib yo paymonang to‘ldimi?
Boybo‘ri o‘lib, moli senga qoldimi?

Alpomish bu so‘zni eshitib, Qultoyga qarab bir so‘z deb turgan ekan:

Bobo, sir-u holim ma’lum qilayin,
Sendan endi bir bedovni so‘rayin.
... Sen eshitgin menday o‘g‘ling so‘zini,
Ajratib kelayin biyning qizini.
Sachratib borsam minib bir tulpor,
O‘zima yor, bobo, senga xizmatkor...

Bu so‘zni eshitib, Qultoy ham bir so‘z deb turgan ekan:

... Tur yo‘qol bu yerdan, tayin o‘lasan,
Bu yerda serrayib, nima qilasan?
... Bu so‘zdi aytip mardning aqlin oladi,
Uch-to‘rt tayoq qayqaytirib soladi.
Yegan tayoqlaring yilqi bo‘ladi!
Hakimbekning ko‘zi alanglab qoladi,
Shunday do‘qlab Qultoy qildi siyosat,
Tayoq yegan bekda qolmadi toqat,
O‘ldirar qaytmasam, dedi vallamat.
... Bul bobosi ko‘p siyosat qiladi,
Juda aylantirib, ancha uradi,
Bobom urdi, dedi, qaytib jo‘nadi,
Ko‘tarinib qaytib ketdi yo‘liga...

Alpomish Qultoyning qoshidan qaytdi, ko‘tarinib borayotib edi. “Bulay-shulay deb, Qultoy do‘qlasa, akam qaytip kep qo‘yardan ham toymas, o‘z ko‘zimiz bilan jo‘natib yuboraylik”, – deb qirqin kanizlari bilan Qaldirg‘ochoyim kelayotib edi, oldidan chiqib qoldi. Alpomish yerga qarab borayotib edi. Shunday boshini ko‘tarib qaradi: qarshi manglayiga kanizlari bilan singlisi kep qopti. Qizlarni ko‘rib, uyalgan kishi bo‘lib, egar-abzalni tashlab yuborib, yo‘l ustida yonboshlab yotdi. Qaldirg‘ochoyim ustiga borib, bu so‘zni aytib turibdi:

Aytgan so‘zning poyimini[1] bilsang-chi,
Ko‘z kuyugi, ey narmoda, o‘lsang-chi.
Kecha-kunduz Haqqa fig‘on etmagan,
O‘z moliga o‘zin vaji o‘tmagan.
... Qultoyning do‘qidan qaytib kelasan,
... Sen ham odamman deb qanday yurasan?..

[1] **Poyim** – fahm, ma’no.

Aka-singil Qultoyning qoshiga yaqinlashib bordi. Singlisi kanizlari bilan ancha keyin qoldi. Qultoy ham Alpomishni ko‘rdi. Bog‘onog‘i urgan yerda Qultoy zinkiyib[1] turdi. Yaqinlab bordi. Qultoy tag‘i do‘qlab, bu so‘zni aytib kela berdi:

Bobongning so‘zini hazil bilasan,
Sen g‘arbachcha, nega aynalib kelasan?
Sen enag‘ar, bildim tayin o‘lasan,
Nimishing bor, tag‘i nega kelasan?
Yana birov yo‘lda ko‘ngling bo‘ldimi,
Tag‘i sening tayoq yeging keldimi?
Siyosat qip Qultoy yaqin keladi,
... Uch-to‘rt tayoq aylantirib soladi.
Alpomishga tayoq o‘tib boradi.
Tayoq o‘tdi, xasta ko‘nglin xushladi,
Ko‘targan narsasin yerga tashladi,
Qultoyqulning belbog‘idan ushladi.
Tayoq o‘tib edi bunday sultonga,
Qultoyqulni chirpib otdi osmonga.
... Uzalib, Qultoyning belidan tutdi.
Chalqaramon qilib, yerga qo‘yibdi,
Tizzasini ko‘krakka qo‘yib turibdi.

“Bobo, qani ushlab bergin!” “Qo‘ya ber, o‘g‘lim, ushlab berayin”, – dedi. “Yo‘q, yotgan yeringda ushlab berasan!” – dedi. “Turmasam, qaytib ushlab beraman?”, – dedi. “Esa meni nimaga buncha urasan?” Qultoy ham zahar chol edi. Yotgan yerida bir qur-hayt tortdi: to‘qson to‘qaydagi yilqi yig‘ilib qoshiga yetdi. Hamma yilqi jam bo‘lib turibdi. Dobonbiy bobosidan qolgan qo‘riqni Hakimbekning qo‘liga berdi. Hakimbek qo‘riqni qo‘liga oldi. Bu qo‘riqni yilqilarga solmoqchi bo‘ldi. “Saman soriga tush, yo olapocha to‘riga tush, shapaqning zo‘riga tush”, – deb qo‘riqni soldi. Yollari eshilgan ipakday bir chipor otning bo‘yniga tushdi. Ko‘nglidagi bo‘lmay, otdan ko‘ngli to‘lmay: “Ko‘p nozigi uchradi”, – deb bu otni qo‘yib yubordi. Yana qo‘riqni soldi – tag‘i shuning bo‘yniga tushdi. “Bir balo qilasanmi, yo yomonlab o‘lasanmi, menga dardisar bo‘p qolasanmi”, – deb qo‘yib yubordi. Qaytarib tag‘i qo‘riq soldi. Tag‘i shu chiporning bo‘yniga tushdi.

“Taqdirdagi shul ekan-da”, – deb belbog‘ini otining bo‘yniga solib, yetaklab kela berdi. Egar-abzalining qoshiga borib, u yoq-bu yog‘ini ko‘ra berdi. Qaldirg‘ochoyim ham kanizlari bilan kela berdi. Akasining tarziga qaradi. Akasining otdan ko‘ngli to‘lmay, xafa bo‘lib turganini bildi. Otning tizginini akasining qo‘lidan olib, sag‘risini silab, u yoq-bu yog‘iga qarab: “Xafa bo‘lma, bu oting balki tulpor chiqar, yomon dema. Bul oting nazarkardadir. Buni mingan odam ko‘p yerlarni ko‘radi, maqsadini Haqdan topib qoladi”, – deb akasining ko‘nglini ko‘tarib, qulluq bo‘lsin qilib, bir so‘z aytib turgan ekan:

O‘zi shunday kelgan ekan chovkar ko‘k,
Quyrug‘idan berisinda kiri yo‘q,
Minganlarda bo‘ladikan ko‘ngil to‘q,
Buni minsang, aka, senga dushman yo‘q.
... Chibor ot o‘ynatib bundan borasan,
Buni minsang, aka, yo‘lli[2] bo‘lasan.

... Shunday qilib, kiyintirib, keskir qilichlarni beliga boylab, Arpali ko‘lidan otlana berdi. Alpomishning Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birichdan bo‘lgan parli yoyi bor edi. “Mabodo dushmanning yurtida yoy tortishadigan kun bo‘larmi, odam bilmaydi, kerak bo‘p qolarmi?” – deb yoyni

[1] **Zinkiyib** – qaqqayib, qayqayib.
[2] **Yo‘lli** – yo‘li ochiq, omadli.

egarning qoshiga solib oldi. Qaldirg‘och akasini otlantirib, ot-anjomini chog‘lab, yaxshi bor, deb bul so‘zni aytib turdi:

Qayda borsang, Shohimardon yor bo‘lsin,
O‘nikimom[1], chiltan[2] jilovdor bo‘lsin.
Dushmanlaring ko‘rsa seni, xor bo‘lsin,
... Sog‘ borib, salomat kelgin, bek og‘a.
Eshitgin, quloq sop aytgan nidoga,
Ishingni solganman qodir Xudoga,
Sog‘ borib, salomat kelgin, bek og‘a...

Xudoyim saqlagay bandani omon,
G‘arib qulga egam bo‘lgay mehribon.
Xolsanilla duo qildim bul zamon,
Sog‘ borib, salomat kelgin, Alpinjon.
El ko‘chirib, Olatovdan oshirdim,
Ulug‘lanib, ostonaga bosh urdim,
Borgin, emikdoshim, Haqqa topshirdim...

Alpomish “Qultoy bobom, Qaldirg‘och singlim, xush qolinglar”, – deb xayrlashib, yo‘lga otlandi…

Keling, muhokama qilamiz

1. Kashal eli alplarining Barchin bilan so‘zlashuvi va o‘zini tutishiga diqqat qiling. Bu orqali ularga xos qanday xususiyatlarga urg‘u berilmoqda va nima uchun? Fikringizni asoslashga urinib ko‘ring!
2. Qizini talab qilgan alplarni ko‘rgach, Boysarining majlisda aytgan quyidagi gapini izohlashga harakat qiling: *“Burungi kunimiz ham tuzuk ekan, ishimiz sop zo‘rga tushdi. Ertan choshka alplar kelsa, nima javob beramiz?..”*
3. O‘ylab ko‘ring-chi, Boysaribiy nima uchun oilaviy masalani qabila ahli bilan maslahatlashdi? Bunda o‘zbeklarga xos nimadir bormi yoki bu biyning shaxsiy fikri yo‘qligidan dalolatmi?
4. E’tibor qilgan bo‘lsangiz, Boysariga maslahat berganlar ikki holat (ko‘chish va alplarga qiz berish voqeasi)da ham Boysarini yolg‘iz qoldirmoqda. Boysari ular bergan maslahatga teskari qaror qabul qilishidan nega xavotirda? Fikringizni doston matniga tayanib, aniq dalillar bilan asoslang. Ularning asl insoniy qiyofasini ochishga urining.
5. Boysari qizining gapiga ko‘nib, o‘tovini alohida qilib tiktirib, o‘zi yaxshi bilmaydigan, tanimaydigan alplardan qo‘rqmasdan, hayiqmasdan unga ro‘baro‘ qilishi to‘g‘rimi? Bu chorasizlikdagi chora edimi yoki qizining munosib javob qila olishiga ishonchmi? Javobingizni asoslang.

O‘ylab ko‘ring!

Xat voqeasini tahlil qiling. Bunda Bo‘ybo‘rining tutgan yo‘li, Qaldirg‘ochning aytganlari va Alpomishning befarqligini nazardan qochirmang. Bir xil vaziyatda uch kishining uch xil yondashuviga qanday munosabat bildirasiz? Kimning ishini ko‘proq yoqlaysiz? Nima uchun?

[1] **O‘nikimom** – o‘n ikki imom.
[2] **Chiltan** – diniy tasavvurga ko‘ra, g‘ayritabiiy kuchga ega afsonaviy qirq ruh. Rivoyatlarda ular odamlar ko‘ziga ko‘rinmaydi, ba’zan esa odam qiyofasida yashaydi, deb talqin etiladi.

Baholang!

Quyidagi vaziyatlardan kelib chiqib, Barchinga xos xususiyatlarni aniqlang va asoslab bering:

1-holat. Alplar masalasida vaziyatga aralashgan Barchinning aytganlaridan...

2-holat. To‘qson alpning zo‘ri Ko‘kaldosh: *“Yo birimizga teg, yo barimizga teg. Bir javob ayt”*, – deganida u:

“Meni olmoqqa hadding bormi, qalmoqlar,
Mening to‘ram, bilsang, Boysunning xoni”,
deyishidan…

3-holat. Alplarning zo‘ri Ko‘kaldosh ekanini payqay olganidan...

4-holat. Alplarga yuzini ko‘rsatmay, o‘tov ichidan javob qaytarishidan...

5-holat. Olti oy muhlat olish uchun Ko‘kaldoshga murojaatidan...

Topshiriq

“Alpomish” dostonining davomini (3) o‘qing.

ALPOMISH

3

Singlisi bilan xo‘shlashib, yurtidan chiqqan Alpomishga Shohimardon va chiltanlar hamisha homiylik qiladi. Chiltanlar Qalmoqqa borishning birinchi kechasida charchab uxlab yotgan Alpomish ruhini Barchinniki bilan uchrashtiradi. Alpomish, Qorajon va Barchinga tushlari vositasida kelajagi bildiriladi.

... Alpomish cho‘ponlarning qo‘shxonasida uxlab yotdi. Kechasi fayzi sahar vaqtiga yetdi. Sahar vaqti cho‘ponlarning qo‘shxonasida yotib bir tush ko‘rdi. Izlab borayotgan Barchin yori ham baxmal o‘tovda yotib, subhi sodiq tug‘gan vaqtda bir tush ko‘rdi. Kashal g‘orida, to‘qson qalmoqning ichida Qorajon alp ham bir tush ko‘rdi. Uchovi tushni oldin-keyin, do‘g‘ilish[1] ko‘rdi. Avval Alpomishning tushi:

... Mast uyquda yotib edi bu shunqor,
Ko‘ziga ko‘rindi rasul payg‘ambar.
Bu so‘zlarni rasul payg‘ambar aytdi:
“Adashgan ummatim, shafqatdoringman,
Tanib qolgin: rasul payg‘ambaringman,

[1] **Do‘g‘ilish ko‘rmoq** – barobar.

Ummatlarni mudom yo‘lga solurman”.
... “G‘am yema, ummatim, – dedi payg‘ambar,
Ostida dulduli, belda zulfiqor[1] –
Jilovida Bobo Qambar jilovdor –
G‘amingda otlandi Shohimardon pirlar.
G‘ayratingdan bo‘zlab ketar qalmoqlar,
Hech kim bo‘lmas sening bilan barobar,
Senga taqdir qildi Barchin zulfakdor”...

Bu so‘zni yotgan yerida ma’lum qilib ketdi. Erta-mertan tong otdi. Barchin ham ko‘rgan tushini Suqsuroy kaniziga aytib turibdi:

Jon jasaddan bir beqaror bo‘lganda,
Ziyon yotib, rahmat toshar bo‘lganda,
Rahmat daryo ayni toshib kelganda,
Tush ko‘ribman fayzi sahar bo‘lganda.
Qiblabetdan bir oy tug‘ib keladi,
Oyning girdin to‘rtta yulduz oladi,
Tushimning ta’biri qanday bo‘ladi?
Bu tushni ko‘rgandir menday mushtipar,
Yer yuzini tutib ketdi aydahar[2]...

Bul so‘zni Barchindan eshitib, Suqsuroy kanizi tushning ta’birini aytib turibdi:

Qiblabetdan bir oy tug‘ib kelsalar,
Oy emasdir, ul ham rasul payg‘ambar.
Oy girdida to‘rtta yorug‘ yulduz bor,
Yulduz emas, to‘rt choriyor[3] muqarrar.
Yer yuzini tutib ketsa aydahar,
Mag‘ribdan Mashriqqa kulli eranlar[4]...

Bog‘onog‘i tush ko‘rgan Qorajon qalmoq namoz vaqti o‘rnidan kalima aytib turdi. Qorajonning kalima aytib turganini bir kam to‘qson alp ko‘rib: “Oshpichoq, qalampir, Qorajon tentak bo‘p qopti”, – deb, bir kam to‘qson alp: “Ot tort”, – dedi. Ko‘lga qarab ovga chiqib ketdi. Bul Alpomish tarafga qarab boryapti.

Qorajon Murodtepaning ostiga kelib qoldi. Shunday tepaning boshiga qaradi. Tepaning boshida Yusuf tal’atli, Rustam sifatli, chovkar otli birov yonboshlab yotibdi. “Bu bizning Qalmoq viloyatining odami emas, bunday yigitlar... bo‘lsa, beklikda, podsholikda bo‘lar edi. Ilgaridan ham birda-yarim ko‘zim tushar edi. Magar qirq chiltan bilan rasul payg‘ambar meni musulmon qilib, qavm-qarindoshini

[1] **Zulfiqor** – uchi ayri qilich turi.
[2] **Aydahar** – ajdarho.
[3] **To‘rt choriyor** – payg‘ambarimizdan keyingi to‘rt xalifa: Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali (r.a.).
[4] **Kulli eranlar** – barcha erkaklar, askarlar. Bu yerda buyuk avliyolar ruhi ma’nosida.

tushimda ruhima ko‘rsatib, meni do‘st qilgan, Qo‘ng‘irotdan kelayotgan Alpomish degan komilvachcha shul bo‘lmasa”, – deb Alpomishga qarab bir so‘z deb turgan ekan:

Ostingda bedoving halloslar qushday,
Achchig‘ing chillali muzlagan qishday.
Norkalla kelgansan, chuydang[1] qo‘shmushday.
Norkalla polvonim, qaydin bo‘lasan?
Tepaning boshida senga qarayman,
Borar joying menam sendan so‘rayman.
... Yangi bunda ko‘rdim senday mardimni,
Qorajon deydilar mening otimni,
Baland bildim sening siyosatingni,
Xabar ber, bekvachcha, qayga borasan?

Qorajondan bu so‘zlarni eshitib, Alpomish ham Qorajonga qarab bir so‘z deb turgan ekan:

... Yoz bo‘lsa, yaylovim Amu yoqasi,
Meni bilsang, Qo‘ng‘irot elning to‘rasi.
Ko‘kqamish ko‘lidan suqsur[2] uchirdim,
Suqsurni izlagan lochin bo‘laman.
Boyligidan bedov otni boylagan,
Tangqa taylab[3], Olatovni jaylagan,
Kambag‘ali qirq ming gala[4] haydagan.
Shul galada bizning bir moya[5] kelgan,
Moyaning yo‘qchisi – nori bo‘laman.
... Asli Boysun deydi mening yurtimdi,
Laqabim – Alpomish, otim – Hakimdi...
Qorajon deb xabar berding otingdi...

... Qorajon aytdi: “Men seni ko‘rganim yo‘q. Sening bilan hamsuhbat bo‘lganim yo‘q. Men ham xotiningga talashib yotgan to‘qson alpning biri bo‘laman. Qulfi dilimni Xudo ochdi – musulmon bo‘ldim. Qirq chiltan bilan rasul payg‘ambar qavm-u qarindoshingni tushimda ko‘rsatib, sen bilan meni do‘st qildi. Ul sababdan bilaman”. “Do‘st bo‘lgan bo‘lsang, yaqin bo‘p qolgan ekansan, tepaning ustiga chiqqin, ko‘rishaylik”. Qorajon aytdi: “Bu tepaning ustiga chiqadigan kamolga yetishganim yo‘q. Sen tepadan tushgin, men ko‘rishayin”. Alpomish otini yetaklab tushib kela berdi. Qorajon mahramlariga amr qildi: “Do‘stim bilan ko‘rishgin”, – deb. Mahram xalqi nozik keladi, qo‘l uchida ko‘rishayotir. “Qalaysan?” – deb siqinqirab yubordi, mahramlarning panjasi bir-biriga yopishib, qapishib, yanchilib ketdi. Qorajon bilan Alpomish yoydi qulochdi, ikkovi xulqi muhabbat bilan ko‘rishdi. “Qalaysan, do‘stim,

[1] **Chuyda** – bo‘yin sirtidagi yo‘g‘on tomir.
[2] **Suqsur** – makiyon o‘rdak.
[3] **Tangqa taylab** – tog‘ni egallab.
[4] **Gala** – suruv.
[5] **Moya** – urg‘ochi tuya.

omonsanmi?” – deb siqinqirab yubordi. Qorajonning yetti qobirg‘asi sindi, ishi tindi, tappa tushib yotib qoldi. Alpomish aytdi: “Nima qildi, do‘stim?” Qorajon sir bermagan kishi bo‘lib: “Bola kunda[1] tutadigan quyonchiq[2] kasalim bor edi. Shul vaqt tutib qoldi”, – dedi. Alpomish aytdi: “Belgili kasal bo‘lsa, tuzalib ol esa”.

Qorajon aytdi: “Rostingni aytgin, shul ko‘rishganingmi yo urushganingmi?” Alpomish aytdi: “Nima qildilaring – urushaman. Ko‘rishganim edi”. “Ko‘rishganing shul bo‘lsa, urushganing qanday ekan?”

Qorajon bilan tanishib, do‘stlashgan Alpomish unikida mehmon bo‘ladi va do‘stini Oybarchin huzuriga xabarchi hamda sovchi qilib jo‘natadi.

... Qorajon turib aytdi: “Qani, Barchin, Alpomish bo‘lsa – keldi, alplarning muhlati bo‘lsa – bitib qoldi. Sen nima javob aytasan?” Barchin aytdi: “Alpomish kelsa, kepti-da. Alpomish kepti, deb men Alpomishning etagidan ushlab keta berayinmi? Bul alplar ham umid bilan olti oy muhlat bergan. Har kim maydonga ot soladi, otini o‘zdirgan odam oladi. Har kimning o‘z ko‘ngli o‘zidan qoladi. Mening to‘rt shartim bor. Shul to‘rt shartimni qilgan kishiga tegaman. Xohi Alpomish qilib olsin, xohi qalmoqlarning biri qilib olsin. Shul so‘zimni xon to‘ramga aytib bor”, – deb bir so‘z aytib turgan ekan:

Ot chopsa, gumburlar tog‘ning darasi,
Botirni ingratar nayza yarasi.
Kelgan bo‘lsa Qo‘ng‘irot elning to‘rasi,
Qirq kunlik yo‘l Boboxonning orasi.
Boboxon tog‘idan poyga qilaman,
Ko‘zdan yoshin munchoq-munchoq tizdirsa,
Qo‘shqanotning quyrug‘ini suzdirsa,
Boboxondan poyga qilib o‘zdirsa,
Oti ildam boyvachchaga tegaman.
Mendayin oyimning holin bilganga,
Osha yurtdan mehnat tortib kelganga,
Dushmanlarga qora kunni solganga,
Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga,
Men tegaman shul yoyandoz polvonga.
G‘anim ko‘rsa, qiyomat kun solganga,
Osha yurtdan izlab halak bo‘lganga,
Ming qadamdan tanga pulni urganga,
Men tegaman shul qirag‘ay merganga.
Savash bo‘lsa, bul shibanib[3] chiqqanga,
Kurash qilib to‘qson alpni yiqqanga,
Men tegaman nor bilakli polvonga.
Zog‘ ham bo‘lsa, qo‘na bersin gulshanga.
Bab-barobar qildim yaxshi-yomonga,
Men tegaman to‘rt shartimni qilganga.

Bu so‘zlarni Barchindan eshitib... Qorajon otlanib borayotib edi. Bir kam to‘qson alp kelayotib edi, Qorajonning oldidan chiqib qoldi. To‘qson alpning zo‘ri Ko‘kaldosh turib aytdi: “O‘zbakning qizining muhlati bitdi. Uchradingmi, nima javob aytdi?” “O‘zbakning qiziga uchrab kelayotirman. O‘zbakning qizining aytgan so‘zi shul bo‘ldi: “Poyga qilaman, otini o‘zdirganga tegaman. Kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman. Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga tegaman. Ming qadamdan tanga pulni urganga tegaman”, – dedi.

[1] **Bola kunda** – bolalikda.
[2] **Quyonchiq** – tutqanoq.
[3] **Shibanib** – yeng shimarib, shaylanib.

Bul so‘zni eshitib, Ko‘kaldosh aytdi: “O‘zbakning qizining ko‘ngli menda. Poyga bo‘lsa, o‘zib kelmoq Ko‘kdo‘nanning tani. Kurash bo‘lsa, to‘qson alpning barini qo‘ymasdan yiqmoq faqirning tani. Yoy tortishganda ham mening yoyim sinmay qoladi. Ming qadamdan tanga pulni ursin, depti, besh yuz qadamdan tanga pulni uraman. Ming qadamga borgan so‘ng chog‘lab qo‘yib yuboraman, bu yog‘ini mujmaltob qilib olaman. Sen bu ostingdagi olachani qayoqdan olding?” – dedi.

– Qo‘ng‘irotdan Alpomish do‘stimiz kelgan ekan, bul shuning oti.

– Shul yurtdan shul otni minib, xotin olib ketaman, deb ahmoq bo‘lib yuribdimi?

Ko‘sa sinchi degan sinchisi bor edi, sinchisiga aytdi: “Tushib, o‘zbakning otini ko‘r qani”. Tushib, Boychiborni ko‘rdi, qarichlab ko‘rdi: sag‘risining ustidan qulog‘ining o‘rtasigachayin to‘qson olti qarich chiqdi, ayil tortuvi oltmish uch qarich chiqdi. Sag‘risini silab, burnidan naycha qo‘yib, durbini bilan qarab ko‘rdikim, qo‘ltig‘ida to‘rt yarim gaz qanoti taklam-buklam bo‘lib yotir.

– Qanday ekan o‘zbakning oti? – dedi.

– O‘zbakning oti anday[1] ekan. O‘zbakning qiziga burilmay qo‘yag‘o‘y, – dedi.

Bu so‘zni eshitib, Ko‘kaldosh alpning achchig‘i kelib: “Mendan biror vaqtda sen jodirim[2] bo‘lib, o‘zbakni ilgaridan ham ko‘rib, o‘zbakka yo‘liqib, siyosatga otimni ta’rif qil, deb senga uch-to‘rt tanga bergan ekan-da, choqdan biron narsa olib ta’rif qilding”, – deb achchig‘i kelib, sinchining ikki ko‘zini o‘yib olib qo‘ydi. “Hamma vaqt o‘zbakning oti mening otimdan o‘zganda, ko‘zingning xunini beraman. Yuringlar, Alpomishning ustiga boramiz”, – dedi.

Alpomish chodirda o‘tirib edi, shunday qaradi: har qalmoqlar kelyapti: kallasi kapaday, tanasi tepaday, butlari selanglab otning ostiga aymashib ketgan. Alpomish o‘tirgan yerida siyosat bilan qaradi. Bir kam to‘qson alp otdan tappa-tappa tashlab, qo‘l qovushtirib, ta’zim qildi. Aqli shoshib, dabgiridan adashib[3] qoldi. Ko‘kaldosh alp Ko‘kdo‘nanning ustida bir o‘zi qoldi.

... Qalmoqning yurtidan Barchinning poygasiga to‘rt yuz to‘qson to‘qqiz ot bo‘ldi. Boychibor bilan to‘ppa-to‘g‘ri besh yuz bo‘ldi. Poygachilar har kuni ot sovitib, yolg‘on poyga qo‘yib keladi. Boychibor otlarning changini ham ko‘rmay qoladi. “O‘yinda o‘zgan chinda o‘zadi”, degan gap bor. Hazil poygada Boychibor otning changini ko‘rmay qoladi. Chin poyga bo‘lgandan so‘ng qanday keladi?” – deb qalmoqlar bog‘onog‘i ko‘r bo‘lgan sinchiga izza beradi.

... Hamma poygachi jam bo‘lib, Alpomishning tanidan Qorajon poygaga bormoqchi bo‘ldi. Sakson tilla savdo qilib Boychiborni oldi. Qarindoshsinib qalmoqlar Qorajonni aynitdi:

– Bul oting buncha pullik ot emas, sinchining pora olib gapirganiga ahmoq bo‘lding, o‘zbakning yomon cho‘birini baland olding, bir chetini o‘zing ham ko‘rding.

Alpomish aytdi: “Do‘stim, qarindoshlaring aynitgan bilan aynima, bir surinib turar, suvday oqqan yo‘rg‘a bo‘lar, nima desang, aytganingni qilar, otdan juda ko‘ngling to‘lar”, – deyayotir. Qorajon ham: “Bir savdo-da, aynimayman”, – deb yotir. Qalmoqlarga ko‘z-ko‘z qilib, shunday ish bo‘lib, Qorajon Boychiborni minib, poygachilarga aralashib turibdi.

Alpomish o‘z yurtidan kelgan otga bag‘ir bosib qolgan. Ot ko‘zidan g‘oyib bo‘ladiganday bo‘ldi, shu shaharda qoladiganday bo‘ldi, yakkamozor bo‘p o‘ladiganday bo‘ldi. Qorajonga qarab: “Bir kelar mo‘ljalingni aytgin, – deb so‘rabdi.

[1] **Anday** – juda zo‘r.
[2] **Jodirim** – jabr ko‘rgan.
[3] **Dabgiridan adashib** – aqli shoshib, esini yo‘qotib.

Qorajon kelar muhlatini aytib, bir so‘z deb turgan ekan:

Ostimda o‘ynasa arabi otim,
Men ketsam qolmaydi, do‘stim, toqating,
Boruv qirq kun, qaytuv besh kun, bek do‘stim,
Qirq besh kundir, do‘stim, kelar muhlatim.
Jahonni sayr etib, o‘ynab kulmasam,
Nor kesar olmosni belga cholmasam,
Qirq besh kunda Boboxondan kelmasam,
Ham otingni, ham do‘stingni o‘ldi de,
Yakkamozor bo‘lib shunda qoldi de.
Har gap bo‘lsa, Yaratgandan ko‘rarman,
Qo‘limdan kelgancha xizmat qilarman,
Yarashiqqa ot kokilin o‘rarman,
Nasib etsa, qirq besh kunda kelarman.

Keling, muhokama qilamiz

1. Ko‘rgan tushi tufayli Qorajon islom dinini qabul qilib, o‘zi tanimagan-bilmagan Alpomish bilan g‘oyibona do‘st tutinishi sizda qanday taassurot uyg‘otdi? U tavakkal qildi, deb o‘ylaysizmi? Fikringizni asoslang.
2. Alpomish kelganini eshitgan Barchin nega darrov uning panohiga kira qolmadi? U alplarga hech qanday shart qo‘ymay, Alpomishni tanlashi mumkin edi-ku! Mulohazalaringiz orasida siz Barchinda payqagan fazilatlarni ham aytib o‘ting.
3. Sinchi kimligini bilib oldingiz. Ayting-chi, hayotda ham shunday sinchilarni ko‘rgan yoki ular haqida eshitganmisiz?
4. Ko‘sa sinchi nega alplarning xohishiga moslab sinchilik qilmadi? Boychiborning xususiyatlarini aytib maqtashi o‘z boshiga kulfat keltirishini bilmasmidi? Yoki bor haqiqatni aytish orqali o‘z xo‘jayinlarini xavfdan ogoh qilmoqchi bo‘ldimi? Fikringizni asoslang.

Guruhlarda ishlash

To‘rt guruhga bo‘linib, Barchinning to‘rt shartidan birini tanlab, quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Shartlar va talablar	*1-shart:*	*2-shart:*	*3-shart:*	*4-shart:*
Shartning hayotiy ahamiyati				
Alplar va otlarning qaysi xususiyatlari sinovdan o‘tkazilar edi?				

Guruh xulosalari asosida taqdimot tayyorlang.

Topshiriq

Dostonning davomini (4) o‘qing.

ALPOMISH

4

Ko‘kaldosh boshliq qalmoqlar Boychiborning ildamligi va poygada yutishi aniqligini bilib, nomardlik yo‘liga kiradi. Kimsasiz tog‘da Qorajonni bog‘lab, otning tuyog‘iga mix qoqishadi.

... Bari qalmoq bu o‘rtaga oladi,
Qorajon yolg‘iz-da, nima qiladi?
Bu qalmoqlar ko‘plik qilib turadi,
Qalmoq bari xasta ko‘nglin xushladi,
Qorajonning bilagidan ushladi.
O‘ldirmoqqa ko‘zi qiymay turadi.
Necha so‘zni bu qalmoqlar o‘yladi,
Qorajonni kulaband[1] qip boyladi.
Harchand chirpinib ko‘rdi Qorajon nomdor,
Qalmoq ko‘p-da, bo‘lolmadi barobar.
Xazon bo‘lsa, bog‘da gullar so‘lar deb,
Ajal yetsa, paymonasi to‘lar deb,
Bo‘shalsa, bir kuni o‘zi borar deb,
Shumg‘ut[2] bo‘ldi bu juvarmak o‘lar deb, –
Bosh bo‘lib Ko‘kaldosh boylab tashladi.
... Boylovli qolgandir Qorajon nomdor,
Boychiborni o‘rtaga oldi qalmoqlar.
Har tarafdan unga arqon soladi,
Boychiborni endi yiqib oladi.
Boychiborni shunday tortib boyladi,
Oyog‘idan o‘rab, kerib tayladi.
Ahmoq qalmoq otga zulm qiladi,
Tuyog‘iga gulmixlarni uradi,
Urgan gulmix yalpoq tizga keladi.
Chinqirib kishnaydi boylovli Chibor,
Siyosatman zarb ko‘rsatdi qalmoqlar.

Qorajon bilan Boychiborni shunday qilib boylab tashladi: “... bo‘shalsa, bir kuni borag‘oyar, ajali yetsa, o‘lag‘oyar, ishqip bizdan keyin qolsa bo‘pti”, – deb poygachilar jam bo‘lib, qator turib, poygani qo‘yib, jo‘nab ketdi.

Boboxon tog‘ida yolg‘iz qolib, Boychibor bilan Qorajon ikkovi boylovli yotib, avliyolarni shafe keltirib, bu so‘zni aytib yotir:

Barchaning otasi hazrati Odam,
Payg‘ambarlik bo‘ldi unga musallam,
Ibrohim, Ismoil, Makka muazzam,
Dinlarning chirog‘i – imomi A’zam,
Muhammadga ummat, Haqqa musallam.
…Ollo[3], sendan boshqa yo‘qdir murabbiy.
Karimsan, Samadsan, rasuling barhaq,
Rahm aylab, yor bo‘lgin nochor qullara.
Maydonda qilmadim Rustamning jangi,
Haybatimdan titrab ketsa farangi,
Toshkantning mulkinda yer bobo Zangi,
Tavba qildim, men gapirsam baland-pas,
Bul bandadan baland bo‘lar cho‘p-u xas.
…Umid qip yig‘ladim hazrati Nurdan,
G‘am tortgan lochinni qutqargin to‘rdan
…Oting Rahmon, qaytar shayton yo‘lidan.
Xoliqsan, Karimsan, qahringdan qutqar,
Gunohkor bandaman, maqsadga yetkar…
Bu so‘zlarni aytib yig‘lar Qorajon,
Boychiborman munda qolib bul zamon.
Armonman boylangan Boychibor edi,
Bek Alpomish o‘z yurtinda qo‘l bergan
Rajabxo‘ja degan piri bor edi.
Falak titrar Qorajon nolishiga,

[1] **Kulaband** – yechilmaydigan qilib boylash.
[2] **Shumg‘ut** – buzuqi, shum.
[3] **Ollo** – Alloh.

Banda ko‘nar Tangri qilgan ishiga,
Boboxonda yig‘lab edi Qorajon,
Rajabxo‘ja piri yetdi qoshiga.
Karomatman kelib xabar oladi,
Qorajonning qo‘lin chechib ko‘radi,
Qorajonni pir tarbiyat qiladi,
Qorajonbek bul o‘rnidan turadi,
Kim chechganin o‘zi bilmay qoladi…

Qorajon turib, otning oyog‘ini yechdi. Ot o‘rnidan turdi. Eshonning ruhunati otning sag‘risini siladi, qalmoqlarning solgan sovuni jiyirilib yerga tushdi.

... Qorajon otning ustiga mindi. Ot oyog‘ini bosolmay turdi. ... Eshonning ruhunati Qorajonga ko‘rinmaydi, otning to‘shida turib, Qorajonga bir so‘zni aytdi:

Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema,
Boshing eson, davlatingni kam dema,
Jabr qilgin bunday hayvon joniga,
Qamchi urgin go‘sht ko‘targan soniga,
Yetkazarman Boysun-Qo‘ng‘irot xoniga,
Qoldim deb, Qorajon, sira g‘am yema.
Qorajonbek, eshit aytgan so‘zimdi,
Egarqoshdan ushlab yumgin ko‘zingdi,
Endi bilsang, mendan xizmat lozimdi...
Boychibor boradi suvday arqirab,
Tuyog‘ida to‘rt sixi bor yarqirab.
... Ko‘z yubortib, shunday cho‘lga qaradi,
Badbaxt cho‘lda poygachilar boradi.
Kunning o‘zi peshin vaqti bo‘lganda,
Poygachining qorasini oladi.
... Haqning yashiniday Chibor boradi,
Qalmoqlardan to‘sat-to‘sat[1] qoladi,
Besh yuz otning biri bo‘lib boradi.
O‘zgan otni sanar Qorajon nomdor,
Qo‘qib-burib borayotir qalmoqlar.
... Necha otdan Chibor o‘tib boradi,
O‘tgan otni sanab ketib boradi,
… Ko‘kaldosh ilgari ketib boradi.
Poyganing mazgili yaqin qoladi,
Yashinday bo‘p Chibor yetib keladi.
Alp Ko‘kaldosh juda hadik oladi,
“Chu!” – deydi,
Do‘nanga qamchi choladi,
Ikki tulpor yo‘l talashib boradi.
... Ikkovi barobar yo‘lda boradi,
Bir-birini musht tashlashib uradi.
Birov-biroviga mushti tekkanda,
Tog‘ cho‘qqisi qulaganday bo‘ladi.
Qorajon qaytmaydi, navbat oladi.
Goh yerlarda qamchilashib, savashib,
Ko‘p xarxasha qilar aqli shoshib.
Bedov otlar borar yo‘lda talashib,
Borayotir bir-biriman tishlashib...

“Bularning kelar muddatidan o‘tdi”, – deb Alpomish bir baland tepaning ustiga chiqib, durbinini olib, shunday yo‘lga qaradi. Ko‘rdi ikki ot yo‘lda yo‘l talashib kelyapti. Birini durbini bilan tanidi: Ko‘kdo‘nan. Boychibor to‘riqday bo‘p ko‘rindi. Tuyog‘idagi mixlar ozor bergan, oppoq ko‘pikka botgan, tuyog‘idan chiqqan to‘zon bilan to‘riqday bo‘p qotgan. Boychiborni tanimay: “Ham otimdan, ham yurtimdan ayrildim”, – deb behush bo‘lib yiqildi. Barchin kelib, Alpomishning holini ko‘rib, yiqilganini bilib, boshini tizzasiga oldi... Barchin ham durbinni olib, kelayotgan otlarga qarab, bir so‘z aytib turgan ekan:

[1] **To‘sat-to‘sat** – to‘da-to‘da, guruh-guruh.

Qurruyo-qur, hayt-a, to‘ramning oti,
Oq to‘shim – yayloving, sochim shibirtki.
Kuyganimdan gapni gapga ulayin,
To o‘lguncha sayis[1]ing bo‘p yurayin.
Egam rahm aylasin qonli yoshima,
Sabab bo‘lib qo‘shgin teng-u to‘shima.
Qurruyo-qur, hayt-a, to‘ramning oti!
“Qur, hayt!” – degan Barchinoyning dovushi
Boychiborning qulog‘iga boradi.
Suvluq tishlab o‘zin otdi Boychibor,
Kalta qantarib tashlagandi qalmoqlar,
Tizgini uzilib ketdi muqarrar,
Ustidagi alp Qorajon bexabar,
Ko‘kdo‘nandan o‘tdi endi jonivor.
... Alp Ko‘kaldosh otga qamchi uradi:
“Bul o‘zbakning oti o‘zib boradi,
Bul Qorajon bir baloni qiladi,
Ukam menga dushman bo‘lib boradi”.
Qulochlab qamchi urar Do‘nan otiga...
Boychibor g‘uvullab ketib boradi...

Xonning Chibor oti poyganing oldini olib, shashti bilan kelib, baxmal o‘tovni yetti marta aylanib, otning tizginini ushlab Qorajon to‘xtatdi. Barchinning kanizlari yig‘ilib yetdi. Qorajonni otning ustidan olib, gilamning ustiga solib, bardor-bardor qilib ko‘tarib, baxmal uyga kirgizib ketdi. Qizlar otni yelpib sovitib turibdi, opkep yakkamixga boyladi, teri qotdi. Barchin kep otni ko‘rdi, ko‘zlarini ipak ro‘mol bilan surtdi, changi, terini ushatdi. Tuyog‘idagi mixlar ozor berib, xonning Chibor oti tappa tushib yotdi. Tuyog‘idagi mixlarni ko‘rib, Barchin bir so‘z deb turibdi:

Mening uchun hayvon azob ko‘ribdi,
Shu mix bilan Boboxondan kelibdi,
Po‘latni eritar qizlarning dami.
Barchinoyim ko‘rib, o‘ylab turadi,
Urgan mixi yalpoq tizga boradi.
Chorsisini tuyoqqa yozib soladi,
Gulmixlarni tishlab sug‘urib oladi...

... Bu so‘zni aytib, otga mehribonliklar qilib, banot[2] to‘rvaga yemni ildi.

Ko‘chib borgan qo‘ng‘irotlar jam bo‘lib, yig‘ilib, poygaga ketgan qalmoqlar ham kelib, bir kam to‘qson alp gurullashib turib, “Alplar bilan o‘zbakning polvoni yoy tortishar emish”, – deb ovoza bo‘lib, hamma tomoshamonlar[3] yig‘ilib, shunda Oyna ko‘liga, Chilbir cho‘liga to‘lib, yoyandozlik qilmoqchi bo‘lib, bu yoy tortishmoqdagi so‘zi:

... Olis yo‘lga nishonani quradi,
Nishonani urgan odam oladi.
Qalmoq alplar bari qator bo‘ladi,
“Men urarman”, – deydi, ko‘ngil qiladi,
Shiqirlatib endi yoyni tortadi.
Yoyning o‘qi bul g‘uvullab ketadi,
Biri pastdan, biri baland o‘tadi.
Bir xilining o‘qi yetmay yotadi,
Achchiqlanib, yoyni buklab tortadi,
Ushlagan parli yoy sinib ketadi.
Ikkam to‘qson alpi tortib o‘tadi,
Ko‘kaldoshga endi navbat yetadi.
Yoyiga Ko‘kaldosh o‘qni soladi,
Nishonaga qarab to‘g‘ri qiladi.

[1] **Sayis** – otboqar.
[2] **Banot** – duxoba.
[3] **Tomoshamon** – tomoshabin.

“Bor, urdim”, – deb endi yoyni tortadi,
Qo‘lda yoyi cho‘rtta sinib ketadi.
Endi navbat Alpomishga yetadi.
Ko‘rgan qalmoq bari hayron qoladi.
Parli yoyni shunday qo‘lga oladi,
“Rabbim!” – deydi, endi yoyni tortadi,
Nishonaga o‘qi to‘g‘ri ketadi.
Nishonani urgan shunday to‘radi,
Bekning yoyi endi omon qoladi.
Ming qadam yerni qadamlab ko‘radi,
Tanga puldan bul nishona qiladi,
Yoyni qo‘yib, miltiq otmoq bo‘ladi.
Ko‘p deb qalmoqlarga navbat beradi.

Qalmoqlar nechovi miltiq otadi,
Saksonman to‘qsonga o‘qi yetadi,
Qaysi otsa, yo‘lda qolib ketadi.
Alp Ko‘kaldosh shunday ko‘zlab ko‘radi,
Besh yuz qadam yerga o‘qi boradi.
Ko‘kaldoshning ko‘nglidagi bo‘lmadi.
Alpomishga tag‘i navbat keladi.
Bek Alpomish xasta ko‘nglin xushladi,
Anjom, miltig‘ini qo‘lga ushladi,
Qarab nishonani otib tashladi.
Ko‘rib bul qalmoqlar hayron qoladi...

Uch shart o‘tdi. Kurash taraddisini qip yotibdi. O‘n ming uyli Qo‘ng‘irot odami, qancha qalmoqning odami yig‘ilib, Chilbir cho‘liga, Oyna ko‘liga tomoshamon to‘lib, qur tortib o‘tirdi.

... Ko‘kaldosh bosh bir kam to‘qson alp bir tarafdan qator bo‘lib o‘tirdi. Alpomish bilan Qorajon bir tarafdan o‘tirdi. Qalmoqlar aytdi: “O‘zimizdan chiqib, Qorajon ham balo bo‘ldi. Mudom o‘zbakning yonini oldi”. Bu yoqdan Qo‘shquloq degan alp maydonga kirdi.

... Qorajonning bir akasi bo‘ladi,
Taraf bo‘p Qo‘shquloq polvon jo‘nadi.
Shomurti shoxalab har yoqqa ketgan,
Ichida chichqonlar bolalab yotgan.
Izidan tushgan pishak oltoyda yetgan,
Munday qalmoq qo‘lin bulg‘ab keladi.
Qorajonbek xasta ko‘nglin xushladi,
Juppay qilib yoqasidan ushladi,
Dustaman[1] qip uni qoqib tashladi.
Qo‘shquloqning shunday aqli shoshdi,
Qumni qopib, endi yerga yopishdi.
Yana ham bir qalmoq kirdi maydonga:
Odam tushmas[2] buning aytgan tiliga,
Besh yuz quloch arqon yetmas beliga.
Duchor bo‘ldi Qorajonning qo‘liga,
Ushlagandan otdi Chilbir cho‘liga.
Ko‘tarilib tag‘i qalmoq kiradi,

Qorajonbek o‘zi yolg‘iz turadi,
Bunga duchor bo‘lgan qalmoq o‘ladi.
Bul qalmoqdir qalmoqlarning ravishi,
Oh ursa, olamni buzar dovushi.
To‘qson molning terisidan kovushi,
Siyosatman kelib maydonga turdi.
Qorajon tavakkal Tangriga qildi,
Bu qalmoqqa endi yaqinlab qoldi.
Kurashmoq hadisin shunday biladi,
Alp Qorajon yotibotar qiladi.
Ang[3] edi ul, sho‘rli bilmay qoladi,
Boshidan oshirib yerga uradi.
Tushib yerga pora-pora[4] bo‘ladi.
Achchiqlanib, tag‘i qalmoq keladi,
Qorajonning ishin bari ko‘radi.
Qorajonga pirlar quvvat beradi,
“Xudo!” – deydi, bul maydonda turadi.

[1] **Dustaman** – yuztuban.
[2] **Tushmas** – tushunmas.
[3] **Ang** – anqov, sodda.
[4] **Pora-pora** – parcha-parcha.

... G‘urullashib qolgani ko‘tarilishdi,
Qorajonbek yolg‘iz qiladi ishdi.
Ikkam to‘qson alpni nobud qiladi,
Bul alplardan bir Ko‘kaldosh qoladi.

Alp Ko‘kaldosh yolg‘iz o‘zi qolibdi,
Qorajon bariga g‘olib kelibdi,
Kun namozgar, endi kech bo‘p qolibdi,
Kurashga ul zamon javob bo‘libdi.

Shunda ketgan tomoshamon bari yig‘ilib: “Kechagidan ham bugun qiziq bo‘lar, alplarning zo‘ri olishar”, – deb turdi. Kecha qanday bo‘lsa, bugun ham shunday bo‘p o‘tirdi. Qorajonga Alpomish turib aytdi: “Bugun tushmaysanmi maydonga, bugun talab qilmay turibsan?” Qorajon esa: “Bugun ham tush”, desang, tushaman. Tushgan bilan bundan omon topmayman, lekin bu haddili zo‘r. Bunga tushsam, ikki boshdan o‘laman”, – deb turibdi. Alpomish chechinib: “Xayr, unday bo‘lsa”, – deb maydonga talab qila berdi. Ko‘kaldosh alp turib aytdi: “O‘zbak! Sen bunday bo‘yni yo‘g‘onlik qilma, g‘aribi go‘riston bo‘lib o‘lma. Hali ham qo‘ygin. Halak bo‘p kelgan yo‘lingdan qolma...” Bu so‘zni eshitib, Alpomish Ko‘kaldoshga qarab bir so‘z deb turgan ekan:

Har kim o‘z eliga bekmi, to‘rami,
O‘zi o‘lmay, kishi yorin berami?
Buncha so‘zni lof urmagin sen, qalmoq,
Kel endi, maydonda turgin, ey ahmoq.
... Bog‘bon bo‘lsam, qizil gulni terayin,
Har na qismat yozilganin ko‘rayin.
Kelgin, qalmoq, birga maydon qilayin,
Nasib etsa, sening doding berayin.

Sening bilan maydon qilib ko‘rayin,
Zo‘rlik qilsang, taqdirga tan berayin,
Ko‘tarilma, bir olishib ko‘rayin!
Olishsang, sinaysan o‘zing holingni...
Bu so‘zni Alpomish aytib turadi,
Achchiqlanib, bul Ko‘kaldosh turadi.
Chechinib, shu zamon belini buvip,
Minorday bo‘p bul maydonga kiradi.

O‘n ming uyli Qo‘ng‘irotning qizlari bilan, Barchin kanizlari bilan tomosha qilib, bularning olishganini ko‘rib, Hakimbekka qarab bir so‘z deb turgan ekan:

... Qizlar sizni narmoda deb aytadi,
Qizlarning aytgani menga botadi.
Mardlar olishmaydi, siltab otadi,
Maydon bo‘lsa, ish ko‘rsatib ketadi,
Bo‘sh odamning ishi keyin ketadi.
Bu so‘zlarni aytdi gul yuzli dilbar.
Ikki polvon bo‘lib turdi barobar.
Ko‘p so‘zlarni Barchin suluv aytadi,
So‘zi Alpomishga botib ketadi.
O‘tdayin tutashib shunqor ketadi,
G‘ayrati g‘ayratga bekning yetadi.
Yor so‘ziman sherdil bo‘lib ketadi,
Chirpib[1] Ko‘kaldoshni ko‘kka otadi,
Ancha yer havoga chiqib ketadi.

Xaloyiq ko‘kka boqib qaradi,
Olchi-chikka bo‘lib, shunday aylanib,
Alp Ko‘kaldosh bul osmondan keladi,
Kallasiman kelib yerga uradi,
Shunday qilib Ko‘kaldosh ham o‘ladi.
... Haqdan kelgan ishga bo‘yin iydirdi,
O‘n ming uyli elatini jiydirdi.
Xabar berdi shunda otlar choptirib,
Namoyishga oq o‘tovlar yoptirib.
Barchinoyga to‘y qilmoqchi bo‘ladi.
Chilbir cho‘lda to‘yni boshlab qoladi.
... Qirq kundankay to‘ylar oxir bo‘ladi,
Bir nechalar uyga qarab jo‘nadi.

[1] **Chirpib** – siltab.

... Baxmal o‘tovda chimildiq tutib, kuyovnavkarlari bilan kuyovni kirgizmoqchi bo‘lib, bir necha xotin “kampir o‘ldi” bo‘lib, o‘lganiga bir nima olib, “it irillar” degan rasmini qilib, bunda ham bir nima berib, har zamon salom solib, uydan ichkari kirib, chimildiqda o‘tirib, oldiga dasturxon solib, ... kuyovnavkarlarga to‘ppi, ro‘mol, sarpoylar berib, kuyovnavkarlar chiqib ketdi. Barchinni bekning... qoshiga olib kirib, xotinlar rasmini qilib, “chach siypatar”, “qo‘l ushlatar”ini qilib, bir necha yangalar har qaysisi o‘z mazgiliga ketdi...

Ertasiga qizlar, yangalar va Qorajon Hakimbek turgan o‘tov oldiga keladi.

Yangalar yig‘ilib bunda keladi,
Bir xil yanga “kuyov tovoq” qiladi,
Tanga-tilla tovog‘iga soladi,
O‘zbaklar rasmi shunday bo‘ladi:
Choshka-tushda sop yigitlar keladi,
Hakimbekdan “kuyov uloq” so‘radi,
So‘ragan odamlar quruq qolmadi,
Bularga ham bitta sarka beradi,
Vaqtixush bo‘p bular ketib boradi.
Qorajon ham kelib birga turadi,
Qorajonni yaxshi izzat qiladi,
Qorajon ko‘ngliga hamma qaradi,
Alpomishning biri bo‘lib turadi.

Hakimbekka borib qarindoshlari bunday bildirdi: “Boysaribiy bilan kelib, qaytib elga borolmay, sarson bo‘lib qolganmiz. Birga ketsak, deb biyga ko‘p gapirib ko‘rganmiz, katta-kichik juda zo‘rlab turganmiz. Ketmoqni hech ixtiyor qilmadi, qariganda ham buning bo‘yni yo‘g‘onligi qolmadi. Bul odamlar harchand zo‘rlab ko‘radi, odamning esida yo‘q gaplarni gapiradi: “Qaytib borsam, ko‘chib borib o‘l, bachchag‘ar, o‘g‘lim borib ham o‘zingni olib keldi, ham qizingni olib keldi, – deb betimga ta’na qiladi, o‘lsam ham bormayman”, – deb o‘rlaydi-da, turadi”, – dedi. Hakimbek eshitib: “Bu musofirlikda suyagi qolib ketmasin”, – deb necha marta odam yuborib ko‘rdi. Hech so‘z qopmadi, hech kimning gapini qulog‘iga olmadi, o‘zining bilganidan qolmadi.

Shunday bo‘p bul orada qirq kun o‘tdi. Qirq kungacha maslahat qip yotdi. Qirq kundan keyin maslahatni bir yerga qo‘yib, Boysari qoldi. O‘n ming uyli Qo‘ng‘irot Barchin bilan ketmoqchi bo‘ldi.

Ko‘ngli buzilib, Boysari farzandini duo qilib kuzatadi…

Jonim bolam, Barchin, ko‘ngling bo‘lmagin,
Otam qoldi, deb sen xafa bo‘lmagin,
Ko‘p yashagin, ko‘p yilgacha o‘lmagin,
Yaxshilik ko‘r, yomonlikni ko‘rmagin,
Sen borasan qarindoshning ichiga,
Yolg‘izman deb, bolam, yig‘lab yurmagin.
Muna elda boylik, davron surarman,
Har gap bo‘lsa, taqdirimdan ko‘rarman,
Har zamonda, bolam, seni ko‘rarman,
To o‘lguncha duogo‘ying bo‘larman.
Yig‘lama, jon bolam, ko‘nglim buzildi,
Ketishingni ko‘rib bag‘rim ezildi.
Xafa qilib bunda senday sanamni,
Qo‘yib ketma menga dog‘-u alamni,
Tengquringga qo‘shdim senday bolamni.
Bu yurtlarga kelib rohat ko‘rmading,
Qalmoqlardan emin-erkin yurmading,
Shukrulillo, qalmoqlarda qolmading.
Ketding, bolam, qavm-u qarindoshingga,
Ko‘p savdolar tushib bunda boshingga.

Jon bolam, otangning holin bilgansan,
Otam deb ham mehribonlik qilgansan,
To‘qson alpga yolg‘iz javob bergansan,
Boysarining holin bilgan bolamsan.
Qiyg‘ir degan qush o‘ltirar qiyoda,
Ne ko‘rib-kechirding foniy dunyoda,
Qiz ham bo‘lsang, qilgan ishing bir nechadan ziyoda,
Rustamdayin ish ko‘rsatib borasan,
Sog‘insang otangni, bolam, ko‘rasan,
El-u xalqman birga ketib borasan,
Boysun-Qo‘ng‘irot elida davron surasan,
Har zamonda meni esingga olasan,
Bildim seni, osha xafa bo‘lasan,
Bundan borsang, biy bobongni ko‘rasan,
Bo‘lgan ishni unga ma’lum qilasan.
Ko‘rar ko‘zim, omonda bo‘l, farzandim.

... O‘n ming uyli Qo‘ng‘irot bari ko‘chib, yo‘lga kirib, Boysari qaytib uyiga kelib, yolg‘iz qolib, kallasi g‘uvullab, musofirligi asar qilib qoldi... Qorajon ham do‘sti Alpomish bilan birga jo‘nab ketadi.

Keling, muhokama qilamiz

1. Qiyin vaziyatga tushganmisiz? Shunday hollarda ko‘nglingizdan nimalar o‘tgan? Aytib bering. Qorajonning Allohga, payg‘ambarlarga, pirlarga, avliyolarga nolasi sizga qanday ta’sir qildi? Munosabat bildiring.
2. Qorajonning *“Tavba qildim, men gapirsam baland-pas, Bul bandadan baland bo‘lar cho‘p-u xas”,* deyishida unga xos qanday fazilat bo‘y ko‘rsatadi? Javobingizni asoslab bering.
3. Barchinning poyga qilib kelayotgan otlarga qarab aytgan so‘zlarini tahlil qiling. Unda Barchinning qanday kechinmalari aks etgan? Fikringizni asoslang.
4. Qo‘shquloq polvonning holatiga diqqat qiling. Bunda tasvir qanday badiiy vosita orqali ifodalangan?
5. Qorajonning alp akalariga qarshi Alpomish tarafida turishini qanday tushundingiz? Sizningcha, u to‘g‘ri qildimi yoki?.. Nega shu qarorga kelganingizni asoslang.
6. Ko‘kaldosh alpning do‘q-po‘pisasi Alpomishni nega fikridan qaytara olmadi deb o‘ylaysiz?
7. *“Kun namozgar, endi kech bo‘p qolibdi, Kurashga ul zamon javob bo‘libdi”* misralari orqali musobaqa, bellashuv tartib-qoidalari haqida nimalarni angladingiz? Fikringizni dalillashga harakat qiling.
8. To‘y marosimidagi urf-odatlarga diqqat qarating. Shu kabi udumlar siz yashab turgan hududlarda qanday shaklda uchraydi? Tushuntirib bering.
9. Boysarining qizi bilan xayrlashuvdagi tilak-duosi sizga qanday ta’sir qildi? Boysarida o‘zbek otasiga xos qanday fazilatlarni payqadingiz?

Amaliy topshiriq

Doston matnida obrazlar, bellashuv, alplar tasvirida qanday badiiy tasvir vositalaridan foydalanilgan? Ularga misol keltiring.

Badiiy tasvir vositalari	Misollar
ibora	bo‘yni yo‘g‘on, ...
sa’j	...
mubolag‘a	...
o‘xshatish	...
sifatlash	..
qochirim, kinoya	..

Tavsiya

“Alpomish” dostoni syujeti asosida Usmon Azim ssenariysi bilan ikki qismli badiiy film suratga olingan. Quyidagi havola orqali filmni tomosha qiling.

1

Topshiriq

O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim qalamiga mansub quyidagi she’rni Barchin va Alpomish obrazlarida rollarga bo‘linib o‘qing.

ALPOMISH VA BARCHINOY XAYRLASHUVI

Alpomish Qalmoqqa ketadigan bo‘ldi. Barchinning bo‘yida gumonasi[1] bor edi. Barchin Alpomishning ketarini bilib, qimtinib, uyalib, keragaga suyanib, bir so‘z deb turgan ekan:

Yo‘llarda ko‘p mening gumonim,
Ketarsan, ichimda fig‘onim,
Olti oy o‘tgan so‘ng kelmasang,
Bolangga ne deyin, sultonim?

Seni zor kutarman dilpora,
Hijronda oshiqlar bechora,
Aytib ket, sultonim, farzanding
Qay so‘zni eshitsin ilk bora?

Ostingda o‘ynaydi Boychibor,
Ko‘zimda yoshlarim shashqator.
Otalik gapingni aytib ket,
Bolangni nima deb suyay, yor?

Bolangga ko‘ksimni tutganda,
Go‘dagim oq sutni yutganda,
Nelarni shivirlay bolangga,
Jonimni oromlar titganda.

Og‘irdir, yor, sensiz pallalar,
Mudrasa kechasi dalalar.
Beshikda tamshangan bolangga
Aytayin qanaqa allalar?

Alpomish Barchinning sochini silab,eson-omonlik tilab, tasalli berib, so‘zlarni avaylab terib turgan joyi:

Qo‘lingga tutganda bolamni,
Barchinim, o‘ylagin olamni.
Ajdodlar ruhini tavof qil,
Yashirma quvonch-u nolangni.

Olamda ko‘p erur ibora,
Bir so‘z bor – og‘riqdan iborat.
U – Vatan! Barchinim, u – Vatan!
Bolamga “Vatan”, de ilk bora.

So‘zlagin eng yuksak tilakdan,
Bo‘taday bo‘zlagin yurakdan.
“Vatan”, de... Bolamning qoniga
Oqiblar kirsin u yurakdan.

Aqling hech bo‘lmasin faromush,
Bolamni qil yaxshi parvarish.
Barchinim, bolamga yana ayt,
Otasi – Alpomish!.. Alpomish!

Yeldayin, seldayin bul hayot,
Safardan qaytmasam umrbod,
Barchinim, allaga qo‘shib ayt,
Elining otidir Qo‘ng‘irot.

Oy chiqsa bo‘ladi oydin, de,
Lochinday qanoting yoygin, de.
Barchinim, suyganda suyib ayt,
Tug‘ilgan tuprog‘ing Boysun, de.

[1] Homiladorlikka ishora.

Xasdayin cho‘llarda uchib ayt,
Zamondan zamonga ko‘chib ayt.
Bolamning taniga joylansin,
Quchib ayt, quchib ayt, quchib ayt!

Boylikka bo‘lma de xaridor,
Boylikdan balandda el-yurt bor.

Ayt, yovni qaqshatgan alp bo‘lsin,
Ayt, bo‘lsin yurtiga xizmatkor.

Barchinim, farzandim sher bo‘lsin,
Yurtiga suyanchiq er bo‘lsin.
Vatanni diliga jo aylab,
Baxshilar tilida she’r bo‘lsin.

Keling, muhokama qilamiz

1. Alpomish va Barchin suhbatidan nimalarni bilib oldingiz?
2. Og‘ir safarga ketayotgan juftidan so‘raganlari orqali Barchinga ta’rif bering. Nazaringizda, u yor sifatida murojaat qilyaptimi yoki bo‘lajak ona? Qaysi misralarda yor, qaysi satrlarda ona siymosi yaqqol namoyon bo‘lganini izohlang.
3. *“Bolamga “Vatan”, de ilk bora…”*. Alpomish tug‘ilajak go‘dakning eshitadigan ilk so‘zi “Vatan” bo‘lishini istashining boisi nimada? Fikringizni she’rdagi boshqa misralar bilan dalillashga harakat qiling.
4. *“Boylikka bo‘lma de xaridor,*
   Boylikdan balandda el-yurt bor”. Ushbu misralarni tushuntirib bering.
5. Xalqimizdagi “Bola, avvalo, Vatanini, otasini, elini, urug‘ini tanishi shart” degan qarashning sabablari haqida o‘ylab ko‘ring.
6. She’rning oxirgi bandida Alpomishning tilagiga diqqat qiling. Bunda millatimizga, qadriyatlarimizga xos nimalarni ko‘rdingiz? Fikringizni asoslang.


Ijodiy ish

Alpomish va Barchin xayrlashuvidagi sizni o‘ylantirgan, ta’sirlantirgan jihatlarni jadval shaklida yozib keling.

Meni o‘ylantirdi…	Meni ta’sirlantirdi…

Alpomish va Barchin xayrlashuvidan sizni o‘ylantirgan, ta’sirlantirgan jihatlarni jadval shaklida yozib keling.

Badiiy tasvir vositalari	Namunalar



Rasm manbasi: “Til va adabiyot ta‘limi” jurnali.
Fotograf: E. Kurtveliyev.

USMON AZIM (1950)

Dars davomida:

– shoir ijodidagi xalqona ohang, ifoda uslubini, ilgari surilgan g‘oyalarni tadqiq etamiz;

– she’rlardagi badiiy tasvir vositalarini tahlil qilamiz.

Usmon Azim 1950-yil 13-avgustda Surxondaryo viloyati Boysun tumanining Gaza qishlog‘ida tug‘ilgan.

Ijodkor “Insonni tushunish” (ilk she’riy to‘plami), “Holat”, “Oqibat”, “Ko‘zgu”, “Surat parchalari”, “Dars”, “Ikkinchi aprel”, “Baxshiyona”, “Fonus”, “Yurak” kabi she’riy to‘plamlar, “Xalil Sulton”, “Bir qadam yo‘l”, “Bozor”, “Jazava”, “Kunduzsiz kechalar”, “Alpomishning qaytishi”, “Tong otgan taraflarda”, “Amir Temur. Adolat fasli” kabi dramalar, shuningdek, bir qator hikoya, esse, kinoqissa va dostonlar muallifi.

Adibga 2000-yilda “O‘zbekiston Respublikasi xalq shoiri” unvoni berilgan.

MUTOLAADAN OLDIN

O‘qishga hozirlanayotganingiz Usmon Azimning “Baxshiyona” turkumi va boshqa she’rlari xalqchilligi bilan kitobxonni o‘ziga jalb etadi. Unda **Elbek baxshi** va shogirdi **Elomonning** o‘zaro aytishuvi misolida insonning o‘zligi, e’tiqodi hamda orzu-istaklari falsafiy-istioraviy yo‘sinda badiiy gavdalantirilganini ko‘rish mumkin.

Mutolaa davomida asarning nasriy tasvirida xalq dostonlariga xos ichki qofiyalanish tizimini uchratasiz. She’riy parchalarda esa xalqona til va she’riy nutqning go‘zal namunasi uyg‘unlashganiga ishonch hosil qilasiz.

“BAXSHIYONA” TURKUMIDAN



Elbek baxshi shogirdi Elomonga: “Dunyoga aytadiganingni aytgin, dimog‘ingni chog‘, ko‘ksingni tog‘ qilib, eson-omon qaytgin”, deb do‘mbirasini qo‘liga tutqazib, safarga jo‘natgan edi.

Ana endi Elomon qaytdi. Elbek baxshi shogirdining qo‘lidan ushlab, ko‘nglini xushlab: “Dunyoga nimalarni aytding, o‘ bolam?” deb so‘rab, Elomon javob berib turgan joyi ekan:

Maysaga ezmayman, deb aytdim,
Daraxtga kesmayman, deb aytdim.
Tuprog‘imga sen deb o‘lsam,
Og‘riqni sezmayman, deb aytdim.
Ayolga suyaman, deb aytdim,
Ishqingda kuyaman, deb aytdim.
Sening bosgan izlaringga
Boshimni qo‘yaman, deb aytdim.
Sahroga tog‘ bo‘lasan, deb aytdim,
Kechaga oq bo‘lasan, deb aytdim.
Shaytonga ayolni sevsang,
Imonday pok bo‘lasan, deb aytdim.
Qushlarga otmayman, deb aytdim,
Yorimga sotmayman, deb aytdim.

Haqni aytsam – o‘tda kuymayman,
Suvlarga botmayman, deb aytdim.
Chinorlarga xassan, dedim,
Osmonlarga pastsan, dedim,
Yulduzlarni qo‘lda tutib,
Tutganim yo‘q – mastsan, dedim.

Tog‘ ustiga chiqdim maston,
Ko‘z oldimda O‘zbekiston.
Yig‘layverdim, yig‘layverdim,
Dedim: “Iloyo, bo‘l omon”.
Ko‘zyoshga arzir – sen, dedim,
Quvonchga arzir – sen, dedim,
Bu boshim dunyoga arzir,
Shu boshga arzir – sen, dedim,
Qo‘shig‘im tarzi – sen, dedim,
Yuragim mag‘zi – sen, dedim,
Otamdan meros qolgansan,
Bolamdan qarzim – sen, dedim.

Elomon yana ko‘p aytdi, emranib turib xo‘b aytdi, jo‘shib aytdi, shoir-da, ba’zan qo‘shib aytdi. Shunda Elbek baxshi: “O‘ bolam! O‘ shoirlikda men yetmagan nolam, baxshi bo‘lib to‘liqib qolibsan, ilhom deganiga yo‘liqib qolibsan, endi senga oxirgi nasihatim shudir”, – deb ko‘ksida qo‘zg‘algan yelga soqoli pirillab, ovozi chaqmoqday gurullab, bir so‘z deb turgan ekan:

Ustozim deganing she’rfurush chiqsa,
Suyganim deganing erfurush chiqsa,
Podshohim deganing elfurush chiqsa,
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Dardlaring taningga joylansin.
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Ohlaring qo‘shiqqa aylansin!

Chin qolib, yolg‘onlar topsa marhamat,
Yaxshimas, yomonlar topsa marhamat,
Aldamchi zamonlar topsa marhamat –
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Dardlaring taningga joylansin.
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Ohlaring qo‘shiqqa aylansin!

Amir o‘g‘ri bo‘lsa, qozi – riyokor,
Vazir – shuhratparast, o‘g‘ri – ziyokor
Va ular xalqingdan kulsalar beor –
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Dardlaring taningga joylansin.
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Ohlaring qo‘shiqqa aylansin!

Donolar qorani oppoq, desalar,
Shoirlar haromni shu pok, desalar,
Qo‘rqsalar, dushmanni o‘rtoq, desalar –
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Dardlaring taningga joylansin.
Chidagin, bolam-ey, chidagin,
Ohlaring qo‘shiqqa aylansin!

Odamman, deb tursa temirlar, toshlar,
Desalar: “Dunyoda bitdi ko‘zyoshlar”.
Tug‘larning ustidan yursa molboshlar,
Sen chida, bolam-ey, sen chida.
Kuylagin – to‘xtama bir nafas!
Sen kuyla qilichning tig‘ida –
O‘shanda el-yurting chidamas!

Bu qo‘shiqni aytib, Elbek baxshi quyoshga tik qaragan ekan, ko‘zi yoshlanmabdi.

O‘ylab ko‘ring!

Elbek baxshining shogirdini safarga yuborishi sabablari nimada bo‘lishi mumkin? Elbek baxshining safar oldidan shogirdiga *“Dunyoga aytadiganingni aytgin…”,* deb uqtirishi zamirida qanday ma’no bor?

Keling, muhokama qilamiz

1. Elomonning *maysaga, daraxtga, tuproqqa, ayolga, sahroga, kechaga, shaytonga, qushlarga, yoriga* murojaat qilganining sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. Fikringizni bayon eting.
2. Vatanning *ko‘zyoshga, quvonchga, boshga, qo‘shiq mazmuniga, yurak mag‘ziga* arzishini qanday tushundingiz? Ushbu satrlar orqali Elomon timsoliga baho bering. U qanday yigit?
3. Elomonning *“Otamdan meros qolgansan, Bolamdan qarzim – sen, dedim”,* deyishida ajdodlar va avlodlarni birlashtirib turadigan qaysi rishtalar ko‘zda tutilgan?
4. Elbek baxshining shogirdiga nasihatlariga diqqat qiling. U shogirdini nimalardan ogoh qilyapti? Nima uchun?
5. “*Ustozim deganing she’rfurush chiqsa*” misrasini sharhlashga harakat qiling. She’rfurushlik qanday bo‘ladi?
6. Elbek baxshi shogirdiga dunyo talotumlariga chidashni aytgani holda *“qilichning tig‘ida”* bo‘lsa ham kuylashdan to‘xtamaslikni uqtirganini qanday izohlaysiz?

Ijodiy ish

Elbek baxshi shogirdi Elomonga: “*Dunyoga aytadiganingni aytgin, dimog‘ingni chog‘, ko‘ksingni tog‘ qilib, eson-omon qaytgin*”, – deb do‘mbirasini qo‘liga tutqazib, safarga jo‘natgan edi. Sizningcha, u qanday safar bo‘lishi mumkin? Elomon qayerlarga borgan, nimalarni, kimlarni ko‘rgan deb o‘ylaysiz? Javobingizni matn shaklida yozing.

“KARVON KO‘RDIM…”

Elbek baxshi bir kambag‘alning to‘yini gurullatib, necha kampir-qizlarning yuragini dirillatib ovuliga qaytib kelayotgan edi, bir karvonga duch keldi. Karvonning atrofida necha otliqlar chopishib kelishyapti, tuyalarni yetaklagan shotirlar qoqilib kelishyapti. Osmonga mushaklar otilgan, tuyalarga atlas, kimxoblar yopilgan, yosh-yalanglar bo‘za ichib bo‘kirishgan, bir-biriga do‘q urishgan, tuya ustidagi qizlar ularga lab burishgan, karvonboshining peshonasi tirishgan – oldinda kelyapti.

Elbek baxshi: *“Ho‘v karvonboshi, yo‘l bo‘lsin?”* – deb so‘radi, karvonboshining oldini o‘radi.

“Yo‘ldan qoch, bachchag‘ar, kelin olib ketyapmiz”, – dedi karvonboshi. Elbek baxshining qulog‘iga yig‘i tovushi urildi. Sezdi – uyi kuygan. Bu – Oytumanning tovushi. Shunda: *“Ey, kambag‘allik qursin! Orzum ochilmay so‘ladigan bo‘ldi, o‘zim hasratda o‘ladigan bo‘ldim”*, – deb bir so‘z aytib turgan ekan:

Karvon ko‘rdim tuyalari bo‘zlab borar,
Nortuyada mening yorim muzlab borar.
Menga bergan va’dalari esdan chiqib,
Ostonasi tillo yurtni izlab borar.

Peshonangning yozdig‘idan ayrilma, yor,
Jonim chiqar – qo‘shiq aytsam, qayrilma, yor!

Oytuman yor ketib borar karvon bilan,
Og‘rinma, dil, mard qoladi armon bilan.
Mol-dunyoning izmin tutib ketaversin,
Men qolayin yurak degan sarbon bilan.

Peshonangning yozdig‘idan ayrilma, yor,
Jonim chiqar – qo‘shiq aytsam, qayrilma, yor!

Oytuman yor, tumandayin suzib ketding,
Yuragimning qal’asini buzib ketding.
Parchalansam – meni qo‘shiq yig‘ishtirar,
Sen qo‘shiqsiz qolding, gulim, to‘zib ketding.

Peshonangning yozdig‘idan ayrilma, yor,
Jonim chiqar – qo‘shiq aytsam, qayrilma, yor!

Karvon yo‘li ketgunicha qizg‘aldoqzor,
Yig‘lamagin, yig‘lagandan dunyo bezor.
Kulib-kulib, quvnab-quvnab ketavergin,
G‘amga o‘zim xaridorman, o‘zim bozor.

Peshonangning yozdig‘idan ayrilma, yor,
Jonim chiqar – qo‘shiq aytsam, qayrilma, yor!

Qorli tog‘dan naridadir o‘zga diyor,
O‘zga yurtda kelin bo‘lib qolishing bor.
O‘zga yurtda o‘z yurtingni eslab turgin,
Menga emas, tuprog‘ingga bo‘l intizor.

Peshonangning yozdig‘idan ayrilma, yor,
Jonim chiqar – qo‘shiq aytsam, qayrilma, yor!

Men-chi? Menga goh shodlik, goh alam to‘lar,
Har satrimga kulgim to‘lar, nolam to‘lar.
Bu olam-ku, manim dilim yarim etdi,
Yarmi bilan kuylasam ham olam to‘lar.

Peshonangning yozdig‘idan ayrilma, yor,
Jonim chiqar – qo‘shiq aytsam, qayrilma, yor!

Keling, muhokama qilamiz

1. Oshiqning zor-zor kuylashi bilan tuyalarning bo‘zlab borishi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor? Asos keltiring.
2. Nima deb o‘ylaysiz, *“Og‘rinma, dil, mard qoladi armon bilan”*, *“Men qolayin yurak degan sarbon bilan”* satrlari lirik qahramon tabiatidagi qanday xususiyatlarni yuzaga chiqargan? Fikringizni asoslang.
3. *“Parchalansam – meni qo‘shiq yig‘ishtirar, Sen qo‘shiqsiz qolding, gulim, to‘zib ketding”.* Ushbu misralar orqali oshiq yigit Elbek baxshi va Oytumanning muhabbatidagi qanday xotiralar yaqqol seziladi? Oytumanni yig‘i tovushidanoq tanib olgan Elbek baxshining sinchkovligi, ziyrakligiga baho bering.
4. *“O‘zga yurtda o‘z yurtingni eslab turgin, Menga emas, tuprog‘ingga bo‘l intizor”.* Oshiq nega bevafo yoriga o‘ziga emas, o‘z yurtiga intizor bo‘lishi zarurligini ta’kidlayapti? Bundan maqsadi nima bo‘lishi mumkin?
5. Oytumanning bevafolik qilgani, ammo bundan afsusda ekanini qaysi satrlar orqali sezish mumkin? Fikringizni dalillang.
6. She’rning naqarotiga diqqat qiling. Uni sharhlab, tushuntiring. “Yozdig‘i” so‘zining ma’nosi haqida o‘ylang, she’rda nega aynan shunday qo‘llangani haqida fikringizni bildiring.
7. Kelin olib ketilayotgan karvon yo‘lining qizg‘aldoqzorligi nimaning ramzi deb o‘ylaysiz? Javobingizni asoslang.

Topshiriq

O‘zbekiston xalq artisti Sherali Jo‘rayev kuylagan “Karvon ko‘rdim…” qo‘shig‘ini tinglang. Kuy she’r mazmuniga qay darajada mos tushganiga baho bering. Qo‘shiqning ruhiyatingizga ta’siri haqida gapirib bering.

2

“TONG TITRAYDI...”

Tong titraydi kech kuzakning quchog‘ida,
Yulduzlarni o‘chirmoqda gulgun shafaq.
Jonim, qalbim she’riyatning pichog‘ida...
Zamin – tilsim, osmon – tilsim... she’r – beshafqat!

Men qiynaldim. Xayolimning qanotida
Dengizlarni ko‘targancha tolib uchdim.
Yulduzlarni ko‘p ko‘rganman hayotimda,
Dengizdagi yulduzlarni keldi quchgim.

Ko‘kka boqdim, o‘t tutashdi jonim aro...
Qat-qat bulut qatlarida ne sir-asror!
Hayrat ichra o‘ldirgusi meni samo,
Ona zamin, ucha qolay, qo‘yib yubor!

Men yor, dedim... Laylimi yo, Shirinmi yo!
Yoki endi tug‘ilajak biror malak?
Mana – men, deb ko‘z oldimda bo‘ldi paydo,
Mana – men, deb she’rdan boqdi yakto yurak.

Yulduzlarni o‘chirmoqda gulgun shafaq,
Tong titraydi kech kuzakning quchog‘ida,
She’r yozilar... Qiynoq, senga bo‘lsin sharaf,
Jonim, qalbim she’riyatning pichog‘ida...

Hali butun ro‘yi jahon she’r bo‘lajak,
Faqat bekor bilib orom quchog‘ini –
Bu dunyoni sirga ko‘mib yashash kerak,
Qalbga sanchib she’riyatning pichog‘ini!

Keling, muhokama qilamiz

1. *“Kech kuzak”* qaysi payt? Nega shu vaqtda “*tong titraydi*”? Shoirning ruhiy holatidan kelib chiqib, fikr bildiring.
2. Zamin bilan osmonning *“tilsim”* ekanini ta’kidlagan shoir nima uchun *“she’r – beshafqat”* degan xulosaga keladi-yu, so‘nggi bandda *“Hali butun ro‘yi jahon she’r bo‘lajak”,* deya jar soladi?
3. Shoirning uchinchi bandda ifodalangan kechinmalarini tahlil qiling. Uning ona zaminga iltijosini tushuntirishga harakat qiling.
4. She’r yoki biror ijodiy ish yozib ko‘rganmisiz? O‘sha paytdagi ruhiy holatingizni tasvirlab bera olasizmi? Holatingiz *“She’r yozilar... Qiynoq, senga bo‘lsin sharaf, Jonim, qalbim she’riyatning pichog‘ida”* misralari bilan uyg‘unmi yoki uyg‘un emas? Izohlang.
5. *“Bu dunyoni sirga ko‘mib yashash kerak”* misrasi orqali shoir nima demoqchi? Nega u shunday xulosaga kelgan deb o‘ylaysiz?
6. She’rning birinchi va beshinchi bandlariga nazar soling: u yoki bu misra o‘rin almashgan holda kelgan. Bundan shoir qanday badiiy va falsafiy maqsadni ko‘zlagan bo‘lishi mumkin?

Topshiriq

Quyidagi so‘zlarning ma’nosini topib, yozing:

So‘zlar	Izohi	So‘zlar	Izohi
bo‘za		yakto	
shotir		kuzak	
yozdig‘i		gulgun	

NAZARIY MA’LUMOT

She’riy nutq va uning vositalari

Badiiy nutq ritmik tashkillanishi jihatidan ikki shaklga – she’riy (tizma) va nasriy (sochma) ko‘rinishlarga ega. Nasriy nutq qurilishi jihatidan kundalik muloqotda qo‘llanuvchi nutqqa yaqin bo‘lsa, she’riy nutq so‘z san’atiga xos maxsus hodisa.

She’riy nutq muayyan o‘lchov (vazn) asosidagi **ritmga** ega, o‘zining musiqiy jarangi, hissiy to‘yintirilganligi bilan farqlanuvchi nutqdir. She’riy nutqdagi o‘ziga xos intonatsiya, musiqiylik ***ritmik bo‘laklar va ritmik vositalar,*** o‘ziga xos fonetik tashkillanish, turli sintaktik usullar yordamida vujudga keladi. She’riy yo‘lda yozilgan asarda kayfiyatning hosil qilinishi, kechinmaning o‘quvchiga “yuqtirilishi”da uning **ritmik-intonatsion** jihati muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash joizki, bu xususiyatlar uning mazmuni bilan ham bevosita aloqador.

Ritm – tabiiy hodisa va jarayonlarning muayyan vaqt davomida takrorlanib turishi. Masalan, tarnovdan tomayotgan tomchilar tovushi, ariqdagi suvning bir maromda shildirab oqishi, fasllar, kun bilan tunning almashinuvi; insonning yurak urishi, nafas olishi, muayyan harakatni bajarishi – bularning barida ritm kuzatiladi. Ritm orqali so‘zda sehr, ta’kid, ko‘tarinkilik paydo bo‘ladi. Ritmlilik kishiga zavq-shavq bag‘ishlaydi, nutqdagi hissiyot va emotsionallikni oshiradi *(U.To‘ychiyev)*.

Badiiy adabiyotda ritm “she’riy nutqning bosh alomati” *(I. Sultonov),* uning maftunkorligini ta’minlovchi vosita, nutqni “ziynatli nutq”qa *(Aristotel)* aylantiruvchi hodisadir.

Ritmik bo‘laklarga **bo‘g‘in (hijo), turoq (rukn), misra va band**ni kiritish mumkin.

Bo‘g‘in (hijo) bir havo zarbi bilan aytiluvchi tovush yoki tovushlar guruhi bo‘lib, u barcha she’r tizimlarida eng kichik ritmik birlik hisoblanadi. Barmoq tizimi uchun bo‘g‘inning miqdori va satrlararo tengligi muhim ahamiyat kasb etsa, aruz tizimida bo‘g‘inning sifati (qisqa, cho‘ziq yoki o‘ta cho‘ziqligi) asosiy mezon sanaladi. Odatda aruz tizimida bo‘g‘in **hijo** atamasi bilan yuritiladi.

Turoq bilan **rukn** ritmik bo‘lak sifatida bir-biriga yaqin hodisalardir. Turoq barmoq tizimiga xos bo‘lib, bo‘g‘inlarning ma’lum miqdorda guruhlanishidan hosil bo‘ladi. Aruz tizimiga xos rukn esa qisqa va cho‘ziq hijolarning muayyan qonuniyat asosida birikuvidan vujudga keladi. Shu o‘rinda bir narsani unutmaslik kerak: turoq doim tugal so‘z bilan yakunlanishi, ya’ni bir so‘zni hech qachon ikki qismga ajratib yubormagani holda rukn so‘zning bir qisminigina o‘ziga olishi, ya’ni uni bo‘laklarga bo‘lib yuborishi mumkin.

She’rning alohida satrga joylashtirilgan bo‘lagi **misra** deb yuritiladi. Misra bir necha turoq (rukn)ni birlashtirishi ham, birgina turoq yoki so‘zga teng bo‘lishi ham mumkin. Misra oxirida ritmik zarb yoki muayyan pauza mavjud bo‘lishi xarakterli holdir. Shu jihatdan qaralsa, erkin she’rlarda uchraydigan: zinapoya shakliga solinib, har biri alohida satrga joylangan so‘zni misra deyish to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki ularda zarb bo‘lgani holda, misra pauzasi mavjud emas.

Band she’riy misralarning muayyan satrlarda uyushib kelishi bo‘lib, zamonaviy she’riyatda to‘rt misrali bandlar keng tarqalgan. Xalq og‘zaki ijodidagi qo‘shiqlar ham asosan to‘rt misrali bandlardan iborat. Mumtoz she’riyatda bandli she’rlar *musammatlar* deb ataladi. Ular uchlikdan o‘nlikkacha bo‘lishi mumkin.

She’riy nutqning shakllanishida ritmik bo‘laklardan tashqari ritm hosil qiluvchi va ohangdorlikni kuchaytiruvchi qo‘shimcha unsurlarning ham badiiy-estetik ahamiyati bor. Ularni ritmik bo‘laklardan farqlagan holda **ritmik vositalar** deb ataymiz *(D. Quronov)*. Ritmik vositalar she’r ritmining kuchaytirilishiga xizmat qilib, ularning asosiylari sifatida **ritmik pauza, qofiya, radif** kabilarni ko‘rsatish mumkin.

She’rdagi har bir ritmik bo‘lak boshqalaridan **ritmik pauza** hisobiga ajratiladi. Ritmsiz she’r bo‘lmagani kabi pauzasiz ham she’r yo‘q. Buning sababi shundaki, nutq bo‘laklarining muayyan o‘lchovda takrorlanishigina ritmni yuzaga keltiradi, takrorlanish tartibli pauzalarsiz yuz bermaydi. Turoqlar orasidagi to‘xtam kichik pauza, misra va bandlar orasidagi to‘xtam esa katta pauza deyiladi.

Qofiya asosan misra yakunida keluvchi ritmik vosita bo‘lib**,** so‘z, qo‘shimcha, ba’zan so‘z birikmalarining ohangdosh bo‘lib kelishiga asoslanadi. Qofiya ritmik jihatdan misrani ta’kidlab ko‘rsatishga, she’rning ohangdorligi, musiqiyligi, ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Qofiyadan keyin takrorlanadigan so‘z yoki so‘zlar qo‘shilmasi **radif** deyiladi. Radif ko‘proq mumtoz nazmga xos ritmik vosita bo‘lsa-da, ba’zan zamonaviy she’riyatda ham qo‘llanadi.

Masalan, Usmon Azimning “Karvon ko‘rdim” she’ridan olingan quyidagi parchada *karvon-armon-sarbon* so‘zlari qofiyadosh bo‘lib, ulardan keyin takrorlanib kelgan “bilan” so‘zi radifdir. Turoqlar tartibi 4+4+4. Har bir turoq ritmik pauza asosida ajratilgan:

Oytuman yor / ketib borar / karvon bilan,
Og‘rinma, dil, / mard qoladi / armon bilan.
Mol-dunyoning / izmin tutib / ketaversin,
Men qolayin / yurak degan / sarbon bilan.

Topshiriq

Usmon Azimning she’rlaridan birini yod oling. Aytishda she’riy nutq va uning vositalariga amal qiling.



ASQAD MUXTOR (1920 – 1997)

Dars davomida:

- “Chinor” romanidagi asosiy va ikkilamchi g‘oyalarni aniqlaymiz;
- asar voqealarini tahlil qilamiz;
- guruhlararo bahs va taqdimotlar o‘tkazamiz.

Asqad Muxtor 1920-yil 23-dekabrda Farg‘ona shahrida temiryo‘lchi oilasida dunyoga kelgan. Oiladagi uchinchi farzand bo‘lgan adib endigina 11 yoshga to‘lganida otasi vafot etadi. O‘n ikki farzandni boqib tarbiyalash nihoyatda og‘irlik qilgani uchun onasi bolalarini mehribonlik uyiga topshiradi. Asqad Muxtor ham voyaga yetguniga qadar o‘sha yerda tarbiyalanadi.

O‘rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O‘zMU)ni tamomlagach, turli gazeta va jurnallarda faoliyat yuritadi.


Adibning “Po‘lat quyuvchi”, “Hamshaharlarim”, “Rahmat, mehribonlarim”, “Chin yurakdan” *(bolalarga atalgan)* “99 miniatyura”, “Karvon qo‘ng‘irog‘i”, “She’rlar”, “Quyosh belanchagi”, “Sizga aytar so‘zim” kabi *she’riy to‘plamlari*, “Hayotga chaqiriq”, “Dunyo bolalari” kabi bolalarbop *hikoyalar to‘plamlari*, “Daryolar tutashgan joyda”, “Qoraqalpoq qissasi”, “Buxoroning jin ko‘chalari”, “Bo‘ronlarda bordek halovat”, “Jar yoqasidagi chaqmoq”, “Kumush tola” *qissalari*, “Opa-singillar”, “Tug‘ilish”, “Davr mening taqdirimda”, “Chinor”, “Amu” *romanlari* nashr etilgan.

Asqad Muxtor umrining so‘nggi yillarida adabiy-estetik qarashlari, badiiy-falsafiy mushohadalari ifodalangan *“Uyqu qochganda” (“Tundaliklar”)* nomli risola yozdi.

Adib *“O‘zbekiston xalq yozuvchisi”* unvoni va **“***Do‘stlik***”** ordeni bilan mukofotlangan.

Asqad Muxtor 1997-yil 17-aprelda vafot etgan.

MUTOLAADAN OLDIN



“Ilm-Ziyo-Zakovat” nashriyoti, 2020-yil

“Chinor” romani romanchilik uslubida yangilikdir. Uning umumiy tuzilishi ko‘hna Sharq adabiy an’analariga qurilgan bo‘lib, roman 5 hikoyat, 5 rivoyat, 5 qissadan tashkil topgan. Yozuvchi roman voqealariga ***“rivoyatlar, hikoyatlar, qissalar”*** deb nom bergan bo‘lib, u 1969-yilda nashr etilgan.

Romanning bosh qahramoni – 93 yoshli Ochil buva. Asar voqealarini Ochil buva timsoli birlashtirib turadi. Mo‘ysafid avlodlarini izlab, ularning barbod bo‘lgan hayotini to‘g‘ri yo‘lga solish maqsadida safarga chiqadi…

Siz o‘qiydigan parcha (qissalar)da Akbarali ismli yigitning qismati tasvirlangan. Ruhiy iztiroblar iskanjasidagi Akbaralining hayoti bir lahzada izdan chiqib ketadi. Asarni o‘qib bo‘lgach, qahramon boshiga tushgan tashvishlarning asl sabablarini tahlil qilamiz.

CHINOR

(Romandan parcha)

I

Tog‘ bag‘ridagi huv o‘sha bulut bulut emas, chinor. Darvoqe, tog‘ning o‘zi ham, qishloq ham uning nomi bilan Chinortog‘, Chinorqishloq deb ataladi. Bizning Ochil buva shu yerda tug‘ilgan. Men gapni to‘g‘ri shu kishidan boshlamoqchi edim-u, lekin bu joylarda chinorsiz hech narsani tushuntirib bo‘lmaydi. Hatto guzar, undagi katta gavjum choyxona haqida gap ketganda ham, “Chinorda chaqchaqlashib keldik”, “Chinorga borib, bir osh qilaylik”, deyishadi. Butun qishloq shu chinorning soyasida joylashgan. Ochil buva bugun chinor bilan xayrlashmoqda. Butunlay emas, albatta. Vaqtincha. U safar oldidan har gal shunday qiladi, tirik odam bilan xayrlashganday uzoq tikilib, pichirlashib xayrlashadi.

Hali oppoq tong. Nur uyg‘otgan qushcha tovushining ilk kumush halqachalari osmonga o‘rlab ketdi. Nim shabadada yashil bulutning har joy-har joyi sovunday ko‘pirib, azim chinorning sirli bag‘ridan chiqib kelgan sokin va qudratli shovullash olamni tutdi. Quloq solmaganga bu tovush eshitilmaydi ham, lekin Ochil buva uchun hozir tong ham go‘yo mana shu shovullashdangina iborat edi. U guzardagi katta oq toshsupada tikka turibdi. Ana shu tog‘ qishlog‘ida bunday qoyatosh serob, ular yo‘lkalarda zinapoya, ariqlarda ko‘prik, chashmalarda bosma, choyxonalarda supa vazifasini o‘taydi. Chinor ham ana shunday qoyatoshdan o‘sib chiqqan, lekin uning tomirlari tosh ostidagi ona tuproq bag‘rida Chinortog‘ning ildizlari bilan tutashib ketgan, deyishadi.

Hali oppoq tong. Guzarda ham, qishloq ko‘chalarida ham bir kimsa yo‘q. Faqat Ochil buva bilan chinor yuzma-yuz turibdi. Ochil buvaga u doim tirikday, qadrdon suhbatdoshday tuyuladi. Dono suhbatdosh. Yoshi allaqachon mingdan oshib ketgan. Ming yil! Uning navnihol paytini ko‘z oldiga keltirib bo‘lmaydi. U vaqtlar yil sanog‘i faqat uchta raqam bilan ifodalangan bo‘lsa kerak. Ming yil! Har bahorda yangi libos, yangi hayot. Uning o‘n to‘qqiz qulochli g‘o‘dir tanasi o‘zining minglab qatlamlari bilan go‘yo hayotning manguligini tasdiqlab turadi.

Son-sanoqsiz panja barglari ham betinim qimirlab, nurli havodan rizqini terib olayotganday yuksaklikka intilgani intilgan. Ochil buva uni doim yosh ko‘radi. Mana hozir ham oppoq tongda navqiron gurkurab, butun vujudidan sarin yoshlik barq urib turibdi. Tarvaqaylab o‘sgan silliq, yashil butoqlaridan ko‘z o‘rmalab tepaga chiqqan sari tanasi sutday oqarib boradi. Guzar ustiga og‘ib turgan yettinchi butog‘i hali juda yosh, borgan bo‘lsa besh yuz-olti yuz yashardir... U Ochil buvaning yigitlik chog‘ida ham xuddi shunday edi, o‘shanda ham uning ko‘ngliga shu qiyos kelgan.

Ha, chinorga tikilib, Ochil buva butun umrini eslaydi. Unga qarab tursa, ko‘z oldida dengizday bir cheksizlik, yam-yashil cheksizlik ko‘rinadi.

Umri cheksizday tuyuladi. Go‘yo o‘zi ham ming yillardan beri yashayotgandeg-u, yana ming yillar umr ko‘radigandek. Shunda u chor atrofga, butun tabiatga xuddi xo‘jayinday nazar tashlaydi, tog‘lar orqasidagi qora bulutlar, uzoqda yilt-yilt etgan chaqmoqlar bilan senlab gaplashadi:

– Qo‘y endi, tongni qiynama, tong otib olsin!

Uzoq tikiladi buva chinorga. Uzoq suhbat qiladi, xayrlashadi. Oxiri ko‘ksida soqoli sal titrab, tovushsiz, ko‘zyoshsiz yig‘lab yuboradi. Yo‘q, u qattiq g‘ussa chekayotgani yo‘q. Chamasi yig‘lagan ham uning o‘zi emas, go‘yo boshqa birov...

* * *

– Azimjon, kun tig‘iga qolmay yo‘lga chiqib olaylik! – dedi Ochil buva mashina tomon yurib.

Ichkaridan hali ohori to‘kilmagan yangi beqasam to‘n kiygan, jussasi kichik, mullavachchaga o‘xshash rangi siniqqina bir yigit ikkita tugun ko‘tarib chiqdi. Azimjon shu edi. Ochil buvaga qaraganda u boshqa bir olam: g‘archli yaltiroq etik[1], sheviot shim[2], ipak ko‘ylak... hammasi bejirim, hammasi nafis, taxi buzilmagan. Ayniqsa, beqasam bilan chust do‘ppini endi kiyganga o‘xshaydi, xuddi omonatday ehtiyot qilardi. Ochil buva uning oldida tog‘dek. Chang qo‘nsa bilinmaydigan qumrang ko‘n etikning brezent qo‘nji baquvvat boldirida yumshoqqina yig‘ilib turibdi. Uzun oq yaktak ustidan pastgina, bo‘shgina bog‘langan qiyiqlar belning qadimiy navqiron kuchini ardoqlayotgandek.

Boboning keksaligi faqat katak-katak charmdek pishiq ko‘ksini to‘ldirib turgan qorday oq to‘rva soqolidangina bilinar edi. Ochil buva o‘tkir qora ko‘zli, serqosh, chiroyli yigit bo‘lgan. Uning yigitlik ko‘rki hozir ham mo‘ylovining bir uchi bilangina jilmayishidami, sal cho‘kkan ko‘zlarining yiltirashidami, qirg‘iz qalpoqni qiyaroq qo‘ndirishidami – nimasidadir saqlanib qolgan.

… Ochil buva bolalari-yu nevaralaridan bir yuz o‘ttiz yettitasini biladi. Undan narisining – evara-chevaralarining hisobiga yetolgan emas. Bu oila butun o‘lka bo‘ylab yoyilgan. Mana bu qadrdon ona tuproqning har qarichiga ildiz otgan bu avlod. Bir yeriga bir nayza sanchsang, shularning tomiriga tegadi. Kattakon bir el. Lekin bobo uchun esa oddiy oila.

“Bolalarim”, deydi.

Azimjon qirqlarga borib qolgan bo‘lsa ham, Ochil buva unga “bolam”, deganida yarashib turadi…

Azimjon begona yurtda tug‘ilib katta bo‘lgan. Ota yurtimda qavm-qarindosh-u avlod-ajdodimiz tamom qirilib ketgan, degan fikrda ekan. Daf’atan butun bir el, yuzlab jigarbandi, bu tuproq, bu manzara, bu tarix, bu afsonalar-u bu voqealar – barchasi o‘ziniki ekanini hali aqliga sig‘dirolganicha yo‘q.

[1] **G‘archli etik** – yurganda g‘arch-g‘arch tovush chiqaradigan etik turi.

[2] **Sheviot shim** – jun tolasi yoki aralash toladan to‘qiladigan shim.

Azimjon o‘zi badavlat korchalon. Yigit yoshidan buyon qorako‘l bo‘yicha noyob mutaxassis. Tug‘ilgan yurtidagi katta qorako‘l firmasida salmoqdorgina otameros ulushi bor ekan. Esini tanibdiki, bobolar yurtini bir ziyorat qilishni orzu qilardi, mana, xalqaro ko‘rgazma bahona kelib qoldi…

… Bir haftadan beri savolga tutayotgan Azimjonga u qarindoshlarining ko‘pi haqida gapirib berdi. … Lekin hammasini gapirib tugatib bo‘ladimi? Qaysi birini aytsin? Bularning hammasini gapirib berishdan bitta-bitta borib ko‘rish oson. Buning ustiga, bobosining hikoyalariga Azimjon uncha tushunqiramayapti ham shekilli. Urug‘ini zamon shamoli uchirib, begona yurtda unib chiqqan bu zaif nihol boboning dengiz dovuliday shiddatli va go‘zal hikoyalarini ko‘tarolmadi chog‘i, oxiri ishonmay qo‘ygani bilinib qoldi. Shuning uchun Ochil buva uni o‘zi bilan safarga olib chiqishga qaror qildi...

… Ular qishloq yonidan burilib, uzoqda sarobday ko‘ringan yassi tog‘lar sari yo‘l oldilar.

Tabiat sokin, ufq jimirlaydi, tikkada tinmay chuldiragan to‘rg‘ay tovushi jaziramani sal kesganday bo‘ladi.

– Cho‘pon ham bo‘lganmisiz, bobo? – yana ingichka ovozi eshitildi Azimjonning.

– Ha, chorva ham boqqanmiz, paxta ham ekkanmiz, qilich ham chopganmiz, bolam.

– Chinorning gapirganini...

– Ha, el og‘zidan eshitgan bo‘lsang, unisi ham rost bo‘lsa bordir... Mana, yerning ham nafasini, yurak urishini eshitsa bo‘ladi.

– Eshitilmaydi-ku!

– Go‘dakmiz-da, go‘dakmiz. Go‘dak ona siynasiga yopishib emishni biladi, uning nafas olishi-yu yurak urishi bilan ishi yo‘q...

– Siz ham go‘dakmisiz, bobo? – kulib so‘radi Azimjon.

– Ha, men ham go‘dakman. Mana shu yaylovlarda yalangoyoq shabnam to‘kib yurgim keladi. Maysalarda chaqaloqday yumalagim keladi. Qurbim kelsa, yer yuzidagi jamiki yo‘llarni yayov kezib chiqardim. Kapalakning qanotiga yoki biron oddiy bargga uzoq tikilib qaraganmisan? Gulni hididan taniysanmi? Uzumning xillarini sanaganmisan? Hammasini ko‘rib to‘yish, hammasi bilan... xayrlashish kerak.

Bobo jim qoldi, Azimjon bilan haydovchi bola ham anchagacha indamay yurdilar. Bobo davom etdi:

– Agar men yozuvchi bo‘lsam, butun umrimni bittagina kitob yozishga sarflardim.

– U qanday kitob, bobo?

–Xayrlashuv kitobi. Tabiat bilan, uning husni, ko‘rki, ulug‘vorligi bilan, barglar, gullar, to‘rg‘aylar, chashmalar, yulduzlar, sahrolar, jamiki go‘zalliklar bilan to‘yib, xo‘rsinib, yig‘lab xayrlashuv kitobi. Shunday kitob yo‘q, bolam. Shunday kitobni yozgan odam bearmon ketardi...

II

... Mehmonxona tez topildi: chiroqlar ko‘proq tomon yurishgan edi, katta chorrahadan chiqishdi, undan sal narida ikki qavatli jo‘ngina mehmonxonaning viveskasi[1] ko‘rinib turardi.

Navbatchi – xushmuomalagina, uyqusiragan bir kampir ularni yo‘lakning narigi boshidagi katta xonaga joylashtirib, choy damlash uchun objo‘sh[2]ni qayerdan olishni ham ko‘rsatib qo‘ydi. Yaxshi uyqubop joy ekan. Bir qavatli derazadan uzoqdagi tog‘ daryosi – Shodasoyning bir me’yorda shovullashi eshitilib turibdi.

[1] **Viveska** – peshlavha.
[2] **Objo‘sh** – qaynagan suv.

– Mana, – dedi o‘z ko‘nglini o‘zi ko‘tarib Ochil buva, – shukr, yetib keldik. Bemalol dam olaylik. Akbaralini bo‘lsa ertaga topib olamiz, hech qayoqqa ketmaydi. – U etigini yechib, odaticha karavotga chiqib, chordana qurdi. Shunday bir o‘tirib, soqolini tutamlab, chapga buramasa, nafas rostlaganday bo‘lmas edi. – Lekin muzey eshigini qoqqanimiz qiziq bo‘ldi, – dedi u yana, – shahar juda ham o‘zgarib ketibdi-da, a?..

Charchagan Azimjon yelkasini qisdi. U qo‘l yuvgach, qiyig‘ini stolga yozib, non sindirdi, xurjunni yoniga tortib, kovlashtira boshladi. Ochil buva nafas rostlagach, tunuka choynakni olib, choy damlagani chiqdi.

“Kubovaya” deb yozilgan xonani ochsa, hammomdagidek issiq hovur gup etib yuziga urdi, burchakda katta bak sharaqlab qaynab yotar edi. Ochil buva choyni achchiqqina qilib damlab, orqasiga qarasa, bir odam qaynoq suv olmoqchi bo‘lib piyola tutib turibdi.

– Choy quyib bera qolay, – dedi.

– Suv ham bo‘ladi, dori ichmoqchi edim, – dedi haligi odam. Ochil buva uning yuziga qaramadi, bug‘ ichida ko‘rib ham bo‘lmasdi.

– Choy yaxshi, tuting piyolangizni, savobtalab odammiz, – to‘latib quyib berdi, choyning xushbo‘y hidi dimog‘ga urildi.

– Rahmat, – dedi notanish odam.

Ochil buva choynagini ko‘tarib yo‘lakka chiqqanda haligi odamning tovushi qulog‘iga tanishdek tuyulib, to‘xtab qoldi. Qaytib kirmoqchi edi, u odamning o‘zi chiqib, lim-lim to‘la piyolasiga tikilgancha yonidan o‘tib ketdi. O‘tib ketdi-yu, nariroqqa borib u ham to‘xtadi. Lekin orqasiga qayrilib qaramadi, cholning to‘xtab turganini sezgan edi.

– Menga qarang, bolam, – dedi Ochil buva u tomon yurib, u odam ham o‘girildi. Ochil buva shundoqqina ro‘parasiga borib to‘xtadi. Ular bir-birining yuziga tikilib qoldi.

– Sen... – dedi Ochil buva sekin, undan ko‘z uzmagan holda egilib, issiq choynakni yoniga, poyandozga qo‘ydi. Yana tikilib qolishdi. Yo‘lakning u boshidagi chiroq ularning yuzini xira yoritar edi.

– Buva! – deb xunuk qichqirib yubordi haligi kishi, piyola qo‘lidan tushib sindi. Ular quchoqlashib ketishdi.

Bu Akbarali edi. Ochil buva uni zo‘rg‘a tanidi. Vaqt ko‘p o‘tganidan emas, yetti yilda odam bunchalik o‘zgarmaydi. O‘ttiz yoshida bunchalik qarimaydi. Akbaralining hayotida, shubhasiz, bir musibat yuz bergan edi. Uning suyagi qolibdi, xolos. Yonoqlari turtib chiqqan, oq oralagan soch-soqoli o‘siq, ko‘zlarida nur yo‘q. U gapirolmay qoldi, ko‘z tagidagi ko‘k xaltachalari titrab, yig‘lab yubordi.

– Kasalmisan, bolam?

Akbarali yengi bilan yuzini to‘sib, bosh silkidi: “Yo‘q”.

– Qamoqdan chiqdingmi? – dedi Ochil buva tikka qarab.

Akbarali bosh qimirlatdi: “Yo‘q”.

– Nega bu yerda yuribsan? Mehmonxonada...

Akbarali chuqur botgan ko‘zlari bilan bobosiga iztirobli tikildi: “Hali hech narsadan xabaringiz yo‘q ekan...”

– Hammasini aytib beraman. Sizga aytib beraman, buva...

– Uzoq gapmi?

– Uzoq gap.

– Biz seni qidirib yuribmiz... Azimjon ham shu yerda.

Akbarali tushunmadi: “Nega qidiradi? Azimjon kim?”

– Azimjon-chi, senga ammavachcha bo‘ladi. Chet eldan... Seni ko‘rgani keldi.

Akbarali tushunmadi. Uning chalkash, zaif o‘ylari boshqa yoqda ekani yuz-ko‘zidan bilinib turardi.

– Buva, sizga aytib beraman... faqat sizga. – U Ochil buvani o‘z xonasiga yetakladi.

Xona g‘ira-shira, sovuq, bir stol, bir karavot; allaqanday qo‘lansa hid anqir edi. Ochil buva derazani ochib xonani shamollatgach, Azimjonni chaqirib keldi. Azimjon patnisda non-choy ko‘tarib kirdi. Tanishgan bo‘ldilar, Akbarali unga tikilib turdi-yu, indamadi, kimligini bilolmadi chog‘i. Azimjon ham qarindoshini boshqacha tasavvur etgani uchun hozir uni ko‘rib birdan gap topolmadi.

– Gapir, – dedi Ochil buva. Uning charchog‘i ham, uyqusi ham qochgan, ko‘ngli bir shumlikni sezganday keksa, horg‘in yuzini betoqatlik ko‘lankasi qoplagan edi.

Keling, muhokama qilamiz

1. Yozuvchi voqealarni Ochil buvadan emas, aynan chinor va Chinorqishloq tasviri bilan boshlashni afzal ko‘rganini yozadi. Buning ahamiyatini tushuntiring.
2. Tong tasviriga diqqat qiling. Siz ham shunday tong otishiga guvoh bo‘lganmisiz? Tasvirlab bering.
3. Chinor bilan suhbatlashuv davomida Ochil buvaning yig‘lab yuborishi sizga qanday ta’sir qildi? Uni qanday xotiralar qiynayapti deb o‘ylaysiz?
4. Chinorning yettinchi butog‘i buvaga nimalarni eslatayotir, sizningcha? Ochil buvaning har doim safarga chiqish oldidan chinor bilan xayrlashuviga munosabat bildiring.
5. Ochil buvaning “go‘dakmiz” degan iqrori zamirida nimalar bor deb o‘ylaysiz? *“Onaning nafas olishi-yu yurak urishidan bexabar”,* deganda qanday toifadagi insonlar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin?
6. Ochil buva bilan Akbaralining mehmonxonadagi tasodifiy uchrashuviga, Akbarali tasviriga diqqat qiling. Buva nimaga asoslanib, Akbaralini kasal yoki qamoqdan chiqqan, deb gumon qiladi?

O‘ylab ko‘ring!

Ochil buva nima uchun “Xayrlashuv kitobi”ni yozgan odam bearmon ketishini ta’kidlaydi?

Ijodiy ish

Siz yashab turgan joyda ham asardagi chinorga o‘xshash barcha uchun birday ahamiyatli narsalar bormi? Bor bo‘lsa, shu haqida ijodiy matn tayyorlang. Imkoni bo‘lsa, o‘sha narsalarning rasmini ilova qiling.

Topshiriq

“Akbarali qissasi”ni (1) o‘qing.

AKBARALI QISSASI

1

Eng dahshatli yirtqich – quyon.

(Nasriddin Afandi)

... Shodasoyda qayoqdan ham paydo bo‘ldi u kishi! Oti Bektemir edi. Akbarali uning otini tilga olgisi kelmaydi, qo‘rqadi. Uyquda alahsirab aytib qo‘yishi bor.

Kechasi kelib derazani taqillatdi. “Och, Bektemirman. Dadangning o‘rtog‘iman”, dedi.

Akbarali unaqa odamni bilmasdi. “Dadangning o‘rtog‘iman”, deganidan keyin turib eshikni ochdi. Hali-hali ko‘z o‘ngida turibdi: bir ko‘zi ko‘r edi bu odamning. Kirib kelishi bilan brezent qalpog‘ini yelkasiga tushirdi-da, Akbaralini o‘z bolasiday bag‘riga bosdi. Undan dimiqqan xom teri hidi kelardi.

– Akbaralimidi oting?

– Ha.

U xaltasini burchakka qo‘yib, yomg‘irligini yechdi. Ustida pidjagi ham yo‘q, ko‘ylakchan edi. Akbarali shuncha tikilsa ham tanimadi. Lekin otasi tengi odam edi. Juda uzoqlardan, ko‘p qiyinchiliklar ko‘rib kelgan bo‘lsa kerak, nihoyat boshpana topganidan ruhi tetik, jihozlarga tikilib-tikilib qarar, issiq pechkaga qo‘l tekkizib, kaftini kaftiga ishqar edi.

– Choy qo‘yib yubor. Oying yo‘qmi?

Mehmonga choy qo‘yish esiga kelmabdi. Shoshib qoldi Akbarali. Choyga urindi.

– Oyim... boshqa er qilib ketganlar.

– E ha... – dedi Bektemir cho‘zib. Stol yoniga o‘tirib, o‘z uyidagidek yengini shimardi. – Shundoq degin, – dedi yana o‘ychan.

U Akbaraliday baland bo‘yli, yuzini chuqur ajinlar tilkalagan, ko‘r ko‘zi yumuq, ichiga cho‘kkan, qora, cho‘tir odam edi.

– Biz dadang bilan urushga birga jo‘nagan edik... Bir eshelonda[1], – dedi boshqa so‘z topolmaganday. – Kapsanlikman, hov tog‘dan.

Shugina ekan-ku. Akbarali, dadamga juda yaqin odammikan, deb o‘ylagan edi. Hafsalasizgina choy damlab keldi.

– Dadam urushning birinchi yiliyoq halok bo‘lgan, – dedi.

– Bilaman. Eshitgan edim.

– Hozir qayoqdan kelyapsiz?

– Buning tarixi uzoq... – dedi mehmon. U choy ho‘pladi-yu, hech narsa demadi. Boshidan ko‘p savdolar o‘tganligi ko‘rinib turardi. Chindan ham tarixi uzoq ekan, kechasi bilan gaplashib chiqishdi.

Bektemir 1942-yili Mozdok[2] yaqinida qurshovda qolib, uch oy jang qilgandan keyin ochlikdan sulaygan, o‘q-dorisiz o‘n yetti yarador bilan birga dushmanga asir tushdi. Darmonga kirib olay, sal o‘zimga kelay, deb lagerma-lager yurib, hamma tanishlarini yo‘qotdi. Ularni bir joyda uzoq tutishmas, dam allaqanday yerosti korxonasiga, dam tonnel qurilishiga, dam tosh karyeriga qo‘yishar, kechalari bilan notanish yo‘llardan kolonna qilib haydashar edi. Bektemir bu yillar ichida ne-ne

[1] **Eshelon** – frontga harbiylar va mudofaa texnikalari yuboriladigan poyezd karvoni.

[2] **Mozdok** – Rossiya tarkibiga kiruvchi Shimoliy Osetiyadagi shahar.

odamlarni, ne-ne azoblarni ko‘rmadi, bir necha tilni o‘rgandi, necha o‘limdan qoldi, necha xil kasalliklarga yo‘liqdi. Endi uning bir ko‘rmagani o‘lim edi. Hamma narsadan umid uzib, o‘limni kutar edi u.

Urushdan keyin ularni hamma unutib tashlab ketgan asirlar lageridan amerikalik soldatlar kelib qutqazdi. Shundan keyin Bektemir ajalga chap berdi hisob, lekin endi uning uchun darbadarlikning yangi davri boshlangan edi. Yevropada elma-el sudralib yurib rizqini terdi, ikki sog‘lom qo‘lidan bo‘lak tayanchi yo‘q edi. Gaplariga qaraganda, Vatanga qaytish xavfli, u yerda unga o‘xshaganlar uchun yana lagerlar tayyor emish...

Lekin yo‘q, vatangadolikning azobi go‘r azobi bilan teng ekan. O‘n uch yil sargardonlikdan keyin yuragini hovuchlab bo‘lsa ham yurtiga qaytdi. Qaytib kelsa, “Yaxshi qilibsiz, boring, oilangiz bilan tirikchiligingizni qiling”, deyishibdi.

Bektemir peshonasiga tars etib urdi, o‘rnidan turib ketdi.

– Kelganimdan beri bironta tanishga ko‘ringanim yo‘q, seni qora tortib keldim, Akbarali. Dadangni yaxshi ko‘rib qolgan edim, kelishim bilan lop etib esimga tushdi...

– Ovqatdan oling, Bektemir aka...

Bektemir dasturxonga qaradi-yu, hech narsani ko‘rmadi, u iztirobda edi.

– Menga qara, men... men bir ish qilishim kerak. Nimadir qilishim kerak, bilasanmi?!..

– Bola-chaqa omon ekanmi?

– Ha, xotinim, qizim... Lekin hali uyga borganim yo‘q, yurak dov bermayapti. Ular mening tirik ekanimni bilishmaydi. Qaysi yuz bilan boraman? Nima deb boraman? – Bektemir yalang‘och ko‘ksiga, yuragiga, cho‘ntaklariga shapatilab, jahl bilan gapirdi: – Nima bilan boraman? Men... bir ish qilishim kerak.

– Ishga kiring.

– Ha, avval – ish. Senga kelganimki... menga bir ish topib ber, uka. Shunday kasb kerakki, qasd qilib qo‘ydim: kecha-yu kunduz ishga sho‘ng‘ib ketay. Toki odamlar meni ko‘rmasin, faqat mehnatimni ko‘rishsin. Mehnat! Mehnat! Mehnat! Boshqa narsa kerak emas. Shundagina bir kuni borib, xotinim bilan qizimning oyog‘iga bosh qo‘ysam, balki gunohimdan o‘tishar. Akbarali, uka, senga yorildim, yordam qil...

O‘shanda ertasiga u dadasining o‘rtog‘iga konni ko‘rsatadigan bo‘ldi. Quyoshli kuz ertasi juda chiroyli edi. Yo‘l bo‘yidagi qayrag‘ochlarning shapaloqdek-shapaloqdek qizg‘ish barglari oyoq ostida shitirlaydi, ko‘lmak suvlar jimirlaydi. Tog‘ shabadasi Shodasoyning sovuq shovqinini daralarga taratmoqda, uzoqda qorli cho‘qqilar quyoshga o‘chakishgandek yilt-yilt charaqlaydi, kungay yonbag‘irlarda saf tortgan archalar qorayib ko‘rinadi. So‘qmoq yo‘l qadam sayin yuqoriga o‘rlab boradi, pastda eski Shodasoy qishlog‘i sarg‘ish daraxtlarga burkanib yotibdi, sal berida unga tutashib ketgan kon shaharchasining tunuka tomlari. Konchilar smenadan chiqqandan keyin uyga qaytadigan yo‘lni zap manzarali joylardan solishibdi-da! Kela-kelguncha hordig‘i ham chiqib ketsa kerak.

Yo‘lda duch kelgan odamlar Akbaralini tanib salom berishar, bular ikkalasi barobar alik olib, shoshmasdan gaplashib, atroflarni tomosha qilib borishar edi. Bektemir o‘z smenasiga ketayotgandek ko‘ngli yayraydi. Agar u konga ishga kirib olsa, har kuni mana shu yo‘ldan yuradi. Necha yillardan beri birinchi marta o‘z odamlari ichida, o‘zi uchun yeng shimarib, terga botib, yayrab mehnat qiladi. Keyinroq xotini bilan qizini ko‘chirib kelib, uy-joy ham qilib olsa! Bektemirning bir vaqtlar o‘ylashga ham yuragi dov bermay yurgan orzulari shu emasmidi? Akbarali buning nimaligini

tushunmaydi, uning uchun bu oddiy bir ish kuni. U shunchaki, yo‘l-yo‘lakay bir tanishini boshlab, o‘zining odatdagi smenasiga ketyapti. Konchilar kiyadigan petlitsali qora pidjagini bilagiga tashlab, tor so‘qmoqdan mehmonga yo‘l berish uchun chetdagi shag‘al uyumlarini shaqir-shuqur bosib odimlamoqda. Bektemir uning oftobda ter tomchilari yiltillagan yuziga qarab qo‘ydi.

Akbarali otasiga uncha o‘xshamas, novcha, ingichka, kamgaproq edi. Lekin kechagi hikoyalaridan keyin oqko‘ngil Bektemir aka unga yoqib qoldi, ota o‘rniga mehribon bir odam orttirgandek bo‘ldi Akbarali.

– Uylanmabsan-da, chakki qilibsan... – dedi Bektemir aka. Akbarali yerga qarab kulib qo‘ydi.

– Ha, mayli, hali kech emas. Mening qizim ham bo‘yi yetib qolgandir. Onasiga tortgan bo‘lsa, do‘ndiqqina bo‘lishi kerak, olib kelaman, ko‘rasan. Yoqtirsang, senga beraman, Xudo xohlasa.

Akbarali yana kulib qo‘ydi. Konga yaqinlashib qolishgan edi. Qirlardan, jarlardan hatlab, osma vagonetka[1]lar g‘izillaydi. Tashlandiq jinslardan paydo bo‘lgan tepaliklar dam qizg‘ish, dam qo‘ng‘ir rangga kirib tovlanadi. Kon yaqinida ular suv sepilgan keng asfalt yo‘lga chiqishdi.

– Meni kirgizisharmikan? – deb so‘radi Bektemir.

Ruda ortilgan MAZlar o‘tib borardi, Akbarali eshitmadi.

– Hujjatim yo‘q, kirgizisharmikan?

– Men bor-ku! – deb qichqirdi Akbarali kulib. Eshitmadi, deb o‘ylab, ko‘kragiga urib ko‘rsatdi: – Men, men! Mana bo‘lmasa, kiyib oling, buni ko‘rsa, to‘xtatib o‘tirmaydi, – deya pidjagini irg‘itdi Akbarali. Bektemir aka pidjakni ilib olib, kiydi.

– Yarashdi, yarashdi! – deb qichqirdi Akbarali. Ikkalasi ham xandon tashlab kuldi. Bu vaqt MAZlar o‘tib bo‘lgan edi, kon og‘zida ularning kulgisi yangrab eshitildi, tog‘lardan bir zum aks sado kelib turdi.

– Endi sening o‘zingni kirgizmasa-chi? – deb kuldi Bektemir aka yigitning yana ham ingichka tortgan ko‘ylakchan gavdasiga qarab.

– Meni tanishadi, – deb qo‘l siltadi Akbarali. – Propusk olsak ham bo‘ladi-yu, idora uzoq. Bitta hiyla ishlataylik-chi, o‘tarmikan?

Ikkalasi yana yayrab kuldi. Bektemir aka ustidagi formali pidjakka qarab-qarab quvonardi.

– Erta-indin o‘zimga ham tegadi, Xudo xohlasa.

Qorovulxonada ularga hech kim indamadi, yo‘lakda qo‘llariga bittadan karbifonari olib, boshlariga kaska kiyishdi-da, konga kirib ketishdi.

Tog‘ qa’rining zax sovug‘i birdan ko‘krakka urdi. Piyoda yuradigan taxta yo‘lak zax devor bo‘ylab borar, temiryo‘l izlari uchrashgan chorrahalardagina tonnel biroz kengayib, yorug‘ maydonlarga olib chiqar edi. Bektemir aka bosh ustidagi yo‘g‘on-yo‘g‘on kabellarni issiq-sovuq suv, havo quvurlarini, elektr, telefon simlarini ushlab qo‘yar, Yevropada ishlagan konlarini gapirib, chiroqsiz, havosiz, xuddi ko‘rkalamushdek yer qaziganlarini eslab, u yerlarda insonning xorligini so‘zlab borardi. Ular uzoq yurishdi. Tepadan chakka tomib badanlarni junjiktiradi, ruda ortilgan vagonetka eshelonlari o‘tganda quloqlariga barmoqlarini tiqib, devorga yopishgancha to‘xtab turishadi. Necha-necha “tor ko‘cha”larga kirib chiqishdi, uzoq shtreklarga[2] borib kelishdi, zaboylarda[3] odamlar bilan gaplashishdi, bir yarim soatcha yurgandan keyin orqaga qaytadigan bo‘lishdi.

[1] **Osma vagonetka** – kon shaxtalarida foydalaniladigan osma vagon.
[2] **Shtrek** – yer ostida qazishmalar olib boriladigan joylarda rudani tashish uchun yotqizilgan relsli yo‘l.
[3] **Zaboy** – konning ish faoliyati olib borilayotgan, material qazib olinayotgan eng faol qismi.

– Ha... – dedi Bektemir aka, – avval yordamchi bo‘lib, biron kasbga zehn solib yurishga to‘g‘ri keladi. Murakkablashib ketibdi...

– Nima bo‘lsa ham konchi bo‘ldingiz endi, Bektemir aka, – dedi Akbarali.

Tog‘ qa’ri jimjit bo‘lib qoldi. Taxta yo‘lak tagida shildirab suv oqar, chirog‘ini silkib oldinda ketayotgan Bektemir aka o‘ychan jilmayar edi: u chindan ham konchiga o‘xshaydimi?

Bir mahal muyulishga kelganlarida qayerdadir chaqmoq chaqqandek bir nima yilt etdi-da, ikkalasining ham ko‘zlari qamashib, bir zum hech narsa ko‘rmay qolishdi. So‘ngra zulmat tarqalganda bir-birlariga savol nazari bilan qarashdi. Bektemir aka temiryo‘ldan sakrab o‘tib, oldinga yugurdi. Nariroqqa borganlarida bir nima chirs-chirs etib, yana chaqmoq chaqdi.

– Bu yoqda! – dedi Bektemir yana oldinga yugurib.

Ho‘l taxtalar ustidan oldinma-keyin yugurib, toyib, qoqilib bir joyga yetib borishsa, yo‘l chetida devorlari betonlangan katta kameraning shifti o‘pirilib, yo‘g‘on relslardan yasalgan temir balkalarning bir uchi muallaq osilib yotibdi. Butun temir balkalardan payvandlab ishlangan og‘ir shift bir chetidangina ilinib, lopillab turar, har lopillaganida allaqayerida chirs-chirs elektr chaqmoq chaqib, butun shtreklarni dam charaqlagan shu’laga, dam zim-ziyo qorong‘ilikka g‘arq etar edi.

Akbarali yaxlit temir shiftning vahimali lopillashidanmi yo ko‘zlari hech narsani ko‘rmay qolganidanmi, o‘zini yo‘qotib baqira boshladi:

– Ehtiyot bo‘ling, qoching, Bektemir aka!

Elektr hamon chirsillab ko‘z ochirmas edi, ular bir-birining qayerda turganini ovozlaridan, nafas olishlaridangina payqashar edi.

– Transformator! – deb qichqirdi Bektemir. – Hozir balkalar bosib tushsa, transformator portlaydi! Bu – yong‘in degan gap, zaboylarda odam bor! Bu yoqqa yur!

– Qoching! Nima qilmoqchisiz?

– Transformatorni o‘chirish kerak, portlaydi!

– Qoching, bosib qoladi hozir!

– O‘chirish kerak, falokat yuz bermasin, qayoqdasan?

Chirs-chirs chaqmoq chaqar, temir shift dahshatli lopillar edi. Bektemir uning tagiga kirib, qaytib chiqdi.

– Dastaga bu yondan yaqinlashib bo‘lmaydi, ko‘zga uryapti. Qayoqdasan, ko‘tar buni! – U devor tagida turgan qandaydir eski yashikka yopishdi.

– Qoching, deyapman, Bektemir aka! Ana tushyapti! – deb baqirdi Akbarali. Bektemir bo‘lsa bo‘yin tomirlari o‘ynoqlab yashikni siljitar edi, yashik og‘ir, jiqqa suv, chetlariga beton yopishib qotgan...

– Ko‘tarishvor! Bir zumda yacheykadan oshib tushib, o‘chirib chiqaman! Qayoqdasan?

Chirs-chirs etgan shu’lada Akbarali uning qonsiz yuzini, og‘irlik zo‘ridan soqqaday bo‘lib ketgan yolg‘iz ko‘zini so‘nggi marta ko‘rib qoldi.

– Qayoqdasan?!

– Qoching, Bektemir aka! Tezroq qoching, portlaydi!

Akbaralining tovushi o‘ziga ham allaqayoqlardan eshitilgandek bo‘ldi. Qayoqqa ketayotganini o‘zi ham bilmasdan, qoqila-surina qochar, baqirar edi. U negadir birdan darmonsizlandi, tomog‘i xirillab, ovozi chiqmay qoldi, chakkasini ushlagan qo‘lida qon yuqini ko‘rib, yana vahimasi oshdi. Uzoqda tuynukdagidek bo‘lib kun yorug‘i ko‘ringanda hamma yoqda chiroq o‘chdi. Yo‘llar, shtreklar

zim-ziyo bo‘lib qoldi. Shu payt orqada bir nima gursullab, uzoqdan mudhish faryod eshitildi. Bu achchiq tovush oyog‘idan chalgandek Akbarali qorong‘ida zax devorga yuzi bilan suykalib qoldi. Biroq shtreklardan nimadir guvullab uni quvlab kelayotgandek edi, haligi tovushning tog‘ qa’ridagi aks sadosi eshitildi qulog‘iga. U tuproq devorga suykalib, tarmashib oldinga siljidi, nafasi bo‘g‘ilib, uzoqdagi kun yorug‘i uni o‘ziga tortayotgandek edi. Haligi tovush... Bektemirning tovushi. Uni temir balkalar bosib qoldi. Ulgurmadi. Transformatorni o‘chirdi-yu, o‘zi chiqib olishga ulgurmadi.

– Qochish kerak, endi qochish kerak!

Kimdir qo‘rqmadi, u qo‘rqdi. Bir zumgina qo‘rqdi. Bir zum!.. Bir zum. O‘sha hal qildi. Qaytmoqchi ham bo‘lgan edi, qaytmadi. Yashik... og‘ir, sementli yashik... Qaytmadi. Qo‘rqdi. Bir zumgina qo‘rquv... Endi qochish kerak! Qochish kerak!

– Qochish kerak!!!

– Bolam, Akbarali! Menga qara, o‘rgilay, ag‘darilib yot, bolam, bosinqirayapsan...

Akbarali o‘rnidan sakrab turib, chakkasini ushlab ko‘rdi – qo‘lida qon yuqi yo‘q edi. Ro‘parasida rangi quv o‘chgan onasi turibdi.

– Uxlaganga ham o‘xshamaysan, bolam. Nimadan qo‘rqding, yomon tush ko‘rdingmi?

Akbaralining ko‘z o‘ngida hamon Bektemir turardi. Lekin Bektemir yo‘q. Bektemir temirlar ostida majaqlanib ketgan... Akbarali xunuk tushga o‘xshagan bu o‘ylarini uloqtirib tashlamoqchi bo‘lgandek ko‘zini yumib, boshini silkidi. Boshi toshdek og‘ir edi...

U qochib keldi. Qochib qutulganman, deb o‘yladi. Lekin odam o‘zidan qochib qutulolmas ekan. Kallasi ham, ko‘ksi ham bo‘m-bo‘sh...

O‘rtoqlari kelganda yana o‘zini chetga oladigan bo‘ldi. Xola razm solsa, orada eng kamgap, kamsuqumi shu. Keyinroq oshnalari chaqirib kelsa ham “Chiqmayman”, deb javob beradigan bo‘ldi. O‘shandan beri sheriklari ham kelmay qo‘yishdi. Akbarali ularga qulfi dilini ocholmadi, el bo‘lolmadi.

Dardingni aytolmaganingdan keyin el bo‘lolmaysan-da.

Shunday vaqtlar ham bo‘lar ekanki, do‘stlaringdan, odamlardan najot so‘rolmaysan, o‘zingni o‘zing himoya qilolmaysan, o‘z orzularing yuziga o‘zing tuproq tortib, jon rishtalaringni o‘zing qirqasan.

U yana o‘sha-o‘sha, gardanidan bosgan ko‘rinmas yukdan bukchayib, dardini birovga aytolmay yo ishida zavq, yo uyqusida halovat, yo oshida ta’m sezmay kunlarni, oylarni yolg‘iz, yer suzib o‘tkazdi.

... Sharofat xola yotib qolgandan keyin Hadyaning ham, Abdusamadlarning ham daragi bo‘lmay ketdi. Akbarali hammasini o‘zidan cho‘chitib, bezdirib qo‘yganga o‘xshaydi. U uyning qorong‘i bir burchagida uzoq yolg‘iz o‘tiradigan bo‘ldi. Ba’zan o‘z-o‘zi bilan gaplashadi: “Bir zum... faqat bir zum... O‘sha lahzada bir zumgina o‘zimni boshqacha tutganimda edi... Odam o‘zini o‘zi o‘ldirganda ham unga bir zumlik bardosh yetishmay qoladi, deyishadi...” Yana allanimalar deydi. Keyin qo‘rqib o‘rnidan turib ketadi.

Borib qayoqlardandir ichib keladi, kechasi uxlamay, u yoqdan bu yoqqa ag‘darilib chiqadi.

Keyingi vaqtda onasiga, uning betobligiga ham e’tibor bermay, allaqayoqlarda bir nima qidirgandek bir o‘zi tentirab yurar, kech qaytar edi. Bugun ham kun botguncha aylanib yurib, posyolkaning ovloq bir yeridagi kimsasiz bufetga kirib bordi. Bu yerda bufetchi xotin uni tanib qolgan edi, so‘ramasdanoq ikki yuz gramm aroq quyib berdi. Ishsiz kunlari Akbarali bu yerga ikki-uch qayta kelib ketadi, boshqa kunlari bo‘lsa ishdan keyin...

Uyda Sharofat xola kasal. O‘ziga qaramasa ham, o‘g‘lining hushtak chalib, papiros tutatib kelganiga ba’zan xursand bo‘lib bosh ko‘taradi. Ammo qarovsiz qolgan bemorning ahvoli kundan kun og‘irlashardi. Ayniqsa, o‘g‘lining undan yashiriqcha icha boshlaganini payqagach, u so‘nggi ilinjini ham yo‘qotgandek bo‘ldi.

– Oyi! – dedi Akbarali bir kuni mast holda onasining yoniga o‘tirib. – Men hammasini aytib berdim. Sonyaga. Bufetchi xotinga aytdim...

– Nimani aytding, bolam?

– O‘shani... U yoqda... odam o‘ldirganimni... Sabab bo‘lganimni.

Sharofat xolaning ko‘zi tindi, xuddi tushdagidek tubsiz qorong‘i jarlikka sho‘ng‘ib ketdi. Lekin hushi bor edi, gapirolmas edi, xolos. “Iloyo, ketib qolmasam, bas. Yana qittak quvvat bor!” deb o‘ylaganini biladi. Anchadan keyin tili aylandi:

– U nima dedi, bolam?

– Ichgin, unutasan, dedi.

Akbarali omonat o‘tirgan joyidan gandiraklab, yiqilib tushishiga sal qoldi. Sharofat xola darmonsiz qo‘li bilan uni ushlab qolmoqchi bo‘lib, allanima dedi. Endi unga baribir edi. “Endi u dunyoligimni o‘ylashim kerak”, deb qo‘ydi ichida. Shuning uchun: “Kimni, nega, qanday qilib?” deb so‘rab o‘tirmadi.

– Sen, bolam, bufetchi xotinga emas, boshqa hech kimga ham emas, faqat shodasoyliklar oldiga borib gunohingni o‘tinishing kerak. Faqat o‘shalar gunohingdan kecha oladi. O‘zingni ko‘rsat, bosh eg. Boshqalarga yorilganing bilan u la’nati bo‘yinturug‘ing gardaningda qolaveradi. Qaytaylik, jon bolam, ko‘zim ochig‘ida...

Mast Akbarali karavotdan sirg‘alib, qoq polga mukka tushdi-da, bo‘kirib yig‘lab yubordi...

Shu kechadan keyin Akbarali ichkilikni tashlay olmasa ham, soqoli o‘sgan, qovog‘i salqi, mast holda onasiga qatiq-sut, dori-darmon olib kelib berib yurdi. Ammo Sharofat xola endi na ovqat yer, na dori ichar edi.

Bir kuni u o‘g‘lini yoniga chaqirib, vasiyat qildi:

– Rozi bo‘l, bo‘tam... Shodasoyga olib borib, ota-buvalarimiz yoniga qo‘y, men ham rozi ketay, jon bolam... Tirigimda unamading...

Akbaralining kayfi birdan tarqab, zaif badanini titroq bosdi, rangi oqarib ketdi. Faqat anchadan keyingina o‘ziga kelib:

– Oyi! – deb o‘zini karavotga tashladi. Lekin Sharofat xola allaqachon ko‘z yumgan edi...

– Men o‘ldirdim sizni, oyijon, men o‘ldirdim, men, men, men!.. – derdi Akbarali ikki qo‘li bilan salqi yuzlarini changallab.

... Akbarali onasining qabridan bosh ko‘tarib, o‘rnidan turganida atrof nimqorong‘i edi. Oyoq ostida xazon shitirlab jimlikni buzdi, qo‘nalg‘ada qushlar cho‘chib pitirlashdi. Akbarali teraklarni, qabr do‘ngliklarini oralab panjaralarga, sag‘ana toshlarga urilib, so‘qmoq yo‘lni izlar, allaqanday vahimadan qora ter bosib ketgan edi. Nimagadir ilinib yengi yirtildi, qovjirab o‘t bosgan do‘ngliklar, xarsangtoshlar qorong‘ida vahimali soyaday kishi yuragiga g‘uluv solardi. Akbarali nihoyat so‘qmoqni topdi, uzoqdan panjarali darvoza ko‘rindi. Biroq muyulishda bir odam qorasini ko‘rib, sochining tomirlarigacha muzlab ketdi. Odam juda katta edi, u daraxtlar soyasida, qorong‘ida pisib turgandek ko‘rindi... Shu payt besh qadamchagina narida haligi sharpa yana paydo bo‘ldi. Endi u yoni bilan turardi. Akbarali unga qarab to‘xtadi-yu, orqaga tisarildi. Birdan... Havogacha titrab ketdi. U baqirib yubordimi, o‘zi bilmaydi, lekin

og‘zi ochilib, bexosdan tamom gung bo‘lib qolgan edi. Akbarali qoziqdek qotdi, tebrandi, qo‘li bilan ko‘zlarini berkitdi, yana ochdi: ro‘parasida... o‘zi... ha, o‘zi, Akbarali turardi!

Keling, muhokama qilamiz

1. Sizningcha, vijdon nima? Uni nega inson hayoti uchun muhim deb bilasiz? Fikringizni dalillar bilan ifodalang.
2. Bektemir qanday inson? Fikringizni asoslab bering.
3. Kondagi falokatdan so‘ng Akbaralining xayoliga nega qochish fikri keldi? Qochmasdan vaziyatni o‘nglashga harakat qilsa bo‘larmidi?
4. Sharofat xolaning o‘lim oldi o‘g‘liga: *“Rozi bo‘l, bo‘tam... Shodasoyga olib borib, ota-buvalarimiz yoniga qo‘y, men ham rozi ketay, jon bolam... Tirigimda unamading...”* degan vasiyati sizga qanday ta’sir qildi? Izohlab bering.
5. O‘z ajali bilan vafot etgan onasini nega Akbarali “men o‘ldirdim”, deydi? Fikringizni asoslang.

Guruhlarda ishlash

Qur’a tashlash yo‘li bilan uch guruhga bo‘lining.

Sharofat xolaning nasihatini diqqat bilan o‘qing: *“Sen, bolam, bufetchi xotinga emas, boshqa hech kimga ham emas, faqat shodasoyliklar oldiga borib gunohingni o‘tinishing kerak. Faqat o‘shalar gunohingdan kecha oladi. O‘zingni ko‘rsat, bosh eg. Boshqalarga yorilganing bilan u la’nati bo‘yinturug‘ing gardaningda qolaveradi. Qaytaylik, jon bolam, ko‘zim ochig‘ida...”*

Siz qanday yechim taklif qilgan bo‘lardingiz? Fikrlar taqdimotini o‘tkazing.

Guruhlar	Tasavvur qiling	Vaziyatlar
1-guruh	***Asar ichidasiz:*** Akbarali sifatida	Ushbu mushkul vaziyatdan qanday chiqqan bo‘lar edingiz?
2-guruh	***Asar ichidasiz:*** Ochil buva sifatida	Akbaralini qutqara olarmidingiz? Qanday qilib?
3-guruh	***Asar tashqarisidasiz:*** kitobxon sifatida	Akbaraliga vijdon azobidan qutulish uchun nima maslahat berar edingiz?

Topshiriq

“Akbarali qissasi”ning davomini (2) o‘qing.

AKBARALI QISSASI

2

Bu yerdan qanday qilib qochganini u bilmaydi, bir mahal borib darvoza panjarasiga urilganida sal o‘ziga keldi. Xayriyat, yiqilib qolmabdi... Yo yiqilib, yana turib ketdimi? Qancha yotdi? Tildan qolmadimikan?

Gapirib ko‘ray, desa, yonida odam yo‘q. O‘zicha gapirsa ham bo‘ladi-ku. Tili shishinqirab og‘ziga sig‘may turganga o‘xshaydi, lekin yo‘q, aylanyapti.

– Yolg‘on! Yolg‘on! Bas. Qo‘rqmayman! – deb qichqirib yubordi u.

Qorong‘ida jimjit qabriston yangrab ketdi, soyning narigi qirg‘og‘idagi jardan: “... as!” “... an!” – degan aks sado keldi. Akbarali o‘z tovushidan yana qattiqroq qo‘rqib ketgan edi. “Nega qichqiryapman? – deb o‘yladi. – Bu jinnilik alomati emasmikan? Bu ko‘zimga ko‘ringan odam... odam? O‘zimku bu! Yo jinni bo‘lganda odam o‘ziga o‘zi ko‘rinarmikan? O‘zim...”

Ha, bu uning xuddi o‘zi edi. O‘sha qirra burun, yonog‘i chiqqan oriq yuz... Lekin qop-qora. Soya!

Akbaralining yana orqasiga qayrilib qaragani yuragi dov bermadi. U qoqila-surina katta yo‘lga chiqib olib, bir qo‘li bilan peshonasini ushlagancha shahar chiroqlari tomon yurdi. Peshonasi muzdek edi. Lekin u ishonmadi.

“Isitma! Yo‘q, jinni emasman men! Isitma bu! Sovuq isitma!” – deb tinmay pichirlar edi, ancha yurgandan keyin orqasiga qayrilib qaradi, asfalt yo‘lga allaqayoqdagi chiroq shu’lasi tushib, yiltillab yotar edi. U ko‘prikdan ham allaqachon o‘tib ketgan ekan, bilmabdi. “Tavba, o‘ziga ham o‘zi ko‘rinadimi odam! Yo‘q, bir nima bo‘lyapti menga, biron joyga borib yotishim kerak. Hadeb o‘ylagandan. Endi o‘ylamayman. Borib yotaman. Qayerga bo‘lsa ham. Tavba, hamma azoblarni tortdim, endi bir kamim jinni bo‘lib ko‘cha-ko‘yda tentishmidi? Yo‘q, o‘ylamayman. Bektemirni ham, oyimni ham, Hadyani ham, o‘zimni ham... O‘zimni? Go‘ristondagi o‘zimnimi?.. Ha, ha, o‘ylamayman, hech qaysisini o‘ylamayman, bas!”

U haqiqatan ham hech narsani o‘ylamay qo‘ydi. To‘g‘ri borib mehmonxonaga kirdi. Yo‘lakda mudrab o‘tirgan semiz xotin biqqi qo‘lini cho‘zib, uning pasportini oldi-yu, kalitni berib, yana uyquga ketdi.

Akbarali kalitda nomeri ko‘rsatilgan xonani ochib kirdi-da, yechinmasdanoq karavotga cho‘zildi. Derazalar lang ochiq, tashqaridan Shodasoyning muzdek shovullashi quloqqa chalindi. Bu – ruhan charchagan, jisman ezilib ketgan Akbaralining chalkash o‘ylarini birpasda allaqayoqlarga olib qochdi, u qachon qotib uxlab qolganini ham bilmaydi. Ertalab junjikib o‘rnidan turdi.

Endi u ancha tetik edi. Tungi g‘alati voqeani aniq eslab, labining bir cheti bilan salgina ma’yus jilmayib qo‘ydi. Qattiq charchagan ekan-da, odamning jinni bo‘lishi ham hech gapmas. Endi nima qilish kerak? Kimga uchrash kerak? Uchrash? Nega? Akbarali hech narsaga tayyor emas, hech qanday rejasi yo‘q edi. Karavotda o‘tirgancha o‘siq soqollarini paypaslab ko‘rdi. Och qoringa papiros tutatdi. Eshik taqillaganda cho‘chib o‘rnidan turdi, odam tovushi eshitilishi bilan kechagi charchog‘i yana qaytib kelgandek ichida nimadir yana so‘ndi, bo‘shashib, loqayd bo‘lib qoldi.

Eshik qoqqan kechagi semiz xotin ekan, Akbaralini ko‘rib, qo‘rqib ketgandek g‘alati salomlashdi-da, stolga mehmonxona anketasini tashlab, to‘ldirib berishi kerakligini aytib, chiqib ketdi.

Akbarali anketa qog‘ozini qo‘liga oldi. Ikkita. Ikkita tashlab ketibdi. Nega ikkita? Har ehtimolga qarshi deb bo‘lsa kerak, biri buzilib-netib qolsa...

Nimalarni o‘ylayapti o‘zi? Shundan boshqa o‘yi yo‘qmi? Yo‘q-da, miyasiga tuzuk-quruq o‘y kelmay qoldi. Miyasi karaxt. Nima gap o‘zi? Nima qilish kerak? Bu yerda nima qilib o‘tiribdi? Anketa – mana, anketa to‘lg‘azish kerak.

U beixtiyor g‘ijimlab qo‘ygan anketani stolga yozib, kafti bilan tekisladi-da, qo‘liga qalam oldi. Qog‘ozga tikildi. “Akbarobod posyolka mehmonxonasi” deb yozilgan edi anketaning tepasida. Akbarali o‘qidi, negadir iljayib qo‘ydi, keyin hijjalab o‘qigandek, yana uzoq tikilib turdi. Ko‘zini pirpiratdi. G‘ijim qog‘ozni kafti bilan yana tekislab, yana o‘qidi, ikkinchi anketani ham olib, solishtirib o‘qidi. Ko‘zini chetga olib birpas o‘tirgach, yana tikildi. Qog‘oz lovullab yonib ketgandek seskanib o‘rnidan turdi. Eshikka otilmoqchi bo‘ldi-yu, ostonada to‘xtab, yana stoldagi qog‘ozlarga qaradi. Oyoq uchida qaytib kelib, ko‘zini uqalab, yana o‘qidi. Endi buning ro‘yo emasligiga astoydil ishondi shekilli, yuzi qog‘ozdek oqarib, o‘rniga o‘tirib qoldi. Suvdan chiqib qolgan baliqdek og‘zini ochib ancha o‘tirgandan keyin qog‘ozga bir nima bo‘lmadimikan, degandek qiya ko‘z tashladi. Qog‘oz turibdi. Tepasiga aniq yozilgan: “Akbarobod posyolka mehmonxonasi”. Akbar... Akbarali... Akbarobod... Nega Akbarobod? Shodasoy edi-ku? Oti boshqa bo‘libdi-da. Boshqa... boshqa Akbar.

Shu payt ro‘paradagi toshoynaga ko‘zi tushib, o‘rnidan sapchib turdi. Ko‘zguga yaqinlashdi, birdan terga tushib, tizzalari qaltiray boshladi: unga basharasini soqol bosgan, yonoq suyaklari turtib chiqqan, rangsiz, yovvoyi bir odam baqraygancha tikilib turardi.

– Bu boshqa... Boshqa, boshqa! – deb qichqirib yubordi Akbarali. Birdan lop etib kechagi go‘ristonda ko‘rgan odam qorasi yodiga tushdi. U Akbaraliga ko‘proq o‘xshardi...

U hozir boshi tars yorilib ketadigandek otilib yo‘lakka chiqdi. Semiz xotin kahrabodek husayni uzum bilan choy ichib o‘tirardi. Cho‘chib o‘rnidan turdi.

– Menga qarang... Menga qarang... – dedi Akbarali unga. Lekin tili aylanmay qoldi. Qo‘li bilan g‘alati harakatlar qildi-yu, xotinning qattiq qo‘rqqanini ko‘rib, gapirolmay, shoshgancha ko‘chaga otildi.

Shu ketgancha yuguraverdi.

Tongda suv sepilgan asfalt yo‘lkalar salqin, ozoda, tovsilib[1] qolgan kuzak gullar sof havoda xush bo‘y taratib turadi. Hansiragan Akbarali bularni payqayotgani yo‘q, unga havo yetishmayapti, etagiga o‘t ilashgandek hamon yugurmoqda. Qayoqqa ketyapti, o‘zi bilmaydi.

Bir mahal uni kimdir chaqirgandek bo‘ldi. U orqasiga qayrilib qarashga jur’at qilmay, to‘xtab devorga suyandi. O‘pkasi og‘ziga tiqilgandek hansirar edi. Haligi ovoz yana keldi.

Bu chorrahadagi reproduktor edi. Unda konchilar hayotining so‘nggi yangiliklarini eshittirishmoqda: “Akbarobodliklar kecha yana bir quvonchli voqeaning guvohi bo‘ldilar: mahalliy futbol komandasi Olmaliq sportchilarini qabul qilib...”

Akbarali yana yugurdi. Uni qandaydir bir dahshat quvlab borar, noaniq bir fikr oldinga sudrar edi. Dokadek oqargan, badani qaltiragan holda go‘riston darvozasi oldida paydo bo‘ldi. Avval darvozaning salqin panjarasidan ajralolmagandek anchagacha yopishib turdi-da, keyin yana yugurdi, qoqila-surina kechagi qora ko‘ringan muyulishga yetib bordi. U oyoqda zo‘rg‘a turar, ko‘zlarini ishqalab-ishqalab haykalga tikilar, hech narsa ilg‘amas edi.

Chala sarg‘aygan qayrag‘och soyasida, qabr ustida chog‘roqqina bronza haykal. Kecha shomda ko‘lankaday qorayib, katta, haybatli bo‘lib ko‘ringan ekan.

[1] **Tovsilmoq** – siyraklashmoq, kamaymoq.

Akbarali avval tepada suzib borayotgan bulutlarni ko‘rdi. So‘ngra qayrag‘ochning haykalga soya solib turgan shoxini. Shundan keyin o‘zining yaqinginadagi yoshlik davriga juda o‘xshash, chiroyli, irodali, navqiron bir konchining qiyofasiga ko‘zi tushdi.

Odam o‘ziga o‘zi tikilib tursa g‘alati bo‘larkan. Boshqa olamdan, narigi dunyodan kelgandek... Akbaralining hushi o‘zida bo‘lmasa ham, lekin negadir haykalni o‘z qo‘li bilan ushlab ko‘rgisi keldi. Sarg‘aygan o‘tni bosib, o‘zining bronza qiyofasidan ko‘z uzmasdan, asta yaqinlashdi, qo‘lini uzatib sovuq xarsangtoshga barmoqlarini tekkizdi. Yana yaqinroq qadam bosay deganida qabr do‘ngligiga qoqildi. Go‘r... Akbaralining go‘ri. Ancha cho‘kib ham qolibdi...

“Men tirikman, men tirikman...” – derdi ko‘nglida boshqa bir fikr dam-badam bosh ko‘tarib.

O‘zi esa haykalni paypaslarkan, pichirlardi:

– Akbarali... Akbarali G‘oziyev...

Toshga o‘yib zarhal bilan yozilgan lavhada ham shunday deyilgan edi:



Akbarali endi hech narsaga hayron bo‘lmaydigan bo‘lib qolgan. Hayron bo‘lish, o‘ylash qobiliyatini yo‘qotgan, bir mo‘jiza yuz berib, otasi bilan onasi tirilib kelib, hozir ro‘parasida paydo bo‘lsa ham hayratda qolmas edi chog‘i. U bir qo‘li bilan xarsangga suyangancha qotib qoldi, ko‘zi tindi. Anchadan keyin zarhal harflar ko‘z o‘ngida yana paydo bo‘ldi: “A-k-b-a... Akbarali G‘oziyev... halok bo‘ldi”.

U yana ko‘zini yumdi. Miyasining qaysi bir burchidadir kichkinagina umid, bir o‘y sarg‘aygan bargday zo‘rg‘a ilinib, qiltillab turar edi: “Ko‘zimga ko‘rinyapti, hozir ko‘z ochaman-u, mening otim o‘rnida Bektemir akaning oti paydo bo‘ladi!”

Yo‘q, yana o‘zining oti paydo bo‘ldi. U harflarni paypaslab ko‘rdi, ularni qaltiroq barmoqlari bilan qo‘porib tashlashga ham urindi. Tillarang harflar tovlanib turardi. Keyin Akbarali tars yorilib ketayotgan chakkasini ushladi. Shu payt barmoqlariga boqsa – qon, tirnog‘i qayrilib ketibdi.

Qon yuqini ko‘rib hushi yorishgandek bo‘ldi, bu qon allanimalarni esiga soldi. Qon, zax... qorong‘i shtreklar. Dahshatli shovqin, achchiq yovvoyi tovush, ingrash...

Akbarali qonli barmog‘iga yana qarab, talpindi, qochmoqchi bo‘ldi, keyin bo‘shashib to‘xtadi: “Axir bu Bektemir aka-ku! Bektemir aka halok bo‘ldi! Odamlarni deb... majaqlanib ketdi!”

U qovjiragan maysaga o‘tirib yig‘ladi. Uzoq yig‘ladi, endi tamom hushiga kelgan edi, voqea butun tafsilotlari bilan yodiga tushdi, yana bir marta xayolidan o‘tdi. Hatto o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan tafsilotlar ham ko‘rinib ketdi ko‘ziga. Mana, konda chiroqlar o‘chib, barcha motorlar, konveyerlar to‘xtagandan keyin hamma shtreklardan qo‘l fonarini yoqib konchilar chiqib kelishdi. O‘n, o‘ttiz, yetmish, yuz kishi... Ular transformator yonida temir tom bosgan yolg‘iz murdani topadilar, qurshab oladilar, kaskalarini yechadilar. Qorong‘ida uzoq sukut. Yuzlab odamlar hayotini saqlab qolgan bu mardning kim ekanligini hech kim aytolmaydi, yuzi tanib bo‘lmaydigan darajada majaqlanib ketgan... Keyin kostyum... kostyum cho‘ntagidan propusk, shaxsiy guvohnoma chiqadi.

Akbarali Bektemir akaning baxtiyor kulib turgan yuzini ko‘z oldiga keltirdi, u konchi formasini kiyganda qanday quvonib ketgan edi: “Yarashdi, yarashdi, Bektemir aka!” “Ha, yaqinda o‘zimga ham tegadi!..”

Guvohnoma: Akbarali G‘oziyev. Hamma yerda hayratomuz, musibatli tantana. Mitinglar. Akbaralining nomi tildan tushmaydi. Qariyalar duoda, tirik qolgan konchilarning bolalari uning fidokorligiga bag‘ishlab sbor[1]lar o‘tkazadilar. Haykal, muzey... Konchilar posyolkasi “Akbarobod” deb ataladi. “Akbar”, desa onalarning ko‘ziga yosh keladi. Akbarali ezgu nom...

Bu-chi, bu bo‘lsa ayanchli bir qo‘rqoq, chirkin bir hasharotdek kovaklarda pisib yuribdi, o‘zining la’nati, iflos vujudini, bir paqir[2]ga qimmat jonini o‘ylab do‘stlik, muhabbat, ona mehridek ezgu tuyg‘ularni poymol qilib kelib, mana, go‘ristonda o‘tiribdi, tiriklar u yoqda tursin, yonidagi qabrlarga ham bosh ko‘tarib tik qaragani haddi yo‘q.

“Odamlarning soddaligi! Odamlarning sofligi... aziz armonlari. Yo‘q, bular meni bu dunyoga sig‘dirmaydi. Men qayoqqa borishim kerak? Bektemir aka! Notanish odam... Qora yerda men yotsam bo‘lmasmidi! – Akbarali qabr toshidan boshini ko‘tardi. – Men yana o‘zimni o‘ylayapman. Nahotki shundan boshqaga yaramasam?.. Yarar edim, o‘sha bir zum – daqiqadan o‘tib olsam, albatta, yarar edim. Lekin endi... endi kech. Bir zumlik xato. Bir nafas tubanlik... uni endi butun hayotni berib ham tuzatib bo‘lmaydi. – Akbarali o‘zining haykaliga qaradi. – Xayr... Bektemir aka...”

– Meni hech kim tanimayapti, bobo! Hech kim tanimayapti... – deb yig‘lab yubordi Akbarali qissasini tugatar ekan.

Ko‘zlarini javdiratib angrayib o‘tirgan Azimjonga ham u endi bu dunyoning odami emasdek tuyulib ketdi. Yuzi uniqqan, oriq, cho‘kib ketgan ko‘zlari nursiz. Odamga tikiladi-yu, hech narsani ko‘rmayotgandek. Shuncha hikoyadan keyin ham u Azimjonga begonaligicha qoldi.

Uzoq jimlik cho‘kdi. Vaqt yarim kechadan og‘ib qolgan, tun salqin edi. Ochiq derazadan Shodasoyning salqini bilan qayerdandir pishgan behi hidi anqib kirdi. Qizg‘ish lampochka zirillab yonar, Ochil buvaning ajin peshonasida ikki tomchi ter yaltirar edi.

O‘rtadagi stolda o‘sha to‘ldirilgan anketalar yotibdi. Azimjon bu jimlikda nima bilan shug‘ullanishini bilmay, stolda yotgan qalamni olib, anketaga bir nimalar chizdi. Rus harflarini mashq qilib, “Akbarobod... Akbarobod”, deb takrorlab yozdi. Qiziq... U Akbarobodda o‘tiribdi. O‘z tog‘avachchasi Akbaralining shahri. Chiroyli shahar. Chiroyli afsona. Sirli mangulik... (Azimjonning ko‘zi Akbaraliga tushdi.) Faqat mana bu odam...

[1] **Sbor** – yig‘ilish, anjuman

[2] **Paqir** – ikki tiyinlik chaqa. Asarda hech narsaga arzimaydigan ma'nosini anglatgan.

Xona hamon jimjit. Tun ham bu uch odam o‘rtasidagi sirni saqlashga qasd qilgandek og‘ir sukutga tolgan edi. Lekin Ochil buva jimlikni buzdi:

– Ha, bolalarim... Odam deb o‘lgan odam – doim tirik bo‘ladi.

Bobo o‘zi o‘ylab o‘tirgan gapni yakunladi shekilli, Azimjon bunga uncha tushunmadi. Voqea butunlay buning aksini ko‘rsatib turibdi-ku: odamlarni deb o‘lgan Bektemir aka degan kishi; u o‘lib, nom-nishonsiz ketgan. Tiriklar – boshqa...

Lekin Azimjonga bobosining gapi yoqdi: “Odam deb o‘lgan odam – doim tirik”. Azimjon buni hatto anketa qog‘ozining orqasiga mashq qilayotgan ruscha harflar bilan yozib ham qo‘ydi, yana bir o‘qib ko‘rdi.

Akbarali ma’nosiz ko‘zlari bilan bo‘shliqqa tikilib o‘tirar edi. Ochil buva: “Yotib dam olish kerak”, deb o‘rnidan turganida u birdan ko‘zlari mo‘ltillab unga yolvorganday termilib qoldi: “Aytadigan gapingiz shumi? Endi men nima qilaman?” degan qo‘rquv bor edi ko‘zlarida.

– Ertalab miya tiniqroq bo‘ladi. Bir chorasini toparmiz, hozir kech bo‘lib qoldi, sen ham yotib damingni ol.

U soqolini silab o‘rnidan turganda salobatli gavdasi xonani to‘ldirgandek bo‘ldi. Uning bir maslahat bermay o‘rnidan turishi Akbaraliga o‘lganning ustiga tepgandek bo‘ldi shekilli, battar quti o‘chdi. Azimjon u bilan bir zum yolg‘iz qolishga qo‘rqqandek bobosiga ergashdi.

Ular o‘z xonalariga chiqib yotishdi. Qayerdadir xirqiroq xo‘roz qichqirardi.

– Adashib qolgan jo‘jaxo‘roz bu. Hali vaqt bor, uxla, damingni ol, – dedi Ochil buva chiroqni o‘chirib yotarkan.

Lekin Azimjon payqadiki, boboning o‘zi uxlayotgani yo‘q. U hadeb u yoqdan bu yoqqa ag‘darilaverdi. Akbaralining fojiasi uni endi to‘lg‘antira boshladi shekilli. Dam nafasi ichiga tushib ketar, dam uzun, chuqur uf tortar edi.

Azimjon bir vaqt boshini ko‘tarib qarasa, bobosi qorong‘ida oppoq bo‘lib karavotda o‘tiribdi: soqoli oq, ko‘ylak-lozimi oq. Tushundiki, boboning Akbaralining oldidan “Yotamiz, dam olamiz”, deb chiqib kelgani yotish, dam olish uchun emas ekan.

– Bobojon, nega indamadingiz, maslahat bermadingiz? – dedi Azimjon bobosining yoniga borib o‘tirarkan.

– Men shu uzundan uzoq umrimda-chi, bolam, hech qachon bunday ojiz, bunday ayanch holga tushgan emasdim, – dedi Ochil buva.

Shundan keyin ikkalasi ham indamadi. Ular shu o‘tirganlaricha tong otguncha karavotda o‘tirib chiqishdi.

– Dam olsin, o‘ziga kelsin, – deb qo‘yardi Ochil buva har zamonda. O‘zi bo‘lsa o‘tirgan joyida tebranib, keksa asablarini bosishga urinar, peshonasini artib-artib o‘y surar edi.

– Siz hech qachon ayanch holga tushmaysiz, buva, – deb shivirlaydi yonida Azimjon. – Siz... siz hamma narsaga xo‘jayinsiz. Nazarimda, qismat ham sizning qo‘lingizda... Bizning shirkatimizning bosh direktori keksa odam. Nufuzli pirga qo‘l bergan. “Pirimning olti ming muridi bor”, deb maqtanardi. U pirni ko‘rganman. Juda xasis odam, nasha chekar edi. Mashina bosib ketdi...

Azimjon “Buni nega gapiryapman?” deb xijolat chekib o‘tirgan edi, bobosi kulib yubordi – ta’sir qilibdi:

– Pirni mashina bosib ketibdi, degin? – Ochil buva yana maza qilib kuldi.

Shu bilan ular jonlanib, o‘rnilaridan turishdi. Derazalar tong shafag‘idan qizargan edi. Yuvinib-kiyinishguncha yo‘lakda qadam tovushlari ham eshitila boshladi, chelaklarini taraqlatib farroshlar ishga tushishdi.

Bobo-nevara boshlashib chiqib, Akbaralining eshigini qoqishdi. Qiya turgan eshik ochilib ketdi. Akbarali yo‘q edi. Xona o‘sha-o‘sha: tartibsiz, derazalar lang ochiq, joy g‘ijim.

Ochil buva kirishi bilan yuragi shuv etdi-yu, indamay o‘tirdi; birpas kutish kerak. Azimjon yo‘lakka mo‘raladi, allaqayoqlarga borib ham keldi, xonaning egasi hech qayerda yo‘q edi. Besh minut o‘tirishdi, yigirma minut... Ochil buva toqati tugab o‘rnidan turmoqchi edi, stoldagi anketa qog‘oziga ko‘zi tushdi. “Adem dep o‘lgen adem dayemo tirik”. Bu Azimjonning qo‘li. Kechagi yozgani. Xatolari bo‘lsa ham ancha o‘rganib qolibdi. Zehni joyida. Bunisi nima? Tagida yana bir xat bor-ku. Qo‘li qaltirab, aji-buji, lekin xatosiz yozibdi: “O‘zini deb yashagan – o‘lik”. Oho, hikmat-ku! Ikki satr bayt bo‘pti!

Ochil buva jilmaygancha birpas yozuvga tikilib o‘tirgach, yuziga yolqin urgandek birdan o‘rnidan turib ketdi. Yalt etib derazaga qarab, qog‘ozni cho‘ntagiga tiqdi. Eshikka otildi.

O‘qdek o‘tib ketgan chol bilan yigitga yo‘lakdagilar anqayib qarab qolishdi. Azimjon qayoqqa ketishayotganini hali bilmas, bobosiga arang yetib yurar edi. Bobo mehmonxonani aylanib o‘tib, o‘t bosgan chorbog‘ ustidan yo‘l soldi, paxsa devor raxnasidan oshganlarida go‘ngtepadagi bir to‘da tovuq vahima bilan qaqag‘lagancha tirqirab qochdi. To‘zg‘igan pat ichidan chiqib kuchukka yo‘liqishdi, xayriyat, bog‘log‘liq ekan, tomorqadan tekis yalanglikka chiqib olishdi.

Yalanglikda Ochil buva qadamini sekinlatib, nafasini bosishga urindi. Lekin rangi oqargan, to‘g‘riga tikilgan ko‘zlarida odatdagi vazmin xotirjamlik yo‘q edi. Yalanglik ko‘m-ko‘k maysa, oyoq bosilmagan; shabnam nuqraday yiltillar, tep-tekis edi. Ikki yuz qadamcha yurganlarida yalanglik bilan qirqilib, tikka tushib ketgan jar tagida qaynab oqqan Shodasoy ko‘rindi, salqin shamoli, yurakka vahima soladigan shovullashi yuzlarga urdi.

– Bobo! Beriroq turing! – deb qichqirib yubordi Azimjon ovoz eshitilmasa ham, Ochil buva bir qadam orqaga chekindi. Soyning betinim shovullashidanmi, ko‘p yugurganidanmi, yo noma’lum hayajondanmi Azimjonning boshi aylanib ketdi. Bobosi uning yuziga qarab, ahvolini tushundi, lablari qimirladi: “Bu yerda hamma ham shunday bo‘ladi, qo‘rqma”, dedi shekilli. Uning etigi qo‘njigacha nam, yuzida ojizlik, musibat ko‘lankasi kezar, soqoli sal titrar edi. U avval jar ostida ko‘piklanib turgan soyga uzoq qarab turdi, keyin cho‘kkalab, shabnamda qolgan qandaydir izlarni paypasladi, kaftini soqoliga surib o‘rnidan turdi, orqaga qaytdi.

Azimjon ergasharkan, voqeani tushungan edi. U Akbaralining qissasidan bu jar haqidagi so‘zlarini esladi: “Tagida yalmog‘iz kamar bor deyishadi. Bolalarni u yerga yo‘latishmasdi. Meni ham dadam u yerdan quvlagani-quvlagan edi...”

Soyning suroni orqada qolgandan keyin qaltiroq bosib ketgan Azimjon so‘radi:

– Siz shunga aminmisiz, bobo?..

– Ha, – dedi Ochil buva nevarasiga hazin qarab. Cho‘ntagidan g‘ijimlangan qog‘ozni olib unga tutqazdi. Azimjon dam to‘xtab, dam yurib uzoq o‘qidi. Akbaralining kechagi qutsiz yuzi, ma’nosiz qarashlari ko‘z oldiga keldi.

– Kechqurungi o‘sha gapingiz... turtki bo‘libdi-da, – dedi u bobosiga, – Komilani uydan haydab bir xato qilgan edingiz. Bu safar ham...

– Bu safar xato qilganim yo‘q. O‘zi... bandi mo‘rt edi. Uchdi-ketdi.

– Berahmsiz...

– Hayot berahm. – Cholning qatlam-qatlam ajin bosgan ko‘z yonlari namlandi. – Qo‘rqoqqa, ayniqsa, berahm. Bola ahvolni o‘zicha tuzatmoqchi bo‘lgan. Lekin yana qo‘rqoqlik bilan. Yo‘q, xatoni tuzatish, haqiqatni yuzaga chiqarish uchun jasorat kerak, sen ham bilib qo‘y!

Keling, muhokama qilamiz

1. Yozuvchi Akbaralining o‘z soyasi bilan uchrashuvi tasviri orqali nima demoqchi? Akbaralining soyadan qochishi zamirida qanday ma’no bor deb o‘ylaysiz?
2. Asar mutolaasi davomida Ochil buvaning fe’l-atvorida qanday xususiyatlar yetakchi ekanini aniqladingiz? Sanang va izoh bering.
3. Azimjonning Ochil buvaga qarata: *“Siz... siz hamma narsaga xo‘jayinsiz. Nazarimda, qismat ham sizning qo‘lingizda...”,* deyishi sabablarini ayta olasizmi?
4. *“Odam deb o‘lgan odam doimo tirik, o‘zini deb yashagan o‘lik”* fikri, sizningcha, Akbarali voqeasining mohiyatini ifodalay oladimi yoki yo‘q? Javobingizni asoslang.
5. Haqiqatni yuzaga chiqarish uchun insonga aynan qanday jasorat kerak? Vijdonning ko‘ziga tik boqa olish qudrati haqida mulohaza bildiring.
6. Akbaralining hikoyasini eshitgan Ochil buva nima uchun uni na yupatdi, na unga tanbeh berdi? Mulohazalaringizni dalillang.

Guruhlarda ishlash

Qur’a tashlash yo‘li bilan uch guruhga bo‘lining. Har bir guruh o‘ziga tasodifiy tanlovda tushgan keyslarni muhokama qilib, turli vosita (taqdimot, rasm yoki boshqa) va usullar (og‘zaki, yozma yoki boshqa) yordamida yakdil javoblar tayyorlasin. Tayyorlagan materiallaringizni boshqa guruhlar ko‘rib chiqib, fikr bildirishi uchun taqdim qiling.

1-guruh	Asarda Azimjon ***“begona yurtda unib chiqqan zaif nihol”***, Akbarali esa ***“bandi mo‘rt edi”***, deb ta’riflanishi sabablarini aniqlang. O‘rtadagi o‘xshash va farqli jihatlarni sanab, izohlab bering.
2-guruh	Akbarali voqeasi bilan qissa epigrafining (*“Eng dahshatli yirtqich – quyon”*) qanday bog‘liqligi bor? Epigrafda qanday tagma’no yashiringan?
3-guruh	Shodasoyga Akbarobod deb nom qo‘yilishi, marhumga haykal o‘rnatilishi, uning nomi bilan muzey ochilishi kabi holatlar sobiq Sovet ittifoqidagi qanday “qadriyat”larni fosh qiladi? Javobingizni asoslang.

“TURING, SUD KELYAPTI!”

Sinfdoshlaringiz bilan kelishgan holda Akbarali qissasi voqealari bo‘yicha sud jarayonini tashkil qiling. Sinfdoshlaringiz Akbarali, Ochil buva, Bektemir, sudya, prokuror (qoralovchi), advokat (oqlovchi), guvoh sifatida rol ijro etsin. Sud jarayonida portlash voqeasini asosiy epizod sifatida belgilang va Akbaralini “oqlash” yoki “qoralash” bo‘yicha ramziy sud hukmini tayyorlang.

Quyidagi bosqichlarga amal qiling:

1-bosqich. Ssenariy tuzish.

2-bosqich. Sahnalashtirish.

3-bosqich. Namoyish etish.

Eslatma: sudya, prokuror va advokat rolidagi o‘quvchilar qonunchiligimiz (jinoiy, ma’muriy kabi)ga tayanib, asosli faktlar tayyorlashi kerak. Konstitutsiyaviy huquq fani o‘qituvchisidan ham maslahat oling.





OYBEK (1905–1968)

Dars davomida:

– Oybekning o‘ziga xos hayot va ijod yo‘li haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz;

– shoir lirikasining umumiy yo‘nalishi va mavzular ko‘lami bilan tanishamiz;

– she’rlarini g‘oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilamiz.

Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek 1905-yil 10-yanvarda Toshkentning qadimiy Gavkush mahallasida, bo‘zchi oilasida tug‘ilgan. Dastlab eski usuldagi maktabda, keyinchalik “Namuna” maktabida va Navoiy nomidagi ta’lim-tarbiya texnikumida o‘qigan. Oliy ma’lumotni hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetida iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha olgan. Ammo keyinchalik ijodga muhabbat uni adabiyot sari yetakladi.

Ilm-fanga qo‘shgan salmoqli hissasi uchun O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi (1943) darajasini olgan.

Oybek asos solgan “O‘zbek tili va adabiyoti” (ilk nomi “O‘zbek tili va adabiyoti masalalari”) jurnali hozirga qadar nashr etiladi. Adib bu jurnalda 1958-yildan to umrining oxiriga qadar bosh muharrir vazifasida ishlagan. U “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” unvoni, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan.

Yozuvchi ijodining eng avj pallasida og‘ir xastalikka chalinadi. Shunda ham ijoddan to‘xtamaydi. Bu haqida turmush o‘rtog‘i Zarifa Saidnosirova shunday yozadi: *“1951-yil – Oybekning xasta bo‘lgan yili. Hozir uning oyoq-qo‘llari yaxshi; faqat o‘ng qo‘lining ikki barmog‘i ishlamaydi. U endi so‘l qo‘li bilan yozishga urinadi. Shu tarzda Oybek “Haqgo‘ylar” dostonini yozdi. “Nur qidirib” va “Quyosh qoraymas” asarlari ustida ishlay boshladi. So‘l qo‘l bilan yozish, tabiiy,*

oson emas. Shuning uchun ham endi unga yordam bera boshlayman. Men institutdan kelgach, Oybek gapiradi, men yozaman… Oybek o‘sha kezlarda mening ishdan kelishimni oshiqib kutardi. “Ovqatlan, choy ich, yozamiz. Miyamda hammasi tayyor, taxtlangan, tezroq aytib bersam”, – der edi u shoshib. Men ikki-uch soat davomida yozaman. Keyin: “Bas, Oybek, charchadingiz!” – deyman. “Yo‘q, charchamadim, yana jinday sabr qil”, – deydi u. “Sizga ko‘p ishlamoq mumkin emas”, – desam, quloq solmaydi…”

Oybekning “Tuyg‘ular”, “Ko‘ngil naylari”, “Mash’ala”, “Quyosh qo‘shig‘i” kabi she’riy to‘plamlari; “Dilbar – davr qizi’, “O‘ch”, “Baxtigul va Sog‘indiq”, “Gulnoz”, “Guli va Navoiy”, “Hamza”, “Mashrab” kabi dostonlari; “Bolalik xotiralarim” (avtobiografik), “Bola Alisher”, “Nur qidirib” kabi qissalari; “Qutlug‘ qon”, “Navoiy”, Ulug‘ yo‘l”, “Oltin vodiydan shabadalar”, “Quyosh qoraymas” kabi romanlari; “Mahmud Torobiy” kabi dramasi o‘zbek adabiyotining nodir durdonalaridir.

Shoir, nosir, dramaturg, olim Oybek *tarjimon* sifatida ham salmoqli ishlarni uddalagan. Jumladan, antik davr xrestomatiyasi, Rim adabiyoti, XVII – XIX asrlar Yevropa adabiyotiga oid hamda A. Pushkinning “Yevgeniy Onegin”, M. Lermontovning “Maskarad” kabi asarlarini, shuningdek, arman xalqining “Sosunli Dovud” eposi va boshqa noyob asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Oybek 1968-yil 1-iyul kuni 17 yil davom etgan og‘ir xastalikdan so‘ng vafot etgan.

Bu qiziq!

Oybekning turmush o‘rtog‘i Zarifa Saidnosirova kimyo fanlari nomzodi, professor, fan arbobi edi.

U Oybek shaxsiyati va hayoti haqida “Oybegim mening” kitobini yozadi. Unda adib haqida go‘zal xotiralar mujassam. Shuningdek, Zarifa Saidnosirova bir-biridan go‘zal she’rlar ham ijod qilgan. Shunday she’rlari jamlanib, “Gul bargi” nomi bilan chop etilgan.

O‘ylab ko‘ring!

Oybek xastaligida ham ijoddan to‘xtamaganining sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. Shunday vaziyatda unga yelkadosh bo‘lib, asarlarini oqqa ko‘chirib bergan Zarifa Saidnosirova haqida ham mulohazalaringizni bildiring.

Tavsiya

Oybek yashagan (1940–1968) uy 1980-yilda uy-muzeyga aylantirilgan. Ushbu havola orqali Oybek uy-muzeyi bilan yaqindan tanishishingiz mumkin.

3

MUTOLAADAN OLDIN



Oybek va Zarifa

Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek har uchala adabiy tur (nazm, nasr, drama)da birday mohirlik bilan qalam tebrata olgan ulkan so‘z san’atkoridir. Adabiyotimiz tarixida bunday ijodkorlar barmoq bilan sanarli. Oybek adabiy faoliyatini shoir sifatida boshlagan.

Olimlar uning she’rlarini ishqiy, tabiat va harbiy lirikaga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qiladilar. Oybek lirikasi o‘z zamondoshlari she’rlaridan tuyg‘u va kechinmalarning real asosga ega ekani bilan farqlanadi. Xususan, uning ishqiy lirikasi yagona ayolga – turmush o‘rtog‘i Zarifa Saidnosirovaga bag‘ishlangani bilan xarakterlansa, tabiat lirikasi bilan bog‘liq she’rlari vujudga kelishida 1936-yilda Chimyon bag‘rida bir necha oy yashagani muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Shoirning harbiy lirikasi esa Ikkinchi jahon urushi yillarida frontda o‘tkazgan hayoti (1942-yil dekabr – 1943-yil mart)ning badiiy in’ikosidir.

Oybekning she’rlari bilan tanishish asnosida u bilan birga goh tabiat go‘zalligidan zavqlanamiz, goh hijron iztiroblariga taslim bo‘lamiz, gohida dushmanga nafratimizni jilovlay olmay qolamiz. Zero haqiqiy she’riyatning ta’sir kuchi ham uning “yuqumli”ligidadir.

UZOQDAN TURIB...

Ko‘zlari cho‘lpondek nozli sevgilim,
Ko‘zingga bir boqib, men sevdim seni!
Xayoling eslarkan qonaydi dilim,
Yolboray, go‘zalim, unutma meni!

Daryolar singari ko‘nglim jo‘shqindir,
Bir tola soching-la bog‘lanib qoldi.
Vaslingga yetganim na go‘zal kundir,
Ayriliq siynamga yong‘inlar soldi.

Xayoldek yo‘qoldi yayragan chog‘lar...
Darding-la so‘narkan qora sho‘x ko‘zim.
Seni erkalaydi dengiz, qirg‘oqlar,
Ko‘zlari cho‘lpondek nozli sevgilim!

1928

Keling, muhokama qilamiz

1. Yorning ko‘ziga bir boqib sevib qolish holati sizda qanday taassurot uyg‘otdi? Bu tabiiy hodisami?
2. “Ko‘zlari cho‘lpondek” tashbehini izohlab bering.
3. Oybek Zarifaga sog‘inchli maktub yo‘llaydi. Maktub ushbu she’rdan iborat edi. Endi ayting-chi, oshiqning sevgilisiga unutmaslik haqidagi o‘tinchi zamirida nimalar yashirin?
4. She’rdagi xayol, daryo, dengiz, qirg‘oq timsollari orqali shoirning qanday iztiroblari, quvonchlari aks etgan?
5. She’rning uchinchi bandidan uni O‘zbekiston hududidan tashqarida yozilgan deb xulosa qilish mumkinmi? Nega?

O‘ylab ko‘ring!

Zarifa Saidnosirova “Uzoqdan turib…” she’ri haqida bunday yozadi:

“Men uchun nihoyatda aziz satrlar... Bu she’r menga bag‘ishlangani uchungina emas, balki unda ulug‘ shoirning buloq suvlaridek musaffo qalbi mavj urib turgani uchun ham sevaman. Bu she’rni o‘qib, hasratlarim, dardlarim, tashvishlarim erib yo‘qolgandek bo‘ladi”.

She’rda ma’shuqaning *hasrat, dard, tashvishlarini* eritib yo‘q qila oladigan nimalar bor? Topilmalaringizni izohlang.

Topshiriq

“Uzoqdan turib…” she’ridan mubolag‘a, tazod kabi badiiy san’atlarga misollar topib yozing.

NA’MATAK

Nafis chayqaladi bir tup na’matak
Yuksakda, shamolning belanchagida,
Quyoshga ko‘tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o‘shshaygan qoya labida
Nafis chayqaladi bir tup na’matak...

Mayin raqsiga hech qoniqmas ko‘ngil,
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.
So‘nmaydi yuzida yorqin tabassum,
Yonoqlarni tutib oltin bo‘sa-chun
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!

Poyida yig‘laydi kumush qor yum-yum...
Nafis chayqaladi bir tup na’matak...
Shamol injularin separ chashmadek,
Boshida bir savat oq yulduz – chechak,
Nozik salomlari naqadar ma’sum.

Tog‘lar havosining feruzasidan
Mayin tovlanadi butun niholi.
Vahshiy qoyalarning ajib ijodi:
Yuksakda raqs etar bir tup na’matak,
Quyoshga bir savat gul tutib xursand!

1936



Oybek. Rassom Aziza Mamatova

Talqin

Rasmga diqqat qiling. Unda she’r bilan bog‘liq qanday uyg‘unlik sezdingiz? Fikringizni bayon eting.

Keling, muhokama qilamiz

1. She’r tufayli ruhiyatingizdagi o‘zgarishlar haqida gapirib bering. Qanday hislar sizni chulg‘ab oldi?
2. *“Shamolning belanchagi”* tashbehini qanday tushundingiz? Izohlab bering.
3. O‘shshaygan qoyalar labida ham na’matakning nafis chayqalib turishida, quyosh va unga tutilgan bir savat oq gulda qanday ramziylik bor deb o‘ylaysiz? Nima uchun?
4. Shoir qoyani birinchi bandda *“Viqor-la o‘shshaygan qoya”,* oxirgi bandda *esa “vahshiy qoya”,* tarzida tasvirlashining sababi nimada? Nima deb o‘ylaysiz, shoir bu qoyatoshlardan minnatdormi yoki norozi? She’rdan dalillar keltiring.
5. *“Poyida yig‘laydi kumush qor yum-yum...”* misrasi bilan boshlanuvchi bandni o‘qib, qanday nozik kechinmalarni tuydingiz? Na’matak poyida kumush qor yum-yum yig‘lashining sababini izohlang.
6. She’rning qaysi bandida na’matak obrazi o‘zbek kelinchagiga hamohang tasvirlangan?

O‘ylab ko‘ring!

She’rga diqqat qiling. Undagi qaysi satrlar orqali shoirning Chimyon bag‘rida yilning qaysi faslida yashaganini aniqlash mumkin?

Topshiriq

1. She’rda qaysi so‘z va misralar takror qo‘llangan. Ularni aniqlab yozing. So‘zlarning takror qo‘llanishi she’r mazmuniga qanday ta’sir qilgani va shoirning bundan maqsadi haqida ham fikr bildiring.
2. She’rda na’matakdan tashqari yana qanday obrazlar bor? Ularni sifatlash (yoki fe’l) bilan jadvalga kiriting.

Obrazlar	***Qoya***				
Sifatlash yoki fe’l	*Viqor-la o‘shshaygan*				

“YIG‘I KELMAYDI SIRA…”

Yig‘i kelmaydi sira…
G‘azabdan qaqragan ko‘z.
Bu yo‘llarning yaxidek
Labimda qotibdi so‘z.

Qoshlar, kipriklar qirov –
Yuraman hushsiz, hayron.
Qornim och, esga kelmas
Xaltamdagi g‘ishtdek non…

Kuygan uylarda uvlar
Qish quyuni betinim.
Tanho kezaman. Yig‘lar
Yuragimda Vatanim.

1944

Keling, muhokama qilamiz

1. She’rda qaysi davr voqealari tasvirlangan? Urush va uning oqibatlari haqida fikringizni ayting.
2. Nega shoirga *“yig‘i kelmaydi”*? Uning diydasi shunchalik qattiqmi? “*Yig‘i kelmaydi sira*” misrasini siz qanday talqin qilasiz? Bu “*erkak kishi yig‘lamaydi*” degan mulohazaga hamohangmi yoki boshqa sabab bormi?
3. Shoirning ko‘zi “*g‘azabdan qaqragan*”i, so‘zi “*yo‘llarning yaxidek*” labidayoq *“qotgan”*i sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. U jang maydonida nimalarga guvoh bo‘lgan bo‘lishi mumkin?
4. She’rdagi “*kuygan uylar*” birikmasini izohlang.
5. *“Tanho kezaman. Yig‘lar Yuragimda Vatanim”* misralarida shoirning qanday hasratlari, qayg‘ulari ifoda etilgan? She’r matniga tayanib, fikringizni asoslang.

“YOR KELDI…”

Yor keldi – atrofga yoyildi hola[1]
O, nechuk donishmand, so‘zga boy bulbul,
Ko‘zlar – nur, qosh – qalam, soch – bo‘yra, naq tun?
Ko‘ngillar yorishdi, shodlik – shalola!

“Kichkina hujra[2]mga, – dedim, – marhamat!”
Kuldi: “Yo‘q, yoz fasli supadir so‘lim”.
Ta’zim ila qizga tutamen oq gul,
Gul singari toza unda tabassum…

Sevgilim so‘zlasa – fikrlar toshqin,
Mantiqda olmosday uslubi o‘tkir.
Dilrabo so‘zlari, ko‘zlari qalbim –
Tanburin sehrkor, jo‘shqin kuylatur...

“Butun borlig‘imni, butun jahonni
To‘latgan bahorning o‘zisen”, – deyman.
Ishq devonaligi shunday bo‘lurmu:
“Undan go‘zalroq hech kim yo‘qdir”, – deyman,

Javondan sug‘urdi Pushkin jildini,
“Xayr”, – dedi mayin – yo‘q bo‘ldi zumda.
Ortidan yugurdim… Yellar quchog‘i –
Qarshiladi yolg‘iz. Topmadim bir iz…

[1] **Hola** – Oy va Quyosh atrofidagi gardish.
[2] **Hujra** – ham dars tayyorlanadigan, ham yashaydigan xona.

Jononim, ishqing-ku – o‘zingga ayon –
Olov quyuniday siynamni yoqdi.
Yuramen, telbamen, shafqatsiz hijron.
Ko‘zdan yosh izlama – qalbimdan oqdi.

Ufqlarda rang ko‘p, qonlar undan ko‘p,
Boshimda bulutlar karvoni – jafo.
Yurakni olaroq ketdi, izlaymen –
Haqiqat singari ezgudir vafo.

Oy chiqar barkashday, men ishqdan telba,
Eshigimda kutar tong va bo‘sh kulba.

1963



Uchrashuv. Rassom Akmal Nur

Keling, muhokama qilamiz

1. Yorning kelishi va **hola**ning atrofga yoyilishida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkin?
2. Oshiq hujrasiga kirmay, supada suhbatlashishni ma’qul topgan ma’shuqada o‘zbekona qanday fazilat ko‘rdingiz?
3. *“Ko‘zdan yosh izlama – qalbimdan oqdi. Ufqlarda rang ko‘p, qonlar undan ko‘p”, misralarni* sharhlang. Shoir nima demoqchi?
4. *“Haqiqat singari ezgudir vafo”* misrasi mazmunini tushuntirishga harakat qiling. Vafoning haqiqatga tenglashtirilishiga qanday qaraysiz?
5. Nima deb o‘ylaysiz: shoir yorni gul emas, bulbulga o‘xshatishida mumtoz an’analarning buzilishi kuzatilmaydimi?
6. Yor tasvirida shoir yana qanday noan’anaviy sifatlashni qo‘llaydi? Fikringizni she’rning uchinchi misrasi (yoki boshqa satrlar) orqali izohlang.

O‘ylab ko‘ring!

“Ta’zim ila qizga tutamen oq gul” misrasiga diqqat qiling. Oshiq ma’shuqasiga oq gul tutishining ma’nosi nima? Muhabbat ramzi qizil atirgul emasmi?

Ijodiy ish

“Yor keldi...” she’ri bilan Akmal Nurning “Uchrashuv” suratini bog‘lab, ijodiy matn yozing. Suratdagi ma’noni izohlashga harakat qiling.

Tavsiya

Oybek she’rlaridan birini ifodali yod oling.



ODIL YOQUBOV (1926–2009)

Dars davomida:

– “Ulug'bek xazinasi” romani syujetini, obrazlarini tahlil qilamiz;
– shohlik va olimlik mashaqqatlari haqida fikr yuritamiz;
– Mirzo Ulug‘bekning hukmdor, olim, ota sifatidagi maqomini muhokama etamiz.

Odil Yoqubov 1926-yili Chimkent viloyati (Qozog‘iston Respublikasi)ning Qarnoq qishlog‘ida tug‘ilgan. Urushdan qaytgach, hozirgi O‘zMUning rus filologiyasi yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilinib, uni 1956-yilda tamomlagan. “Tengdoshlar” qissasi adibning ilk asari bo‘lib, 1951-yilda e’lon qilingan.

O‘zbek yoshlari o‘rtasida qo‘lma-qo‘l o‘qilgan “Muqaddas” qissasi haqida adib xonadonida tez-tez mehmon bo‘lib turgan Chingiz Aytmatov bunday degandi: *“Adil! Kechroq bo‘lsa ham “Muqaddas”ni o‘qidim. Mening “Jamila”m va “Sarvqomat dilbarim” rus tilida chiqdi. Aslida sening “Muqaddas”ing avvalroq chiqqanida sen mendan ham mashhur bo‘lib ketarding...”*

O. Yoqubovning “Dastlabki qadam”, “Ikki muhabbat”, “Tilla uzuk” singari qissa va hikoyalar to‘plami; “Ikki muhabbat”, “Bir felyeton qissasi” kabi qissalari; “Er boshiga ish tushsa”, “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo” kabi romanlari; “Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim”, “Muzaffar Temur”, “Bir kosho-na sirlari” kabi pyesalari ham kitobxonlar mehrini qozongan.

Odil Yoqubov asarlari 90 ga yaqin tilga tarjima qilingan.

Adib 2009-yilda vafot etgan.

Eslang!

Quyi sinflarda Odil Yoqubovning qaysi asarini mutolaa qilgan edingiz? U nima haqida edi?

MUTOLAADAN OLDIN

Muhammad Tarag‘ay ibn Shohrux ibn Temur Ulug‘bek Ko‘ragon (1394–1449) – hukmdor, buyuk astronom va matematik olim.

Mirzo Ulug‘bek – ilm-fan homiysi. Mirzo Ulug‘bek Buxoro, Samarqand va G‘ijduvonda madrasalar qurdirib, zamonasining mashhur ulamolarini mudarris etib tayinlaydi. Tolibi ilmlarga nafaqalar tayinlab, kerakli sharoitlarni yaratib beradi. Samarqanddagi XV asr me’morchiligining nodir namunalaridan biri, shubhasiz, Ulug‘bek rasadxonasidir. Ko‘hak tepaligida bunyod etilgan rasadxona o‘sha davrda islom olamidagi eng yirik ilmiy markazlardan biri bo‘lgan bo‘lsa, o‘ziga xos ilm-fan akademiyasini yaratgan Mirzo Ulug‘bek buyuk astronom sifatida mashhur. Uning ustoz-shogirdlar bilan tuzgan “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” (“Ko‘ragoniy yangi astronomik jadvali”) asari hali-hanuz muhim ilmiy manba sifatida qadrlanadi. Ulug‘bekning shogirdi Ali Qushchi Turkiyaga ko‘chib borib, asarning keng tarqalishiga katta hissa qo‘shdi.

Mirzo Ulug‘bek ko‘plab nodir asarlarni yig‘ib, aksariyatini turkiy tilga tarjima qildirgan. Manbalarda u tashkil etgan boy kutubxonada 15000 dan ortiq noyob kitob bo‘lgani qayd etiladi.

Siyosiy vaziyat. Temuriylar davri (XV asr) Markaziy Osiyoda madaniy va ilmiy yuksalish davri bo‘lib, Hirot, Samarqand va Buxoro kabi shaharlar ilmiy markazlarga aylangan. Biroq bu davrda ichki nizolar, taxt uchun kurashlar va diniy ziddiyatlar ham mavjud edi. Ayniqsa, bu hol Sulton Shohrux vafoti (1447-yil)dan keyin yanada avjiga chiqdi. Rasmiy voris marhum sulton tomonidan qat’iy tayinlanmagani, uning yetti o‘g‘lidan olti nafari Shohruxdan oldin vafot etgani tufayli an’anaga ko‘ra, taxtga to‘ng‘ich o‘g‘li Ulug‘bek mirzo o‘tirishi lozim edi. Ammo taxtni Ulug‘bekning ukasi Boysung‘urning o‘g‘li Alouddavla egallaydi. Toj-u taxt uchun yana kurash boshlanadi. Temuriy mirzolarning o‘zaro nifoqida Ulug‘bekning onasi Gavharshodbegim muhim rol o‘ynaydi.

Taxt uchun kurashga Ulug‘bekning Gavharshodbegim tarbiyasini olgan, mol-dunyoga o‘ch katta o‘g‘li Abdullatif ham qo‘shiladi. Boshida amakivachchalari bilan kurashgan shahzoda Abdullatif qulay fursatdan foydalanib, otasiga qarshi bosh ko‘taradi.

… Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani ayni shu vaziyatdan boshlab, keyingi voqealar rivoji haqida hikoya qiladi. Asar 60 ga yaqin tilga tarjima qilingan, davlat mukofotiga ham sazovor bo‘lgan.

Topshiriq

“Ulug‘bek xazinasi” romanini (1) o‘qing.



Ulug‘bek rasadxonasining hozir saqlanib qolgan ichki ko‘rinishi.

ULUG‘BEK XAZINASI

(Roman)

BIRINCHI QISM

1

Vaqt tun yarmidan oshgan. Rasadxona teran sukutda.

Odatdagiday kechasi samoviy holatlarni kuzatib o‘tirgan mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi bir payt vujudida xiyol noxushlik sezib, o‘rnidan turdi. Lekin qo‘lidagi asboblarni joyiga qo‘yib ulgurmagan ham ediki, qayerdadir yuqorida, birinchi oshyonada oyoq tovushlari eshitildi. Bu tovushlar rasadxona tolibi ilmlarining sharpasiz odimlariga o‘xshamas, sipohlarning betakalluf qadamlarini eslatardi. Mavlono sergaklanib yuqori oshyonaning darchadan kichik o‘ymakor eshigiga tikildi, nimqorong‘i rasadxonada yo‘g‘on va o‘ktam ovoz yangradi:

– Mavlono Ali ibn Muhammad Qushchi hazratlari! Shahriyori falak-iqtidor Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragoniy[1] hazratlari amr etmishlarkim, Ko‘ksaroyda darhol hozir-u nozir bo‘lg‘aysiz!

Ali Qushchi kaftini qoshlari ustiga tutib, navkarlarni yaxshiroq ko‘rishga urindi, lekin navkarlar mash’allarini boshlari uzra baland ushlab turishar, sersoqol yuzlari chala-chulpa ko‘rinardi.

– Bir daqiqa fursat bergaysiz. Olatlarni yig‘ishtiray, – dedi Ali Qushchi.

G‘ira-shira rasadxonada yana boyagi tahdidli ovoz yangradi:

– Fursat ziq, mavlono. Otlar shay!

Navkarlar nag‘al[2] qoqilgan og‘ir etiklari bilan marmar zinalarni gurs-gurs bosib, orqaga chekinishdi. Qo‘llaridagi mash’allarning shu’lasi devorlarning tilla suvi yuritilgan naqshlarini bir yalab so‘ndi, rasadxona yana qorong‘ilashdi. Faqat shiftdagi tuynukda oppoq yirik yulduzlar g‘alati charaqlab turardi. Bu tuynuk shunday yasalgan ediki, pastda o‘rnatilgan sudsi faxri[3] sathida samoda sayr etayotgan yulduzlar holati kuzatib borilar edi.

Ali Qushchi kaltagina cho‘qqi soqolini tutamlab, bir zum tuynukka tikilib qoldi.

O‘tgan kuni tong payti ustod Mirzo Ulug‘bek rasadxonaga tashrif buyurgan edi. Yo‘lbars terisi yopilgan o‘z kursisida o‘tirib, tim qora osmonga razm solib, uzoq xayol surdi.

Ali Qushchi bilar, bu yil sohibqiron Amir Temur tug‘ilgan yildagiday falak qozisi Mushtariy bilan Zuhro yulduzlari[4] bir-biriga yaqin kelishi kutilar edi. Ko‘ngli notinch davlatpanoh esa bunga allaqanday umid bog‘lar, nimanidir kutar edi.

Mana, bir-ikki yil bo‘ldi, olis Hirotdan Xoqoni Said atalmish Shohrux mirzo vafoti to‘g‘risida mash’um xabar kelganidan buyon Movarounnahr va Xuroson osmonidan qora bulutlar arimay qoldi. Taxt va saltanat ishqida yongan temuriy shahzodalar qilich va tig‘ charxlashdan qo‘llari bo‘shamadi. Nihoyat Ulug‘bek qilichi o‘tkir chiqib, Mag‘ribdan Mashriqqacha qanot cho‘zgan hududsiz saltanat xiyol osoyish topgan edi, toj-u taxt valiahdi shahzoda Abdullatif o‘z padari buzrukvoriga qarshi shamshir ko‘tarib chiqdi. Rajab oyining[5] boshlarida a’lohazratlari lashkar tortib, Jayhun

[1] **Ko‘ragoniy** – Chingizxon xonadoniga mansub malikalarga uylangan shaxslarga berilgan unvon.
[2] **Nag‘al** – poyabzal poshnasiga qoqiladigan taqacha, tagcharm.
[3] **Sudsi faxri** – sekstant.
[4] **Mushtariy va Zuhro yulduzlari** – Yupiter va Venera sayyoralarining arabcha nomi.
[5] **Rajab oyi** – musulmonlarning hijriy-qamariy yili hisobidagi 7-oy nomi.



Ali Qushchi. Rassom L. Kaydalov

tomon otlanishga majbur bo‘ldi. Ammo davlatpanoh Jayhun bo‘ylarida lashkar tortib turganida dorulmulkda sodir bo‘lgan fitnalar uni Samarqandga qaytishga majbur etdi. Mana endi uch-to‘rt kundirkim, shaharda vahimali mishmishlar: go‘yo shahzoda lashkarlari Jayhundan o‘tib, Keshga yaqinlashib qolganmish...

To‘g‘ri, o‘tgan kuni saharda rasadxonaga kirib kelgan ustod bu to‘g‘rida so‘z ochmadi. Qo‘lida usturlab[1], samoni kuzatib uzoq o‘tirdi, so‘ng marmar zinaning tik pillapoyalaridan horg‘in odimlab, uchinchi oshyonadagi kutubxonaga o‘tdi. Chehrasi so‘lg‘in, xayoli parishon naqshinkor javonlarga terilgan kitoblarni, salkam qirq yil saltanat tebratib yig‘gan nodir qo‘lyozmalarini bir-bir ko‘zdan kechirdi, yodiga ustod Qozizoda Rumiy tushdi, chamasi, uning “Riyoziyot”ini varaqlab uzoq turdi, keyin bo‘ynini xam qilganicha lom-mim demay, bir-bir bosib chiqib ketdi. U hatto Ali Qushchi bilan xayrlashmadi ham. A’lohazratlarini hovliga kuzatib chiqqan Ali Qushchiga ustod go‘yo rasadxona bilan vidolashgani kelganday tuyulib, yuragi zirqirab ketdi. Ikki kungacha ustodning mahzun nigohi ko‘z oldidan ketmay iztirob chekdi, bir necha bor Ko‘ksaroyga borishga chog‘landi, lekin jur’at etolmadi. Mana endi ustod o‘zlari uni Ko‘ksaroyga chorlabdilar.

Ali Qushchi qora duxoba taqyasining ustidan mudarra dastorini[2] o‘radi, egniga yengsiz kimxob[3] nimchasini, uning ustidan oq chakmonini kiydi-da, tik zinalardan yurib, yuqoriga chiqa boshladi...

… Navkarlardan biri qorong‘ida betoqat depsinib turgan arg‘umoqni ro‘para qilib, qo‘ltig‘idan oldi. Lekin Ali Qushchi uzangini topib, tipirchilagan otga o‘zi sapchib mindi-da, jilovini qo‘liga oldi: u “qushchi” nomini bekorga olmagan, a’lohazratlari bilan ovga chiqqan paytlarida ne-ne asov tulporlarni jilovlab, bir lahzada o‘ziga o‘rgatib olardi!..

Tun sukutini ot tuyoqlarining dupuri buzdi. Navkarlardan biri oldinda, ikkinchisi yonma-yon ot choptirib borardi. Otliqlar Siyobdan o‘tib, do‘ngga chiqqanlarida “Shohizinda” qabristonining qo‘rg‘oni va qo‘rg‘on ortida qator maqbaralarning yuksak gumbazlari ko‘rindi. Tun oysiz bo‘lsa ham, yulduzlar aks etgan firuza gumbazlar allaqanday ko‘kish jilo taratib, g‘alati yaltillab turardi. Qayerdandir olisdan, Qusam ibn Abbos daxmasi tomondan tilovat qilayotgan qorining mungli ovozi kelardi. Hazin kuyga o‘xshagan bu tovush go‘yo boshqa olamdan kelayotgan cheksiz nolaga o‘xshar, keksa sadalar ortidagi ulkan qabristonga, qorong‘ida haybatli ko‘ringan qubbador daxmalarga allaqanday ilohiy ruh baxsh etar, borliq sirli va mudhish tuyulardi.

Otliqlar qabristondan o‘tib, masjidi jomega yaqinlashganlarida har joyda gulxan yoqib, davra qurib o‘tirgan posbonlar uchradi. Ular ot tuyoqlarining dupurini eshitib, o‘rinlaridan sakrab turishar, le-

[1] **Usturlab** – joyning geografik koordinatalarini, vaqtni, obyektning azimutini, yulduzlarning chiqish va botish paytlarini aniqlashda ishlatiladigan ko‘chma astronomik asbob.

[2] **Mudarra dastori** – mudarrislik sallasi.

[3] **Kimxob** – mayin ipakdan to‘qilgan mato.

kin oldinda borayotgan yasovulning[1] amri bilan yo‘lni ochib, otliqlarni o‘tkazib yuborishardi.

Registon oldidagi keng maydon lashkarga to‘lib ketgan, sarbozlar daha-daha[2] bo‘lishib gulxan yoqib o‘tirishardi. Mirzo Ulug‘bek madrasasi ro‘parasidagi xonaqohlardan zikr tushayotgan qalandarlarning ovozlari baralla eshitilib turardi:

Yo Ollo, do‘st, yo Ollo!
Haq do‘st, yo Ollo!

Shahar uzra qanot yozgan xavf-xatar sababmi, qalandarlarning jazava bilan huhulab zikr tushishlari vahimali tuyular, go‘yo ular Olloga hamd-u sano o‘qimoqda emas, bil’aks, kimgadir tahdid qilmoqda edilar.

… Salohdor[3] atrofi archa bilan o‘ralgan, o‘rtasiga kumush favvora o‘rnatilgan marmar sarhovuzning yonidan o‘tib, baland peshtoqli koshonaga yaqinlashdi. Raxlariga tilla tasma qoqilgan o‘ymakor eshikning ikki yonida turgan yasovullarning biri chapdastlik bilan eshikni ochib, ularga yo‘l berdi.

Ular g‘ira-shira tor yo‘lakdan o‘tib, tilla shamdonlarga terilgan shamlardan charog‘on xonaga kirishdi. Tagiga qirmizi turkman gilamlari to‘shalgan, devorlari firuzarang sopol parchinlar bilan qoplangan bu xonaning to‘rida yuqori oshyonaga chiqadigan marmar zina ko‘rinardi.

Ularni eshikda kutib olgan tund yuzli tanish saroybon Ali Qushchini yuqoriga boshladi.

Ikkinchi oshyonadagi katta tanobiy xona ham bo‘m-bo‘sh edi. Saroybon Ali Qushchiga shu yerda kutib turishni imo bilan bildirib, ro‘paradagi eshikdan a’lohazratlarining salomxonasiga kirib ketdi. Eshik ochilganda bir zum ustodning asabiylashgan bo‘g‘iq tovushi eshitilib, eshik yopilishi bilan yana tindi.

Ali Qushchi xonada yolg‘iz qolishi bilan ko‘ngli g‘alati bo‘lib ketdi. Yerga sheroziy gilamlar to‘shalgan, shiftidagi oltin qandilda behisob shamlar yongan bu keng, charog‘on xonaning hamma devorlari ustodning ovdagi o‘ljalari-yu ov anjomlari bilan bezatilgan edi...

Ali Qushchi bu serhasham va serjilo xonani tomosha qilarkan, xayoliga bir fikr kelib, ma’yus kulumsirab qo‘ydi.

Bir mahallar Mirzo Ulug‘bekning farmoni bilan bu qasri oliyga ilk bor qadam qo‘yganida vujudini shunday zo‘r bir hayajon chulg‘ab olgan ediki, boyagi marmar hovuzlarning yonidan o‘tayotganda oyoqlari qaltirab ketgan edi. Bu ko‘rkam, muazzam saroyni sohibqiron atalmish Amir Temur Ko‘ragoniy barpo qildirganini, devorlariga tilladan jilo berilgan bu shinam xonalarda olamni titratgan fotihi muzaffar istiqomat qilganini, shu yerda o‘tirib, butkul ro‘yi zaminni fath etmoq to‘g‘risida pinhoniy rejalar tuzganini o‘ylaganda vujudini allaqanday muqaddas bir titroq qamrab olgan edi. Hayhot!.. Mana hozir yana o‘sha qasri oliyda, ulug‘ jahongirning dorulmulkida o‘tiribdi, lekin qalbida na bir qo‘rquv bor, na bir hayajon! Faqat dilida teran bir mahzunlik bor. Yo‘q, bu mahzunlik sabiylik[4] chog‘larida qalbini hayratga solgan bu muazzam qasrlar yemirilayotganidan emas, yo‘q, suyukli ustodiga kuyunganidan, uning aziz boshini qora bulutlar o‘rab olganiga achinganidan xolos! Nechun, nechun shunday bo‘ldi? Nechun falakiyot ilmini idrok eta olgan, o‘tkir tafakkuri bilan koinot sirlarini ochib, yangi yulduzlar kashf etgan allomalar sarboni taxt va saltanatning bevafoligini idrok etolmadi? Nechun hamma davri davron, hamma davlat va hamma shoh va fotihlarning tarixini besh qo‘liday biladigan bu zukko donishmand toj va hokimiyat hech

[1] **Yasovul** – hukmdorga xizmat qiladigan qurolli soqchi, posbon.
[2] **Daha-daha** – o‘n kishi-o‘n kishi.
[3] **Salohdor** – saroydagi qurol-aslaha ta’minoti va saqlanishi uchun mas’ul kishi.
[4] **Sabiylik** – yoshlik.

bir kimsaga vafo qilmaganini tushunmadi yoxud tushunsa-da, uni tark etishga irodasi yetmadi? Nechun hokimiyat deb atalmish bu soxta shon-shavkatdan voz kechib, butun tafakkuri, o‘tkir mushohadasi, butun salohiyatini ilm-fanga, insonni ulug‘lovchi ziyo – ma’rifatga baxsh etmadi? Nechun?..



Amir Temur saroyi. Elchilar qabuli marosimi. Rassom Malik Nabiyev

Eshik ochilib, Ali Qushchining xayoli bo‘lindi. Ichkaridan shayxulislom[1] Burhoniddinning tanish ingichka ovozi chiyillab eshitildi:

– As salotin zillullohi fil arz! Onhazratlari shar’iy sultonimizdur. Bas! Sultonimizning farmoni oliylari barchaga amri vojibdur!

Uning ovozini bosib g‘ala-g‘ovur ko‘tarilgan edi, ustodning xiyol bo‘g‘iq, o‘ktam ovozi yangradi:

– Bas! Farmoni humoyun amri vojibdur! Amir Sultonshoh barlos! Siz otliq hirovul[2] bilan darhol yo‘lga chiqqaysiz!.. Amir Sulton Jondor tarxon![3] Siz barong‘or[4] suvoriy[5]lar bilan hirovul qo‘shinlarning ortidan yurgaysiz. Nasib bo‘lsa, dovonda uchrashurmiz. Maslahatlar uchun tashakkur. Mashvarat[6] tamom!

Eshikda shahar dorug‘asi[7] Mironshoh, uning ketidan qilich va xanjar taqqan amirlar, qizil kimxob to‘n kiygan devonbegi bilan saroy mahramlari ko‘rindi. Hammaning qovog‘i soliq, chehralari tund edi. Zarrin to‘n kiyib, kamariga oltin bandli shamshir taqqan dorug‘a Mironshoh Ali Qushchiga yer ostidan bir qarab qo‘ydi-da, rapidaday keng yuzini teskari burib, marmar pillapoyalarni dukurlatib, pastga tushib ketdi. Soxt-sumbati kelishgan, qop-qora soqoli o‘ziga juda yarashgan amir Sulton Jondor tarxon kumush kamariga osilgan egri qilichini etigiga sharaq-shuruq urib, Mironshohning ketidan shoshildi. Egnilariga qizil, ko‘k, yashil movut va kimxob to‘n kiyib, qirra qunduz telpak va bo‘rklarini

[1] **Shayxulislom** – taniqli islom olimlari unvoni. Diniy ulamolar boshlig‘i.
[2] **Hirovul** – old qism qo‘shini, ilg‘or qism, avangard.
[3] **Tarxon** – saltanat oldidagi alohida xizmatlari uchun imtiyozga ega amir.
[4] **Barong‘or** – o‘ng qanot qo‘shini.
[5] **Suvoriy** – otliq askar.
[6] **Mashvarat** – harbiy kengash.
[7] **Dorug‘a** – bosh mirshab, shahar idorasi boshlig‘i, hokim.

boshlariga bostirib olgan boshqa amirlar ham qoqilgan etiklari bilan marmar zinalarni taq-taq bosib, pastga tushib ketishdi. Ularning birontasi ham Ali Qushchi bilan salomlashmadi, yolg‘iz shayxulislom Burhoniddin bir zum to‘xtab, tasbeh ushlagan ingichka, oppoq barmoqlarini ko‘rishgali cho‘zdi.

Shayxulislom pastga tushib ketgach, xona chuqur sukutga cho‘mdi, hatto salomxonadan ham churq etgan tovush eshitilmas, davlatpanohdan darak yo‘q edi. Yo boshiga tushgan tashvish bilan bo‘lib, shogirdini chaqirgani yodidan ko‘tarildimikan?.. Xuddi shu payt salomxona eshigi ohista ochilib, ustod ko‘rindi. Egnida odatda saroyda kiyib yuradigan zarbof to‘n o‘rniga ko‘k-yashil movut chakmon, boshida rasadxonada va madrasada kiyadigan uchli qora duxoba qalpoq, oyog‘ida ichiga olmaxon mo‘ynasi qoplangan qo‘nji keng issiq etik, ustod ostonada to‘xtab, shogirdiga allaqanday sinovchan tikildi.

Uning sal to‘lisha boshlagan novcha bo‘y-bastida, misday qoramtir uzunchoq yuzida, qalin qoshlari tagidan tikilib qaragan o‘ychan nigohida ham temuriylarga xos kishini o‘ziga rom etuvchi shiddat, ham qandaydir pinhoniy majruhlik bor edi…

– Yur, o‘g‘lim, maslahat bor...

Mirzo Ulug‘bek boshqa paytlarda ham shogirdini “o‘g‘lim”, deb atardi. Lekin bugun ustodning ovozida, shogirdini quchib so‘zlashida bo‘lakcha bir mehr, samimiyat, ayni zamonda qandaydir teran g‘am-anduh sezilib turardi.

Ustod ko‘zlari yarim yumuq, boshini egib, xayolga tolib o‘tirardi. Uning cho‘zinchoq qoramag‘iz yuzi so‘lg‘in, keng peshonasi va qiyg‘ir burnining ikki yonidagi ajinlari quyuqlashgan, zotan butun vujudida, katta yalpoq kaftlarini tizzasiga horg‘ingina tashlab o‘tirishida chuqur iztirob, izhor etish qiyin bo‘lgan teran bir mung bor edi.

Ali Qushchi yuragi zirqirab, tasalli berishga og‘iz juftlagan ham edi, Mirzo Ulug‘bek xuddi o‘z-o‘ziga gapirayotganday qilib:

– Bu tun... Bu tun tushimda... Ustodni ko‘rdim... – dedi-yu, yana xayolga cho‘mdi.

Ali Qushchi g‘alati bo‘lib ketdi. Uning ko‘z oldiga iliq bahor kuni keldi. Madrasayi Ulug‘bek hovlisining marmar sahniga, chin barg yozgan navqiron chinor atrofiga oftobda gul-gul yongan qizil paloslar yozilgan. Eng yaxshi sarpolarini kiyib, yasanib olgan yosh mullavachchalar hayajonda: bu kun ular davr Aflotuni hisoblanmish mavlono Salohiddin Muso ibn Mahmud Qozizoda Rumiy bilan uchrashib, undan saboq eshitmoq baxtiga musharraf bo‘ladilar!..

… Mirzo Ulug‘bek bosh chayqab, miyig‘ida kulumsirab qo‘ydi.

– Tushimda... jannatmakon ustod kaminani qattiq koyidilar. Bu bevafo saltanatni deb ilm-fandan yuz o‘girding, dedilar. Taxt sohibi bo‘lamen, deb shunday yetuk salohiyatingni juvonmarg qilding, dedilar...

Ali Qushchi o‘rnida bir tebranib, “Yo rabbiy!” – deb yubordi.

Mirzo Ulug‘bek yalt etib qaradi, chuqur botgan o‘ychan ko‘zlarida savol alomati jilva qildi.

– Valine’mat ustod afv etsinlar, – dedi Ali Qushchi o‘ng‘aysizlanib, – va lekin men ham bir-ikki soniya muqaddam xuddi shu fikrni ko‘nglimdan kechirgan edim...

Mirzo Ulug‘bek yoqut ko‘zli oltin uzuk taqilgan o‘rta barmog‘i bilan naqshinkor xontaxtani chertgancha yana sukutga toldi. Uning o‘siq qoshlari bir-biriga tutashib, o‘rtasida chuqur chiziq paydo bo‘ldi. Ali Qushchi unga tasalli berish o‘rniga alamli qalbini battar tig‘laganini sezib, o‘ng‘aysizlanib tomoq qirdi.

– Mavlono Ali! – dedi Mirzo Ulug‘bek ko‘zlarini bir nuqtadan uzmay. – Bandayi ojiz Movarounnahrga salkam qirq yil rahnamolik qildim. Nahot bu borada qilgan mehnatim zoye ketdi, deb o‘ylay-

sen? Nahot ilm yo‘lida, Movarounnahr osoyishtaligi yo‘lida nafim tegmadi, degan fikrdasen?

Ustodning g‘am-anduhga to‘la ovozi favqulodda titrab ketdi-yu, Ali Qushchi gustoxlik[1] qilganini sezib, labini tishladi. Ustodning boshida qora bulutlar quyuqlashgan bir paytda bu nozik gapni qo‘zg‘ab, uning dilini og‘ritmoq insofdanmi? Ali Qushchi o‘z xatosini tuzatishga shoshildi:

– Ma’zur ko‘rgaysiz, ustod. Bu borada siz hazratimning qilgan xizmatlari shunday ulug‘dirkim, bunga shak-shubha yo‘qdir.

Mirzo Ulug‘bek toqatsizlik bilan bosh chayqadi.

– Kamina bariga tushunamen, Ali! Ammo hodisalar silsilasi shundaykim, buni ilm ahli idrok etishdan ojizdir. Fozillar aqli shohlar aqlidan ojiz bo‘lganidan emas, yo‘q! Bil’aks, Haq taolo sizlarga shunday poklik ato etgankim, shohlar hayotining mislsiz razolatini idrok etishdan ojizdursiz!

Mirzo Ulug‘bek bo‘g‘ilib ketayotganday tomog‘ini silab uh tortdi-da, go‘yo shogirdi bilan bahslashayotganday qo‘l siltab:

– Yo‘q! – deb xitob qildi. – Men saltanatdan ayrilishdan qo‘rqmaymen. Faqat bu elga qirq yil rahnamolik qilib orttirgan boyligim, madrasa-yu rasadxonam, nodir xazinam, to‘plagan kutubxonam va nihoyat yaratgan asarlarim – barchasi poymol bo‘lishidan qo‘rqamen. Ha, faqat shundan qo‘rqamen. Tag‘in bir narsadan, kelgusi avlodlar bandayi ojizdan hazar qilmasmu, deb qo‘rqamen. Mirzo Ulug‘bekday koinot sirlarini ochmoqni tilagan, fozillikni da’vo etgan mavlono, hayhot, oxir-oqibat barcha shoh, barcha taxt sohiblariday saltanatni deb, o‘z pushtikamaridan bo‘lgan farzandi bilan toj-u taxt talashibdur-da, degan nom qoldirmoqdan qo‘rqamen, mavlono Ali!

Ali Qushchi yuragi tikan sanchilganday bezillab:

– Kelgusi avlod tarixga qarab hukm yuritadur, ustod! – dedi. Tarixni esa ilm ahli bitadur. Ilm ahli sizning ma’rifat yo‘lida qilgan xizmatlaringizni eslaridan chiqarmas. Bunga shubha qilmagaysiz, ustod!..

Mirzo Ulug‘bek boshini ohista tebratib, dardli jilmayib qo‘ydi.

– Tashakkur, Ali...

… Nihoyat u chuqur tin olib:

– Osiy bandalar, bandalar! – deb qo‘ydi. So‘ng: “Tolibi ilmlar orasida ishonchli yigitlar topilurmi?” – deb so‘radi.

– Topilur, ustod...

– Topilsa... muddaoga o‘taylik, mavlono, – deya Mirzo Ulug‘bek kaftini Ali Qushchining tizzasiga qo‘yib, ko‘zlariga tikildi. Ehtimol eshitgandursen, Movarounnahr osmonini qora bulutlar qoplamoqda. Shahzoda Abdullatif Jayhundan o‘tib, Keshga yaqinlashib kelmoqda. Bu kun dorussaltana Samarqand ham xavf ostida turibdi... Eshitgandursen?

– Eshitganmen, ustod. Ammo nahot sulh-salohning chorasi topilmas? Agar-chi siz shahzodaning gunohidin o‘tsangiz...

Mirzo Ulug‘bek toqatsizlanib:

– Hayhot! – deb xitob qildi. – Agar-chi masala shahzodaning gunohlarini kechirmoqda bo‘lsa, yurt osoyishtalig‘i yo‘lida men sulhdan bosh tortmas edim. Ammo sen shahzodani bilmaysen, Ali. Bilmaysen!

Mirzo Ulug‘bek o‘rnidan turib ketib, xonani bir aylanib chiqdi.

– Maqsad ne edi? – dedi u to‘xtab. – Ha! Seni bu dargohga chaqirmoqdan muddao shukim, qirq

[1] **Gustox** – odobsiz, beandisha, surbet, betakalluf.

yil saltanat tebratib, orttirgan boyligim: rasadxona va kutubxonam, bitilgan va hali nihoyasiga yetmagan risola-yu kitoblarim, barchasi sening qo‘lingdadur. Alqissa, bu xazinani johil gumrohlardan, mahdud mutaassiblardan[1] asrab qolmoq yolg‘iz sening ixtiyoringdadur. Ammo... – Mirzo Ulug‘bek qo‘llarini ko‘ksida qovushtirib, shogirdiga sinovchan tikildi. – Ammo esingda bo‘lsin: ko‘p xatarli yumush bu!

– Bilamen, ustod.

– Bilsang ham o‘ylab ko‘r, Ali.

Ali Qushchi qizarinqirab kulumsiradi.

– Nahot faqirdan shubha qilursiz, ustod?

– Yo‘q! Agar shubha qilsam, bu sirni ochmas edim, Ali. Ammo sening umringga zavol bo‘lmoqchi emasmen. Zero ulamo atalmish aqli qosir johillar ilm ahliga tishlarini qayrab yurganidin xabaring bordur…

– Esimga anov mutaassib mutavalli[2] janob Xomush tushdi...

– Ha, bu hazrat ko‘pdan beri men bilan zimdan olishib kelur. Go‘yo men ilm ahlini ulug‘lab, ulamolarni kamsitar ermishmen. O‘zing bilursen, Ali, men hech qachon bul yumushni qilg‘on ermasmen. Din peshvolarini hamisha boshimga ko‘targanmen. Bul johil hazrat ersa... uning olishmog‘iga sabab shayxulislom bo‘lmoq. Tamom, vassalom.

Ali Qushchi negadir bir sapchib tushdi. Mirzo Ulug‘bek uning tepasida hamon qo‘l qovushtirib turar, horg‘in ko‘zlari qisilgan edi. Ali Qushchi yuragini muzlatgan sovuq vahimani haydab:

– Ustodning farmoni shogird uchun amri vojibdur, – dedi.

– Puxta o‘yladingmu? Keyin pushaymon chekmaysanmu?

– Ustod!

– Balli!

Mirzo Ulug‘bekning ko‘zlaridagi sinovchan ifoda iliq mehr bilan almashdi.

– Qani, ortimdan yur, senga aytadurg‘on yana bir so‘zim bor!

Mirzo Ulug‘bek ro‘paradagi salomxona eshigini ochib, ichkariga kirdi.

Bilib oling!

Ali Qushchi – to‘liq ismi **Alouddin Ali ibn Muhammad al-Qushchi** bo‘lib, “o‘z davrining Batlimusi” sifatida tanilgan mashhur vatandoshimizdir. Samarqandda tug‘ilib o‘sgan matematik va astronom olim. Ali Qushchi Ulug‘bek saroyidagi qushlarga qarovchi Muhammad ismli ovchining o‘g‘li bo‘lgan. O‘zi ham qarchig‘ay boqqani uchun unga **Qushchi** laqabi berilgan. Mirzo Ulug‘bek vafotidan keyin bir muddat Tabriz (Ozarbayjon)da yashaydi. Keyinchalik esa Turkiyaning **Ayo Sofiya madrasasida bosh mudarris** sifatida ilmiy faoliyatini davom ettirgan. Hozirgi zamon turk tarixchilarining e’tirof etishicha, Istanbulga Ali Qushchi kelguniga qadar *“ilmi hay’atda u daraja bir sohib vuqufi mavjud bo‘lmagan edi”.* U riyoziyot, falakiyot, adabiyot, musiqa, falsafa, mantiq va boshqa fan sohalariga doir 20 dan ortiq ilmiy asar yozgan.

Ali Qushchi 1474-yil 17-dekabrda vafot etgan.

“Ma’naviyat yulduzlari” kitobidan

[1] **Mutaassib** – dinga qattiq berilgan, dunyoviylikni rad etuvchi kishi.

[2] **Mutavalli** – mudir, idora qiluvchi. Islom tarixida vaqf mulkiga va undan keladigan daromadga vasiylik qiluvchi, taqsimlovchi diniy amaldor.

Keling, muhokama qilamiz

1. Rasadxonaning sokin va qorong‘i manzarasi sizda qanday kayfiyat uyg‘otdi? Ushbu lavha asarning keyingi voqealari uchun qandaydir “xabar” bo‘lishi mumkinmi? Fikringizni asoslang.
2. Mushtariy va Zuhro yulduzlarining bir-biriga yaqin kelishidan Mirzo Ulug‘bek nimalarga umid bog‘lagan deb o‘ylaysiz? Taxminlaringizni dalillang.
3. Rasadxonadan to saroygacha bo‘lgan yo‘ldagi hodisalarni, joylarni, kishilarni ikir-chikirigacha tasvirlashdan yozuvchining maqsadi nima bo‘lishi mumkin? Yozuvchi kitobxonni nimaga tayyorlayapti deb o‘ylaysiz?
4. Saroyda ustozini kutib turgan Ali Qushchining xayolidan kechgan savollarni qayta o‘qing. Ularning mohiyatiga kirishga harakat qiling. Siz ularga qanday javob bergan bo‘lar edingiz? Fikringizni asar matni va tarixiy manbalardan olgan bilimlaringizga tayanib dalillang.
5. Mirzo Ulug‘bekning *“… Ammo hodisalar silsilasi shundaykim, buni ilm ahli idrok etishdan ojizdir. Fozillar aqli shohlar aqlidan ojiz bo‘lganidan emas, yo‘q! Bil’aks, Haq taolo sizlarga shunday poklik ato etgankim, shohlar hayotining mislsiz razolatini idrok etishdan ojizdursiz!”* degan fikrlarini tahlil qiling. U nega bunday xulosaga kelgan? Axir o‘zi ham olim, ham shoh edi-ku!
6. Mirzo Ulug‘bek nima uchun *“qirq yil saltanat tebratib, orttirgan boyliklari”*ni xatarda deb hisoblayapti? Bunga uning qanday asoslari bor? Ustoz-shogird dialogiga tayanib fikr bildiring.

Ijodiy ish

Ali Qushchi kelgunicha o‘tgan mashvaratda nimalar yuz bergan bo‘lishi mumkin?

Mashvaratdan tarqalayotgan kishilarning kayfiyati tasviridan kelib chiqib, unda kechgan dialoglarni taxminiy yozib ko‘ring.

Topshiriq

Romanning davomini (2) o‘qing.

ULUG‘BEK XAZINASI

2

To‘riga quyma tilladan yasalgan o‘ymakor kursi o‘rnatilgan salomxona nimqorong‘i edi. Shiftdagi oltin qandilda nechundir bir nechtagina sham yonar, bu shamlar shu’lasida lojuvard[1] koshinlar bilan qoplangan devorlar, qubbasimon shiftdagi nozik bezaklar qandaydir hazin tovlanib, xonaga allaqanday sirli bir ruh baxsh etgan edi. Ali Qushchining esiga beixtiyor sohibqiron atalmish Amir Temur tushdi. Bu sirli nimqorong‘i xonada, to‘rdagi quyma tilladan yasalgan naqshinkor taxtda bir mahallar sohibqiron o‘tirgani ko‘z oldiga kelib, vujudi jimirlab ketdi. Go‘yo xonada uning notinch ruhi hokim, bu ruh go‘yo uning suyukli dargohiga Ali Qushchiday faqir bir allomaning kirib kelishidan norizo edi.

Mirzo Ulug‘bek poygakka cho‘kkalab ohista, ammo kishining dilini ravshan qiluvchi hazin tovushda uzoq tilovat qildi, keyin horg‘in tebranib o‘rnidan turdi-da, devorga tutilgan surmarang ipak pardani yulqib ochdi. Parda ochilganda bir kishi zo‘rg‘a sig‘adigan, raxlariga mis tasma qoqilgan kichikroq eshik ko‘rindi.

Mirzo Ulug‘bek belidagi serbar kamariga osilgan kalitni olib, eshikning qulfini jaranglatib ochdi. So‘ng qubbasimon tokchadan bitta sham olib, Ali Qushchiga uzatdi, ikkinchi shamni o‘zi olib yoqdi-da, kifti bilan eshikni itardi.

Po‘lat qoplangan zalvarli eshik asta g‘ichirlab ochildi-yu, qorong‘i bo‘shliq ko‘rindi.

Mirzo Ulug‘bek yarim bukilib eshikdan qorong‘ilikka sho‘ng‘idi. Uning orqasidan kirgan Ali Qushchi zim-ziyo quduqni ko‘rdi. Dimog‘iga mog‘or hidi gup etib urdi. Mirzo Ulug‘bek bir qo‘lida sham, bir qo‘li bilan quduqning sirpanchiq devorini paypaslaganicha tik pillapoyalardan pastga tushmoqda edi. Nihoyat u “quduqning tagiga” yetdi chamasi, yana bir eshikni ochib, yerto‘laga o‘xshagan xonaga sho‘ng‘idi.

Bu devorlari qora marmar bilan qoplangan, shifti past, torgina chorsi xona bo‘lib, ichi muzday sovuq edi. Xonaning to‘rt burchida to‘rtta po‘lat sandiq turar, sandiqlar og‘ir zanjirlar bilan temir qoziqlarga bog‘langan edi.

Sovuq go‘rga o‘xshagan bu tosh sag‘anada ham o‘sha sirli ruh hokim, go‘yo sandiqlar ortida, shamlarning zaif shu’lasi yoritolmagan zimiston burchaklarda kimdir bor, kimdir qahrli sukut bilan ularni kuzatib turardi...

Mirzo Ulug‘bek ko‘zlarini yumib va boshini egib bir lahza turdi, tilovat qildi chamasi, lablari pichirlab, yuziga fotiha tortdi, so‘ng ro‘paradagi katta po‘lat sandiqning qulfiga kalit solarkan, Ali Qushchiga qarab, yordam ber degan ma’noda imo qildi.

Sandiqning qopqog‘i shunday og‘ir ediki, ikki kishilashib arang ko‘tarishdi. Qopqoq jaranglab ochilishi bilan g‘ira-shira xona go‘yo charaqlab ketdi.

Katta sandiq yal-yal yongan olmos, la’l, yoqut, inju, zabarjad va yana qandaydir nafis tovlangan qimmatbaho toshlar bilan limmo-lim edi.

Mirzo Ulug‘bek toshlardan bir hovuchini olib, hayrat bilan tikildi.

Toshlar ko‘k, qizg‘ish, yashil va firuzarang nur taratar, bu nurlar bir-biriga qo‘shilib, kamalakday ajib bir manzara kasb etardi.

[1] **Lojuvard** – to‘q ko‘k tusli tosh.

– Bag‘dod va Qohira xazinalaridan keltirilgan, – dedi Mirzo Ulug‘bek o‘ychanlik bilan. – Bobom Amir Temur Sulton Boyazidni tor-u mor etganda olib qaytgan o‘ljalar. Lekin hazar qilmag‘il. Aslini surishtirsang, fuqaroning mulkidur bu. Undan bir xalta olg‘il.

Ali Qushchi hayrat bilan ustodiga qaradi.

– Bularni ne qilamen, vallomat?[1]

– Senga boylik kerak emas. Buni bilamen. Ammo bu dur-u javohirlarni boya men aytgan yaxshi tilak yo‘lida ishlatursen!

Mirzo Ulug‘bek shunday deb sandiqdagi toshlarni bir chetga surdi. Yarim qorong‘i xona yana ham yorishib ketdi. Toshlarning tagida quyma oltinlar yaltilladi. Yum-yumaloq qoliplarga quyilgan oltinlar xuddi to‘ntarilgan piyolalarday sandiq tagiga qator terilgan edi.

Mirzo Ulug‘bek tillalardan bittasini olib, qo‘lida salmoqlab ko‘rdi.

– Naq uch qadoq kelur, – dedi. – Bular jannatmakon bobom menga qoldirgan ulufa[2]dur. Men o‘z ulushimni jahongirlik emas, saltanatni obod qilmoq, madrasalar qurib, ilm-fan rivojiga sarf etmak niyatida edim. Endi ham shu niyat yo‘lida sarf bo‘lg‘ay...



Mirzo Ulug‘bek sandiq ostidan qalin qizil charm xaltacha olib, piyoladay-piyoladay quyma oltindan o‘ntasini sanab oldi, keyin kaftlarini to‘ldirib, besh-olti hovuch javohirlardan soldi-da, Ali Qushchiga yuzlandi:

– Ol!

Ali Qushchi charm xaltani sandiqdan olib yerga qo‘ydi. Xalta zilday og‘ir edi.

Mirzo Ulug‘bek xayolga tolib soqolini tutamladi.

– Filhaqiqat, sen bu tillalarni ishlatmoq yo‘lini bilmassen, – dedi u ancha sukutdan keyin. Lekin bularni tangaga almashtirmoq lozim bo‘lsa, Xoja Salohiddin zargarga murojaat qilg‘il. Zotan zargar bilan uning o‘g‘li mavlono Muhiddinga ham salomim, ham uzr-ma’zurimni yetkazgil...

– Bosh ustiga, ustod...

– Ko‘ksaroydan bu javohirotni olib chiqqaningni hech bir kimsa bilmasligi darkor, – dedi u. – Belbog‘ bilan belingga ikki qator qilib tugib ol!

Ali Qushchi bosh irg‘ab ustodiga tikildi.

– Kaminadin tag‘in ne tilaysiz, ustod?

[1] **Vallomat** – valine’mat.

[2] **Ulufa** – boylik, meros ma’nosida.

Mirzo Ulug‘bekning ko‘zlari qisilib, chehrasida o‘ychanlik aralash shiddatli bir ifoda paydo bo‘ldi.

– Bor tilagimni boya aytdim, men o‘zimning chin boyligim, deb toj-u taxtni emas, ilm-ma’rifat yo‘lida qilgan xizmatlarimni, bitgan asarlarim, to‘plagan ilm xazinamni bilurmen. Bu bebaho xazinaning taqdiri sening qo‘lingdadur, Ali. Bu xazina butkul Movarounnahr, ehtimolki butkul bashariyatning boyligidur. Mabodo Haq taolo bandayi ojizni saltanatdan mosuvo qilib, elda xurofotki avjga minsa, bu xazinani bo‘lg‘usi avlodlar uchun asrab qolmoq sening gardaningdadur. Ehtimolkim, uni tog‘larga olib chiqib, aniq bir joyga yashirursen. Ehtiyot shart, shu bugundan usta topib, o‘n-o‘n besh po‘lat sandiq yasatib qo‘ymoq maqbul bo‘lur.

– Angladim, ustod...

Mirzo Ulug‘bek yirik tilla uzuk taqilgan shahodat barmog‘i bilan ko‘zyoshlarini artib, to‘satdan shikasta ovozda:

– Men sendan abadulabad rozimen, – dedi. – Agar-chi diydor ko‘rishmoq nasib etmas, rozi bo‘lg‘aysen, o‘g‘lim.

U bu kun ikkinchi bor Ali Qushchiga “o‘g‘lim”, dedi.

– Faqir ham rozimen, ustod, toabad rozimen...

Ustod bilan shogird ko‘zyoshidan tillari lol, qattiq quchoqlashganlaricha jimgina qotib qoldilar.

* * *

Mirzo Ulug‘bek qirmizi poyandoz to‘shalgan xiyobondan ohista yurib orqaga qaytarkan, darvozaning yonida oq ko‘pikka cho‘milgan bir necha otni ko‘rdi. Koshonadan chiqqan shahzoda Abdulaziz bilan qo‘lida maktub ushlagan shayxulislom Burhoniddin shosha-pisha u tomon yurishdi.

“Tag‘in noxush xabar!” – xayolida dedi Mirzo Ulug‘bek.

– Qayda yuribsiz, hazratim? – dedi shayxulislom hansirab. – Amir Iskandar barlosdan chopar kelibdur.

– Tag‘in ne mujda[1]? – Mirzo Ulug‘bek to‘xtab nomaga qo‘l cho‘zdi. Bir parcha sariq qog‘ozga palapartish yozilgan nomada amir Iskandar shahzoda Abdullatifning hirovul qo‘shinlari pistirmadan chiqib, uning qalb qo‘shinlariga[2] hamla qilganini yozgan edi. Amirning xabar berishicha, shahzodaning qo‘shinida fillar ham bor. Bu fillar uning suvoriylariga dahshat solgani boisidan u dorussaltana tomon chekinmoqni lozim ko‘rgan...

Mirzo Ulug‘bek ko‘zlarini nomadan uzib, o‘g‘li bilan shayxulislomga qaradi. U endigina koshona yonida turgan bir guruh saroy mahramlariga ko‘zi tushdi. Mahramlar orasida jiyanlari: shahzoda Abdulla bilan Abusaid mirzo ham turar, zarbof to‘n ichidan suvoriy sovut, boshlariga tilla hoshiyali dubulg‘a kiygan bu ikki shahzodaning ham ko‘zlarida taraddud, harakatlarida toqatsizlik sezilib turardi...

U to‘rga, bir mahallar bobosi Amir Temur o‘tirgan joyga... joylashibroq o‘tirmagan ham ediki, saroybon kirib, ikkinchi chopar keltirgan nomani tutdi. Bu noma suyukli navkari Bobo Husayndan bo‘lib, birinchisidan ham vahimali edi. Shahzodaning o‘ng va chap qanot lashkari yurishni jadallatib, amir Sulton Jondor bilan amir Iskandar barlos qo‘shinlarini qopqonga tushirmoq harakatida ekan.

[1] **Mujda** – xabar.

[2] **Qalb qo‘shinlari** – markaziy qo‘shinlar.

Lekin eng yomoni – amir Sulton Jondor qayoqqadir qochgan, qo‘shinda yolg‘iz amir Iskandar barlos qolgan emish! Bobo Husayn buni xabar qilib, Mirzo Ulug‘bekka Samarqandga chekinishni maslahat bergan, o‘zi esa amir Iskandar barlos bilan Dimishq[1] atrofida jang qilib, shahzoda lashkarlarini to‘xtatib turish niyatida ekanini yozgan edi.

Nomaga qaraganda, shahzoda qo‘shinlari ikki-uch farsax[2] joyga kelib qolgan, Mirzo Ulug‘bek qanday qarorga kelmasin, bu qarorni darhol qabul qilmog‘i lozim edi! U esa... U hamon jang qilish, shahzoda bilan yuzma-yuz kelish istagi bilan yonar edi. Lekin Bobo Husayn yo‘llagan nomani o‘qirkan, xayoliga bir fikr keldi: dorussaltanaga qaytib va uning darvozalarini berkitib olib, shahzoda bilan sulh-saloh tuzsa ne qiladi? Yo‘q, shahzoda uning taxtda qolishiga ko‘nmas. Lekin Mirzo Ulug‘bekka minba’d[3] toj-u taxt kerak ermas! Shahzoda uning rasadxonasi-yu madrasalariga tegmasa, ma’rifat yo‘lidagi ishlarini man etmasa, u tinchgina ilm-u idrok bilan mashg‘ul bo‘lsa, bas! Unga shundan boshqa ne kerak?

Lekin shahzodani bu shartlarga ko‘ndirish uchun fuqaroni safarbar qilib bo‘lsa ham mudofaaga o‘tmoq darkor.

Mirzo Ulug‘bek barcha ikkilanishga chek qo‘yib, to‘rda churq etmay o‘tirgan amir Idris tarxonga yuzlandi.

– Siz Dimishqda qolib, Iskandar barlos suvoriylariga ko‘mak bergaysiz, amir! Boshingiz ketsa-da, shu bugun shahzoda lashkarlarini to‘xtatgaysiz. Farmoni oliy ayonmi?

– Ayon, davlatpanoh! – Amir Idris tarxon to‘n ichidan kiygan sovutining halqachalarini shing‘irlatib, ta’zim qildi.

Mirzo Ulug‘bek uyqusizlikdan qisilgan ko‘zlari yonib, o‘g‘li Abdulazizga qaradi.

– Sen ikki shahzodani olib, darhol dorussaltanaga chopgaysen. Dorug‘a Mironshohga amri oliyni yetkazgaysen: barcha a’yon-u boyonlar darhol Ko‘ksaroyga yig‘ilsin. Mashvarat qilurmen.

Mirzo Ulug‘bek shitob bilan o‘rnidan turdi. Boda to‘la kosasini bir sipqarishda bo‘shatdi-da, hech kimga qaramay koshonadan chiqdi.

Qorong‘i tusha boshlaganidan bezovtalangan Mirzo Ulug‘bek otiga qamchi urdi. Shu payt oldinda, Qohira bog‘lariga kiraverishda ot tuyoqlarining dupuri eshitilib, allaqanday g‘alayon ko‘tarildi, ilgarilab ketgan navkarlarning qattiq-qattiq tovushlari eshitildi. So‘ng bir guruh suvoriy ot choptirib kelib, Mirzo Ulug‘bekka yetmay to‘xtadi. Mirzo Ulug‘bek qilichini qinidan sug‘urib oldi.

– Bu kim?

– A’lohazratlari, afv etsinlar! Biz dorussaltanaga borib qaytdik!..

Ketma-ket ot choptirib kelgan shahzoda Abdulaziz bilan tund yuzli saroybon arg‘umog‘ini niqtab oldinga o‘tdi.

– Davlatpanoh...

– So‘zla!

– Darvozalar yopilgan. Salohdorlar darvozalarni ochmoqdin bosh tortadur, hazratim...

– Yolg‘on! – Mirzo Ulug‘bek xayolida baqirib yuborganday bo‘ldi, lekin uning ovozi xirillab

[1] **Dimishq** – Damashq. Samarqand atrofidagi qishloq nomi.
[2] **Farsax** – piyoda bir soatda bosib o‘tish mumkin bo‘lgan masofaga nisbatan ishlatilgan uzunlik o‘lchovi.
[3] **Minba’d** – bundan keyin.

eshitildi-yu, bir zum og‘ir jimlik cho‘kdi. Qorong‘ida shayxulislom Burhoniddinning: “Yo Parvardigor!..” – deb pichirlagani va Mirzo Ulug‘bekning hansirab nafas olgani eshitildi.

– Dorug‘a Mironshoh qayda? Darvozada bormu?

– Yo‘q, onhazratim! Dorug‘a darvozaga kelmoqdin bosh tortibdi.

– Bo‘shat yo‘lni! – Mirzo Ulug‘bek shunday deb baqirdi-da, betoqat pishqirgan oq bedoviga qamchi bosdi. Achchiq qamchiga o‘rganmagan arabi arg‘umoq osmonga sakradi-yu, shamolday uchib ketdi...

Uning tuyoqlari ostidan otilib chiqqan tosh va kesaklar har tomon vizillab otilar, osmonda uchgan xazonlar ayovsiz savalar, lekin u hech narsani sezmas, qalbida tug‘yon urgan alam og‘riqni bosib ketgan edi. Xayolan u hamon ko‘kka tavallo qilar, osiy bandangni kechirgaysen, qarigan chog‘imda bu xo‘rlikni ravo ko‘rmagaysen, deb iltijo etardi.

Bog‘lar chekinib, atrof xiyol yorishdi. Sal o‘tmay, oldinda osmon bilan tutashgan dorussaltana qo‘rg‘oni ko‘zga chalindi. Qorong‘ida qo‘rg‘onning kungurador devori shunday yuksak va mustahkam ko‘rinar ediki, uni hech bir kuch zabt etolmaydiganday tuyulardi.

Suvi ko‘klamdayoq qurib qolgan chuqur xandaq[1] yonida Mirzo Ulug‘bekni yana bir guruh navkar qarshi oldi. Ular orasida shahzoda Abdulaziz bilan jiyanlari Abdulla va Abusaid mirzo ham bor edi. Uchala shahzoda ham asabiy holatda u yoqdan bu yoqqa ot o‘ynatib yurishar edi. Mirzo Ulug‘bek shahzodalarga e’tibor bermay, chuqur xandaqdan ot choptirib o‘tib, do‘nglikdagi darvoza oldida to‘xtadi.

Saroybon otini niqtab borib, qilichi bilan darvozani “shaq-shaq” urgan edi, tepadagi minoradan:

– Bu kim? – degan ovoz eshitildi.

– Bu men! – dedi Mirzo Ulug‘bek, yana qoni qaynab. – Sohibi toj Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragoniy!

– “Darvozayi ohanin” namozi asrdan so‘ng shoh-u gado – barchaga yopiqdir!

– Och darvozani, mal’un![2]

Mirzo Ulug‘bek go‘yo darvozani ag‘dara oladigandek ot soldirib bordi, asov oq bedov osmonga sapchib, oldingi oyoqlari bilan temir darvozani qarsillatib urdi-yu, orqaga tisarildi. Yuqorida bir daqiqa jimlik cho‘kkach:

– A’lohazratlari, afv etsinlar! – dedi boyagi ovoz. – Dorug‘a Mironshoh janoblari farmon qilmishlar, darvoza ochilmaydur!

– Sohibi saltanat men bo‘lurmen. Barcha farmonlarim amri vojib erur!.. Darvozani och yo dorug‘ani chaqir yoxud boshing ketadi, salohdor!

Mirzo Ulug‘bek gapini tugatmagan ham ediki, devor tepasidagi minoradan qiqirlab bo‘g‘iq ovoz eshitildi:

– Salohdorning boshini olishga qo‘ling kaltalik qiladur! Buning boshi emas, o‘z boshingga ehtiyot bo‘lg‘il, Muhammad Tarag‘ay!

Mirzo Ulug‘bek bir daqiqa tili kalimaga kelmay garang bo‘lib qoldi. Bu ingichka xirilloq ovozning egasi, har bir so‘zidan zahar tomchilab turgan bu odam... amir Sulton Jondor edi!..

Vo ajabo! Bu mal’un lashkarni tashlab qochganda... dorussaltanaga kelgan ekan-da! Lekin qachon, qaysi yo‘ldan o‘tib keldi? Unga darvozani kim, nechun ochdi?.. Bu beimon kazzoblar qachon

[1] **Xandaq** – shahar, qal’a, qo‘rg‘on, mudofaa istehkomlari tashqi devori yonidan dushman o‘tolmasligi uchun gir aylana qazilgan uzun chuqurlik.

[2] **Mal’un** – la’nati.

til biriktirgan? Bu diyonatsiz insonlar, bu amir-u umarolar, arkoni harb va arkoni davlatlardan hazar, alhazar! Qayga bormang, hamma yoqda makkorlik, razolat va riyokorlik!

Mirzo Ulug‘bek oyoqlarini uzangiga tirab, qaddini rostladi, vujud-vujudini larzaga solgan tug‘yonni zo‘rg‘a bosib:

– Amir Sulton Jondor! – dedi. – Humo qushi kimning boshiga qo‘nur, buni yolg‘iz Haq taolo biladur. Humo qushi meni tark etsa – sening baxting! Va lekin falakning gardishi bilan toj-u taxt qo‘limda qolsa... esingda bo‘lsin: oyog‘ingdan dorga osib, ostingdan o‘t qo‘yamen! – Mirzo Ulug‘bek shunday dedi-da, amir Jondorning javobini kutmasdan, otining boshini orqaga burdi...

Aqli bilan emas, allaqanday ichki tuyg‘u bilan ilg‘ab oldi-yu, labini qattiq tishlaganicha o‘ylanib qoldi. U bir daqiqagina ikkilandi. Ko‘nglidagi g‘alayon bilan bir soniyagina olishdi, so‘ng arg‘umog‘ining boshini orqaga burdi. U Mirzo Abdullatifga bosh egishga, yaxshilik bo‘lsa-da, yomonlik bo‘lsa-da, o‘z zurriyotidan ko‘rishga ahd qildi...

Keling, muhokama qilamiz

1. Salomxona yerto‘lasidagi Amir Temurdan qolgan xazina nega yashirin saqlangan, xazinabon nazoratiga berilmagan bo‘lishi mumkin?
2. Mirzo Ulug‘bek nima uchun xazinani ochish oldidan tilovat qildi deb o‘ylaysiz?
3. Ali Qushchi oltin-u javohirlarga qarata *“Bularni ne qilaman, vallomat?”* deyishi uning shaxsiyatidagi qanday xususiyatlarni namoyon qiladi?
4. Xazinadan chiqqach, Ali Qushchini quchgan Mirzo Ulug‘bekning ruhiy holati Sizga qanday ta’sir qildi?
5. Farzanddan yolchimagan Ulug‘bekning ota sifatidagi qiyofasini qanday tasavvur qildingiz?

Tadqiq qiling!

Asardagi ma’nosini matn mazmunidan bilib olgan va ma’nosini tushunishga qiynalgan so‘zlaringiz lug‘atini tuzing. So‘zlarning ma’nosini ustozingiz yoki lug‘at kitoblar yordamida aniqlang.

Ma’nosi matn mazmunidan anglashilgan so‘zlar lug‘ati	Ma’nosini tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlar lug‘ati
...	...

Topshiriq

Romanning davomini (3) o‘qing.

ULUG‘BEK XAZINASI

3

Mana, ikki kun o‘tdi. Mirzo Ulug‘bek Ko‘ksaroyning chekkasidagi bir xonada o‘z yog‘iga o‘zi qovrilib yotibdi. Eshikdagi yasovul hatto tahoratga ham chiqarmaydi, tahorat suvini ichkariga beradi. Mirzo Ulug‘bek Ko‘ksaroyda yarim asr istiqomat qilib, bu xonani ko‘rmagan ekan. Xona sovuq va nimqorong‘i. Faqat shiftdagi tuynukchadan bir hovuchgina nur tushadi. Xonada gilam-u bir-ikkita ko‘rpacha. O‘rtadagi xontaxtada sovib qolgan kabob va meva-cheva... Lekin ovqatdan shubhalangan Mirzo Ulug‘bek hanuz tuz totgani yo‘q. Faqat qumg‘ondagi suvdan bir-ikki qultum ichdi xolos. Mana endi ochlik va uyqusizlikdan xayoli chuvalib, shiftdagi tuynukka tikilib yotibdi.

U kecha shahzodaga ikkita maktub yo‘llab, suhbatga chaqirishni so‘radi. U toj-u taxtdan o‘z idroki va ixtiyori bilan voz kechmoqqa azm qilganini shahzodaga aytmoqchi va undan yolg‘iz bir narsani – qolgan besh kunlik umrini ilm-ma’rifatga bag‘ishlashiga imkon berishini so‘ramoqchi edi. Keyin agar shahzoda quloq solsa, otalik nasihatini bermoqchi, insof va adolatga chaqirmoqchi edi. Yo‘q. Har ikkala maktub javobsiz qoldi. Bu oqpadar o‘g‘ilning muddaosi ne? Yana qanday shumlikni boshlamoqchi? Taxt azmida hech narsadan tap tortmagan bu ko‘rnamak o‘z padarining joniga qasd qilmoq niyatida emasmu? Yo‘q, Mirzo Ulug‘bek o‘limdan qo‘rqmaydi! O‘lim haq, Parvardigori olam! Va lekin yomon bo‘lsa-da, o‘z pushtikamaridan yaralgan bu johil farzandining taqdiri ne bo‘ladi? O‘z qiblagohining joniga qasd qilib, padarkush degan mash’um nom olib, abadulabad badnom bo‘lmasmu?

Xonaga birov kirdimi yo eshik g‘ichirladimi, Mirzo Ulug‘bek ko‘zini ochdi. Ostonada paydo bo‘lgan yasovul orqaga chekinib, tanish semiz bakovulga yo‘l berdi. Bakovulning qo‘lidagi og‘ir barkashda qip-qizil pishgan ikkita patir, bir tovoq osh va bir choynak choy bor edi. Bakovul bosh egib, ta’zim qildi-da, barkashni xontaxtaga qo‘ydi. Shoshilmay, sovib qolgan kaboblarni yig‘ib oldi, so‘ng indamay orqasiga tisarilarkan, patirga imo qilib ko‘zini qisdi. Mirzo Ulug‘bek uning imosiga tushunolmay bir patirga, bir bakovulga qaradi. Lekin bakovul indamadi, “ayg‘oqchi bor”, degan ma’noda eshikka imladi-da, yana patirga ishora qilib chiqib ketdi.

Mirzo Ulug‘bek patirni olib ushatdi, ushatdi-yu, hayron bo‘lib qoldi. Patirning orasidan naycha qilib o‘ralgan bir qog‘oz chiqdi. Mirzo Ulug‘bek yuragi “shig‘” etib, qog‘ozni ochdi. Imzo chekilmagan. Noma’lum kimsa unga Haq taolodan inoyat tilab, dorussaltanada bo‘layotgan hodisalardan voqif qilgan va bir maslahatni o‘rtaga tashlagan edi.

Uning yozishicha, shahzodayi valiahd dorussaltanani zabt etib, Ko‘ksaroyga kirishi bilan qiyomat qoyim boshlangan, kecha masjidi jomeda xutba o‘qilib, Mirzo Ulug‘bek Movarounnahr g‘animi deb atalgan va toj-u taxtdan judo qilingan. Xutbada Movarounnahr sultoni deb shahzodaning ismi zikr qilingan va uning nomida pul zarb etmoqqa fatvo berilgan. Shahzoda bu kunlarda ko‘p zoti shariflarni, Mirzo Ulug‘bekning ko‘p navkarlari va sarkardalarini hibsga olgan. Qarshilik qilganlar esa qatl etilgan. Shahzoda Mirzo Ulug‘bekni Makkayi mukarramaga hajga yubormoqqa jazm qilgan. Lekin xutbada Sayid Abbos degan bir kimsa xonga yukunib, a’lohazratlaridan xun dovlagan[1]. Zero Ulug‘bek hazratlari uning padari buzrukvorini begunoh qatl qildirgan emish. Bu diyonatsiz kimsaning soxta dovini qoziyulquzzot Xoja Miskin janoblaridan boshqa bir kimsa, hatto shahzodaning o‘zi ham

[1] **Xun dovlamoq** – qasos talab qilish.

rad qilmagan. Alqissa, uning hayoti qil ustida turibdi, shu bois noma'lum kimsa unga qochmoqni maslahat qilgan. Basharti onhazratlari bu maslahatni maqbul topsa, bakovulga ishora qilmog'i lozim. Bakovul posbonni dori bilan uxlatib, Mirzo Ulug'bekni Ko'ksaroy tagidagi lahimdan olib chiqadi.

Mirzo Ulug'bek maktubni o'qib tugatmasidanoq o'rnidan turib ketdi. Uning ko'ngliga kelgan birinchi fikr "tuzoq" bo'ldi. Shahzoda, yo'q, amirlar qo'ygan azozil[1] tuzog'i!..

Mirzo Ulug'bek hayajon ichida xonani bir aylanib chiqdi. Banogoh ko'zi ushatilgan patirga tushib, ko'nglidan yana o'sha fikr o'tdi: "Og'u"...

"Ha, bu ovqat, non, chinni ko'zachadagi boda – hammasi zaharlangan! Hammasiga og'u solingan! Niyatlari zaharlab o'ldirmoq!" – dedi Mirzo Ulug'bek, dedi-yu xayoliga yana bir fikr kelib, ma'yus jilmaydi:

"Alhol, unga baribir emasmu? Kindik qoni to'kilgan suyukli yurtidan judo bo'lib, yot ellarda, olis musofir yurtda darbadar kezganidan yoxud boshini Sayid Abbos qilichi kesganidan og'u ichib o'lgani maqbul emasmu?"

... Eshik ochilib, boshlarida dubulg'a, qo'llarida yalang'och qilich ikki sipoh kirib keldi. Ikkovi ham ot yuzli, o'ng quloqlariga isirg'a taqqan balxiy sipohlardan edi. Sipohlardan keyin surmarang salla o'ragan zanjiday qop-qora notanish yasovul kirib ta'zim qildi va jimgina eshikka imladi. Mirzo Ulug'bek zanjisifat yasovulning betakalluf harakati uyg'otgan g'azabni ichiga yutib, egniga suvsar po'stinini tashladi...

... Shiftdagi oltin qandilga terilgan o'nlarcha sham shu'lasida shahzodaning so'nik yuzi go'yo ganchdan yasalgan niqobday sovuq tuyular, chuqur botgan ko'zlari bejo charaqlar, qo'sh-qo'sh tilla uzuk taqilgan ingichka qoramtir barmoqlari asabiy titrardi.

Mirzo Ulug'bek allaqanday yengil tortib, taxt yonidagi oq kursiga borib o'tirdi. Shahzodaning ganch niqobni eslatgan yuzi, qaltiroq qo'llari, ayniqsa, bejo javdiragan ko'zlari uning dilida mehrga o'xshash bir tuyg'u uyg'otgan, faqat qandaydir g'urur, temuriylarga xos bir iftixor gap boshlashga qo'ymas edi.

Mirzo Ulug'bek ko'zini undan uzib shiftga, sham terilgan chambarak tilla qandilga tikdi.

"Yo tavba! Bu toj-u taxtda ne sehr, ne sir-asror bor ekankim, unga o'ltirgan har bir kimsa darhol o'zgaradi? Odamiylikni, umri bebaqo bir faqir-u haqir ekanini darhol unutadi? Bu toj-u taxt, bu saltanat hech bir kimsaga vafo qilmasligini yodidan chiqaradi? Nainki shahzoda, bu taxt hattokim... Amir Temurga ham vafo qilmaganini tushunmaydi? Ana, go'yo bobosi Amir Temurday gerdayib o'ltiribdi! Bilmaydikim... Yo'q, to'xta, Muhammad Tarag'ay! Nechun sen shahzodadan ranjiysen? Bu vafosiz toj-u taxt, insonlar ustidan hokimlik qilmoq lazzati o'zingni ham aql-u hushingdan ayirmagan edimu? Shahzoda yaxshi bo'lsun, yomon bo'lsun – o'z farzanding, o'z pushtikamaringdan bo'lg'an zurriyoting emasmu?.. Ot tepkisini ot ko'taradur. Uni qarg'ab, yomonlik tilagandan yaxshi so'zingni so'zlab, nasihatingni qilganing maqbul emasmu, ey osiy banda?"

Mirzo Ulug'bek ko'ngli yumshab, shahzodaga yuzlandi, dilidagi iztirob aralash g'ururni bosib:

– Shahzodayi juvonbaxt[2]! – dedi sekin. – Taxtimning valiahdi sen eding. Ollo taolo faqirni o'z rahmatiga chorlasa, bu taxtga sen o'ltirar eding. Olloning inoyati bilan ko'zim tirigida bu taxt senga nasib bo'libdi, men bunga rozimen...

Shahzoda qo'llarini oltin taxtning suyanchiqlariga tirab, sovuq kulumsiradi:

[1] **Azozil** – shayton.
[2] **Juvonbaxt** – baxti ochiq.

– Balli sizga, qiblagoh! Va lekin men bu taxtni sizning ixtiyoringiz bilan emas, birlamchi, Haq taoloning inoyati, ikkilamchi, o‘z kuch-qudratim ila qo‘lga kiritdim!

Mirzo Ulug‘bek lablarini qattiq qimtib:

“Burgut! – dedi ichida. – Qora burgut!” Uning ko‘ngliga yopirilib kelgan mehr izg‘irin tekkan shamday so‘nib, yuragi yana muzladi.

U, avvalo, shahzodani o‘g‘lim deb, qolaversa, egilgan boshni qilich kesmas deb, hamiyatini bukib kelgan edi, bu quzg‘un esa... Mirzo Ulug‘bek jismini qaqshatgan alamli tug‘yonni arang bosib:

– Kuch-qudratingga inonib, – dedi, – Movarounnahr sarhadiga qadam qo‘ymay qiyomat qoyim qilasenmu?

Shahzodaning rangi o‘chib, bejo ko‘zlari tungi alangaday yaltillab ketdi.

– Nechun qadam qo‘ymaganmen? Movarounnahr ulusi oyog‘im ostidadur!

– Esingda bo‘lgay, bu tuproqni oyoqosti qildim, degan ne-ne fotihlar, ne-ne jahongirlar o‘tgandur. Ularning xoki qayda – tirik banda bilmaydi va lekin bu el, bu tuproq abadulabad turajakdur!

Mirzo Abdullatifning yupqa lablariga kinoyali tabassum yugurdi... ... O‘rnidan turib ketdi, lekin taxtdan tushgisi kelmay, joyiga qayta o‘tirdi.

– Suhbatdan muddaongiz shu bo‘lsa, men bunday nasihatlarga muhtoj emasmen! – dedi u past, lekin tahdidli ovoz bilan. – Boshqa kalomingiz bo‘lsa ayting, yo‘qsa...

“Yo‘q, bundan shafqat tilab bo‘lmas. Bundan shafqat tilamoq – ajdahodan jon tilamoq bilan barobar!.. Yo‘qsa...”

– To‘xta! – dedi Mirzo Ulug‘bek uning so‘zini bo‘lib. – Senga aytadurg‘on yolg‘iz tilagim bor. So‘nggi tilagimdur bu... O‘z padaringni Movarounnahr sarhadidan haydamoqni niyat qilibsen... Meni bu maskandan haydagandin qatl qilganing a’lodur! Qatl! – Mirzo Ulug‘bek tomog‘i g‘ippa bo‘g‘ilganini sezib, labini tishlaganicha jim qoldi.

Mirzo Abdulatif yomon bir narsadan ijirg‘anganday yuzlari burushib, o‘rnidan turib ketdi. U teskari o‘girilganicha boshini egib jim qoldi. Uning yelkalari silkinar edi. Shahzoda ko‘ziga yosh oldi deb o‘ylagan Mirzo Ulug‘bek yana ko‘ngli yumshab:

– O‘g‘lim! – deb chaqirdi. Shahzoda javob bermadi.

“Bir qinga ikki qilich sig‘maydi, deb qo‘rqadur. O, do‘sti nodon. Koshkiydi, ko‘zim ko‘r bo‘lsa-da, seni ko‘rmasam!..”

– Ma’zur tutgaysiz, buzrukvor, – dedi shahzoda uzoq sukutdan keyin. – Men ulamolarning fatvosiga qarshi borolmasmen...

– Ulamolar yig‘ilgan bo‘lsa, qani ular orasida shayxulislom Burhoniddin, qani qoziyulquzzot Xoja Miskin hazratlari?

– Illo fatvoyi ulamo muhri Xudodir! – dedi shahzoda padarining savoliga javob bermay.

– Muhri Xudodur? Yodingda bo‘lsin: sohibi toj so‘zi bu ulamoyi kiromlar uchun vojibul imtisoldur![1] Qo‘rqma! Menga hech narsa kerak emas. Bu toj-u taxt, saltanat, shon-shuhrat – bari o‘zingga buyurg‘ay! Otangga yolg‘iz rasadxonani in’om etsang, bas! Bir burda non, bir qumg‘on sovuq suv bo‘lsa yetar. Azmim – qolgan umrimni “Ziji Ko‘ragoniy”ni tugatib, mutolaa bilan kun kechirmoqdur...

Shahzoda keskin burilib qaradi. Siyrak mo‘ylovining uchlari dikrayib, lablari titrab:

– Tag‘in rasadxona! Tag‘in “Ziji Ko‘ragoniy”, – dedi bo‘g‘ilib.

[1] **Vojibul imtisol** – bo‘ysunish lozim bo‘lgan hol.

– Mudarris dastorini o‘ragan barcha murtadlarni qanotingiz ostiga olib, din peshvolarini oyoqosti qilmishsiz! Bul uchun Haq taoloning qahriga, payg‘ambar alayhissalomning qarg‘ishiga uchrab, taxt-u tojdan, saltanatdan ayrilmishsiz. Ammo istig‘for aytmoqni tilamay, tavba-tazarru qilmoqni istamay, tag‘in rasadxonani o‘ylaydursiz! – Shahzoda qiblaga yuzlanib, ko‘zlarini yumdi. – Ey Parvardigori olam! Aning kalomini o‘zing eshitding! Gunohi azimga botgan bu osiy bandangni o‘zing afv etgaysan, Xalloqi olam!..

Shahzoda boshini afsus-la tebratib, lablari pichirlab, yuziga fotiha tortdi. Mirzo Ulug‘bek ko‘zlarini katta ochganicha qotib qoldi... Evoh! U ko‘pdan beri shahzodadan qo‘rqib yurgani bejiz emas ekan. U shahzodaning mutaassibligidan, Balxda barcha ilm ahlini tazyiq ostiga olganidan xabardor edi, lekin uni bunchalik bemehr deb o‘ylamagandi!..

– Shahzoda! – Mirzo Ulug‘bek yuragini larzaga solgan qahrni yashirish umidida yerga qaradi. – Vallohu a’lam bissavob! Kim payg‘ambar alayhissalomning qarg‘ishiga yo‘liqadi, kim yo‘q – buni yolg‘iz Tangri taolo biladur!

– Ha, Parvardigori olam barini biladur: ul Rabbul olamin hech bir bandasining burnini begunoh qonatmaydur. Va lekin dinul islomga kimki qilich ko‘tarmasin – xoh shoh bo‘lsin, xoh gado – ani jazo-siz qoldirmaydur. Kofir-u dahriylar makoni rasadxonaga o‘t qo‘yamen, o‘t!.. – Shahzoda quruqshagan lablarini yaladi, peshonasini, yuzini qoplagan jimir-jimir terlarni sidirib tashlab, ko‘zlarini yumib, yana allanimalarni pichirlay boshladi.

Mirzo Ulug‘bek a’zoyi badanini chulg‘ab olgan sovuq vahimadan tirnoqlarigacha muzlab, garang bo‘lib turar, xayolida esa yana o‘sha notinch va isyonkor o‘ylar quyunday charx urar edi.

“Vodarig‘! Movarounnahr taxtida bu mutaassib o‘ltirsa, saltanatning holi ne kechadi? Ilm ahlining boshiga ne anduh, ne kulfatlar tushadi? Ulardan burun ko‘zi qonga to‘lgan bu nobakorning o‘z taqdiri ne bo‘ladi? Aql-idrok o‘rniga qilich birla ish tutgan qaysi mustabid hokimning taqdiri yaxshi bo‘libdurki, bul nodonning taqdiri yaxshi bo‘lsin? Bu kun ilm ahliga qayrab solgan mutaassib johillar erta bir kun uning o‘zini chohga itarmasmu?” Mirzo Ulug‘bekning xayoliga kelgan bu fikr qalbida lovullab yongan olovga suv sepganday ta’sir etdi-yu:

– Shahzoda! – dedi yana o‘zini bosib. – Fozil-u fuzalo qorong‘ida adashib yurgan bashariyatning yo‘lidagi yorug‘ mash’aldur! Mash’alni o‘chirmoqni tilagan shoh o‘zi zulmat qo‘ynida yo‘l topolmay qoladur! Men senga jonim achiganidan, sening taqdiringni o‘ylagan qiblagohing bo‘lganimdan buni aytmoqni lozim ko‘ramen!

Shahzoda toqatsizlanib qo‘l siltadi:

– Balli sizday padarga: sizning yaxshilig‘ingizni bilurmiz. Tarnob jangida jonbozlik ko‘rsatgan kim? Men! Ammo muzaffar yorlig‘i kimning nomiga bitildi? Suyukli farzandingiz – Abdulaziz...

– Abdulaziz o‘z jigargo‘shangdur...

– Qulluq. Ixtiyoriddin qal’asidagi bobom Amir Temurdan qolgan tillalarimni tortib olgan kim? Yana siz, valine’mat padarim! Ne chora? Mute farzand, indamay bosh egdik va lekin bas! Sohibqiron Amir Temur oltinlarini qayg‘a yashirdingiz, soyaboni marhamat?

Mirzo Ulug‘bek seskanib ketdi.

– Qaysi tillalarni aytasen?

Shahzoda asabiy kuldi.

– Qaysi tillalar? Valine’mat padari buzrukvorim hech narsani bilmaydur!

Men bobom Amir Temur Qohira-yu Damashqdan, Bag‘dod-u Hinddan olib kelgan javohirlarni, oltin zeb-u ziynatlarni aytamen! Qayda bu boylik?

Shahzoda ko‘zlari telbalarcha yonib, Mirzo Ulug‘bekka yaqinlasha boshladi. Mirzo Ulug‘bek dahshat ichida orqaga chekindi. Chekinarkan, oyog‘i kursiga tegib, kursi gumburlab ag‘darilib tush-di-yu, u birdan hushyor tortib to‘xtadi. Shahzoda ham to‘xtadi.

– Xo‘sh, so‘zlang: kimga in’om etdingiz? Farzandi arjumandingizgami yo dini islomiyadan yuz o‘girgan murtad[1] allomalaringizgami? Ali Qushchi qayda?

“Yo rabbiy! Bu nobakor bilmagan sir-sinoat yo‘q! Uning xufyalari kirmagan teshik qolmabdi!..”

– Qaydan bilay, Ali Qushchi qayda yuribdi?

– Yo‘q! Endi hech bir so‘zingizga inonmasmen! Lashkar yig‘ib, menga qarshi otlanmoqdin oldin Ali Qushchini saroyga nechun chaqirdingiz? Nelar berdingiz unga?

– Ali Qushchini chaqirganimni aytgan ayg‘oqchilaring nechun unga nelar berganimni aytmabdi?

– Aytdi. Men o‘z og‘zingizdan eshitmoqni tilaymen, suyukli padarim!

Yo‘q, bilmaysen! Bilsang, so‘rab o‘ltirmas eding! Bas! Bu befoyda mubohasaga[2] chek qo‘ymoq darkor!”

Mirzo Ulug‘bek qaddini rostlab, shahzodaning ko‘zlariga tik boqdi. Shahzoda hamon qalt-qalt titrab, otasiga qadalib turardi.

– Bu suhbatdan yolg‘iz muddaom – otalik nasihatimni bermoq edi. Taassuflar bo‘lg‘aykim, sen-ga padar nasihati emas, oltin kerak ekan!.. – Shahzoda gapini bo‘lmoqchi ekanini ko‘rgan Mirzo Ulug‘bek keskin qo‘l siltab: “To‘xta!” deb buyurdi. – Ota so‘zin amri vojib, deb bilursenmi, yo‘qmi – ixtiyor senda. Va lekin so‘nggi nasihatimni eshit, xohla, o‘z padaringni qatl et, xohla, Movarounnahr sarhadidan haydab, darbadar qil – boz ixtiyor sendadur. Lekin yolg‘iz tilagim: ilm yo‘lida otang qil-gan ishlarga, uning shogird va ustodlariga tegmagaysen. Tegsang... ota qarg‘ishiga uchrab toabad badnom bo‘lursen!.. Ota rozi – Xudo rozi, yodingda bo‘lsin: alqasosu minalhaq! Hech bir yomonlik intiqomsiz[3] qolmaydur! Senga aytadurg‘on boshqa so‘zim yo‘q! Chaqir yasovulingni!

Shahzoda Abdulatif yuzi asabiy bujmayib bir nima demoqchi bo‘ldi, lekin demadi, teskari o‘girilib bir zum boshini osiltirib turdi, so‘ng bo‘g‘iq ovozda:

– Saroybon! – deb baqirdi.

Keling, muhokama qilamiz

1. Muallif har bir obrazni, joylarni, holatlarni batafsil tasvirlashga uringan. Nima deb o‘ylaysiz, bun-dan maqsadi nima bo‘lishi mumkin?
2. Mirzo Ulug‘bek qanday asoslarga ko‘ra patir ichidan chiqqan maxfiy xatni tuzoq deb baholayapti? Unga xatni kim yuborgan bo‘lishi mumkinligi haqida fikringizni ayting.
3. Abdullatif bilan suhbatga kirishishdan avvalgi mulohazalariga qarab, Mirzo Ulug‘bek siyratiga baho bering. Uning o‘ylarida shohlik alomatlari seziladimi yoki olimlik? Asoslang.

[1] **Murtad** – dindan qaytgan.
[2] **Mubohasa** – bahs.
[3] **Intiqom** – o‘ch, qasos.

4. Mirzo Ulug‘bek va Abdullatif dialogiga diqqat qiling. Ulardan qaysi birining dalillari sizga ishonarli ko‘rinmoqda? Nega?

5. Ulug‘bek Abdullatifga so‘nggi nasihatida qatl yoki surgun farmoni uchun emas, ilm ahliga yetkazishi mumkin bo‘lgan ziyoni uchun qarg‘ashini aytadi. Shu misol orqali Mirzo Ulug‘bek shaxsiga baho bering. Bunday vaziyatda odamga joni aziz emasmi? Fikringizni asoslang.

6. Xutbada Sayid Abbos Ulug‘bekdan qasos talab qilganida nima uchun ulamolar, xalq unga qarshi chiqmadi, insofga chaqirmadi deb o‘ylaysiz?

O‘ylab ko‘ring!

Mirzo Ulug‘bek Abdullatif qilmishlari va mamlakat boshiga tushgan savdolar haqida o‘ylaganida Amir Temurni bot-bot eslashi sabablari haqida fikr yuriting.

Tadqiq qiling!

Yuqorida o‘qilgan parchadan nozik *qochirim, o‘xshatish, qiyoslash, sifatlash, iboralarni topib, jadvalni* to‘ldiring.

Badiiy tasvir vositasi	Misollar
...	ko‘ngliga yopirilib kelgan mehr *izg‘irin tekkan shamday* so‘nib, *yuragi* yana *muzladi.*
...	
...	

Topshiriq

Romanning davomini (4) o‘qing.

ULUG‘BEK XAZINASI

4

Bir paytlar uzoq Yassidan haqiqat izlab, Ulug‘bek taxtiga bosh urib kelgan va undan ko‘p yaxshiliklar ko‘rgan iste’dodli shoir, arslonyurak jangchi Qalandar Qarnoqiy va bir vaqtlar Amir Temurga qilich yasab bergan, ammo shu qilich sarbadorlar harakatida ishtirok etgan akasining qatlida ishlatilganini ko‘rib, qilichsozlikni tashlagan, kimsasiz g‘orda yashab, maishiy aslahalar yasash bilan mashg‘ul bo‘lgan usta Temur Samarqandiy toj-u taxtidan ayrilgan hukmdorning qimmatbaho xazinasi bo‘lmish kitoblarni asrab qolishda Mirzo Ulug‘bekning shogirdi Ali Qushchiga yordam beradi...

… Ali Qushchi tanlab olgan asarlar kutubxonadagi kitob va qo‘lyozmalarning o‘ndan biricha ham kelmas, lekin shuning o‘ziyoq qirq qopdan oshib ketdi. Ular oldin bu qoplarni birinchi oshyonadagi quduqqa olib tushishdi, so‘ng qo‘llarida sham, zimiston kambar lahimdan[1] jarlikka tashiy boshladilar. Kechqurun, g‘ira-shira qorong‘ilikda boshlangan bu ish tun yarmidan oshganda bazo‘r tugadi. Sal o‘tmay, sandiq ortilgan tuyalarni yetaklab Qalandar bilan usta Temur Samarqandiy kelib qolishdi.

To‘rtovlashib kitoblarni sandiqlarga joylashdi. Har bir sandiqqa ikki yarim-uch qopdan kitob ketdi. O‘n olti sandiq kitobni to‘rt tuyaga ortib, ustiga quruq pichan bosishdi. Kitobning nechog‘lik og‘ir bo‘lishi ham shunda bilindi: uch-to‘rt botmon yukni pisand qilmaydigan nortuyalar kitob to‘la sandiqlar ostida og‘ir tebranib, arang qo‘zg‘aldi...

Mana, kechadan beri ular yo‘lda. Bugun jilg‘a bo‘yidagi yong‘oqzorga tuyalarni cho‘ktirib qo‘yib, dam olishdi. Bu yerlarda odam siyrak bo‘lsa ham, har ehtimolga qarshi kunduzi yurishmadi. Movarounnahr boshiga qora kunlar tushdi. Hamma yoqda ayg‘oqchi, hamma yoqda josus. Ehtiyot shart. Yana uch-to‘rt farsax masofani eson-omon o‘tib, “Ajdar g‘or”ga yetib olishsa bas, u yog‘i, Xudo xohlasa, ishlari o‘ngidan keladi... Ali Qushchi Miram Chalabiyga qaradi.

– “Ajdar g‘or”ga keldik, bolam. Eshakdan tush, tuyalarni cho‘ktir!

… Ali Qushchi qo‘lidagi tayoqqa o‘ralgan mash’alni yoqib, g‘orga birinchi bo‘lib kirdi. O‘sha-o‘sha manzara: devorlari yaltiroq ko‘k-qizil toshlardan iborat katta g‘orning kovaklariga qushlar uya qo‘ygan, yerda to‘zg‘igan patlar, qulab tushgan uyalar, tuxum siniqlari. Hatto ular yoqqan kichik gulxan kullari va qirrali toshlargacha o‘z o‘rnida yotardi..

Ali Qushchi qo‘lidagi mash’alni boshi uzra ko‘tarib, g‘orning tupkarisiga yurdi. Mana, zimiston lahim chapga burilib, pastda qora tuynuk ko‘rindi... Tuynukka sandiq sig‘adimi, yo‘qmi? Sig‘adi! Faqat turtib chiqqan tosh qirralarini sal chopish kerakdur...

Ali Qushchi qo‘lini Miram Chalabiyga berib, pastdagi ungurga[2] tushdi.

Xitoy chinnisiday silliq oq marmardan barpo bo‘lgan katta g‘or ham o‘zgarmagan, o‘n besh yil muqaddam qanday bo‘lsa, shunday turardi... Ha, sandiqlarni shu yerga joylashtirib, tuynuklarni xarsangtosh bilan yopib tashlash kerak...

Ali Qushchi yelkasidan tog‘ ag‘darilganday yengil tortdi…

– Inim! – dedi hayajonlanib. – Bu g‘aroyib ungurni Movarounnahrda yolg‘iz uch kishi biladi. Biri Mirzo Ulug‘bek, biri faqir, biri sen... Ahli irfon sarvari Mirzo Ulug‘bek butkul rub’i maskundin

[1] **Lahim -** yer yoki qal’a ostidan qazib o‘tkazilgan yo‘l.
[2] **Ungur** – tog‘liklardagi o‘yilgan tik joy.

yig‘dirgan eng nodir xazinasini ushbu yerga yashiramiz. Bu xazina bizga nasib etmasa, bo‘lg‘usi avlodlarimizga nasib etgay. Shu matlabda[1] yaxshi zamonlar kelguncha bu g‘or ulug‘ sir tutilgay. Bu sirni nainki do‘st-u aqrabong, padari buzrukvoring ham bilmag‘ay, inim. Bu so‘zimga yolg‘iz Ollo taolo shohiddur. Dilingda Haq taologa tavajjuh[2] aylab, qasamyod qil, inim.

Miram Chalabiy qiblaga qaraganicha ko‘zlarini yumib, lablari pichirlab qasamyod o‘qidi.

* * *

Mirzo Ulug‘bek Movarounnahrdan quvilish xabarini ilk bor eshitganda yuragi qon bo‘lib ketsa ham keyin idrok bilan o‘ziga o‘zi tasalli berib, yo‘l hozirligini ko‘ra boshladi.

U hamon Ko‘ksaroyning bir burchagidagi sovuq xonada istiqomat qilardi. Shahzoda bilan uchrashgan kuni ertasiga uning oldiga boshiga surmarang salla o‘ragan balxlik yangi saroybon kirdi. Saroybon unga yo‘l hozirligini ko‘rishni va bu ishda nimaniki darkor topsa, hammasini muhayyo qilishini aytdi.

Mirzo Ulug‘bek ortiqcha hech narsa so‘ramadi. Faqat issiqroq kiyim-kechak bilan uch-to‘rt kunlik oziq-ovqat-u yaxshi ot-ulov bo‘lsa, bas, boshqa hech narsa lozim emas, dedi. Rost, biroz pul yo tilla bo‘lsa zarar qilmas edi, lekin tillani yolg‘iz shahzoda in’om etishi mumkin. Mirzo Ulug‘bek esa o‘sha kungi suhbatdan keyin shahzodadan hech narsa tilamaslikka ont ichdi. Zotan, hajga otlangan osiy bandaga as’asa-yu dabdaba ne darkor? Boshga tushganini ko‘z ko‘rar. Taqdirga tan bermoq kerak.

Mirzo Ulug‘bek kechasi tong otguncha mijja qoqmay, ming xil rejalar tuzib chiqdi. Eson-omon Makkayi mukarramaga yetib, haj qarzini o‘tasa, Damashqqa yo Qohiraga boradi. Biror-bir madrasada farroshlik qilib, yer supurib o‘tsa ham, ilm ahli bilan birga bo‘ladi, qolgan besh kunlik umrini ta’lim-u tariqatga bag‘ishlaydi. Uning nomini Damashqda ham, Misrda ham, “Baytul hikma” atalmish Bag‘dodda ham bilishadi: qayerga bormasin, inshoolloh, xor bo‘lmas. Faqat... kindik qoni to‘kilgan boboyurti Movarounnahrdan, suyukli Samarqandidan, bolalik yillari o‘tgan Zarafshon sohillaridan ketmoq, yaxshi kuniga ham, yomoniga ham shohid bo‘lgan bu maskandan ayrilib, yot ellarda musofir bo‘lmoq... uni faqat shu xayol ezar, shu xayol qiynar edi. U har xil yumushlar bilan o‘zini ovuntirmoqchi bo‘lar, taqdirga tan bermoq kerak, degan o‘y bilan ko‘nglini ko‘tarishga urinar, lekin baribir elidan judo bo‘lish haqidagi xayol qayta-qayta yopirilib kelib, yuragi cho‘g‘ tekkanday achishib ketardi…

Ular shom namozidan keyin qo‘zg‘alishdi. Ko‘ksaroy odatdagiday teran sukutga cho‘mgan, hammayoq zim-ziyo, firuzarang yuksak gumbazlar sovuq daxmalarday mudhish qorayib turardi. Faqat marmar sarhovuzning chetlaridagi tosh fonuslar zaifgina shu’la sochar, kumush favvoralardan quyilgan suvning sokin shovullashi quloqqa chalinardi xolos.

… Darvozadan chiqqan joyda ularni to‘rt nafar suvoriy qarshi oldi.

Mirzo Ulug‘bek kechasi bo‘lsa ham Samarqandni bir aylanmoq, tanish ko‘chalar, dahalardan o‘tib, dorussaltana bilan vidolashmoq, Go‘ri Amirga birrov kirib, bobosi va padari buzrukvorining sag‘analarini ziyorat qilmoq, keyin yo‘lga tushmoq niyatida edi. Lekin otga minishlari bilan ularni qurshab olgan suvoriylar pastga, Registon tomon yo‘l olishdi.

“Ne qilay? Bu ayovsiz shahzoda qabringga sajda qilmoqqa ham ijozat bermadi. O‘zing afv etgaysen, jannatmakon!” – Mirzo Ulug‘bek Go‘ri Amir tomon qaray-qaray, ichida tilovat o‘qib, yuziga

[1] **Matlab** – talab.
[2] **Tavajjuh** – xayrixohlik bilan yuzlanmoq.

fotiha tortdi-da, otiga qamchi bosdi. Silliq tosh yotqizilgan jimjit ko‘chalar taqa qoqilgan ot tuyoqlaridan qarsillab ketdi... Ko‘chaning ikki yuzidagi paxsa devor bilan o‘ralgan hovlilardan, timli pastqam rastalardan tiq etgan tovush eshitilmaydi... Har yili bu mahalda shaharda to‘y-tomosha avjiga chiqar, kechasi bilan nog‘oralar taraqlab, karnaylar na’ra tortar, soyabon aravalarga mingan zaifalar, xonanda va sozandalarning qo‘shiq va laparlari, ot o‘ynatgan yigitlarning qiyqirig‘i dorussaltanani titratar edi. Mana endi hamma yoq jimjit, go‘yo tashlandiq go‘ristonday huvullab qolgan. Faqat Ulug‘bek madrasasi ro‘parasidagi xonaqohdan hamd-u sano o‘qigan darveshlarning “hu-hu”lari eshitiladi.

Registon maydoniga yetganda Mirzo Ulug‘bek chiday olmadi. Otini jilovidan tortib to‘xtatdi. U bir lahza madrasaga kirmoqchi, uning osuda hujralarini bir-bir aylanib chiqmoqchi, shogirdlaridan birortasi bilan bo‘lsa ham vidolashmoqchi edi. Lekin oldinda borayotgan suvoriyning tahdidli ovozi eshitildi:

– Chuh deng, pushtipanoh! To‘xtamoqqa ijozat yo‘q!

Mirzo Ulug‘bek otining boshini burarkan, beixtiyor ko‘ziga yosh oldi. U hozir birinchi marta chindan ham ojiz bir banda ekanini tushundi. Endigina hokimiyatdan judo bo‘lgan shoh, umrbod darbadarlikka mahkum etilgan bir faqir ekanini his etdi. U shunday bo‘lishini bilar, el-yurtdan ayrilishini tushunar edi. Lekin shu daqiqagacha buni aql bilan idrok etsa, endi suvoriyning betakalluf amridan keyin dil-dilidan his etdi, his etdi-yu, vujud-vujudigacha zirqirab ketdi... “O‘zing sabr ato qilgaysen, rabbano! Nahot endi u chindan ham bu sokin ko‘chalardan yurmasa? O‘zi bunyod etgan, chorak asr mudarrislik qilgan, eng mas’ud[1] damlari o‘tgan bu madrasayi muazzamni qayta ko‘rmasa? Undagi suyukli talabalari bilan so‘nggi bor vidolasha olmasa? Nahot juma namozi kunlari masjidi jomening tilla mehrobi oldida sajdaga bosh qo‘yib, ruhan va aqlan O‘zingga tavallo qilmoq baxtidan umrbod mahrum bo‘lsa, Xudovandi karim? Nechun, qaysi yozuqlari uchun uni bu ko‘rgilikka mahkum etding, Xalloqi olam?..”

… “Bog‘i maydon” darvozasida ularni yana to‘rt nafar sipoh qarshi oldi. Kuzatib kelgan sipohlar Mirzo Ulug‘bek bilan Muhammad Xisravni ularga topshirib, qaytib ketishdi.

“Bog‘i maydon” sipohlari Mirzo Ulug‘bek bilan Muhammad Xisravning otlarini olib qolib, o‘zlarini ichkariga taklif qilishdi. Bog‘ning qoq o‘rtasida devorlari xitoy koshinlari bilan bezatilgan “Chil ustun”[2] koshonasi bo‘lar, tepalikka qurilgan koshonaning ikkinchi oshyonidan rasadxona ro‘yirost ko‘rinar, agar koshonadan sal o‘tib, devordan oshib tushilsa, to‘g‘ri rasadxonaga chiqilar edi…

* * *

… Ha, u o‘z umrida qancha xatolar qilmasin, qancha yanglishmasin, ilm-ma’rifat yo‘lida qirq yil qilgan mehnati zoye ketmabdi. Ali Qushchiday shogirdlari bor ekan, uning asarlari izsiz yo‘qolmaydi. Faqat ipakday mayin mezonlar suzib yurgan bu ma’sum dalalar, xazon to‘shalgan yarim yalang‘och bog‘lar, shuvoq va yovshan bilan qoplangan bu qo‘ng‘ir qirlar, harir tuman qo‘ynidagi yuksak tog‘lar... bulardan judo bo‘lmoq... Yo rab! Yana o‘sha, o‘sha g‘am-anduh! O‘zing sabot ato qilgaysen, Xalloqi olam!..

Uning xayolini ot tuyoqlarining dupuri bo‘ldi. Orqadagi qirdan ikki suvoriy qo‘l silkitib quyunday uchib kelar, adir tepasida esa, uchinchi otliq ko‘rinar, u ham sipohmi, yo‘qmi, bilib bo‘lmas edi.

Mirzo Ulug‘bek nechundir yuragi uvushib, otining jilovini tortdi. Quyunday uchib kelgan suvoriylar ko‘pikka cho‘milgan arg‘umoqlarini arang to‘xtatishdi. Bo‘liq qorabayir mingan, ko‘zlari qisiq,

[1] **Mas’ud** – baxtli, saodatli.
[2] **Chil ustun** – qirqta ustun.

mo‘g‘ulbashara suvoriy kamoli ehtirom bilan qo‘l qovushtirib, salom berdi. Ikkinchi sipoh ham qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib, ta’zim qildi.

– A’lohazratlari, yaxshi niyatlarig‘a yetib, hajlari qabul bo‘lg‘ay! Haq taolo umrlarini boqiy qilg‘ay.

Yasovulning ishshayib, uzun duo qilishlarida allaqanday sirli va sovuq bir narsa bor edi. Mirzo Ulug‘bek yuragidagi shubhani quvishga urinib, iljaygan bo‘ldi.

– Duoyi jonlaring mustajob qabul, o‘g‘lonlar! Xo‘sh, so‘zlang. Yo duo qilmoq niyatida Samarqanddan ot choptirib keldinglarmu?

Mo‘g‘ulbashara yasovul yana tavoze bilan bosh egdi.

– Duo birla shahzodayi juvonbaxtning sizday padari buzrukvoriga yo‘llagan salomini keltirdim...

– Xo‘sh?

– Shahzodayi juvonbaxtning tilagi shukim, sizday zoti oliy qiblagohini o‘z nomiga yarashuq izzat-ikrom ila kuzatmoqdur!

Mirzo Ulug‘bek yasovulning qiyiq ko‘zlariga tik boqdi.

– Shahzodayi juvonbaxtga borib aytgaysen: Muhammad Tarag‘ay taxtga o‘ltirmoqqa emas, Makkayi mukarramaga yo‘l tutgandur. Bu yaxshi niyatni ko‘ngliga jo qilib, hajga otlangan osiy bandaga shon-shavkat darkor ermasdur, o‘g‘lon!

– Borakallo sizga, valine’mat! Va lekin shahzodayi juvonbaxt sizday zoti oliyning faqir bir gadoday Movarounnahr sarhadidan chiqib ketmog‘ini taxt va saltanat sha’niga noloyiq deb biladurlar. Ul sohibi toj sizga uch tuya oziq-ovqat va sarupolar in’om etdilarkim, bu karvon subhidam yetib keladur. O‘shal daqiqagacha mana shu qishloqqa... – Yasovul qamchisi bilan chap tomondagi qir yonbag‘rida joylashgan kichik bir qishloqni ko‘rsatdi, – tunamog‘ingizni lutfan iltimos etadurlar...

Mirzo Ulug‘bekning ko‘zi yana orqadagi qirda ot o‘ynatib turgan odamga tushdi. Nechundir u amir Sulton Jondorga o‘xshab ketdi-yu, ko‘ngliga yana qora shubha yopirilib keldi.

– Anov kim? Amir Jondor emasmu?

– Amir Jondor? – kuldi mo‘g‘ulbashara suvoriy. – Amir Jondor ne qiladi katta yo‘lda?

Yasovul undan rozilik so‘rab turmay, otining boshini qishloq tomon burdi.

“Vodarig‘! Boshimda tag‘in ne savdolar bor?.. Shahzodaga ne kerak? Movarounnahrdan haydadi. Toj-u taxt, saltanat – barini oldi. Alhol o‘z holimga qo‘ysa bo‘lmasmu?..” Mirzo Ulug‘bek boshini ko‘tarib uzoq tog‘larga qaradi, qaradi-yu xayoliga yana boyagi o‘ylar keldi:

“Nechun bunchalar titraysen, ey Muhammad Tarag‘ay? Bundan yomon ne bo‘lur? Boshing keturmi? Ona yurting, suyukli elingdan ayrilib, yot ellarda darbadar bo‘lib o‘lguncha o‘z tuprog‘ingda o‘lganing a’lo emasmu?! Nechun qaltiraysen, Mirzo Ulug‘bek?” U odatdagiday o‘zidan kinoya qilib kulgan bo‘ldi. Lekin yuragiga quyilib kelayotgan allaqanday qora shubha go‘yo osmonni qoplayotgan qora bulutday tobora quyuqlashib borardi. Faqat qishloqqa yaqinlashib, hovlilar ustida suzgan harir ko‘kimtir tutunni ko‘rganida, kechki podadan qaytgan sigirlarning bo‘kirishi, bolalarning yig‘isi, qo‘ylarning ma’rashi qulog‘iga kirganda, dimog‘iga esa tandirdan uzilgan issiq non hidi gup etib urgandagina miyasini chulg‘ab olgan qora xayollar sal tarqab, fikri ravshanlashganday bo‘ldi...

Ot choptirib ilgarilab ketgan suvoriylar ularni qishloq chekkasidagi hovli oldida kutib olib, ichkariga boshlashdi. Hovli ichki-tashqi bo‘lib, ichki hovlining to‘rida oldi ayvon pastqamgina uy bor edi. Suvoriylar xonadon egalarini haydab chiqishganmi, boshqami, ishqilib, hovli ham, uy ham bo‘m-bo‘sh, hamma yoq suv quygandek jimjit edi. Suvoriylar Mirzo Ulug‘bek bilan xojaning yuklarini ichki hovliga olib kirib berdilar-da, otlarni yetaklab qayoqqadir chiqib ketdilar. Mirzo Ulug‘bekning hamrohlari

tashqi hovliga joylashgan, ular inlariga kirib ketgan kalamushlarday jimib qolgan, u yerdan tiq etgan tovush eshitilmas edi. Bu jimlik va kimsasizlikda allaqanday mudhish bir narsa bor edi. Boya sal tarqagan qora shubha qayta yopirilib kelayotganini sezgan Mirzo Ulug‘bek mayda-chuyda yumush bilan ovunishga tutindi. Xurjunlarini qorong‘i xonaga olib kirdi, tokchadagi moychiroqni yoqdi. So‘ng oppoq oltoy po‘stinini yelkasiga tashlab, hovliga chiqdi. Hovlining bir chetida quruq shox-shabba uyulib yotar edi. Mirzo Ulug‘bek ichkarida kuymanib yurgan xojani chaqirdi.

– Qani, xojam, haj yo‘lida zahmat chekmoq savob bo‘lur. Gulxan yoqib isinaylik.

Ular uyga bir quchoq quruq shox-shabba olib kirib, tancha o‘rnida gulxan yoqishdi. Quruq butalar guvullab yonib, xonaga sal fayz kirganday bo‘ldi.

Namozgar payti yaqinlashmoqda edi. Mirzo Ulug‘bek tahorat olgani turdi-yu, hovli eshigi sharaqlab ochilganini eshitib, seskanib ketdi. Zum o‘tmay uy eshigi ham sharaqlab ochilib, ostonada egniga uzun qora chakmon[1], boshiga katta qora telpak kiygan, yag‘rindor bir odam paydo bo‘ldi. Gulxan shu’lasida uning burni puchuq tund yuzi, qora telpakli katta boshi qora quzg‘unday vahimali ko‘rindi. Mirzo Ulug‘bek uni qayerdadir uchratgan edi.

“Sayid Abbos!” – Mirzo Ulug‘bek uni tanib o‘rnidan sakrab turdi. U bor kuchini yig‘ib, Abbosning ko‘ksiga zarb bilan musht urdi. Lekin Sayid Abbos tebranib ketsa ham o‘zini tutib, Mirzo Ulug‘bekning yoqasidan g‘ip bo‘g‘di. Shu payt eshik yana sharaqlab ochilib, uyga mo‘g‘ulbashara suvoriy otilib kirdi-da, a’lohazratlariga tashlandi...

“Xoja qayda? Bu mal’unlarning muddaosi ne?” – Mirzo Ulug‘bekning ko‘zi yarim qorong‘i xonaning burchagiga tiqilib olgan xojaga tushdi. Xoja boshini chakmoniga burkab, g‘ujanak bo‘lib yotar, bo‘layotgan olishuvga qaramas edi. Sayid Abbos bilan mo‘g‘ulbashara suvoriy Mirzo Ulug‘bekning qo‘llarini orqasiga qayirib, hovliga sudrab chiqishdi.

Poymol bo‘lgan g‘urur va haqorat tuyg‘usidan larzaga tushgan Mirzo Ulug‘bek lablarini tishlab, ingrab yubordi. Parvardigori olam! Xuddi qurbonlik qo‘yday sudraydilar. Qaysi yozuqlarim uchun bu nadomat, bu xo‘rlik?.. Qaydasen, o‘g‘lim Ali? – Ali Qushchini eslashi bilan ko‘ziga yana yosh keldi. – Attang! Boya nechun uni orqaga qaytardi? Bu nobakor shahzodaning qo‘l ostidan chiqquncha birga bo‘l, desa bo‘lmasmidi?”

Mirzo Ulug‘bek yaqinlashayotgan oyoq tovushini eshitib ko‘zini ochdi, ochdi-yu, tubsiz osmon qa’rida, tez uchib o‘tayotgan qora bulutlar orasida milt-milt yongan yulduzlarni ko‘rdi. Miyasida nimadir yarq etib, keng dashtda, bobosining qarorgohida o‘tgan iliq bir oqshom esiga tushdi. Ko‘z oldiga tepasi ochiq ipak chodir yonida boshini silab o‘tirgan momosi Saroymulkxonim keldi. Momosining qo‘sh-qo‘sh oltin uzuk taqilgan oppoq nozik barmoqlari qush parlariday mayin, qulog‘i ostida yangragan ovozi ariq suvining jildirashiday yoqimli edi: “Uyqung kelmasa, yulduzlarni tomosha qilgaysen, qulunim[2]. Yulduzlar Xudoning osmonda uchib yurgan farishtalaridur! Farishtalar mehribon bo‘ladur. Uyqung kelmasa, yulduzlarga qaraysen, toychog‘im...”

Mirzo Ulug‘bek o‘pkasi to‘lib, kalima keltira boshladi, lekin ko‘z yoshi aralash tepasiga kelib to‘xtagan Sayid Abbosning qora quzg‘un vajohatini, boshi uzra ko‘targan qilichini ko‘rdi, ko‘rdi-yu ijirg‘anib ko‘zlarini yumarkan: “Alvido, Ali! Umidim yolg‘iz sendan! Ilohim mening boshimga tushgan bu savdolar sening boshingga tushmagay!.. Yo rab, yozug‘im[3] nedur manim?” – deb pichirladi.

[1] **Chakmon** – erkaklar uchun jun matodan tikiladigan uzun qishki to‘n.

[2] **Qulun** – otning bir yoshgacha bo‘lgan bolasi. Odatda erkalash ma’nosida ishlatiladi.

[3] **Yozuq** – taqdir.

Keling, muhokama qilamiz

1. Ali Qushchi, Qalandar Qarnoqiy, Temur Samarqandiy va Miram Chalabiyning bebaho kitoblarni saqlab qolishdagi sa'y-harakatlariga munosabat bildiring.
2. Bobosi Amir Temurdan qolgan tilla-yu javohirlar saqlangan maxfiy joyni Abdullatifga aytganida Mirzo Ulug'bekning hayotida burilish bo'lar edimi yoki yo'q? Dalillar keltiring.
3. Mirzo Ulug'bekning hajga ketish oldi o'ylariga diqqat qiling. Qayerga borsa ham ilmi tufayli qadrlanishini bilgan, ammo Vatanidan judo bo'lishni hazm qilolmayotgan Ulug'bek obrazini tahlil qiling. Ayriliq, Vatan va musofirlikning insonga ta'siri haqida ham fikrlaringizni ayting.
4. Shahzodaning *"qiblagohini o'z nomiga yarashuq izzat-ikrom ila"* kuzatish uchun qilgan ishlariga baho bering. Bu rostdan otasining *"bir gadoday Movarounnahr sarhadidan chiqib ketmog'ini taxt va saltanat sha'niga noloyiq deb bil"*gani uchunmi yoki boshqa sabab bormi? Har bir fikringizni asoslab ayting.
5. O'limi oldidan Mirzo Ulug'bek momosi Saroymulkxonimning yulduzlar haqida aytganlarini eslaganida ko'nglingizdan nimalar o'tdi? Ulug'bekning ilmiy faoliyati bilan qiyoslab, tushuntirishga harakat qiling.
6. Ali Qushchi Mirzo Ulug'bekni shaxsan o'zi Makka safariga kuzatganida voqealarning keyingi rivoji qanday bo'lar edi deb o'ylaysiz?

Ijodiy ish

Romanning birinchi qismidan olgan taassurotingiz, kechinmalaringiz asosida ijodiy ish (rasm, kuy, qo'shiq, insho yoki esse) tayyorlang.

Tavsiya

1. O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf she'ri, Mahmudjon Azimov ijrosidagi "Samarqandga borsam men agar" qo'shig'ini tinglang.
2. "Ulug'bek xazinasi" romani ikki qismdan iborat. Birinchi qismning muhim epizodlari bilan dars jarayonida tanishdingiz. Asarning ikkinchi qismi ham dramatik voqealarga boy. Abdullatif, Ali Qushchi, Mavlono Muhiddin, Qalandar Qarnoqiy, Nizomiddin Xomushning ziddiyatli taqdiri bilan tanishish uchun ushbu qismni ham turli manba (ijtimoiy tarmoq, kitob do'koni, kutubxona va boshqa)lar orqali topib o'qishni tavsiya qilamiz.

YELKADOSH TOG‘LAR



Dars davomida: – bizga qo‘shni va qardosh ellarning adabiy namunalari bilan tanishamiz, tahlil qilamiz.

MUTOLAADAN OLDIN

Biz yashayotgan Markaziy Osiyo hududi xalqlari dunyo tamadduniga munosib hissa qo‘shgani tarixdan ma’lum. Bu mintaqaning har bir mamlakatida o‘zbek, qirg‘iz, tojik, qozoq, turkman, qoraqalpoq millatiga mansub ko‘p sonli aholi necha asrlardan beri ahil-inoq, do‘st-birodar bo‘lib yashab kelmoqda.

Siz O‘zbekistonga qardosh va chegaradosh mamlakatlardan yetishib chiqqan qaysi yozuvchi va shoirlarni bilasiz? Ularning qaysi asarlari bilan tanishsiz?

BESH GANJ

Dunyo – inja gulli, rango-rang gilam,
Bir xildir dildagi ramz-u naqshimiz.
Bir daryoni kechib Go‘ro‘g‘li bilan,
Bir qo‘shiqni kuylar o‘zan, baxshimiz,
Maxtumquli bayti – mayog‘im manim,
O‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkmanim.

Musht bo‘lib tugilgan yondosh besh barmoq,
Mardligi ming doston, afsona bo‘lgan.
Yassaviy izidan Haq sari bormoq
Yo‘lida tabarruk ostona bo‘lgan,
Abay o‘lanlari – to‘zimsiz bog‘im,
O‘zbek, tojik, turkman, qirg‘iz, qozog‘im.

Jonimiz tutashdir olam joniga,
Zaminga tog‘larday otganmiz tomir.
Hazrati Jomiyning qutlug‘ jomiga
Obihayot quygay mo‘ysafid Pomir,
Chashmaday musaffo, bag‘ri ochig‘im,
O‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, tojigim.

Do‘stlar sharafiga to‘shalgan kigiz
Momolar bostirgan shirdoq[1]day mahkam.
Manasday zabt etdi o‘zga bir Chingiz
Chingizxon yetmagan yuraklarni ham,
Pokiza hislari – toza qimizim,
O‘zbek, turkman, tojik, qozoq, qirg‘izim.

[1] Bu yerda “ikki qavat qilib tikilgan naqshli kigiz” ma’nosida.



Besh ganjdek tizilgan bu noyob halqa,
Buyuk Navoiyning besh dostonidek.
Ne baxtki, mansubman shu ulug‘ xalqqa –
Fitnalar zaxmiga qo‘ya olgan chek,
Abadiy do‘stlikdan mangu so‘z degum,
Turkman, tojik, qirg‘iz, qozoq, o‘zbegim!

EGIZ EL

Yerga ko‘kdan tushgan ulkan qo‘bizday
Yastanib yotibdi ko‘rkam Qoratov.
Berdaq, Ajiniyoz boqar ko‘z uzmay –
Nazm cho‘qqisida qurgan qo‘sh o‘tov,
“Dembermes”[1] avjiday jo‘sh urgan chog‘im,
O‘zbek bilan egiz qoraqalpog‘im.

Nodir Jonuzoq

Keling, muhokama qilamiz

1. Ikki she’rning nomlanishiga doir mulohazalaringizni she’r matniga tayanib dalillang.
2. Shoir she’r davomida turli xalqlarni bir tan-u bir jon deb tasvirlaydi. Sizningcha, bu yondashuv bugungi millatlararo munosabatlarda qanday ahamiyatga ega?
3. She’rda Go‘ro‘g‘li, Abay, Yassaviy, Jomiy va Navoiy kabi shaxslar tilga olinib, adabiyot, tarix, musiqiy an’analar bir-biriga bog‘langan. Sizningcha, shoir bu orqali qanday g‘oyani ilgari surmoqda?
4. *“Kigiz”, “o‘zan”, “qimiz”, “shirdoq”* singari etnografik xususiyatga ega so‘zlar ma’nosini bilasizmi? Mazkur elementlar xalqlar o‘rtasidagi qanday umumiy hayot tarzi hamda qadriyatlarni ifodalagani haqida ham o‘ylab ko‘ring.
5. *“Egiz el”* tushunchasini she’r matni bilan bog‘lab sharhlang. Fikringizni misollar bilan dalillang.

Topshiriq

Har ikki she’rda turli millatlarning o‘ziga xosligi, yashash tarzi, umumiy adabiyot, tarix, musiqiy an’analariga alohida e’tibor qaratilgan. Siz bu jihatlarni qaysi kalitso‘zlar orqali bilib oldingiz? Quyidagi jadvalni to‘ldiring va javobingizni og‘zaki asoslang.

	o‘zbek	qirg‘iz	qozoq	turkman	tojik	qoraqalpoq
Kalitso‘zlar:						

[1] **Dembermes** – qoraqalpoqcha qo‘shiq nomi.



Qirg‘iz adabiyotidan namuna

BOYDULLA SARNO‘G‘AYEV

(1932–2004)

Qirg‘iziston xalq shoiri Boydulla Sarno‘g‘ayevning ilk she’riy to‘plami “Shumkar” nomi bilan nashr qilingan. Keyinchalik uning “Do‘stlarimga”, “Mergan bola”, “Bayas”, “Oq qalpoq”, “Tog‘lar va tog‘liklar”, “Uzilmagan umidlar”, “So‘zlashuv”, “Mening tuganmas kunim” kabi ko‘plab she’riy kitoblari chop etilgan.

SALOM

Salom senga, qardosh, qo‘shni o‘zbegim,
Jilovdirsan men uloqda o‘zinsam.
Salom senga, hamisha yosh Toshkentim,
Qadim Sharqning darvozasi o‘zingsan.
Salom sizga, qiyosi yo‘q dalalar,
Kuy taralar qo‘bizimdan-torimdan.
Qulluq senga, saxovatli Sirdaryo,
Paxta ekib, suv ichasan Norindan.
Salom senga, bobokalon Samarqand,
Noming dilga muhrlangan es tanib.
Olqish senga, Mir Alisher diyori,
Ming yillarga shohid bo‘lgan esdalik.
Salom sizga, Shirinlarning avlodi,
O‘n to‘rt kunlik oyga o‘xshar kamoli.
Talaslikman, qaychiquda elatmiz,
Farg‘onalik mening sohibjamolim.
Salom senga, qardosh, qo‘shni o‘zbegim.
Mirzacho‘lni qiyos etdim barxitga.
Bu gal endi o‘zing mehmon bo‘lib kel,
Arslonbobga, O‘sh shahriga, Arqit[1]ga.

Tursunboy Adashboyev tarjimasi

Keling, muhokama qilamiz

1. She’rda muallif o‘zbek xalqining qanday xislatlarini ulug‘laydi? Misralardan misol keltirib, fikringizni to‘ldiring.
2. She’rda Toshkent “*Qadim Sharqning darvozasi*” deb ta’riflanmoqda. Nima uchun? Tarix fanidan olgan bilimlaringiz asosida javob bering.
3. *“Qaychiquda elatmiz”* jumlasini tushuntiring. Bu orqali qanday g‘oya ilgari surilmoqda?

Topshiriq

Turkiy xalqlarning shoir nazarda tutgan “*Ming yillarga shohid bo‘lgan esdalik*”lariga nimalar kiradi? Taqdimot tayyorlang.

[1] **O‘sh, Arqit, Talas** – Qirg‘izistondagi shaharlar nomi.

Qozoq adabiyotidan namuna

O‘LJAS SULAYMON
(1936)



Atoqli qozoq shoiri O‘ljas Sulaymon nafaqat adib, balki davlat va jamoat arbobi sifatida ham mashhur. U “Arg‘umoqlar”, “Quyoshli tunlar”, “Qutlug‘ tongotar”, “Maymun yili“, “Sopol kitob” she’riy to‘plamlari, “Oqdaryo ustida”, “Butun baxt”, “Az i Ya” va boshqa she’riy, nasriy kitoblar muallifi.

Adibning **“Aylanayin”** she’riy to‘plami hamda **“Az i Ya”** nomli mashhur asari o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

QIZ QUVDI

Qani, quvib yet, yigit,
Otni ayab netarsan,
Oshiq bo‘lsang chindanam,
Ot o‘lsayam yetarsan.
Seni sevaman, yigit,
Quvib yetib, muchchi ol.
Sadolar girvat[1]ida,
Ikki yuzim bo‘ldi ol.

Qara,
Shamol yetib olib,
Qo‘ynimda yotib olib,
Yurak-bag‘rimni ezdi,
Oh, yana qolding, yigit.
Mazax qilar seni oy,
Bir o‘zim
Cho‘l bag‘rida

Qo‘llarimda jon qolmadi.
Qon sizar ot yag‘ridan.
Yomonlar-ey, yomonlar,
Siz-da oyga sheriksiz,
Eng dovyurak yigitga,
Kunday kerak yigitga,
Otmas, eshak beribsiz.

Shavkat Rahmon tarjimasi

[1] Bu yerda: “to‘zon, dovul” ma’nosida.



Bilib oling!

“Qiz quvdi” marosimi Sharq xalqlari (jumladan, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoqlar)ga xos milliy o‘yinlardan. Asosan, Navro‘z sayillarida o‘tkazilgan. Otda ketayotgan qizga yigit yetib olishi eng asosiy shartlardan biri. Yetib olgan yigitni qiz qamchi bilan savalashga harakat qiladi. Bu marosim yor tanlashga ham o‘tadi.

Keling, muhokama qilamiz

1. Qiz mingan otning yag‘ridan qon sizishi nimaning ifodasi: qiz g‘olib bo‘lish uchun otni qattiq qamchilaganmi yoki yigitning mag‘lubiyatiga alam chekkanidanmi? Fikringizni isbotlang.
2. Qiz yigitga “*Seni sevaman, yigit*”, deb murojaat qiladi. She’rda agar shu tuyg‘u ochiq ifodalanmaganda qaysi holatlar qizning yigitga muhabbatini ko‘rsatgan bo‘lar edi? Asoslab bering.
3. Qiz musobaqada g‘alaba qozongan bo‘lsa ham nega yuzlari “ol” bo‘ldi, ya’ni qizardi deb o‘ylaysiz?
4. She’rning oxirgi to‘rt misrasiga diqqat qiling: qiz nega norozi? U kimlardan gina qilyapti? Nima uchun?

Qiyoslang!

“Qiz quvdi” she’ridagi qizning yigitga dalda berishi, ruhiy holatini *“Alpomish”* dostoni qahramoni Barchinoyning chavandozlik shartida Boychiborga yig‘lab o‘tinishi holati bilan qiyoslang. Taqqoslash natijalarini guruh muhokamasiga qo‘ying.



Turkman adabiyotidan namuna

MAXTUMQULI

(1733–1783)

Adabiy merosi barcha turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqi uchun ham muhim ma’naviy boylikka aylangan turkman mutafakkiri Maxtumquli o‘z davrining taniqli shoirlaridan bo‘lgan Davlatmamad oilasida tug‘ilgan.

Dastlab ovuldagi maktabda, so‘ng Xivadagi Sherg‘ozi va Buxorodagi Ko‘kaldosh madrasalarida tahsil olgan adib **Firog‘iy** taxallusi bilan ham ijod qilgan.

Maxtumqulining ko‘plab she’rlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. Shuningdek, u haqida turli kinofilmlar, spektakllar ishlangan va badiiy asarlar yaratilgan.

Tavsiya

“Tirik tarix” turkumidan o‘zbek va turkman kino ijodkorlari hamkorlikda suratga olgan **“Maxtumquli Firog‘iy”** badiiy filmini tomosha qiling.

4

Bosh rejissyor: Muzaffar Erkinov.

KO‘RING

Har yigitning aslin bilay desangiz,
Ma’rakada o‘tirib-turishin ko‘ring.
Birov bilan oshno bo‘lay desangiz,
Avval o‘z so‘zida turishin ko‘ring.

Uzoq-yaqin yo‘lga borar bo‘lsangiz,
Mardlik qilichini solar bo‘lsangiz,
Bir bedovni saylab olar bo‘lsangiz,
Siynasin, sag‘risin kerishin ko‘ring.

Bir pul tushsa bir iflosning qo‘liga,
Ko‘ksin ochib, kezar qishning yeliga,
Xaridor bo‘lsangiz qizga, kelinga,
Adabin, ikromin, o‘tirishin ko‘ring.

Mard yigitning ot-yarog‘i shay bo‘lsa,
Yetishar har yerda hayda-hay bo‘lsa,
O‘zi Hotam bo‘lib, yana boy bo‘lsa,
Chor atrofdan mehmon kelishin ko‘ring.

Bir nechani qilding moli bisyori,
Bir nechani qilding bir pulning zori,
Yaxshi-yomon – odam zotining bori
Navbat bilan o‘tib borishin ko‘ring.

Tangri bezor, biling, zakotsiz boydan,
Siz ham qoching zinhor ul kelar joydan,
Mardga bir ish tushsa, ko‘rar Xudoydan,
Nomardning hamrohdan ko‘rishin ko‘ring.

Nomard yurar mudom o‘limdan qochib,
Uyiga kelganda zahrini sochib,
Mard yigit mehmonga quchog‘in ochib,
Nomardning mehmondan qochishin ko‘ring.

Zolimlar unutar zikri Olloni,
Arzon olib, qimmat sotar g‘alloni;
Sudxo‘r noinsoflar halol tilloni
Harom foydasiga berishin ko‘ring.

Mard yigitning ishi suhbat – soz bo‘lar,
Ko‘ngli qish bo‘lmayin, doim yoz bo‘lar,
Yaxshining ko‘nglida gina oz bo‘lar,
Yomonning kunda bir urushin ko‘ring.

Qadrdon qardoshdan uzoqda turib,
Qadrsiz yot bilan qarindosh bo‘lib,
Maxtumquli, nosozlarga duch kelib,
Xo‘janing, sayidning yurishin ko‘ring.

Jumaniyoz Sharipov tarjimasi

Keling, muhokama qilamiz

1. Maxtumqulining ushbu she’rida mard yigitning qanday xislatlari haqida so‘z boradi? Misol keltiring.
2. She’rda nomard odamning qilmishlari qanday tasvirlanadi? Ularni mard yigitning xatti-harakatlaridan qanday farqlash mumkin?
3. She’rda mehmonnavozlik haqida qanday fikrlar aytilgan? Bu xususiyat qaysi misralarda yaqqol namoyon bo‘lgan?
4. *“Qadrdon qardoshdan uzoqda turib, Qadrsiz yot bilan qarindosh bo‘lib”* misralarini sharhlab bering. Shoir nima demoqchi ekanini asoslang.
5. Maxtumquli she’rida *ijtimoiy adolat va halollik* masalalariga qanday yondashgan? Misralardan misollar keltiring.

Topshiriq

She’rning birinchi bandiga e’tibor qarating. Unda keltirilgan mardlik xislati bugun ham dolzarbmi? Fikringizni olti-yetti jumla bilan izohlab yozing.

Tavsiya

Qo‘shiq nomi: “Ko‘ring”.
Ijrochilar: Komiljon Otaniyozov va Ruxsora Otajonova.

5 6



Tojik adabiyotidan namuna

LOYIQ SHERALI

(1941–2000)

Zamonaviy tojik adabiyotining atoqli vakillaridan biri, Tojikiston xalq shoiri Loyiq Sheralining yigirmadan ortiq she’riy to‘plamlari chop etilgan. Ular orasida “Yo‘lovchi”, “Qadahso‘z”, “Ko‘ngil koshonasi”, “Ko‘zlar manzili”, “Quyosh yomg‘iri”, “Shohnoma”dan ilhom”, “Toshdagi bitik”, “Men va daryo”, “Sassiz faryod” kabi asarlar alohida o‘rin tutadi.

Loyiq Sherali ijodi tojik adabiyotining jahon miqyosida e’tirof etilishida muhim rol o‘ynagan, she’rlari ellikdan ortiq tilga tarjima qilingan.

EY TILSIZ DARAXT



O‘zingdan chiqarib bolta sopini,
Ildizing kesishar,
Dunyo o‘zi – shu.
Tanangni nimtalab,
Tashib ketarlar,
Nechuk savdo?
Nechuk kemtik dunyo bu?

Sendan dor yog‘ochi tiklanar baland,
Tobutga aylanar tanang, dardlaring…

Tiling bo‘lsa, so‘yla, ey tilsiz daraxt,
Ayt, tiling emasmi axir barglaring?..

Odil Ikrom tarjimasi

Keling, muhokama qilamiz

1. She’rda *“tilsiz daraxt”* obrazi orqali muallif nimani tasvirlagan bo‘lishi mumkin? Bu obrazning ramziy ma’nosi haqida o‘ylab ko‘ring.
2. She’rda dunyoning o‘tkinchiligi haqida qanday fikrlar ifodalangan? Misralardan misol keltirib, fikringizni dalillang.
3. Shoir *“Tiling bo‘lsa, so‘yla, ey tilsiz daraxt”* misrasida qanday tuyg‘ularni aks ettirgan? Bu misra she’rdagi umumiy kayfiyatga qanday ta’sir qiladi?
4. *“Nechuk savdo? Nechuk kemtik dunyo bu?”* misrasida muallif dunyoga qanday nuqtayi nazardan qaramoqda? Bu savolning falsafiy ma’nosi haqida o‘ylang.
5. *“O‘zingdan chiqarib bolta sopini, ildizing kesishar”* misrasi orqali shoir nima demoqchi? Hayotiy misollar keltirib, fikringizni dalillang.

O‘ylab ko‘ring!

She’rdagi *“Sendan dor yog‘ochi tiklanar baland, Tobutga aylanar tanang, dardlaring…”* misralarini tahlil qiling. **Aytgancha, daraxtdan beshik ham yasalishini unutmang…**

ERTANI O‘YLAB

To hayot bulog‘in yopilmay ko‘zi,
Avlodlar qalbiga to‘lsin deb lim-lim,
Onalar mozorning boshiga bordi,
Otalar yo‘l oldi dor ostiga jim.

To o‘lmasin deya keyingi avlod,
Asrab qolsin deya yurtning shonini,
Dushmanning o‘qini yedi otalar,
Volidalar ichdi jigar qonini.

Or-nomus qoldirib ketdi otalar,
Oriyat yo‘lida taslim etib jon.
Ota ruhi rozi bo‘lsin deb farzand,
O‘lsa ham, nomusin etmadi payhon.

To hayot, to abad turtinmasin deb,
O‘tganlar toqati to‘lgan, toq edi.
Onalarning ko‘rgan kunlari qaro,
Go‘daklarning ichgan suti oq edi.

Odil Ikrom tarjimasi

Keling, muhokama qilamiz

1. She’rda otalar va onalarning qanday xislatlari ta’kidlanadi? Misralardan misollar keltirib, fikringizni to‘ldiring.
2. *“Onalar mozorning boshiga bordi, Otalar yo‘l oldi dor ostiga jim”* misralari orqali shoir nima demoqchi? Bu misralarning she’rdagi umumiy mazmunga ta’siri haqida fikr yuriting.
3. She’rda *“or-nomus”* va *“oriyat”* tushunchalari qanday talqin qilinadi? Ularning avlodlar uchun ahamiyati nimada?
4. *“Go‘daklarning ichgan suti oq edi”* misrasida muallif qanday ramziy ma’noni ifodalagan deb o‘ylaysiz? *“Qaro”* va *“oq”* so‘zlari bilan ifodalangan qarama-qarshilik she’r mazmunini anglashda qanday ahamiyatga ega? Nima uchun?



Qoraqalpoq adabiyotidan namuna

KENGESBOY KARIMOV

(1948)

Qoraqalpog‘iston xalq shoiri, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Kengesboy Karimovning “Oraliqlar”, “Vaqt minorasi”, “Unutilgan oy”, “Mening derazalarim”, “Oroldan keldim” va “Ko‘ngil mulki” kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan. Orolbo‘yida yashagan matonatli xalqning jasur yo‘lboshchisi Og‘abiy haqidagi “Og‘abiy” roman-dilogiyasi qoraqalpoqlarning yaqin tarixi haqidagi muhtasham asardir.



YOSHLIK SO‘QMOG‘I

Qachon yurgan edim, bilmam, izingdan:
Ko‘ngil bergan dushvor ko‘ngil topmog‘i,
Qancha orzu-armon ko‘rdim o‘zingdan,
O meni chorlagan yoshlik so‘qmog‘i.

Uzoq o‘ylanibman sochimni tarab,
Bir kuni negadir oynaga qarab,
Yuragim o‘rtandi bir nima so‘rab,
Sarobdek porlagan yoshlik so‘qmog‘i.

Ko‘rsam qizil guldek nozanin qizni,
Xayol olib qochdi, unutdim o‘zni,
Go‘zallik mahliyo ayladi bizni,
Yurakka o‘rlagan yoshlik so‘qmog‘i.

Lol aylab sumbul soch, lola yonoqlar,
Qalam qosh, xipcha bel, g‘uncha dudoqlar,
Sohibjamol qizlar – baland dimog‘lar
G‘o‘r qalbni “xo‘rlagan” yoshlik so‘qmog‘i.

Duch kelib muhabbat atalmish tuyg‘u,
Dildan orom qochdi, yo‘qoldi uyqu,
Ko‘kdan oyni olmoq – xomxayol qayg‘u
Necha yil o‘rtagan yoshlik so‘qmog‘i.

Uzoq sirlashuvlar, oshiq-ma’shuqlar,
Ko‘ngilda ochilgan oltin eshiklar,
Maktublar, ilk she’rlar, to‘ng‘ich qo‘shiqlar
Bulbuldek zorlangan yoshlik so‘qmog‘i.

Sog‘inch-u hijronni solib oraga,
Orzuga ergashib ketgan qal’aga,
Qara, tanirmisan, qora bolaga,
Necha yil ko‘rmagan yoshlik so‘qmog‘i.

Rustam Musurmon tarjimasi

Keling, muhokama qilamiz

1. She’rdagi ustuvor tuyg‘ularni qanday nomlagan bo‘lardingiz: *sog‘inch, iztirob, mehr, orzu, umid, ilinj, armon…* Nima uchun?
2. She’rdagi *“yoshlik so‘qmog‘i”* jumlasi orqali muallif qanday tuyg‘u va xotiralarni tasvirlamoqda? Bu obrazning ramziy ma’nosi nima?
3. She’rning oxirgi bandidagi “*qora bola*”da qanday ramziylik ifodalangan? Sababini tushuntiring.
4. Qanday tuyg‘ular uchun *“ko‘ngilda ochilgan oltin eshiklar”* mavjud? Nima uchun?
5. *“Yuragim o‘rtandi bir nima so‘rab”* satridagi *“bir nima”* nima bo‘lishi mumkin? Shoir nimani sog‘ingan, siz ham bunday hisni boshdan kechirganmisiz?
6. She’r sizga nimalarni qadrlashni eslatib qo‘ydi? Nima uchun?

Ijodiy ish

Quyidagi ikki ijodiy ishdan birini tanlab bajaring.

1. Xurshid Rasulovning **“Yoshlik bizni tashlab ketadi”** qo‘shig‘ini tinglang. Qo‘shiqni **karaoke** uslubida aytib berishga tayyorlaning.
2. “Yoshlik bizni tashlab ketadi” qo‘shig‘i bilan “Yoshlik so‘qmog‘i” she’rini qiyoslang. Qo‘shiq va she’rdan olgan taassurotingizni yozing.

7

Tavsiya

“Yelkadosh tog‘lar” ruknida berilgan she’rlardan bittasini yod oling.



Alisher Navoiy (1441–1501)

Dars davomida:

– xamsachilik an’anasidagi o‘ziga xos xususiyatlar va xamsanavis ijodkorlar haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz;

– “Farhod va Shirin” dostonining syujeti, bosh g‘oyasi va ramziy timsollarini tahlil qilamiz.

XAMSANAVISLIK AN’ANASI

Aziz o‘quvchi! Siz quyi sinflarda Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lgansiz. Endi esa buyuk mutafakkirning xamsachilik taraqqiyoti va xamsanavislikka qo‘shgan hissasi bilan tanishasiz.

“Xamsa” asarini birinchi bo‘lib ozarbayjonlik ulug‘ shoir Nizomiy Ganjaviy (1141–1209) bitgan. Nizomiy 1170–1204-yillar oralig‘ida birin-ketin besh doston yozdi, bu dostonlar shoir vafotidan so‘ng yaxlit bir to‘plamga birlashtirilib, “Panj ganj” (“Besh xazina”) deb atala boshladi va “Xamsa” nomi bilan mashhur bo‘ldi.

Keyinchalik asli keshlik (shahrisabzlik) ijodkor Xusrav Dehlaviy (1253–1325) Nizomiy “Xamsa”siga javob yozdi va shu bilan xamsanavislik an’anasini boshlab berdi.

XV asrda yashagan aksariyat shoirlar “Xamsa”ga javob bitishga harakat qilgan bo‘lsa ham ko‘pi bir yoki bir necha doston bitoldi xolos. Bu davrda faqat ikki buyuk ijodkor – Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning “Xamsa”larigina xamsachilik tarixidan munosib o‘rin egalladi. Keyinchalik Abdurahmon Jomiy besh dostonga yana ikki doston qo‘shib, “Haft avrang” (“Yetti taxt”) deb qayta nomlaydi.

Xamsanavislik an’anasi talablariga ko‘ra, yozilayotgan har bir doston avvalgi shunday *dostonlarga mavzusi, obrazlar tizimi, she’riy o‘lchovi kabi* jihatlari bilan muvofiq kelishi kerak edi. Shu bilan birga, doston original, yangi asar sifatida namoyon bo‘lishi ham lozim edi.


“Xamsa” dostonlari quyidagi mavzularda bo‘lishi talab etilgan:



Alisher Navoiy ushbu an’anaga javob sifatida 1483–1485-yillarda turkiy tilda birinchi marta “Xamsa” asarini bitib, **turkiy tilning imkoniyatlarini amalda isbot etdi**. U an’anaviylik doirasidan chiqib ketmagan holda yangi asar yaratishdek mushkul ishni ustalik bilan uddaladi. Xususan, ustozlari Xusrav va Shirin muhabbati vasfiga bag‘ishlagan ikkinchi dostonni Farhod va Shirin haqida yozib, xamsanavislikni yangi mavzu bilan boyitdi. Jumladan, xamsachilik an’anasini davom ettirish oson emasligini “Farhod va Shirin” dostonida quyidagicha bayon etgan:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasig‘a panja urmoq.
Kerak sher ollida ham sheri jangi,
Agar sher o‘lmasa, bori palangi.

Alisher Navoiy beshligi quyidagicha nomlanadi:



“Xamsa” Alisher Navoiy badiiy-irfoniy qarashlarining cho‘qqisi bo‘lib, unda shoirning **komil inson, haqiqiy ishq, mukammal jamiyat, adolatli hukmdor** haqidagi qarashlari to‘laqonli aks etgan.

Bilib oling!

Komil inson – nafsni yenggan, ezgu axloq va ilohiy bilimlar bilan yetuklikka erishgan, o‘zini va Haqni anglagan, shariat va tariqatda kamol topgan, xalq va Haq o‘rtasida vositachilik qiluvchi, jamiyatga foydasi tegadigan yuksak shaxsdir.

MUTOLAADAN OLDIN

“Xamsa” tarkibiga kiruvchi ikkinchi dostonning bosh qahramoni **Xusrav Parvez** tarixiy shaxs bo‘lib, milodiy 590-yilda taxtga o‘tirgan. 628-yilda o‘g‘li Sheruyaning buyrug‘i bilan o‘ldirilgan. Uning oromiy yoki arman qizi Shiringa muhabbati ko‘plab tarixiy asarlarda qayd etilgan. Badiiy adabiyotda Xusrav va Shirin muhabbati haqida birinchi bo‘lib Firdavsiy “Shohnoma” dostonida yozib qoldiradi. Nizomiy esa uni alohida ishqiy-sarguzasht doston holiga keltiradi. Nizomiyning shu mavzudagi dostoniga javob yozgan Xusrav Dehlaviy esa asarini “Shirin va Xusrav” deb atadi.

Alisher Navoiy bu mavzudagi dostonida avvalgi dostonlarda ikkinchi darajali timsol tarzida talqin qilingan **Farhodni bosh qahramon sifatida tasvirladi.** U xamsanavis ustozlar qo‘llagan syujet chizig‘ini asosan saqlab qoladi. Xusrav, Shirin, Shopur, Sheruya va boshqa qahramonlarni o‘zgartirmagan bo‘lsa-da, o‘z asari orqali ijtimoiy va irfoniy qarashlarini ifodalashni bosh maqsad qilib olgan edi. Farhod timsolida zamona shahzodalariga o‘rnak bo‘ladigan, shu bilan birga, majoziy ishq (insonning insonga muhabbati) orqali haqiqiy (ilohiy) ishqqa yetishgan oshiq obrazini yaratishga erishdi. Bu Navoiyning ushbu dostondagi, umuman, xamsachilikdagi katta yangiligi edi.



Navoiyning 54 bobdan iborat “Farhod va Shirin” dostoni 1484-yilda yozib tugallangan. Dostonning 11 bobi muqaddima (kirish)dan iborat bo‘lib, 12-bobdan asosiy voqealar boshlanadi.

Bilib oling!

Avom ishqi

Yigit bilan qizning bir-biriga bo‘lgan, tabiiy ehtiyoji asosiga qurilgan va nikoh bilan yakunlanadigan intilishidir.

Xoslar ishqi (majoziy ishq)

Bunday ishqqa mansublarning ko‘zi, niyati va ko‘ngli pok bo‘ladi. Ular uchun visol emas, ishqning o‘zi – maqsad. Ular yor qiyofasida Alloh jamolini ko‘radi.

Siddiqlar ishqi

Valiylar – avliyolardan yuqori, ammo nabiylar, ya’ni payg‘ambarlardan pastroq darajadagi yetuk shaxslarning Yaratganga beg‘araz muhabbatidir.

Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida ishqni *avom ishqi, xoslar ishqi, siddiqlar ishqi* tarzida uch darajaga bo‘ladi.

Topshiriq

Quyi sinflarda o‘qilgan mumtoz va zamonaviy asarlardan avom ishqi, xoslar ishqi, siddiqlar ishqiga doir misollar to‘plang.

FARHOD VA SHIRIN

(Doston)

Topshiriq

Chap tomonda dostonning asl matni, o‘ng tomonda esa uning nasriy bayoni berilgan. Sinfdan bir o‘quvchi (yoki o‘qituvchi) asl matnni, yana bir o‘quvchi esa nasriy bayonni ovoz chiqarib o‘qiydi. Asl matndagi so‘zlarning nasriy bayondagi ma’nosiga diqqat bilan qarash tavsiya qilinadi.

12-bobdan parcha

Asl matn	Nasriy bayon
Bu deboyi chiniy yuzin xitoyi soz naqshlar bila munaqqash qilmoq va ul xitoyi naqshlarni monuviy tiroz gullar bila dilkash bezamoq va bu guliston sahnida xoqoni Chin masnadi ehtishomin yoymoq va aning ehtishomi hadiqasi nasab guli va farzand mevasidin o‘zga jami’ azhor va favokih bila muzayyan erkonin aytmoq va dard bog‘i g‘unchasi va balo chamani shukufasi, ya’ni shahzoda Farhodning adam shabistonidin vujud gulshanig‘a kelganini qalam bulbuli tilidin sayramoq.	***Bu xitoyi harirni chin naqshlari bilan naqshlamoq va u chin naqshlarini Moniyning mo‘jizakor qalamida chizilgan gullar bilan dilkash qilib bezamoq va bu guliston sahnasida Chin xoqoni taxti hashamatini yoymoq va xoqoni Chin ta’rifida, uning bo‘stonidagi daraxtlar farzand mevasidan bebahra ekanini aytmoq va shahzoda Farhodning yo‘qlik xonasidan borliq gulshaniga kelganini qalam bulbuli tilidan kuylamoq.***
Bu chiniy hullag‘a bo‘lg‘on raqamkash, *Yuzin bu tarh ila qildi munaqqash*	Chiniy ipak matolarga ziynat beruvchi san’atkor uning yuz tarafiga quyidagi tartibda naqshlar chizdi:
Ki, Chin mulkiki, rashki naqshi Chindur, *Savodi g‘ayrati xuldi barindur.*	Chin mamlakati o‘sha chinlik naqqoshlar chizgan rasmlarning ham rashkini keltiradigan darajada go‘zal bo‘lib, hatto jannat bog‘lari ham unga hasad bilan boqardi.
Shahe erdi muazzam xoni oning, *Dema xoni oning, xoqoni oning.*	Ana shu Chin mulkining shohi shunday ulug‘ xon ediki, uni xon emas, xoqon deb atasa ham bo‘laverar edi.

Iki olamcha mulki vus'at ichra, *Yeti garduncha taxti rif'at ichra.*	Mulkining kengligi ikki olamcha, taxtining yuksakligi esa yetti osmoncha edi.
Sipohi yer yuzida qum hisobi, *Ne qum, gardun uza anjum hisobi.*	Qo'shini yer yuzidagi qumlardan, balki osmondagi yulduzlardan ham ko'p edi.
Tajammul onda Afriduncha yuz ming, *Xizona maxzani Qoruncha yuz ming.*	Uning dabdabasi Eron shohi Faridunning davlatidan, xazinalari Qorunning xazinalaridan yuz ming marta ko'p edi.
Uluvvi dargahi gardun misoli, *Qayu gardunki, andin dog'i oliy.*	Uning oliy qasri osmon misoli, balki undan ham yuksak edi.
Mo'g'ul qullar kibi ollinda xonlar, *Bo'lub kishvardihi kishvarsitonlar.*	Mo'g'ul xonlari uning oldida qullar kabi turar, boshqa o'lkalarni bosib olib yuruvchi shohlar unga o'lka berib kun ko'rar edilar.
Kafining bazli Ummondin ham afzun, *Javohir sochmog'i kondin ham afzun.*	Kaftining saxiyligi dengizdan ham keng, gavharlar sochib in'om berishi esa har qanday kondan ziyoda.
Dema kondin, degil imkondin ortuq, *Nekim yo'q ondin ortuq, ondin ortuq.*	To'g'rirog'i, uning saxovati kondan emas, imkondan ortiq, buni nimaga qiyos qilmang, hammasidan ustun edi.
Zamona toqi ofoq aylab oni, *Bari xonlar aro toq aylab oni.*	Shunday qilib, zamona uni dunyoda yakka-yagona qilib, barcha xonlar orasida esa bemisl qilib yaratgan edi.
Aningdek fard etib charxi kuhangard *Ki, bir farzanddin ham aylabon fard.*	Qadimdan buyon tinmay aylanib turuvchi dunyo uni shunchalik yolg'iz yaratgan ediki, hatto farzandi ham yo'q edi.
Mukallal mehr durri birla toji, *Aning bir o'zga durga ehtiyoji.*	Shuning uchun ham uning toji quyosh injusi bilan bezalgan bo'lsa-da, uning boshqa bir durga ehtiyoji kuchli edi.
Murodi bog'i yuz guldin barumand, *Vale ul o'zga gulga orzumand.*	Uning murod bog'i yuz guldan bahramand bo'lsa ham, biroq xon boshqa bir gulga orzumand edi.

Yuzidin ravshan aylab nuri kavnayn, *Anga ko‘zdin uchub bir qurratul-ayn.*	Uning yuzidan har ikki dunyo nur olsa ham, ammo ko‘zi bir ko‘z qorachig‘iga uchib turar edi.
Debonkim: “Chun jahonning yo‘q vafosi, *Emas mahkam amal qasri asosi.*	Xon o‘ziga o‘zi der edi: “Jahonning vafosi yo‘q. Amal qasrining asosi ham mustahkam emas.
Baqo ayvoni ko‘p oli emastur, *Havodisdin jahon xoli emastur.*	Hayot o‘tkinchi, dunyo esa turli hodisalardan xoli emas.
Kishi gar qilsa ming yil podsholiq, *Jahon mulkiga aylab kadxudoliq,*	Agar kishi ming yil podshohlik qilib, butun yer yuziga xo‘jayinlik qilganda ham,
Chu tortar oqibat jomi fanoni, *Borur dam fahm etar bir damcha oni.*	Oxir-oqibatda yo‘qlik jomidan may ichadi va bu dunyodan ketar oldidagina uning bir nafaslik ekanini tushunib yetadi.
Shahikim, ko‘kka chiqqay taxt-u johi, *Gadokim, taxta kiz bo‘lg‘ay panohi,*	Shunda taxti martabasining ulug‘ligi ko‘kka yetgan shoh ham, bir taxta kigiz parchasini boshpana qilgan gado ham,
Baqo tufrog‘idin silkar zamon yeng, *Bu dog‘i ul ikisi teng durur, teng.*	Borliq tuprog‘idan qo‘l silkib ketar ekan, ularning ikkalasi ham teng ekani, bir-biridan farq qilmasligi ma’lum bo‘ladi.
Ne chekkay ko‘kka boshin tojdori *Yo‘q ersa bir dur andin yodgori.*	Shunday ekan, o‘zidan so‘ng bir inju – bir farzand yodgor qoldirmagan tojdor qanday qilib boshini yuqori ko‘tarib yura oladi?!
Valaddur ul dur-u volid sadafdur, *Sadaf, ya’ni oto-u dur xalafdur.*	Bola inju bo‘lsa, ota o‘sha injuni qo‘ynida saqlovchi sadaf. Ya’ni ota – sadaf-u bola undan dunyoga kelgan zurriyotdir.
Sadaf yo‘q, bahr aro gar bo‘lmas inju, *Ani bil, bir nihoyatsiz achig‘ su(v).*	Dengizda sadaf va inju bo‘lmasa, u qanday qilib dengiz deb ataladi? U chegarasiz bir achchiq suv bo‘lib qoladi xolos.
Ne achchig‘ suvki, masti vahshatoyin, *Labida kaf, yuzida mavjdin chin.*	Achchiq suv bo‘lganda ham shundayki, mast odamga o‘xshab og‘zidan ko‘piklar sachratib, yuzini mavjdan ajinlar bosib, turli vahshiyliklar qiladi.

Chamanda sarv bas ra'no shajardur, *Yo'q andin naf', chunkim besamardur.*	Chamandagi sarv ko'p go'zal daraxt, lekin mevasi bo'lmagani uchun undan naf yo'q.
Shajarkim juz latofat shevasi yo'q, *O'tun o'rnidadur gar mevasi yo'q.*	Go'zallikdan boshqa xususiyati bo'lmagan daraxt, mevasi bo'lmasa, o'tin o'rnidadir.
Yog'indin gar bulut yetkurmasa sud, *Havoda ul hamon-u bir qalin dud.*	Agar bulut yomg'iri bilan foyda yetkazmasa, u havoda uchib yurgan qalin tutun bilan barobardir.
Chaqinkim yorudi anvori oning, *Chu o'chti, qolmadi osori oning.*	Chaqin chaqqanda yorug'ligigina ko'rinadi, o'chdimi, asari ham qolmaydi.
Agar o't o'chsa bo'lmas g'ussa yutmoq, *Chu axgar qoldi osondur yorutmoq.*	O't o'chsa, qayg'urmasa ham bo'ladi, chunki o'rnida qolgan cho'g' bilan yana o't yoqish oson.
Men o'ldum ul tengizkim gavhari yo'q, *Va yo ul o'tki oning axgari yo'q.*	Men o'sha gavhari yo'q dengiz yoki cho'g'i yo'q o'tman.
Tengiz yo'qkim, g'adiri vahshatangez, *Qayu ul o'tki, yovshondin bo'lur tez.*	Yanada to'g'rirog'i, men dengiz ham emas, vahshat bilan qoplangan ko'lman, yashin tushib alanga olgan o'tman.
Bu o'tlug'din erur bag'rimda dog'im, *Qurutmosun debon davron o'chog'im.*	Bag'rimdagi dog'lar shu o'tdan qolgan. Davr o'chog'imdagi o'tni butunlay o'chirmasin, deb bag'rimdagi cho'g'ga o'xshagan dog'larni asrab yuraman.
Zihi hasratki, men yillar yutub qon, *Bo'lub Chin-u Xito mulkida xoqon.*	Qanday ayanchliki, men yillar davomida qon yutib, Chin va Xito mamlakatida xoqonlik qilgan bo'lsam-da,
Bu foniy dayrdin bo'lg'ach xiromim, *Kelib begonaye tutqay maqomim.*	Bu foniy dunyodan ketganimdan so'ng bir begona odam kelib joyimni egallasa!
Ayoq qo'yg'ay firosh-u bistarimg'a, *Ilik sung'ay sipoh-u kishvarimg'a.*	U mening ko'rpa-to'shagimga, yotog'imga oyoq bosib, qo'shinimga, yurtimga qo'l cho'zsa,
Shabistonim aro orom qilg'ay, *Zamona subhi irzim shom qilg'ay.*	Tungi istirohatgohimda orom olsa, bu hol zamona mening musaffo tongimni shom qilgani emasmi?!
Manga yig'moqta yetgay mehnat-u ranj, *Anga separg'a qolg'ay maxzan-u ganj.*	Men bu xazina va boyliklarni qancha mehnat, mashaqqatlar bilan yig'gan bo'lsam, uning ishi bu xazina va boyliklarni sochish bo'ladi.

Aodiy ta'n-u afsusinmu aytay, *Eranlik nang-u nomusinmu aytay?* *O'g'ulsizlig'din o'ldi bu shikanjim* *Ki Haq daf' aylagay bu dard-u ranjim.* *Bu qattig' vartada ilgimni tutqay,* *Ko'zumni bir xalaf birla yorutqay".* *Bu erdi muttasil guft-u shunidi,* *Xudoyidin o'g'ul erdi umidi…*	Dushmanlarimning ta'na va afsus yedirishlarini aytaymi? Erlik sha'nimga bo'ladigan nomus-orni aytaymi? Mening bu azoblarim hammasi o'g'ilsizlik tufayli bo'ldi. Qani endi Xudo o'zi bu dard-alamlarimni bartaraf etib, Bu qiyin holatda qo'limdan tutib, o'rnimni egallaydigan bir farzand bersa-da, ko'zim charaqlab ochilsa". Xonning muttasil gapiradigan gap-so'zi, Xudoyimdan tilagani bir o'g'il edi…

Tadqiq qiling!

Nasriy tabdilga tayanib, quyidagi so'zlarning izohini yozing:

So'zlar	Ma'nosi	So'zlar	Ma'nosi	So'zlar	Ma'nosi	So'zlar	Ma'nosi
Anjum		*Xalaf*		*Munaqqash*		*Kadxudoliq*	
Barumand		*Havodis*		*Tajammul*		*Muazzam*	
Mukallal		*Kaf*		*Varta*		*Rif'at*	

Keling, muhokama qilamiz

1. Chin saltanatining tasviriga diqqat qiling: uning bunday mamlakatga aylanishiga shu yurt xoqoni va xalqidagi qaysi fazilatlar sabab bo'lishi mumkin deb o'ylaysiz?
2. Asarda Chin xoqonining mulki va qudrati qanday tasvirlanadi? Misollar keltirib, asoslang.
3. Chin xoqonining qo'shini ta'rifida *"Sipohi yer yuzida qum hisobi, Ne qum, gardun uza anjum hisobi"* misralari keltiriladi. Ushbu o'rinda Navoiy qaysi badiiy tasvir vositasidan oqilona foydalangan?
4. Saxovati aks etgan misralar orqali xoqonning shaxsiga baho bering. Navoiy nima uchun undagi bu xislatni alohida ta'kidlagan? Matndan misol keltirib, fikringizni dalillang.
5. Farzandsizlik iztirobi aks etgan misralardan xoqonning ichki kechinmalariga xos nimalarni tuydingiz? Shuningdek, xoqon o'zini nimalarga qiyos etganini aniqlang. Nega u shunday xulosaga kelganini tushuntiring.
6. Dostondagi farzandsizlik motivini xalq og'zaki ijodi, xususan, "Alpomish" dostonidagi shunday motiv bilan qiyoslash mumkinmi? Fikringizni misollar asosida tushuntiring.

Topshiriq

1. Dostonda farzand nimalarga o‘xshatilganini aniqlab, yozing. Nega bunday ramz va o‘xshatishlar qo‘llangani haqida mulohazalaringizni bildiring.

2. Quyida “Farhod va Shirin” dostonining Anvar Hojiahmedov tomonidan tayyorlangan nasriy bayoni (2) berilgan. Uni o‘qing. Mutolaa jarayonida noaniq tushunchalarni daftaringizga qayd etib boring va keyingi darsda sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

FARHOD VA SHIRIN

2

Bilib oling!

Mumtoz adabiyotda arab yozuvi asosida yashirilgan ismni topishga asoslangan badiiy san’at yoki lirik janr ***muammo*** deyiladi.

Nihoyat xoqonning orzulari ushalib, o‘g‘il ko‘rish baxtiga muyassar bo‘ldi. Xursandligidan ko‘pdan ko‘p javohir-u oltinlarni xalqqa ehson qildi, butun mamlakat bezatilib, bir necha kun bayram qilindi. Chin ahli uch yil davomida soliq to‘lashdan ozod qilindi. Shodligi ichiga sig‘magan podsho farzandiga yaxshi bir ism qo‘ymoqchi bo‘ldi. Chaqaloqning yuzida “farri shohiy”, ya’ni shohlik nuri porlab turardi. Bu nur soyasi ostida esa himmat, iqbol hamda davlat o‘rin olgan edi. Shoh “far” so‘ziga *himmat, iqbol va davlat* so‘zlarining bosh harflarini qo‘shgan edi, Farhod ismi hosil bo‘ldi. Bolani ana shu ism bilan atadilar-da, ipak matolarga o‘rab beshikka beladilar. Lekin bu ismni otasigina qo‘ygan emasdi. Chaqaloqning pokiza zotini ko‘rgan ishq ham unga Farhod ismini qo‘ygan va uni *firoq, rashk, hajr, oh va dard* so‘zlarining bosh harflaridan tanlagan edi.

Farhod o‘z tengdoshlaridan boshqacharoq bo‘lib, kechalari yaxshi uxlay olmasdi, doya unga ichirgan har qatra sut ma’no duri bo‘lib singardi. Bir yoshga yetganida u beshikni tark etib, yura boshladi. Uch yoshida aniq, ravon so‘zlaydigan bo‘ldi. Lekin uning so‘zlari asosan ishq afsonalaridan iborat edi. Uch yasharlik chog‘idayoq o‘zini o‘n yoshli bolalardek tutar, bundan barcha hayron bo‘lardi. Otasi o‘g‘lining bu sifatlarini ko‘rgach, unga ilm berish vaqti yetganini angladi. Bilimli, donishmand bir ustozni topib kelib, Farhodni o‘qitishga kirishdi. Uch oy deganda bolaning savodi chiqdi. Shundan keyingi bir yil ichida, avvalo, Qur’onni yod oldi. Barcha o‘qiganlari uning xotirasida qolar, bir varaqni ikkinchi bor ochmasdi. Muhabbat haqidagi asarlarni o‘qiganida qattiq ta’sirlanib, oshiq chekkan dard uning qalbiga alam-iztirob solardi. Bu kitoblardan ta’sirlangan Farhod biron kishining ko‘zida yosh ko‘rib qolsa, zor yig‘lar, ustoz uning bu ishlaridan lol qolardi. Otasi bilan onasi uning bu holatini ko‘rib, qanday chora topishni bilishmas, xalq ham shahzodaning ahvolidan xabar topib, tashvishlanardi. Shu tarzda uning yoshi o‘nga yetdi.

Jahonda u o‘rganmagan, ma’nosini anglab o‘zlashtirmagan biron ilm qolmadi. O‘n yoshli Farhodda yigirma yashar yigit kuchi-qudrati bor edi. Endi u ilm olishni tugallab, harbiy hunarlarni kasb etishga kirishdi. Oz fursatda jangovar san’atlarni ham egallab – o‘q otish, nayza sanchish, qilichbozlik, qalqon bilan jang qilish mahoratlarini egallab, el orasida tanildi. Farhod ilm va harbiy sohada erishgan yutuqlariga qaramay, o‘zini barchadan kamtar tutar, uning uchun podsholik bilan gadolikning farqi yo‘q, hatto gadolikni podsholikdan yuqoriroq qo‘yardi. Yigitchaning ko‘ngli bilan ko‘zigina emas, balki tili ham, so‘zi ham, o‘zi ham pok edi. Ana shu xislatlari uchun fuqarolar ham uni doim duo qilishar, u tomonga nogoh bir sovuq shamol essa, Chin mamlakatining barcha xalqi sovuq oh chekishardi.

Farhod yigit yoshiga yetdi. Lekin tug‘ma ishq ta’sirida doimo g‘amgin, alam va dardlar bilan ko‘milgan edi. Buning sababini o‘zi ham tushuntirib berolmas edi. Otasi uning g‘amlarini aritmoq uchun turli tomoshalar, bazmlar, ziyofatlar uyushtirdi. Foydasi bo‘lmadi. Shunda xoqon Farhodning ko‘nglini olish uchun yilning to‘rt fasliga moslab to‘rt oliy qasr qurdirish fikriga keldi. Farhodning atobegi, ya’ni tarbiyachi-ustozi Mulkoro bu ishga ma’mur etib tayinlandi. Xitoyning mashhur me’mori Boniy, naqqoshi Moniy hamda tosh yo‘nuvchi Qoran qurilishga jalb etildilar. Farhod qurilish bo‘layotgan yerga kelib ustalarning ishlarini ko‘rdi. O‘z hunarlarini mislsiz san’at darajasiga yetkazgan, toshni ham sariyog‘dek kesayotgan uch ustod ishidan hayratga tushdi. U shunchaki kuzatuvchi, tomoshabin bo‘lib qolmasdan ularning hunarlarini o‘rganishga kirishdi. Oxiri shu darajaga yetdiki, bu kasblarni ustozlari darajasida o‘zlashtirdi, hatto ba’zisidan o‘zib ham ketdi.

Nihoyat bahor, yoz, kuz va qish fasliga moslab qurilgan shohona qasrlar bitdi. Xoqon ularda bir yillik bazm tadorigini ko‘rishni buyurdi. Maqsad – o‘g‘lidagi g‘amginlikni ketkazish. Farhodda esa o‘zgarish yo‘q – o‘sha-o‘sha mahzun edi. Xoqon farzandidagi qayg‘uni ketkizish uchun, shuningdek, o‘g‘lining har tomonlama kamolotga yetganidan mamnun bo‘lib, shohlikni qabul qilib olishi va taxtga o‘tirishini so‘raydi. Farhod esa bu taklifni odob bilan, asosli uzrlar keltirib, davlatni boshqarish ishlarini o‘rganish uchun muhlat so‘raydi. O‘g‘lining oqilona javobidan behad xursand bo‘lgan shoh unga mamlakat xazinasini ko‘rsatadi. Xazinadagi g‘aroyib bir sandiq uning diqqatini jalb etadi. Xoqon bu sandiqni ochishlarini istamaydi. Shoh qancha harakat qilsa ham, shahzoda shunchalik o‘jarlik qilardi. Xoqon ilojsiz qolib, sandiqni ochish haqida buyruq beradi. Sandiq ichidan yaltiroq bir ko‘zgu chiqdi, Sharq quyoshigagina emas, balki Iskandar oynasiga o‘xshardi u. Ko‘zguni bezagan usta orqasiga uni ko‘rish siri haqida shunday deb yozib qo‘ygan edi:

“Bu ko‘zgu jahonnamo bo‘lib, Iskandari Rumiyning jahon ahliga qoldirib ketgan yodgorligidir. Har biri Aflotunga teng to‘rt yuz olim bir necha yil mehnat qilib, bunday jahon hikmatini yasagan. Unga tilsim yashirilgan bo‘lib, ko‘zguni ko‘rmoqchi bo‘lgan kimsa bu tilsimni yechib ko‘zguni qo‘liga olsa-yu, unga ko‘z tashlasa, Tangri unga belgilab qo‘ygan taqdirdan ogoh bo‘ladi. Lekin ko‘zgudagi tilsim sirini ochish juda qiyin. Bunga erishmoqchi bo‘lgan in-

son Yunon mamlakatiga borishi, o‘sha manzilda uchta ofatni yengib o‘tib, baland tog‘ oldiga yetib borishi kerak. Bu uch ofatning biri ajdaho, ikkinchisi Ahraman degan dev, uchinchisi oldingi ikkala ofatdan ham mushkulroq tilsimdir. Ana shu uch manzildan o‘tib olgan kishi to‘rtinchi manzil bo‘lgan tog‘ ichiga kirib, g‘orda maskan tutgan Suqrot degan donishmand olimni topishi kerak. U dono mo‘ysafid agar tirik bo‘lsa, borgan kishini murodiga yetkazadi. Agar u hayot bo‘lmasa, uning ruhiga iltijo qilinsa, ko‘zlangan maqsadga erishiladi”.

Bu yozuvni o‘qigan shahzoda ko‘zgu sirini ochishga qiziqib qoldi. O‘z maqsadiga yetish yo‘lida o‘g‘li chekayotgan iztiroblardan xabar topgan xoqon uni bu muddaosidan qaytarishga har qancha urinsa ham, Farhod o‘z orzusidan voz kechmasdi. Ota ham, o‘g‘il ham qiyin bir ahvolda qolgan edi. Farhod ko‘zguda o‘z taqdirini ko‘rish orzusida hatto es-hushini yo‘qotish darajasiga yetib qolgandi. Xoqon o‘g‘lini qamab qo‘ymoqchi ham bo‘ldi, yana bu fikridan voz kechib, shahzoda ko‘ngliga ozor yetkazmaslik uchun Xito va Chin mamlakatlaridan lashkar to‘plab, Yunonistonga yurish qilish, o‘sha yergacha unga hamrohlik qilib, o‘g‘lining ahvolidan xabardor bo‘lib turishni maqbul deb bildi.

Shahzoda otasining rozilik berganidan xursand bo‘lib, vazirga safar tayyorgarligini ko‘rishni topshirdi. Har tomonga jar solinib, lashkar to‘plashga kirishildi. Tez orada mamlakatning har tarafidan behisob lashkar yig‘ildi. Xoqon Yunon mulki sari yurish boshladi…

Manzilga yetib kelgach, xoqon va shahzoda Farhod Suqrotni topish uchun yunon olimlari bilan birga donishmand Suhaylo hakim huzuriga boradilar. Necha yuz yildan beri Farhodni kutayotgan Suhaylo hakim unga Iskandari Rumiy tilsimini ochish uchun ajdaho va Ahraman devni yengishi kerakligini aytadi. Badaniga va qo‘llariga surib olsa, ajdar og‘zidan otiladigan o‘tdan himoya qiladigan samandar yog‘ini berib, Ahramanning bo‘ynidagi taxtachada tilsim ochish sirini bilishini, tilsim ichidan esa Jamshid jomi chiqishini, unda yozilganlarni o‘qisa, Suqrotni topish yo‘lidan xabardor bo‘lishini, Suqrotni ko‘rgach esa, ko‘zgu sirini aniqlay olishini aytib, vafot etadi. Farhod ajdahoni o‘ldirib, g‘ordagi xazinalarni otasiga sovg‘a qiladi, so‘ng Ahraman devni yengib, Sulaymon uzugini oladi. Uzuk turgan joyda esa “Bu uzuk kimga muyassar bo‘lsa, unga yozilgan ismni o‘qib, Iskandari Rumiy tilsimini ochadi va bu ish qiyinchiliklarini yengib o‘tish yo‘llarini bilib oladi”, – deb yozilgan edi. Farhod qasrdan olgan barcha xazinani xoqon va Mulkoroga taqdim etib, Iskandar tilsimini ochish uchun keyingi vazifaga kirishadi.

Otiga minib yo‘lda borar ekan, bir go‘zal maysazor namoyon bo‘ldi. U yerda hayot chashmasidek ajoyib bir buloqdan zilol suvlar otilib turardi. Qirg‘oqdagi yam-yashil daraxt ko‘kka bo‘y cho‘zib turar, buloq bilan daraxt hayot suvi-yu Xizr payg‘ambarga o‘xshardi. Bularni ko‘rib ko‘ngli yayrab ketgan shahzoda otini daraxtga bog‘ladi-da, chashmaga tushib cho‘mildi, keyin murodiga yetkazishni tilab, sajdaga bosh qo‘ydi. Ibodatini tugatib, boshini ko‘targan ediki, ro‘parasida yashil kiyingan nuroniy bir mo‘ysafidga ko‘zi tushdi. Farhod hayron bo‘lib turganiga e’tibor bergan otaxon so‘z boshladi:

“Ey farzand, murod-maqsadlaringga yetib, baxtiyor bo‘lgil. Men – Xizrman, … ushbu vodiyda ham tilsim mavjud bo‘lib, uni ochishda senga yordam bermoqchiman. Sening yo‘lingda bahaybat bir tilsim uchraydi, uning devorlari osmonga tutashib ketgan. O‘sha joydan o‘n ikki ming qadam yurasan. Yo‘lning ikki chekkasida keskir qilichga o‘xshash toshlar o‘rnatilgan bo‘lib, yo‘ldan salgina chiqqan odamning oyog‘ini kesib yuboradi-da, u o‘zini yana ushbu chashma oldida ko‘radi. Yana o‘n bir ming qadam bossang, yo‘lda bir darband (darvoza) ko‘rinadi, oldida bir sher temir zanjir bilan bog‘lab qo‘yilgan. Uning oldidan o‘tgach, qo‘rg‘ongacha yana ming qadam yo‘l qoladi. To‘qqiz yuz qadam bosganingda, bir toshtaxtaga ko‘zing tushadi. Uning ustiga chiqib tepsang, qal’a darvozasi ochiladi-da, ichida temirdan odamga o‘xshatib ishlangan bir jism ko‘rinadi. U qo‘liga temir yoy ushlab turgan bo‘ladi. Yoyga o‘tkir bir o‘q qadalgan. Ushbu jism boshdan oyoq temir sovutda bo‘lib, ko‘ksiga bir oyna qadalgan, u quyoshdek yarqirab turadi. Odam yuz qadam yerdan unga o‘q otib, oynani teshib yuborsa, haykal ham, devor ustida turgan yuzta shunday jism ham qulab, yerga yiqiladi. Shunda tilsim ham ochilib, ichkariga qo‘rqmay kirish mumkin bo‘ladi. Lekin o‘q xato ketib, haykal ko‘ksidagi oynani sindirolmasa, u bilan devor ustida turgan yuzta haykal otgan o‘qlar o‘sha odamga tegib, ilma-teshik qilib yuboradi. Mening so‘zlarimni uqib olgan bo‘lsang, ularni esingdan chiqarma, qadamingni sanab bos, ismi a’zamni tilingdan qo‘yma. Sher og‘zini ochganida, uzukni uning og‘ziga ot, uni daf qilgach, yana uzukni olib, men aytgan toshgacha yurib borgin-da, tosh ustiga chiqib, uni tepib, darvozani ochgach, darhol qo‘lingga o‘q-yoyni ol, ismi a’zamni aytib turib haykalga o‘q ot”. Bu so‘zlarni tugatgach, Xizr: “Endi hech qo‘rqmay, yo‘lga tush”, – dedi.

Farhod mo‘ysafid aytgan ishlarni bajarishga jo‘naydi. Iskandar qal’asiga yetib borgach, Xizr aytganidek ishlarni qilib, qal’aga kiradi. Iskandarning u yerdagi yetti iqlimni egallab topgan davlatining barini, jumladan, Jamshid jomini ham xoqonga tuhfa qiladi. Ertasi kuni tong otgach, Farhod Suqrot g‘ori bo‘lgan tog‘ tomon yo‘lga chiqadi. Uning orqasidan xoqon va lashkarning bir qismi ham yetib boradi.

Ular kirgan uyda bir parcha nur porlab turar, bir mo‘ysafid o‘tirardi. Bu zotni ko‘rgan shoh bilan shahzoda ta’zim qilib, oldida yer o‘pdilar. U Farhodga yaqinroq kelishni buyurdi, uning yuziga sinchkovlik bilan tikilib, ba’zi narsalar haqida so‘radi, so‘ngra shahzodaga qarab: “Huzurimizga xush kelibsan, qorong‘i uyimni ravshan qilding. Men bu tog‘ ichida seni ming yildan beri kutib, qadamingga intizor edim. Alhamdulilloh, yuzingni ko‘rdim. Vaqtimiz oz, chunki abadiylik ko‘chasiga yo‘l olishim kerak. Bilginki, jahon azaldan vaqtinchalik, foniydur. Hayotdan maqsad esa ikkitadir, biri o‘zlikdan qutulish, ikkinchisi esa Alloh visoliga yetishishdir. Xudoni topish uchun esa o‘zlikdan voz kechish zarur. Buning eng yaxshi chorasi esa majoziy ishqdir. Ana shunday ishq sening oldingda turibdi. Unga erishsang, haqiqiy ishqqa ham yetishasan. Otangga o‘xshagan yuz ming xoqon-u podsho unutilib ketadi, lekin sening yaxshi noming ishq olamida mangu qoladi”, – dedi-da, unga turli balolardan asraydigan bir duoni o‘rgatdi.

“Sening bu tomonlarga kelishing uchun sabab bo‘lgan ko‘zgu masalasiga kelsak, – dedi Suqrot, – Iskandar tilsimini ochib, temir haykal ko‘ksidagi oynani sindirgan chog‘ingda o‘sha ko‘zguning tilsimi ham ochilgan edi. Bu yerdan jo‘nab, Chin mamlakatiga yetib borganingdan keyin ko‘zguni

ko‘rishni istaysan, albatta. Shunda orqasiga yozilgan gaplar uning yuzida namoyon bo‘ladi. Uni ko‘rar ekansan, ishq ko‘nglingdan o‘rin olib, oshiqlik davring boshlanadi. Keyin ko‘zguga har qancha qarasang ham, unda aks etgan narsalarni qayta ko‘rolmaysan. Ishq o‘tidan ko‘ngling o‘ti osmongacha yetadi, lekin hech kim senga yordam berolmaydi, ammo oxiri o‘z murodingga yetasan, shunda meni ham yod etishni unutmaysan, deb umid qilaman”.

Suqrot shu so‘zlarni aytib, hayotdan ko‘z yumadi. Suqrotni dafn etgach, ertasiga ertalab barchalari Chin sari yo‘lga tushadilar.

Xoqon, Farhod, Mulkoro va lashkarlar kechani kecha, kunduzni kunduz demay, to‘xtovsiz yo‘l bosib, nihoyat Chin diyoriga qadam qo‘yishdi. Xoqon o‘z taxtini egalladi, Farhod esa oromini yo‘qotib, xazina kalitlarini oldi-da, eshiklar ochilishi bilanoq beqaror bo‘lib, sirli ko‘zgu sari yugurdi. Billur sandiqni kalit bilan ochdirdi-yu, ichidagi ko‘zguni qo‘liga olib, unga nazar tashladi. Ko‘zguda ajib bir dasht namoyon bo‘ldi. Xilma-xil gul-u lolalarga, sunbul-u binafshalarga, ko‘m-ko‘k maysazorlarga to‘la bu dasht oxirida bir tog‘ osmonga bo‘y cho‘zib turar, uning ichida son-sanoqsiz odamlar ariq qazish bilan ovora edi. U odamlar orasida Farhodning o‘ziga o‘xshagan bir yigit ham tog‘ni kesish bilan band edi.

Bir payt tog‘ ichiga bir-biridan go‘zal bir to‘da go‘zal qizlar kirib kelishdi. Ularga gul yuzli bir qiz rahbarlik qilardi. Boshqa qizlar oy bo‘lsalar, bu ular ichidagi quyoshga o‘xshardi. Ot ustidagi bu sohibjamol qiz Farhodga o‘xshagan yigit oldiga qarab yurdi. Shahzoda timsoli qizning yuziga boqdi-yu, yaralangan ohu kabi nola qilib, yerga yiqildi. Bu holatni tomosha qilayotgan Farhod ko‘zguni yaqinroq keltirib, unda ko‘ringan qiz jamoliga diqqat bilan boqdi-yu, o‘z timsoliga o‘xshab hushidan ketib yiqildi.

Sevgilisini izlab yo‘lga chiqqan Farhod uning Arman yurtidan ekanini safarda topgan do‘sti – musavvir, naqqosh Shopurdan eshitadi. U yerga borishgach, metindek toshlardan iborat tog‘ni kesish mashaqqatiga mahkum odamlarni ko‘rishadi. Ular tog‘ni kesib, uning narigi yog‘idan suv olib o‘tishlari kerak edi. Afsuski, uch yil zahmat cheksalar-da, ishda siljish bo‘lmagan. Bu topshiriqni elning ardoqli malikasi Mehinbonu va jiyani Shirinning orzusini ro‘yobga chiqarish uchun sidqidildan bajarayotgan edilar.

Farhod o‘zi hozirlagan asboblar bilan ariq qazishga kirishib, toshlarni xuddi sel qumni olgandek osonlik bilan ko‘chira boshladi, so‘ng bahaybat toshlarni metin bilan urib maydaladi. Farhod o‘sha kuniyoq toshlarni kesib, ariqning bir qismini tayyor qildi. Ikki yuz toshkesar usta uch yil ichida bunday ishni bajara olmagan edi. Uning qilgan ishlari elga ovoza bo‘lib, Mehinbonuga qadar yetib bordi. U go‘zal jiyani huzuriga bordi-da: “Senga ajoyib bir xabar keltirdim: sening istagingga ko‘ra ariq qazilayotgan tog‘ ichida bir yigit paydo bo‘lib, ajoyib ishlar qilayotgan emish. Uch yilda bitmagan ishni o‘zi bir kunda bajaribdi”, – dedi. Mehinbonudan bu so‘zlarni eshitgan Shirin noma’lum yigit qilayotgan ishlarni borib ko‘rish istagini bildirdi.

Mehinbonu bilan ikkovi otlarga minib, tog‘ tomon yo‘l olishdi. Ular bilan birga to‘rt yuz kanizi ham borardi. Gulgun ot ustida borayotgan parivash g‘oyat sohibjamol edi. Mehinbonu bilan jiyani tog‘ qaziyotganlar makoniga yetgach, Farhod ishlayotgan joy yaqiniga borishdi-da, yuqoriroq bir tepalikdan turib tomosha qilishdi…

Qizning olamni bezatuvchi jamolini ko‘rgach, o‘zini ko‘zguda maftun aylagan va es-hushidan ayirgan parivash shu ekanini bilgan Farhod fig‘on chekib yerga yiqildi. Birozdan so‘ng Mehinbonu bilan Shirin Shopurni oldilariga chaqirdilar-da, Farhod haqida so‘radilar. U o‘z do‘sti haqida bilganlarini so‘zlab bergach, Mehinbonu bilan Shirin zor-zor yig‘lashga tushishdi. Keyin Farhodni shohona taxtiravonga solib, saroy tomon yo‘l olishdi. Farhod ikki kecha-yu ikki kunduz goh-gohida nafas olib, behush yotdi. Uchinchi kechada saroy ahli uyquda ekan, o‘ziga keldi-da, atrofiga boqib, shohona taxt ustidagi o‘rinda shoh kabi yotganini ko‘rdi. Uyalganidan terga botdi-da, uydan chaqmoqdek sakrab chiqdi-yu, sevinganicha tez-tez yurib, biyobondan o‘tib, ariq qazilayotgan manzilga yetib bordi. Tun-u kun tinmay ariq qazir ekan, dam olishni bilmas, uning ishlarini tomosha qilishga kelgan to‘da-to‘da odamlarning keti uzilmasdi.

Oz fursat o‘tib, ariqning boshi qasr quriladigan joyga yetdi. U yerda Farhod toshlarni kesib, to‘rt tomoni oltmish qari[1]ga teng bo‘lgan hovuz qurdi. Farhod ikki qulog‘ini yo‘lga tutib Shirinning kelishini intizorlik bilan kutar ekan, xalq uning holini ko‘rib, ko‘z yoshlarini to‘xtatolmasdi. Bir payt uzoqda to‘tiyorang chang ko‘tarildi. Ko‘rganlar bu gard go‘zallar sultoni Shirinning ot choptirib kelayotganidan darak ekanini sezishdi. Odamlarni suv boshidan, malika bilan Farhod oldidan nari surishdi. Farhod o‘zini tutib olgunicha oldiga Shirin yetib keldi. U yuziga niqob tutib olgan bo‘lsa ham beqiyos go‘zalligi shundoqqina ko‘rinib turardi. Farhod suvning eski yo‘lini to‘sib, yangi ariq tomon oqizdi. Mehinbonu bilan Shirin qasr oldiga suvdan oldinroq yetib borish uchun ot surib ketishdi.

Bir mahal uning charchagan oti yurmay to‘xtab qoldi. Shirin uni majbur qilsa, oyoqlari chirmashib, o‘zi yiqilishi mumkin edi. Shunda Farhod bu xavfni sezib tez yetib keldi-da, engashib ot ostiga kirib, bir qo‘li bilan uning oldingi ikki oyog‘ini, ikkinchi qo‘li bilan keyingi ikki oyog‘ini mahkam tutganicha ko‘tarib oldi. Ikki-uch yig‘och[2] yo‘lni tezlik bilan



Dostonga ishlangan miniatyura.
Rassom Mahmud Farshchiyon (Eron)

[1] **Qari** – bir metr chamasidagi o‘lchov birligi.
[2] **Yig‘och** – uzunlik o‘lchovi. Bir yig‘och masofa taxminan 12 ming metrni anglatadi.

bosib o‘tib, qasr va hovuz oldiga yetib kelib, otni yerga qo‘ydi. Bu payt ariqdan kelgan mo‘l-ko‘l suv hovuzni limmo-lim to‘ldirdi-da, qasrni aylanib olib, shahar tomon yo‘l oldi. Ariqqa “Nahr ul-hayot”, ya’ni “Hayot daryosi”, hovuzga “Bahr un-najot”, ya’ni “Najot dengizi” deb nom berdilar.

Shunday kunlarning birida ularning boshiga bir tashvish tushdi. O‘sha ayyomda Arab va Ajam mulkining Xusrav degan hukmdori bo‘lib, Madoyin shahri uning poytaxti edi. Uning xotini ham, o‘g‘li ham bor edi-yu, Xusrav bu farzandini taxtga munosib ko‘rmasdi. U o‘z taxtini yaxshi bir farzandga topshirishni istab, bu maqsadga yetishish uchun o‘ziga munosib qizni qidirishga tushgan edi. Bu paytda Shirinning ovozasi, uning husni, odobi haqidagi gaplar Xusravga ham yetib borgan edi. Bu sohibjamol qizga tosh kesuvchi bir yigit shaydo bo‘lib, uning ishqi yo‘lida ajoyib ishlar qilganidan ham u xabardor edi. Xusrav tezlik bilan Armaniya sari yo‘l olishga ahd qildi. Buzurg Ummid degan dono vaziri bilan maslahatlashdi. Vazir unga borishdan avval Mehinbonuga xat yo‘llashni, bu xatga javob kelgach, qilinadigan ishlar haqida o‘ylashib ko‘rishni maslahat berdi. Buzurg Ummidning bu so‘zlarini ma’qul ko‘rgan Xusrav donishmand bir kishini topib, xatni uning qo‘liga topshirdi-da, Mehinbonu huzuriga yubordi...

Mehinbonu sovchilarni yaxshi ziyofat qilib, sovg‘a-salomlar berib, podshohga duoyi salomlar yo‘llab, bir bahona to‘qidi. Aytdiki, Shirinning fe’li o‘g‘il bolalarnikidek, o‘q otib, ov qilib yuradi. Unga turmush qurish haqida gapirishning hech iloji yo‘q, bu haqda gap boshlaguday bo‘lsangiz, o‘zini o‘zi nobud qilishi ham ehtimoldan xoli emas. Xusrav sovchi keltirgan bu gaplarga ishonmadi, avvalgidan ham bir tundroq sovchi yuborsa, u ham shu javob bilan qaytdi. Bu bir necha bor takrorlandi. Xusrav g‘azab otiga minib, Mehinbonu mamlakatiga yurish qilishga qaror qiladi. Bu xabarni darhol Mehinbonuga yetkazadilar. Xusravning bu o‘lkaga hujum qilishi ehtimolini oldindan ko‘ra olgan malika shaharni himoya qilish choralarini ko‘rishga ulgurgandi.

… Mehinbonu bilan Shirin Farhodni voqeadan xabardor qilib, undan qo‘rg‘onga kirishini iltimos qilishdi. Farhod ularning so‘zlarini yerda qoldirmay qo‘rg‘onga kirdi-yu, qal’a tashqarisidagi bir katta tosh ustida joylashib, jang bo‘ladigan bo‘lsa, Xusrav askarlari boshiga tosh yog‘dirishga tayyor bo‘lib turardi. Farhod o‘zi turgan manzilga yaqinlashayotgan dushman askarlarini ko‘rib, ularga qarab tosh ota boshladi. U otgan ikki tosh shohning dubulg‘asi uchini va bayrog‘i uchidagi shaklni uchirib yubordi.

Xusrav ko‘ngliga iztirob tushib, nima deb javob qilishni bilmay qoldi. Askarlari oldida ham, qal’adan qarab turgan odamlar oldida ham xijolat bo‘lganicha, sayridan ko‘zlagan maqsadiga erisholmay, qo‘shini turgan manzilga qaytdi. Buzurg Ummid bilan maslahatlashib, makkor afsungarni topishdi-da: “Agar sen devona yigitni yo‘qotish chorasini topa olsang, hisobsiz oltinga ega bo‘lasan”, – deyishdi. Afsungar: “Uni makr bilan shunday aldayki, hushidan judo bo‘lib, o‘likdek yiqilsin. Lekin uni bu yerga qanday olib kelish chorasini topa olmayapman”, – dedi. Xusrav: “Sen uni behush qilsang, sovut kiygan yuz sipoh yashiringan joyidan chiqib, uni bu tomon olib keladi”, – dedi. Xusravning bu so‘zlarini eshitgan u makkor o‘zini es-hushini yo‘qotgan odam qiyofasiga

kiritib, yashnab turgan xushbo‘y gullardan uzib oldi-da, uning barglari orasiga behush qiladigan dori sepib, Farhod manzili tomon yo‘l oldi. Devonalardek qadam tashlab, oshiqlardek faryod qilib kelayotgan bu odamning ovozini eshitgan Farhod uning yoydek egilgan qomatini ko‘rib hushidan ayrilishiga oz qoldi. Ko‘nglini iztirob o‘rtab, unga: “Ey dard bilan o‘rtangan oshiq, bu yerlarda nima qilib yuribsan, qaysi parivashni ko‘rib, bunday devona bo‘lding? Men falakdan zulm ko‘rgan edim, sen nega fig‘on chekyapsan?” – dedi. Hiylagar uning ishonganini ko‘rib: “Ey ishq elining podshohi, men falon joydanman, bir go‘zalning ishqi meni devona qilgan edi. Sevgilimni goh yiroqdan, gohida oshkora ko‘rib turardim. Xusrav qo‘shini shaharni qamal qilgach, men qal’adan tashqarida qolib ketdim. Shaharga kirmoqchi bo‘lib darvozaga yaqinlashsam, boshimga o‘q bilan tosh yog‘dirishmoqda. Bu xil qiyinchiliklardan o‘lar holatga yetdim. Bir dardkashim ham yo‘q edi, seni eshitib, ahvolimni so‘zlab berish uchun qoshingga keldim”, – dedi. Uning so‘zlarini eshitgan Farhod oh tortib, ko‘zlaridan seldek yosh to‘kdi-da, tani zaiflashib yiqildi. Hiylagar uning holini ko‘rib, dori sepilgan gulni dimog‘iga tutdi. Keyin qichqirib, ishora bilan sipohlarni chaqirdi.

Bu paytda bir tosh ustida yotgan Shopur yomon tush ko‘rib, seskanib uyg‘ongach, Farhod tomon qarab, do‘sti behush yotganini, shaytonga o‘xshagan bir kimsa sipohlarni chaqirayotganini, ular har tarafdan Farhodga yaqinlashayotganini ko‘rdi va ish qo‘ldan ketganini sezib, Farhodning holiga ko‘zyosh to‘ka boshladi. Tepalikda turgan Shopur qoyadan bir toshni ko‘chirib oldi-da, u bilan makkorning boshiga urib o‘ldirdi.

Sipohlar Farhodni ko‘tarib, Xusrav dargohiga olib kelgach, shoh o‘zida yo‘q xursand bo‘lib, raqibining qo‘l-oyoqlarini zanjirband qilishni buyurdi.

Keling, muhokama qilamiz

1. Shahzodani mahzunlikdan chiqarish yo‘lidagi sa’y-harakatlarini tahlil qilib, xoqon shaxsiga baho bering. Shuningdek, asarda uning ismi keltirilmaganining sabablari haqida ham o‘ylab ko‘ring.
2. Otasi taklif qilgan toj-u taxtni Farhod odob bilan rad etganini qanday izohlaysiz? Tarix fani hamda tarixiy asarlardan olgan bilim va xulosalaringizga tayanib, Farhodni Mirzo Ulug‘bekning o‘g‘li Abdullatif mirzo bilan qiyoslang. Navoiyning maqsadini tushuntiring.
3. Farhod safari asnosida Xizr, Suhaylo, Suqrot kabi ustozlardan ta’lim oladi. Sizningcha, ulardan qaysi biri Farhod uchun haqiqiy piri komil, qalb sirlarini ochishda ko‘maklashuvchi ustoz bo‘ladi va nima uchun?
4. *“Dedi: Bu necha mazlumi sitamkash,*
   Falak bedodidin bo‘lg‘an alamkash

   Ki, vayronlig‘larida yuz xalaldur,
   Agar qilsam madad voqe’ mahaldur.

   Hunarni asrabon netkumdur oxir,
   Olib tufroqqamu ketgumdur oxir?”

Ushbu misralar orqali Farhodning qaysi ishga bel bog‘laganini nasriy bayon matniga tayanib aniqlang. Bilganlaringiz asosida Farhod shaxsiga baho bering.

5. Farhod otgan ikki tosh Xusravning dubulg‘asi uchini va bayrog‘i uchidagi shaklni uchirib yuborganida qanday ramziy ma’no bor? Tarixda bu holat nimaning alomati hisoblangan?

Guruhlarda ishlash

O‘zaro kelishgan holda uch guruhga bo‘lining. Quyidagilardan birini tanlab, bajaring:

1-guruh. “Farhod” ismini muhokama qiling: xoqon tavsifi (“farri shohiy”, ya’ni *shohlik nuri, himmat, iqbol va davlat* so‘zlarining bosh harflarini qo‘shgan)dagi har bir so‘zni sharhlang, nima maqsad ko‘zlanganini tushuntiring.

2-guruh. “Farhod” ismini muhokama qiling: ishq tavsifi (*firoq, rashk, hajr, oh va dard* so‘zlarining bosh harflari)dagi har bir so‘zga izoh bering, nima maqsad ko‘zlanganini sharhlang.

Eslatma: har ikki guruh muhokamasidagi tavsiflar Farhodning qaysi xatti-harakatlarida ko‘proq ko‘zga tashlanishini ham asoslab berish kerak.

3-guruh. Dostonda shahzodaning *ko‘ngli, ko‘zi bilan tili, so‘zi va o‘zi* ham pokligiga *(“Demon, ko‘ngli pok-u ham ko‘zi pok, Tili pok-u, so‘zi pok-u, o‘zi pok”)* urg‘u beriladi. Ayting-chi, poklik nima? **Ko‘ngil, ko‘z, til, so‘zi va o‘zi poklikni** qanday tushunasiz? Har biriga misol keltirib, fikr bildiring.

Tadqiq qiling!

Navoiy nima uchun tilsim ochish sirlarini aynan Yunoniston bilan bog‘lab talqin qilgan bo‘lishi mumkin? Turli manbalar, jumladan, antik dunyo tarixi bilan bog‘liq bilimlaringizga tayanib, fikringizni yozma bayon eting.

FARHOD VA SHIRIN

3

O‘ylab ko‘ring!

Sizningcha, ishq nima? Javobingizni asoslang.

Ko‘rsatma

Quyida Xusravning zanjirband Farhod bilan savol-javobi (dialogi) aks etgan. Xusrav va Farhod so‘zlarini hamda nasriy bayonni rollarga bo‘linib o‘qing.

Xusrav Farhodning jamoli-yu odobini ko‘rib, jazolashni ham unutdi-da, unga qarab so‘z ochdi. Farhod uning savollariga javob qaytara boshladi:

Asl matn	Nasriy bayon
Dedi: “Qaydinsen, ey majnuni gumrah?!” Dedi: “Majnun vatandin qayda ogah?”	Dedi: “Ey yo‘ldan adashgan telba, qayerdan kelding?” Farhod javob berdi: “Telba qayerdan kelganini qayerdan bilsin!”
Dedi: “Nedur sanga olamda pesha?” Dedi: “Ishq ichra majnunluq hamesha”.	Xusrav yana so‘radi: “Bu olamda sening hunaring nima?” Farhod javob berdi: “Hunarim doimo ishq yo‘lida telbalik qilishdir”.
Dedi: “Bu ishdin o‘lmas kasb ro‘zi!” Dedi: “Kasb o‘lsa basdur ishq so‘zi”.	U yana dedi: “Bu ish bilan tirikchilik o‘tmaydi-ku?!” Bu javob berdi: “Ishqning kuydirishi nasiba bo‘lsa, menga shu kifoya!”
Dedikim: “Ishq o‘tidin de fasona!” Dedi: “Kuymay kishi topmas nishona”.	Dedi: “O‘tli ishq afsonalaridan so‘ylab ber-chi!” Dedi: “Kishi o‘zi bu o‘tda kuymagan bo‘lsa, unga bu xil afsonalar ta’sir qilmaydi”.
Dedikim: “Kuymagingni ayla ma’lum!” Dedi: “Andin erur joh ahli mahrum”.	Dedi: “Bizga ayt-chi, sen o‘zing bu o‘tda qanday kuyyapsan?” Dedi: “Toj egalari bunday kuyishdan bebahradirlar!”
Dedi: “Qay chog‘din o‘ldung ishq aro mast?” Dedi: “Ruh ermas erdi tang‘a payvast”.	Dedi: “Sen ishq yo‘lida qachondan boshlab mast bo‘la boshlading?” Dedi: “Hali jonim tanim bilan qovushmagan edi!”
Dedi: “Bu ishqdin inkor qilg‘il!” Dedi: “Bu so‘zdin istig‘for qilg‘il”.	Dedi: “Kel, endi, sen bu ishqdan voz kech!” Dedi: “Yaxshisi, sen o‘zing bunday gapni aytishdan tavba qil!”

Dedi: “Oshiqqa ne ish ko‘p qilur zo‘r?” Dedi: “Furqat kuni ishqi balosho‘r”.	Dedi: “Oshiqni eng ko‘p qiynaydigan narsa nima?” Dedi: “Balolarga duchor qiluvchi ishq tufayli yuz bergan ayriliq kunlari!”
Dedi: “Ishq ahlining nedur hayoti?” Dedi: “Vasl ichra jonon iltifoti”.	Dedi: “Ishq ahli nima bilan tirik yuradi?” Dedi: “Yorga yetishganda uning iltifoti tufayli!”
Dedikim: “Dilbaringning de sifotin!” Dedi: “Til g‘ayratidin tutmon otin!”	Dedi: “Qani, sevgilingning sifatlaridan so‘zlab berchi!” Dedi: “Tilimdan rashk qilib, uning otini atamayman”.
Dedi: “Ishqig‘a ko‘nglung o‘rundur?” Dedi: “Ko‘nglumda jondek yoshurundur!”	Dedi: “Uning muhabbati sening ko‘nglingdan joy olganmi?” Dedi: “Ha, u ko‘nglimda jonimdek yashiringan!”
Dedi: “Vaslig‘a borsen orzumand?” Dedi: “Bormen xayoli birla xursand”.	Dedi: “Uning visoliga yetishni orzu qilasanmi?” Dedi: “Uning xayoli bilan xursandman!”
Dedi: “No‘shi labidin topqay el bahr?” Dedi: “Ul no‘shdin el qismidur zahr”.	Dedi: “Bordi-yu, uning asal labidan boshqalar bahra olsa, nima deysan?” Dedi: “Undan bahra olmoqchi bo‘lganlarning nasibasi zahar bo‘lg‘usidur!”
Dedi: “Joningni olsa la’li yodi?” Dedikim: “Ushbudir jonim murodi”.	Dedi: “Uning la’li labini eslayverib, joningdan ajralib qolsang nima bo‘ladi?” Dedi: “Jonimning istagi o‘zi shu-ku!”
Dedi: “Ko‘ksungni gar chok etsa bebok?” Dedi: “Ko‘nglum tutay ham ayla deb chok!”	Dedi: “U berahm ma’shuqang ko‘ksingni yorsa, nima qilarding?” Dedi: “Kel, ko‘nglimni ham yor, deb unga tutardim!”
Dedi: “Ko‘nglung fido qilsa jafosi?” Dedi: “Jonimni ham aylay fidosi”.	Dedi: “Bordi-yu, uning jafolari sening ko‘nglingni qurbon qilsa-chi?” Dedi: “Unga qo‘shib, jonimni ham qurbon qilaman!”
Dedikim: “Ishqdin yo‘q juz ziyon bud”. Dedi: “Bu keldi savdo ahlig‘a sud”.	Dedi: “Axir bunday ishqdan senga ziyondan boshqa narsa yo‘q-ku!” Dedi: “Ishq ahliga bundan boshqa foyda kerak emas!”
Dedi: “Bu ishq tarki yaxshiroqdur!” Dedi: “Bu sheva oshiqdin yiroqdur!”	Dedi: “Bunday ishqni tark etgan ma’qulroq emasmi?” Dedi: “Bunday qilish oshiqlar odatidan yiroqdir!"

Dedi: “Ol ganj-u, qo‘y mehrin nihoniy!” Dedi: “Tufroqqa berman kimyoni!”	Dedi: “Yaxshisi, bu ishni qo‘y. Men senga oltin xazinasini beray”. Dedi: “Men kimyoni bunday tuproqqa alishmayman!”
Dedi: “Joningg‘a hijron kinakashdur”. Dedi: “Chun bor vasl ummidi xushdur”.	Dedi: “Hijron tag‘in joningga o‘z dushmanligini ko‘rsatib qo‘ymasin!” Dedi: “Menda yor vasliga umid bor ekan, shuning o‘zi menga rohatdir!”
Dedikim: “Shahg‘a bo‘lma shirkatandesh!” Dedi: “Ishq ichra tengdur shoh-u darvesh!”	Dedi: “Ishqda shoh bilan sherik bo‘laman, deb o‘ylama!” Dedi: “Ishq yo‘lida shoh-u darvesh tengdir!”
Dedi: “Joningg‘a bu ishdin alam bor”. Dedi: “Ishq ichra jondin kimga g‘am bor?!”	Dedi: “Bu ishingdan joningga ko‘p alamlar yetishi turgan gap!” Dedi: “Ishq ichra bo‘lgan odam jonining tashvishini chekmaydi”.
Dedi: “Kishvar beray, kech bu havasdin”. Dedi: “Bechora, kech bu multamasdin!”	Dedi: “O‘zingga butun bir yurt beray. Lekin bu havasdan kech!” Dedi: “Ey bechora, sen o‘zing bunday iltimosdan kechib qo‘ya qol!”
Dedi: “Ishq ichra qatling hukm etgum!” Dedi: “Ishqida maqsudumg‘a yetgum!”	Dedi: “Ishq yo‘lida seni o‘limga buyuraman!” Dedi: “Men ham uning ishqida o‘z maqsadimga erishgan bo‘laman!”
Dedi: “Bu ishda yo‘q sendin yiroq qatl”. Dedi: “Bu so‘zlaringdin yaxshiroq qatl”.	Dedi: “Bu masalada sen o‘limga yaqinlashib qolding!” Dedi: “Bu so‘zlaringni eshitib o‘tirgandan o‘lim yaxshi”.

* * *

Farhod shohning har qanday qiyin savoliga osongina javob qaytarar ekan, Xusravning ichiga o‘t tushgandek bo‘lib: “Mendek shohga boshdan oyog‘igacha zanjirband bo‘lib turgan bu devona nimani so‘rasam, dag‘allik bilan javob qilyapti. Unga shunday bir jazo berayki, sultonlar oldida bunday so‘zlashga jur’at qilolmaydigan bo‘lsin!” – dedi-da, qal’a oldida bir dor tikishga, qadoqli qo‘llarini mahkam bog‘lab dorga osishga, keyin odamlarga buyurib, unga o‘q yog‘dirishga, xalqqa ibrat bo‘lsin uchun o‘ligi bir necha kun davomida osig‘liq turishiga, so‘ng esa jasadini o‘t bilan kuydirishga va kulini ko‘kka sovurishga buyurdi. Uning bu so‘zlaridan xursand bo‘lib ketgan Farhod kulumsirab shunday javob qildi: “Ey darg‘azab shoh! Dushmanimdan o‘ch olyapman, deb o‘ylamay qo‘ya qol. Sen buyurgan bu jazolar mening tilagim edi. Yorim ishqida o‘lishni istardim, bugun

Tangri shu orzumga yetkazdi. Sen g‘azablanganing sari men shodlanyapman. O‘limga buyurganingdan xursandman, chunki jonim azoblardan qutuladi. Meni o‘qqa tutish haqidagi farmoning ham mening asl muddaom edi, chunki bu jazo meni hijron alamlaridan ozod qiladi. Meni kuydirib, kulimni ko‘kka sovurishga qaror qilding. Sen firoq o‘tida kuyib kul bo‘lmagansan. Men esam hajr do‘zaxidan xalos bo‘laman, lekin shunisi qiziqki, shoh ishq o‘tida kuyib, iztirob chekib yurgan bir bechoraning muhabbati haqidagi gaplarni xalqdan eshitib, unga raqib bo‘lmoqchi. Yorni ko‘rmay turib, o‘ziga sodiq oshiq nomini berib, dahshatli qo‘shin to‘plab kelib, uning mulkini talon-toroj qilib, qancha odamni o‘ldirgan bu hukmdor o‘z raqibi bilan yuzma-yuz jang qilishga jur’at qilolmasdan hiyla bilan zanjirband etib, darg‘azab bo‘lgan holda uni savolga tutib, oshiqning bergan javoblariga chidamay, jazolashga buyruq beryapti. Shumi adolat, shumi shijoat? Agar hushyorligimda Xusrav menga ro‘para kelsa edi, sipohlari hozirgisidan yuz marta ko‘p bo‘lsa ham, men yigitlikni ularga ko‘rsatib, barchasining umr ipini uzgan bo‘lardim. Shunda g‘azabkor shoh ichidagi o‘tlar so‘nib, shijoat ilmini o‘rgangan bo‘lardi. Shoh men tomon sipohlar yo‘llaganida men ularning qonidan kechdim, Xusrav boshini ham omon qoldirdim. Endi u mening boshimga qasd qilyapti. Lekin Xitoy sari esgan shamol ahvolimdan xoqonga xabar yetkazsa, o‘g‘lining azoblab o‘ldirilgani, o‘tda kuydirilganidan ogoh bo‘lsa, qo‘shin bilan kelib, Madoyin shahrida tirik odamni qoldirmay, ularning tuprog‘ini Xitoy mamlakatiga tashitishi va Xusrav mulkidan asar ham qoldirmasligi muqarrar. Unda men begunoh bo‘lib, Xusrav gunohkor bo‘lishi va barcha vayronaliklarning sababchisi sifatida jazolanishi shubhasizdir. Men har qancha azob cheksam ham, bu so‘zlarni aytmagan bo‘lardim. Lekin Xusrav Parvezning nodonligi ana shunday vayronagarchiliklarga olib kelishi mumkinligini o‘ylab gapiryapman”.

Farhodning dor ostida bo‘yniga arqon solingan holda turishini ko‘rgan qo‘rg‘on ahlining dili vayron bo‘lib, o‘lar holatga yetishgan edi. Dushman tomonida esa Xusravning sipohlari yigitning donoligi, o‘lim oldida beparvo turishini ko‘rib, uning begunoh ekanligi, jazoga loyiq emasligini bilib, yig‘lab turishardi. Xusrav o‘z ishidan afsuslanayotgan bo‘lsa ham, buyrug‘ini bekor qilishga nomusi yo‘l bermasdi. Barcha voqeani kuzatib turgan Buzurg Ummid shohni xilvat bir joyga chaqirib: “Uni o‘ldirishimizga asos yo‘q. Es-hushidan ayrilgan odamni zindonda ushlash to‘g‘riroq bo‘ladi. Farhodning gunohi ozroqqa o‘xshaydi, devonaga o‘xshab ko‘rinsa ham, so‘zlari haqiqatga yaqinroq. Yaxshisi, baland tog‘lar orasidan bir joy topib o‘sha yerga qamasak, ikki-uch oy zindonda yotsa, ikki-uch yuz sipoh uni nazorat qilib tursa, ma’qul bo‘ladi. Rost so‘zlay boshlasa, tirik yursa ham uning ziyoni tegmaydi. Yolg‘on so‘zlayotganini sezsak, istagan ishimizni qila olishimiz mumkin”, – dedi. Bu so‘zlar Xusravga ham ma’qul tushdi. Tog‘lar ichida Salosil degan mustahkam bir qo‘rg‘onni topib, Farhodni o‘sha qal’a tomon jo‘natishdi-da, besh yuz sipohga uni ko‘z qorasiday saqlashni buyurishdi. Qo‘riqchilar Farhodni Salosil qo‘rg‘oniga olib borib, zindonga qamashdi. Uni qattiq nazorat ostida saqlashar, hatto qochib ketmasligi uchun yo‘liga olmos aralash qum to‘shab qo‘yishgandi. Xusrav Farhodni qochirib yuborganlarning kallasini chopib tashlash yoki qo‘rg‘on tepasidan uloqtirib yuborishga buyruq bergan edi. Qo‘riqchilar bundan qo‘rqib, doim hushyor turishardi. Lekin yigit chekayotgan oh-u faryodlarni eshitarkan, unga maftun bo‘lib qolgandilar.

Suqrot o‘rgatgan ismlar ichida bir ism bo‘lib, u o‘qilsa, kishanlar qayerga borsa ham xalal berolmay qolardi, yo‘lida har qanday mustahkam darvoza uchrasa ham ochilmay qolmasdi. Shu ismni

tilga olgan Farhodning bandlari yechilib, darvozalar ochilib, har kechasi qal'a va uning atrofida, tog‘-u dashtlarni aylanib kelardi. Soqchilar uyg‘onmay turib o‘z joyiga qaytgan Farhod kishanlarni yana taqib olardi. Chunki bu sirlar oshkor bo‘lsa, soqchilar Xusrav tomonidan turli jazolarga giriftor etilishidan qo‘rqardi u. Lekin sipohlar bu sirdan allaqachon ogoh bo‘lishgandi.

Farhodning sayrdan qaytgach, o‘zini yana bandga solayotganidan xabar topgan soqchilar bunday ishni qilmay, bemalol sayr etishiga ruxsat berishdi. Sevgilisidan ayrilib, iztirob chekayotgan Farhod tog‘-u dashtlarni kezar ekan, yirtqich va xonaki hayvonlar uning atrofini o‘rab olar, qushlar boshiga soya solarkan, barcha hayvon-u qushlar bilan so‘zlashib dardini bayon etardi. Ular ham oshiq yigit ahvolini ko‘rib faryod chekardi. Tong asta-sekin yorishib borarkan, Farhod subhga murojaat qilib: “Sen ham menga o‘xshaysan, yuzingda ko‘z yoshlaring namoyon, iching ham menga o‘xshab o‘rtanadi”, – dedi.

Kun yoyilib ketgach, tog‘-u dasht kezib, hijron alamiga chiday olmay g‘am-anduh chekar, devonalardek ko‘z yoshini to‘karkan, fig‘onidan tog‘larni ham bezovta qilardi. Farhod ayriliq o‘tida iztirob chekib, olam ko‘zlariga qorong‘i ko‘rinar, kunduzlari beorom bo‘lib tog‘-u dashtlarda kezib faryod chekardi.

Farhod kishanlardan qutulib, istagan tomonga borish imkoniyatiga ega bo‘lsa ham, nogahon Xusrav eshitib, soqchilarni jazolamasin, degan fikr bilan o‘z manzilidan ko‘p uzoq ketmasdi. Lekin bu ishlarning bari shoh qulog‘iga borib yetgandi. Darg‘azab bo‘lgan Xusrav soqchilarni qattiq jazoladi. Keyin Farhodning o‘sha yerda ekani o‘z manzilidan yiroqqa ketmayotganini bildi-da: “O‘zimni bilmaslikka olib, bu voqealarni eshitmagandek yurishim ma'qulga o‘xshaydi”, – degan qarorga keldi. Farhodni kishanda ko‘rgach esa yanada xursand bo‘ldi. Shoh makkorlik bilan Farhodni qo‘lga olgan paytda Shopur shaharga kirgan edi. U do‘stining ahvolini o‘ylab nola-yu faryod qilar, ko‘kragiga tosh bilan urib iztirob chekardi.

Keling, muhokama qilamiz

1. Munozarada Farhod nega Xusravga “*o‘tli ishq afsonalari*”dan so‘ylab bergisi kelmadi? Unga azob bergani uchunmi yoki boshqa sabablar ham bormi?
2. Xusravning “*Qay chog‘din o‘ldung ishq aro mast?*” degan so‘rog‘iga Farhodning javobini tahlil qiling. Jon bilan tan qovushmagan payt qachon?
3. Farhodning “*Tufroqqa berman kimyoni!*” degan so‘zlari ishqni kimyoga, boylikni tuproqqa qiyoslash orqali qanday ramziy ma'noni ifodalaydi? Uning boylik yoki saltanat taklifi kabi moddiy ne'matlarni rad etishi orqali Alisher Navoiy qanday ijtimoiy illatlarni tanqid qilmoqda?
4. Farhodning “*Til g‘ayratidin tutmon otin!*” (“*Tilimdan rashk qilib, uning otini aytmayman*”) deyishi oshiqning sevgilisiga nisbatan qanday munosabatini ko‘rsatadi? Bu so‘zlar ishqning sirli va xususiy tabiatini qanday aks ettiradi?
5. Munozaradagi “*Ushbudir jonim murodi*” yoki “*Jonimni ham aylay fidosi*” kabi javoblarni oshiqning butun borlig‘ini ishqqa bag‘ishlashining ramzi sifatida talqin etish mumkinmi? Nima uchun?

6. Farhodning ishq tufayli keladigan ziyon “*ishq ahliga foyda”* ekanini ta’kidlashi ishqning azobli, lekin oshiq uchun eng oliy maqsad ekanini qanday ochib beradi? Bu javob ishqning paradoksal tabiatini – azob va rohatning birligini qay darajada ko‘rsatadi?
7. Farhodning “*Ishq yo‘lida shoh-u darvesh tengdir!*” degan so‘zlari orqali Alisher Navoiyning ishq haqidagi falsafiy qarashlarini tushuntirishga harakat qiling.

Guruhlarda ishlash

To‘rt guruhga bo‘lining. Quyidagi to‘rt savoldan birini tanlab, guruhingizda muhokama qiling. Fikringizni taqdimotda ayting:

1. Munozarada kim g‘olib-u kim mag‘lub? Nima uchun? Kim kimdan qaysi omillar sabab yengildi deb o‘ylaysiz? Shu orqali Farhod va Xusrav shaxsiga baho bering. Javobingizni dalillar bilan izohlang.
2. Ushbu munozara asnosida ishq bilan manfaat o‘rtasidagi qanday ziddiyatlar, ishq falsafasi va shunchaki havas o‘rtasidagi yaqqol tafovutlar ochilgan? Bu ziddiyat bugungi kunimizda qanday ko‘rinishlarda va nima uchun uchraydi?
3. Xusrav darg‘azab bo‘lsa-da, Farhodni o‘ldirishga botina olmadi. Buning sabablarini aniqlashga urining. Bir nechta aniq sababni misol keltirib, fikringizni asoslang.
4. Farhodning Salosil qo‘rg‘onidagi xatti-harakatlariga munosabat bildiring. Shuningdek, uning dardini tinglagan qushlar, yovvoyi va xonaki hayvonlarning faryod chekishini tasvirlash orqali muallif nima demoqchiligini tushuntiring.

Tadqiq qiling!

Suqrot o‘rgatgan ismlar ichida bir ismi a’zam bo‘lib, o‘qilsa, qayerga borsa ham kishanlar xalal berolmay qolardi, yo‘lida har qanday mustahkam darvoza uchrasa ham ochilmay qolmasdi. Sizningcha, bu qanday ism edi? Ismi a’zam nimaligini turli manbalardan izlab ko‘ring.

Ijodiy ish

Quyidagi topshiriqlardan birini bajaring:

1. Dialogni sahnalashtiring.
2. Dialogni ovozlashtiring, ya’ni audio shakliga keltiring.

FARHOD VA SHIRIN

4

Farhodning hiyla bilan behush holda bandi qilingani, shoh savollariga oshiq yigitning qanday javoblar qaytargani, Xusrav gunohsiz raqibini qatl qilmoqchi bo‘lgani, bunga parvo qilmagan Farhodning aslida Xitoy-u Chin eliga xon ekani xalq orasida keng tarqalib ketgan edi. Shahar aholisi Xusravdan g‘azablanib, Farhodga maftun bo‘lgandi.

Bu xabarni eshitgan Shirin sevgilisiga xat yozishga kirishdi.

O‘ylab ko‘ring!

Kimgadir xat yozganmisiz? Nima maqsadda? Agar sir bo‘lmasa, unda nimalarni bayon qilgansiz?

“Nedur ahvoling, ey zori g‘aribim,
Visolim davlatidin benasibim?

Chekardin g‘am tog‘in holing nechukdur,
Bu yukdin jismi chun noling nechukdur?

Qatiq g‘urbat aro holing ne erkin,
Achiq furqatda ahvoling ne erkin?

Firoq ichra nechukdur jismi zoring,
Ne yanglig‘ to‘lg‘onur o‘t ichra toring?

Qoshim mehrobini yod aylagan dam,
Yangi oydek bo‘lurmu qomating xam?

Ko‘zum fikri ichingga solsa qayg‘u,
Balo har go‘shadin tug‘yon qilurmu?

Yuzum hajrida to‘ksa ko‘zlaring suv,
Quyosh ruxsorig‘a boqqung kelurmu?

Ko‘zung la’lim g‘amidin to‘ksa qon yosh,
Bo‘lurmu la’l ul qon birla har tosh?..

Chu sen topting Sulaymonliq maqomin,
Demon qil manga Bilqis[1] ehtiromin.

Agar Bilqisdek yor-u azizing
Bo‘la olmon, ham o‘lg‘aymen kanizing...

Ne bo‘lg‘ay erdi charxi zulmpesha,
Meni sendin judo qilmay hamesha...

Tikon kirsa kafingg‘a kinasidin,
Chiqorsam erdi kiprik ignasidin...

Ko‘rub xor-u xas o‘rnungda nihoni,
Sochim birla supursam erdi oni.

Chu bilsam garddin ko‘nglungda qayg‘u,
Yer uzra ashkdin[2] sepsam edi suv...

Tunungda sham’i majlis bo‘lsam erdi,
Kun o‘lsa yor-u munis bo‘lsam erdi...

Seni ko‘rsam edi nogoh-nogoh,
G‘amim yo‘q erdi billoh, summa[3] billoh.

Bu dam hamkim firoqingdin o‘lubmen,
Yuz o‘lgandin ham ortuqroq bo‘lubmen.

Hayotim vaslinga ummid ilandur,
Umid ul rahmati jovid[4] ilandur...”

[1] **Bilqis** – Sulaymon payg‘ambar ma’shuqasining nomi.
[2] **Ashk** – ko‘z yoshi.
[3] **Summa** – yana.
[4] **Jovid** – hamisha.

Shopur bu maktubni olib, Farhodni izlab topish uchun jo‘nadi. Odamlardan eshitgan yashirin yo‘llardan yurib, sahar paytida do‘sti qoshiga yetib bordi. U behush holda yotar, atrofini bir to‘da vahshiy hayvonlar-u qushlar o‘rab olgandi. Buni ko‘rgan Shopur do‘stining boshini qo‘yniga olib, faryod chekdi. Uning ko‘z yoshlari Farhodning yuziga gulobdek yog‘ilgach, ko‘zini ochib, o‘ziga keldi. Ikkala do‘st bir-birlarini quchog‘lab rosa yig‘lashdi. Bu holatni kuzatib turgan tog‘-u vodiy ham ko‘z yoshlarini to‘ka boshladi. Keyin Shopur qo‘ynidan maktubni chiqarib, do‘stining qo‘liga tutdi…

Maktubni o‘qib chiqqan Farhod goh o‘zini unutib fig‘on chekar, turib olib u yoqdan bu yoqqa sabrsizlik bilan yurib, gohida hushidan ketib qolardi. Oxiri u Shirin maktubiga javob yozishga ahd qildi, lekin qog‘oz, qalami yo‘q edi. Shopur buni oldindan o‘ylab, qog‘oz, siyoh va qalamni o‘zi bilan olib kelgan edi. Farhod o‘zini qo‘lga olib xatni yoza boshladi.

“Nigoro, mahvasho, iffatpanoho,
Jahon mahvashlarig‘a podshoho!

Sanga haddim yo‘q o‘lmoq nuktapardoz[1],
Tilarmen itlaringg‘a aytmoq roz…

Meningdek za’f[2] o‘tidin jonida o‘rt[3],
Yuzung ko‘rmak xayolidin ko‘zi to‘rt.

Vafo bobida ikkimizda da’vo,
Muhabbat shartida ham bizda da’vo.

Topib o‘z holatin bu notavonda,
Manga ulfat tutub ul ostonda…

Sening holing so‘rarg‘a qayda yoro,
Bas oning holin etsam oshkoro.

Bukim maktub aro durlar qilib darj[4],
Latoyif[5] naqdi ko‘p aylab eding xarj.

* Aning uzrida ojizdur bayonim*
Ki, har harfig‘a bo‘lsun sadqa jonim.

Deb erding menda ham ko‘ptur g‘am-u dard,
Bu so‘zdin kuydi joni dardparvard…[6]

G‘amingdindur manga tob-u tavon ham,
Erur darding chekardin quti jon ham…

Qayon erdim, qayon chekti jununum,
Junundin yova[7] so‘z bo‘ldi fununum[8].

Yozarda nomani hushumdin ozdim,
Junundin hech bilmonkim, ne yozdim.

Chu men devona o‘zdin erman ogoh,
Ne sahv[9] ettim raqam, astag‘firulloh.

Xato, afv et qalamg‘a bu raqamdin
Ki, majnunlar bo‘lur ma’fu[10] qalamdin…”



[1] **Nuktapardoz** – chiroyli gapiruvchi.
[2] **Za’f** – quvvatsizlik, xastalik.
[3] **O‘rt** – olov, alanga.
[4] **Darj** – kiritish, qadash.
[5] **Latoyif** – latofatli.
[6] **Dardparvard** – og‘riq, alam bilan yetishgan.
[7] **Yova** – foydasiz, aljirash.
[8] **Funun** – bilim, hunar, odat.
[9] **Sahv** – xato, yanglish.
[10] **Ma’fu** – afv etish, kechirish.

Farhod maktubni tugatdi-da, do‘stiga topshirdi. Shopur esa Shiringa maktubni yetkazdi. Ushbu maktubni Shirin iztirob chekib o‘qir ekan, qalbi tirnalar, Farhodining tirik ekanidan shodlanib, yerga bosh qo‘yar, chekayotgan azoblarini anglab, nola qilib, ko‘z yoshlarini to‘kardi. Xat mazmunini Mehinbonuga so‘zlab berganida malika ham g‘amga to‘ldi. Keyin Shopurga o‘z ehtiromlarini bildirib, izzat-ikrom ko‘rsatishdi. Undan Farhodning ahvolini birma-bir so‘rar ekanlar, ko‘z yoshlarini to‘xtata olishmasdi.

Shopur ikki sevishgan qalb sohiblarining maktublarini bir-biriga yetkazib yurar ekan, Xusrav bundan xabardor bo‘lib qoldi. Farhod bilan Shirinning o‘zaro kelishib, biron yoqqa qochib ketishlari mumkinligini, ularni qidirib topishganda ham bu pahlavon yigitni qo‘lga olish oson bo‘lmasligini o‘ylagan shoh o‘ziga otilgan toshni esladi. Farhodning har bir qadamini kuzatib yurish foydasizligiga ko‘zi yetgan Xusrav va Buzurg Ummid hiyla o‘ylab topishdi. A’yonlar ularning huzuriga bir hiylakor kampirni topib kelishdi… Unga bor gapni yashirincha bayon qildilar, hadsiz-hisobsiz mukofotni va’da qilib, Farhod tomon jo‘natdilar… Bu makkora bir necha kun mobaynida dasht-u vodiylardan o‘tib, Farhodning manzilgohi bo‘lgan tog‘ oldiga yetib bordi. Uni ko‘rgan Farhod darrov o‘rnidan turib salom berdi-da, bu tomonlarga kelishidan maqsadi nima ekanini so‘radi. Kampir: “Men el-u yurtimdan voz kechgan zaif, xastajon bir odamman. O‘n-o‘n besh yildan beri bir xilvat joyda yashab, toat-ibodat bilan mashg‘ul edim. Jahondagi biron kishi bilan ishim yo‘q, Tangridan o‘zga bir kishim ham yo‘q edi. Arman mulkida tinchlik-omonlik bo‘lganidek, mening holim ham xotirjam edi. Parvez otliq bir shoh kelib, elning tinchligini buzdi, sen bu haqda eshitgan bo‘lsang kerak. Elning ahvoli ham, mening hayotim ham o‘zgarib ketdi. U yerda toat-ibodat qilish qiyin bo‘lib qoldi. Shunda kechiktirmay eldan yiroqroq bir yerda yashay, umrim ham oz qoldi, o‘lsam o‘sha makondagi g‘or menga go‘r bo‘ladi, deb o‘ylab bu tomonga yo‘l oldim. Tog‘da kezib yurib, shu manzilni yoqtirib qoldim. O‘zim tog‘ ichida tirik bo‘lsam ham, umrdan qo‘limni yuvib qo‘yganman. Odamzod – vafosiz, uni eslashdan foyda yo‘q”, – dedi. Bu so‘zlarni eshitgan Farhod xursand bo‘lib, uning oldidagi tuproqni, keyin oyog‘ni o‘pdi-da, “Vafosizlik jahon ahlining odati. Biron ish seni xafa qilgan ko‘rinadi. Arman diyoridagi ahvol tufayli ko‘ngling g‘ubor topdimi?” – deb so‘radi.

Makkora: “Ey o‘g‘lim, gaplaring rost, bu mamlakatdan omonlik ketib, o‘rnini yomonlik egallagan. Mehinbonu bilan Xusrav yarashib, o‘zaro yaqin bo‘lib olishdi. Xusrav nikoh ishini oraga solgan edi, malika ham rozi bo‘la qoldi. Katta to‘y bo‘lib, mamlakat-u taxt may seli ostida qoldi. Solih odamlar shaharni tark etib, har yoqda zor-u sargardon bo‘lib yurishibdi, Shirin esa juda g‘amgin bo‘lib, faryod chekib o‘zini o‘ldirdi. Ba’zilar zahar ichgandir, deyishyapti. Uning Farhod degan bir dardmand sevgilisi bor ekan. O‘sha yigitdan ayrilganiga chiday olmay, uning ishqi bilan bu olamdan ko‘z yumibdi. O‘lim oldida ham Farhod nomi uning tilida ekan”, – dedi. U ushbu so‘zlarni aytar ekan, og‘zidan “oh”, “vodarig‘” degan iboralar to‘xtamay chiqardi. Bu afsonani eshitgan Farhodning ko‘ksiga yuz ming tig‘ urilgandek bo‘ldi.

Makkora kampirning hiylakorlik bilan aytilgan so‘zlarini eshitib, bag‘ri pora bo‘lgan Farhod tog‘ ichida faryod chekib borar ekan, holsizlanib yiqildi, turishga necha bor harakat qildi-yu, har safar yiqilaverdi. So‘ng qattiq tosh ustida talpinishga tushib, boshini toshlarga ura boshladi. Ajal ko‘ksini pora qilgan bu bechora yigitning ahvolini ko‘rib turgan vodiy-u tog‘lar zor yig‘ladi. Jismidagi yaralar qip-qizil gullarni eslatar, atrofidagi gullar esa o‘tlarga o‘xshardi. Farhod umri tugab borayotganini sezgach, otasi bilan onasini ko‘z oldiga keltirib, saboga xitob qilib, xoqonga, onasiga, Mulkoroga, Bahromga, Shopurga salom yo‘lladi…

Mudhish xabarni eshitgan shahar xalqi zor-zor yig‘lar ekan, Xusrav ham, Shirin ham eshitdi. Shoh o‘z raqibidan qutulgani uchun shod bo‘lsa ham, taqdirning undan o‘ch olishini o‘ylab g‘am chekardi. Keyin: “Bo‘lar ish bo‘ldi, endi sustkashlik qilish yaramaydi”, – degan qarorga kelib, Mehinbonu qoshiga sovchilarini jo‘natdi. Ular malikaga Xusravni ko‘klarga ko‘tarib maqtadilar va nikohga rozilik berishini so‘radilar. Mehinbonu saroyidagi a’yonlar ham Farhod vafotidan so‘ng dushmanlikni davom ettirishdan ko‘ra uning aytganlariga ko‘nish ma’qulligini ta’kidlashdi. Mazlum Farhod o‘limidan xabar topib, unga onalardek aza ochgan malika Mehinbonu Shirin ahvolini o‘ylardi. Jiyanining necha bor zahar ichmoqchi bo‘lgani, uning atrofidagi odamlar bilib qolib, bunga imkon berishmagani, o‘zini kuydirmoqchi bo‘lganida ham, odamlar bunga yo‘l qo‘yishmagani, malika qo‘ygan mulozimlar-u kanizaklar doim hushyor turib Shirin hayotini asrayotgani unga ayon edi. Bu payt qo‘rg‘ondagi bor oziq-ovqat tugab, xalq Mehinbonudan norozi bo‘la boshlagan, mamlakatning ulug‘ kishilari malikaga elning sillasi qurib, toqati toq bo‘layotganini, hatto shahar darvozalarini dushman qo‘shiniga ochib berishga ham tayyor ekanini aytishgan edi. Bu gaplardan so‘ng Mehinbonu Shirin oldiga keldi-da, unga xalq ichidagi mojarolarni so‘zlab berdi…

Shirinning ruxsatini olgan malika Xusrav elchilariga nikoh uchun roziligini aytdi, lekin qamal paytidagi qiyinchiliklar, hozirgi issiq kunlar tufayli Shirinning sog‘lig‘i yaxshi emasligini, shuning uchun biron xushhavo joyda dam olib, o‘ziga kelishi lozimligini ham ta’kidladi. Shundan keyin darvozalar ochilib, Xusrav qo‘shini shahar ichiga kirdi…

Shirin o‘z qal’asidan chiqib tog‘dagi qasr sari yo‘l olar ekan, Xusrav sipohlarining barchasi uni tomosha qilishga chiqqandi. Ularning orasida shahzoda ham bo‘lib, otasini uncha yoqtirmas, Xusrav o‘z o‘g‘lining ko‘ngliga qaramaganidek, o‘g‘ilga ham shohning fe’l-atvori ma’qul emasdi. Boshqalar qatori u ham Shirin borayotgan gulgun kajavaga mahliyo bo‘lib boqar ekan, birdan boshlangan shamol pardani ko‘tarib yubordi-yu, parivash qizning olamni o‘rtovchi husn-u jamolini ko‘rgan Sheruyaning ichiga ishq olovi tushdi-da, oromidan ayrilib, uyqusini yo‘qotdi, iztirobi kun sari kuchayib, o‘zi o‘lar holatga yetdi. Qanday tadbir bilan Shirin visoliga yetishishi mumkinligini o‘ylagan shahzoda otasini o‘ldirish bilan bu orzusiga erishishga bel bog‘ladi. Shunday xayollar bilan o‘ziga yaqin kishilarga yashirincha va’dalar berib, Xusravning qarindosh-u amaldorlarini ham o‘ziga qaratib oldi. Xusravning haddan oshgan zulmidan bezor bo‘lgan saroy ahli Sheruyaga qasamyod qilib, Xusravni zindonga tashladilar. Ko‘p o‘tmay, Sheruyaning buyrug‘iga ko‘ra zolim shoh qatl etildi. Taxtga chiqib, boshiga toj kiygan Sheruya bo‘lib o‘tgan bu voqeani Mehinbonuga so‘zlab berib, Shiringa o‘zi uylanmoqchi ekanini izhor qildi. Malika uning sog‘lig‘i yomonligini aytib, sog‘ayganida o‘zi bilganicha ish qilishi mumkinligini ta’kidladi. Johil Sheruya Shiringa maktub yo‘lladi.

Sheruyaning bu dag‘al so‘zlaridan g‘amga to‘lgan Shirin: “Uni ko‘rishdan menga o‘lim yaxshiroqdir”, – deb fikr qilar ekan, shoh so‘zlarini o‘ziga yetkazgan saroy a’yoniga: “So‘zlaringning barchasi ma’qul. Shohga mening duom bilan iltimosimni yetkazgin. Duodan so‘ng mana bu so‘zlarimni unga bayon qil. “Qazodan kelgan har bir ishga rozi bo‘lmay ilojimiz yo‘q. Xusravni o‘ldirish qazo hukmi bo‘lsa, sen nima ham qila olarding. Tangri bergan aql bilan ish tutganda, sening so‘zlaringga e’tiroz bildirish xato bo‘lur edi. Sen meni sevib qolganing kabi menga ham Farhodning ishqi tushgandi. Otangning adolatsizligi bilan vafot etgan Farhod barcha ishq ahlining yo‘lboshchisi edi. U mening ishqimda jonini qurbon qildi. Undan ayrilib, o‘zimni chala so‘yilgan qushdek his qilyapman. Mening bedorligim uning g‘amidandir. Ishqimda o‘shandek olam yagonasi ko‘z yumdi. Unga aza tutmasam, ko‘nglim

xotirjam bo‘la oladimi? Shuning uchun shoh ruxsat berib, Shopur ozod etilsa, unga bir guruh odamni qo‘shib jo‘natib, Farhod jasadini shaharga olib kelishsa, men qora kiyib, aza tutsam-da, jonimdagi ishq balosidan qutulsam, jismimni uning azoblaridan, ko‘nglimni firog‘idan xoli aylaganimdan so‘ng shoh so‘zini bajarishga tayyorman. Agar shoh bu ishga rozi bo‘lmasa, mening o‘ligimnigina topadi”, – dedi.

Bu so‘zlarni eshitgan Sheruya shod-u xurram bo‘lib, darhol Shopurni ozod qilishni buyurdi va: “Shirin ko‘ngli nimani istasa, shuni bajarsin”, – deb farmoyish berdi. Shirin huzuriga kelgan Shopur yerga bosh urib, ko‘zidan qonli yoshlarini tinmay to‘kar ekan, uni ko‘rgan parizod Farhodni yodga olib, devonalardek faryod ko‘tardi. Shu tarzda bir zamon motam tutishgach, Shirin Shopurga Sheruyaning so‘zlarini va o‘zi o‘ylagan tadbir mazmunini aytib berdi. Keyin Shopurga ikki-uch yuz mulozimni qo‘shib berdi-da, ularni Farhod yotgan tog‘ tomon yo‘lladi. Shopur bilan mulozimlar ko‘zlangan manzilga yetib borishgach, halqa bo‘lib Farhod jasadini o‘rab turgan yovvoyi hayvonlar-u qushlarga ko‘zlari tushdi. Jasadni ipak matolarga o‘rab, shohona hurmat ko‘rsatib, Shirin yuradigan kajava ichiga solib, yelkalarida ko‘tarib yo‘lga tushdilar.

Bechora Shopur to‘xtovsiz faryod urib, jismini yara qilib yig‘lab kelardi. Farhod bilan fig‘on chekib xayrlashayotgan hayvonlar-u qushlar yana u yotgan yer atrofiga to‘plandi. Shopur va mulozimlar jasadni Armanga olib kelib, Shirindan yashirincha qasr ichiga qo‘yishdi. Kerakli barcha ishlarni bajarib bo‘lishgach, parivashga xabar qildilar. Shirin o‘z qasriga qanday mehmon kelganini eshitib, guldek ochilib ketdi va o‘z mehmoniga mezbonlik qilishga shoshildi. Mehinbonuga: “Odamlarga ayting: meni bir dam xoli qoldirishsin. Men yetisholmagan, g‘amida jonimdan to‘ygan yorim “Shirin o‘libdi”, degan so‘zni eshitib, mening dardimda hayotdan ko‘z yumibdi. Endi navbat menga yetdi. Vafosini jonimga yashirib, jonimni uning oyog‘iga nisor qilaman”, – dedi-da, uzr so‘rab uy ichiga kirdi va ichkaridan eshikni mahkamlab yopdi. So‘ngra kajava tomon yo‘l oldi. Uning ichidagi mehmonning uxlayotganini ko‘rdi. Boshiga quyosh kelganida ham uyg‘onmayotgan Farhodiga boqib, u bilan birga uxlashni istagan Shirin yori yoniga yotib yuzini yuziga, ko‘ksini ko‘ksiga qo‘ydi-da, ko‘nglidan shu’lalik bir oh tortib uyquga, qiyomatga qadar uyg‘onmaydigan uyquga ketdi…

Shirin o‘lganini eshitgan Mehinbonuning fig‘oni olamni buzib, jon taslim qildi. Chunki Shirin uning joni edi, uningsiz jonining keragi yo‘q edi malikaga. Shu tufayli hayoti niholi sindi-yu, zamonaning ko‘ngli ham undan tinchidi. Uch notavonning bunday o‘limiga jonlarni fido qilsa arziydi.

Eshitishimcha, o‘sha oqshom bu yerda hozir bo‘lgan chiltanlar – qirq kishi bir xil tush ko‘ribdi. Tushlarida jannat ichidagi katta bir bog‘da ulkan bir qasr bo‘lib, uning ziynat-u bezaklari haddan tashqari chiroyli emish. Shu qasr to‘rida nurdan bir taxt qurilgan bo‘lib, unga ipak-u baxmal ko‘rpachalar tashlab qo‘yilganmish. U taxtda Farhod bilan Shirin, ota-onalari va Mehinbonu o‘tirgan emish. Har birining jamoli bu olamdagiga qaraganda ming bora go‘zalroq emish. Jannat xazinasining sohibi aytar emishki, Farhod o‘z qalbidan joy olgan pokiza ishqi tufayli xon-u sultonligidan, diyor-u xonumonidan, so‘ngra jahongina emas, jonidan ham kechib, o‘tar chog‘i shunday foniy bo‘ldiki, Haq uning ishqini boqiy ayladi, majoziy ishqi haqiqiy ishq bilan almashdi. Baqo shahrida sultonlikka, haqiqat mamlakatida xonlikka yetishdi. Uning dardiga hamdard bo‘lganlar: Shirin, ota-onasi, Mehinbonu – barchasining gunohi kechirilib, jannat bog‘iga sazovor bo‘ldi. Tush ko‘rganlar uning mazmunini olamga yoydilar. Farhodning oshiqlikda olamga mashhur bo‘lgani haqidagi xabar Xito-yu Chingacha yetib bordi. Bu paytda o‘g‘li hajrini chekkan xoqon o‘lib, taxtga uning ukasi chiqqan edi. Farhodning onasi ham vafot etgandi. Bahrom pahlavon lashkarboshi bo‘lib yetishgan, jang qilganda

Farhoddan kam emasdi. U sayyohlardan so‘rab, bo‘lib o‘tgan voqealardan xabar topdi-da, xoqon huzurida unga Farhod bilan yuz bergan hodisalarni ma’lum qilib: “Ruxsat o‘lsa, Chin-u Xitodan lashkar to‘plab, Arman mulkiga borib, Farhodni topsam-da, unga madadkorlik qilsam, bo‘lmasa, taqdir buyurganini ko‘rsam”, – deb iltimos qildi.

Bahrom Arman diyoriga borib, Sheruyani bu diyordan haydab chiqardi. Keyin Mehinbonuning yaqin qarindoshlaridan birini taxtga munosib ko‘rib, podshohlikka tayinladi. Uning adolatidan vayronalar obod bo‘ldi. Xusrav xarob qilgan barcha imorat tiklandi. So‘ngra Bahrom Chindan kelgan sipohlarga ko‘pdan ko‘p boyliklar berib, o‘z vatanlariga qaytishga ruxsat berdi-da, xoqon huzuriga borib: “Farhod bilan Bahrom bir-biri bilan topishdi”, – deb aytishni tayinladi. Sipohlarni kuzatgach, Bahrom Shopur bilan birga Farhod qabriga mujovir[1] bo‘lib qoldi.

Keling, muhokama qilamiz

1. Shirin va Farhod maktubini o‘qib, nimalarni his qildingiz? Aytib bering. Qaysi misralarda oshiq-ma’shuqning iztiroblari yorqin aks etgan deb o‘ylaysiz? Nima uchun?
2. Nima deb o‘ylaysiz: Navoiy oshiq-ma’shuq holatini tasvirlashda nega maktublardan foydalangan? Inson ruhiy holatini ifodalashda maktubning o‘rni qanday?
3. Farhod o‘limi oldidan sabo (shamol) orqali xoqonga, onasiga, Mulkoroga, Bahromga, Shopurga salom yo‘llaydi. Ammo nima uchun Shiringa salom yo‘llamaydi? Fikringizni asoslang.
4. Doston so‘ngida shoir *“majoziy ishq haqiqiy ishq bilan almashdi”,* deydi. Bu jumlani qanday tushundingiz? Farhod taqdiri misolida tushuntiring. Xusrav yoki Sheruyaning ishqi ham ilohiy ishqqa aylanishi mumkinmi? Asosli fikr ayting.
5. Dostonda **majoziy ishq** *tong yorug‘iga*, **haqiqiy ishq** *quyoshga* qiyoslangan. Ushbu qiyosni tahlil qiling. Nega shundayligini asoslashga urining.

Ijodiy ish

“Farhod va Shirin” dostonidagi chiltanlar obrazini “Alpomish” dostonidagi chiltanlar motivi bilan qiyoslab, qisqacha tahliliy matn yozing.

Topshiriq

Quyidagilardan birini tanlab bajaring:

1. Farhod va Shirin maktubini nasriy bayon eting. Mazmuni tushunarsiz so‘zlarni “Navoiy asarlari lug‘ati”dan qidirib toping.
2. Farhod yoki Shirinning maktubidan birini tanlab, yod oling.

[1] **Mujovir** – muqaddas joylarda yashab xizmat qiluvchi.

MUTOLAADAN SO‘NG

1. Farhod obrazida Navoiy qanday ideal shaxsni gavdalantirmoqchi bo‘lgan? Bu ideal bugungi yoshlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?
2. “Farhod va Shirin” dostonida ilm-fan va ma’naviyat qay darajada uyg‘unlashtirilgan? Bu uyg‘unlikning asar badiiy qiymatiga ta’siri qanday?
3. Dostonda Xusrav va Farhod obrazlari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan. Bu doston g‘oyasini qanday aks ettiradi?
4. Ushbu asardagi ishq va fidoyilik talqinini boshqa mualliflarning adabiy asarlari bilan solishtirib, tahlil qiling.
5. Doston orqali Navoiy inson va jamiyat haqidagi qanday qarashlarini ifodalagan? Bu qarashlar bugun ham dolzarbmi? Nima uchun?
6. Navoiy ushbu doston orqali hokimiyat, adolat va xalq bilan munosabat borasida qanday g‘oyalarni ilgari suradi?
7. “Farhod va Shirin” dostonida tasvirlangan ishq ruhiy-falsafiy jihatlari bilan bugungi zamonaviy muhabbat tushunchasidan qanday farqlanadi?
8. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonini nima uchun “Mehnatnoma” deb ham ataydi? Bu Farhodning suv chiqarish uchun ko‘p mehnat qilgani bilan bog‘liqmi yoki ishq yo‘lidagi mashaqqatlari sababmi? Xulosangiz asosida taqriz yozing.

Ijodiy ish

Farhod va Shirin taqdiriga **hamdardligingizni** ifodalovchi ijodiy ish (rasm, qo‘shiq, videorolik yoki ijodiy matn) tayyorlang.

Topshiriq

“Farhod va Shirin”dagi tasavvufiy timsollar va ularning ramziy ifodasiga doir nazariy ma’lumotni o‘qib, navbatdagi darsda doston misolida tahlil qilib bering.

NAZARIY MA’LUMOT

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA TASAVVUFIY TIMSOLLAR VA ULARNING RAMZIY IFODASI

“Farhod va Shirin” dostonining bosh maqsadi ilohiy ishq dardiga duchor bo‘lgan solik (tariqat yo‘liga kirgan oshiq)ning sarguzashtlarini tasvirlashdan iborat. Doston syujeti boshdan oxirigacha ramziylik asosiga qurilgan bo‘lib, undagi ramziy ifodalarni shartli ravishda quyidagi syujet chiziqlari orqali anglash mumkin:

1. *Farhodning tug‘ilishdan g‘amginligi* – ishq Allohning xos bandalarigagina taqdir etilgan ne’mat. Insonda Haqqa intilish azaldan mavjudligiga ishora.

2. *Farhodning qirqinchi hujrada oyinayi jahonnamoga qiziqib qolishi* – insonning o‘zini anglashi ko‘ngilni anglashdan boshlanadi, lekin ko‘ngil siriga yetish oson emas.

3. *Farhodning ajdaho, dev, sher va temir paykarni yengishi* – ilohiy ishq yo‘liga kirgan solikda nafs, saltanatga muhabbat, g‘azab, dunyoga havas bo‘lmasligi lozim.

4. *Xusrav va Sheruya fojiasi, Farhod va Shirinning o‘limi* – Haq yo‘lida bo‘lmaganlar oxir-oqibat halokatga uchraydi. Haqqa oshiqlar esa ilohiy vaslga musharraf bo‘ladi.

5. *Oyinayi jahonnamoda Shirinni ko‘rgan Farhodning hushdan ayrilishi va unga yetishish harakatiga tushgani* – solik ustoz sabog‘ini olish orqali ko‘ngil siri Haq diydori ekanini anglay boshlaydi. Unga *jazba* (Haqning bandani O‘ziga jalb etish holati) yetib, hushidan ayriladi. Hushyorlikka qaytib, shu holatni sog‘inadi va yana Yaratganga talpinadi.

6. *Xoqon qurdirgan saroylar ham, hunar o‘rganishi ham Farhodni g‘amdan ozod qilolmasligi* – ishq ehtiyojini dunyo boyliklari ham, dunyoviy ilm ham qondira olmaydi.

7. *Suhaylo hakim bilan uchrashuv, xoqon va arkoni davlatning Farhodga hamrohligi* – ko‘ngilni anglash, undagi tuyg‘ularni farqlash uchun ustoz zarur. Bu ustoz huzuriga poklanib borish shart, lekin bunga hamma ham erisholmaydi.

8. *Farhod va Suqrot hakim uchrashuvi, Suqrotning Jamshid jomini Farhodga taqdim etishi* – ustoz sabog‘ida solikka ko‘ngil sirini ochish kaliti beriladi.

9. *Shiringa yetish yo‘lida Farhodning toshdan qasr qurgani, unga Shirin suratini naqsh etgani* – Haqqa oshiq solik diydor yo‘lida riyozat chekadi va Allohning zikrini qalbiga jo etadi.

Topshiriq

Dostondagi ramziy timsollar va ular ifodalagan ma’nolar aks etgan jadvalni o‘qing va daftaringizga ko‘chiring.

Timsol nomi	U anglatgan ma’no
Farhod	Haqqa yetishishni maqsad qilgan solik
Shirin	Mazhar, ya’ni Haq jamolini o‘zida zohir qilgan timsol
Moniy, Boniy, Qoran	Farhodga, ya’ni solikka dunyoviy ilmlarni o‘rgatgan ustozlar
Suhaylo	Farhodga Haqqa yetishishda yo‘l ko‘rsatuvchi murshidni topishga ko‘maklashgan ustoz, Farhodning tariqatdagi birinchi piri
Xizr	Tariqatdagi ikkinchi piri
Suqrot	Haqqa yetishish va ko‘ngil sirlarini yechish yo‘lini ko‘rsatgan piri murshid, komil inson timsoli
Ajdaho	Nafs
Dev	Saltanat
Samandar yog‘i	Ishq
Sher	G‘azab
Temir paykar	Ro‘yo, yolg‘on dunyo
Jamshid jomi	Ko‘ngil kaliti
Oyinayi jahonnamo	Ko‘ngil
Xusrav, Sheruya, Yosuman	Nafsga qul bo‘lgan, shayton izmidagi bandalar



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR (1483–1530)

Dars davomida:

– Boburning hayoti va ijodi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganamiz;

– g‘azallarni mavzu, g‘oya va badiiyat jihatidan tahlil qilamiz;

– Bobur g‘azallari asosida yakka va guruh bo‘lib amaliy topshiriqlar bajaramiz.

Zahiriddin Muhammad Bobur temuriylar sulolasining betakror vakillaridan biri bo‘lib, Amir Temurning beshinchi avlodidir (Amir Temur – Mironshoh – Sulton Muhammad mirzo – Abusaid mirzo – Umarshayx mirzo – Zahiriddin Bobur). Ona tomondan bobosi Yunusxon Toshkent hokimi bo‘lib, o‘n ikki avlod orqali Chingizxonga tutashgan.

Boburning asl ismi Zahiriddin Muhammad bo‘lib, bu ismni unga otasi Umarshayx mirzoning piri – Xoja Ubaydulloh Ahror valiy qo‘ygan.

U shoir, olim, musiqashunos, tarjimon sifatida nom qozonish bilan birga adolatli hukmdor va mohir sarkarda sifatida ham tarix sahnasidan munosib o‘rin egallaydi. Otasining vafotidan so‘ng, dastlab Andijon, keyinchalik Samarqand hokimi bo‘lgan esa-da, achchiq qismat va taqdirning shafqatsiz zarbalari tufayli noiloj o‘z yurtini tashlab ketadi.

Avval Kobul va G‘aznani, keyinchalik Hindistonni egallagan Bobur tarixda “Boburiylar imperiyasi” nomi bilan mashhur bo‘lgan ulkan saltanatga asos soladi. Uning avlodlari hind diyorida uch yuz yildan ortiqroq muddat – to ingliz mustamlakasi Hindistonga bostirib kirguncha hukmronlik qiladi.


Zahiriddin Muhammad Bobur boy va rang-barang ilmiy-adabiy merosi bilan dunyo madaniyati tarixida alohida o‘rin egallaydi. Uning ijodi turli yo‘nalishdagi asarlarni qamrab oladi.

Boburning ikki devon (“Hind devoni” va “Kobul devoni”) tuzgani yozma manbalarda ta’kidlanadi. U arab alifbosini isloh qilish yo‘li bilan **“Xatti boburiy”** deb nomlangan yangi yozuv shaklini 20 yoshida kashf etgan.

Boburning eng mashhur asari **“Boburnoma”** bo‘lib, tarixiy-badiiy memuar janrida yozilgan. Asarda 1494-yildan boshlab, ya’ni Bobur taxtga chiqqan davrdan to umrining oxirigacha bo‘lgan voqealar xronologik tartibda yoritilgan.

Bobur fiqh, ya’ni islom huquqi masalalariga ham e’tibor qaratib, **“Mubayyin”** nomli asar yozgan. Unda shariat qonun-qoidalari she’riy uslubda bayon qilingan. Shuningdek, Bobur “**Aruz risolasi**” nomli ilmiy asar ham yozgan.

Xoja Ahror valiyning **“Volidiya”** asarini she’riy uslubda tarjima qilgan. Manbalarda **“Harb ishi”**, **“Musiqa ilmi”** asarlari ham tilga olingan, biroq ular hanuz topilmagan.



1992-yildan buyon O‘zbekistonda Bobur nomli xalqaro jamoat fondi faoliyat yuritadi.

2024-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining olti jilddan iborat “Kulliyot”i nashr etildi.

Tavsiya

“Hindistonda Boburiylardan qolgan xazina” hujjatli filmini tomosha qiling.
Manba: kun.uz

8

MUTOLAADAN OLDIN

Bobur turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan zullisonayn shoir bo‘lib, uning turkiy tildagi she’rlari ikkita devon: “Kobul devoni” va “Hind devoni”dan o‘rin olgan. Ammo afsuski, “Kobul devoni” bizgacha yetib kelmagan yoki hanuz topilmagan. “Hind devoni”da 400 dan ortiq she’r bo‘lib, lirik turning *g‘azal, ruboiy, tuyuq, qit’a, masnaviy, muammo* kabi janrlarida bitilgan.

Bobur devonining asosiy qismini g‘azallar tashkil etadi. Shoir g‘azallarining aksariyati ***oshiqona va hasbi hol yo‘nalishida*** bitilgan. **Oshiqona g‘azallarda** ma’shuqa go‘zalligi va oshiqning ruhiy kechinmalari aks ettirilsa, **hasbi hol mazmunidagi g‘azallarda** shoir hayotining muayyan davri o‘z ifodasini topganini ko‘ramiz. Ba’zan esa sof oshiqona kechinmalar bayoni bilan boshlangan g‘azallar she’r so‘ngiga borib hasbi hollik yo‘sinini o‘zida mujassamlantiradi. Ta’kidlash lozimki, shoir g‘azallarida yor timsoli ko‘p hollarda Vatan tushunchasi bilan hamohanglik kasb etadi. Bobur yor hijroni, oshiq kechinmalarini Vatan sog‘inchi, musofirlik iztirobi bilan uyg‘unlikda tarannum etadi.

“XATTING ARO UZORING…”

Xatting[1] aro uzor[2]ing sabza[3] ichinda lola,
Ul chashmi purxumor[4]ing loladag‘i g‘azola[5].

Barcha parilar, ey jon, girdingda zor-u hayron,
Go‘yo erur namoyon oy tegrasida[6] hola[7].

Mehr-u vafoni, ey yor, ko‘p ko‘rdi sendin ag‘yor,
Javr-u jafoni bisyor qilding manga havola.

Hajringda, ey pariro‘, ko‘zumdin uchti uyqu,
Har kecha tongg‘a tegru[8] ishimdur oh-u nola.

Yuz safhasinda xatlar yoshdinki, har taraf bor
Ishqingda Bobur aylar bu nav’[9] yuz risola.



Keling, muhokama qilamiz

1. G‘azal matlasida (ilk baytida) yor yuzi *lolaga*, yuzdagi mayin tuklar (xat) *yam-yashil maysaga* o‘xshatilishi orqali qanday tasvir yaratilgan? *“Chashmi purxumor”*ning *g‘azola*ga o‘xshatilishida qanday ma’no bor deb o‘ylaysiz?
2. Parilarning yor atrofida aylanishi oy tegrasidagi gardishga qiyos qilinganini qanday tushundingiz? Ustozingiz yordamida mumtoz adabiyotda keng tasvirlanadigan “malakut olami” va “parilar” orasidagi bog‘liqlikni o‘rganing.
3. Uchinchi baytdagi *oshiq–yor–ag‘yor* uchburchagi qanday an’anaviy holatdan xabar beryapti? Yorning ag‘yorga mehr-u vafo, oshiqqa esa jafo ko‘rsatishining sabablari haqida nima deya olasiz?
4. Maqtada qo‘llangan “*yuz*” so‘zi orqali qanday badiiy san’at vujudga kelgan? *Risola* va *safha (sahifa)* orqali-chi?

[1] **Xat** – yuzdagi yoki lab atrofidagi mayin tuklar.
[2] **Uzor** – yuz, chehra, bet.
[3] **Sabza** – maysa, o‘t.
[4] **Purxumor** – mast, xumorli.
[5] **G‘azola** – ohu, kiyik, oftob.
[6] **Tegra** – atrof, tevarak.
[7] **Hola** – oyning yorug‘ gardishi.
[8] **Tegru** – qadar, -gacha.
[9] **Bu nav’** – bu kabi.

Topshiriq

G‘azalning har bir baytida qo‘llangan ichki qofiyalarni namuna asosida quyidagi jadvalga yozing:

1-bayt	2-bayt	3-bayt	4-bayt	5-bayt
Uzoring – purxumoring				

Bilib oling!

Boburning yuqoridagi g‘azali shakliy xususiyatiga ko‘ra *musajja* g‘azal turiga kiradi. ***Musajja g‘azalda*** ikkinchi baytdan boshlab, bayt teng to‘rt bo‘lakka bo‘linadi va 1-, 2-, 3-bo‘laklar o‘zaro qofiyalanadi, ya’ni ichki qofiya (saj’)ga ega bo‘ladi *(ey jon, hayron, namoyon)*. 4-bo‘lak *(oy tegrasida hola)* esa matladagi asosiy qofiya *(g‘azola)* bilan ohangdosh bo‘ladi.

Topshiriq

O‘zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov ijrosidagi “Lola” (“Xatting aro uzoring…” g‘azali asosida) qo‘shig‘ini tinglang. O‘zingiz ham ***karaoke usulida*** aytishga urinib ko‘ring.

9-10

“TISHING DUR…”

Tishing dur, labing marjon, xading gul, xating rayhon,
Yuzung hur, soching anbar, so‘zung mul, menging meynon.

Meynon menging, so‘zing mul, anbar soching, yuzung hur,
Rayhon xating, xading gul, marjon labing, tishing dur.

Tafoxur ko‘zum, ko‘nglum qilurlar magar bordur,
Ko‘zungga ko‘ngul vola, yuzungga ko‘zum hayron.

Hayron ko‘zum yuzungga, vola ko‘ngul ko‘zungga,
Bordur magar, qilurlar ko‘nglum, ko‘zum tafoxur.

Xad – *yuz, yonoq.*
Mul – *may, sharob.*
Meng – *xol.*
Meynon – *qora.*
Tafoxur – *faxrlanish.*
Vola – *maftun, shaydo.*
Itob – *malomat, ta’na.*
Hadis – *so‘z.*

Tafakkur necha qilsam, topilmas sening misling,
Pariydek seni ko‘rdum, emassen magar inson.

Inson magar emassen, ko‘rdum seni pariydek,
Misling sening topilmas qilsam necha tafakkur.

Balodur manga hajring, davodur manga vasling,
Itobing manga ofat, hadising manga darmon.

Darmon manga hadising, ofat manga itobing,
Vasling manga davodur, hajring manga balodur.

Chu Bobur sanga quldur, nazar qil anga zinhor,
Topilmas yana bir qul, aningdek sanga, ey jon.

Ey jon, sanga aningdek, bir qul yana topilmas,
Zinhor anga nazar qil, quldur sanga chu Bobur.

Itob – *malomat, ta’na.*
Hadis – *so‘z.*

Tadqiq qiling!

G‘azalning toq misralari ko‘k, juft misralari esa qora rangda berilganiga diqqat qiling. Satrlarni chapdan o‘ngga qarab yoki so‘zlarning o‘rnini almashtirib o‘qib ko‘ring. Nimani aniqladingiz? Topilmangizni ayting.

Bilib oling!

Masnu (arabcha “bezakli qilib ishlangan, san’atli”) – o‘ziga xos badiiy bezakka ega she’r turi bo‘lib, unda bir necha badiiy san’at mahorat bilan qo‘llanadi. Masnu she’rlarda ko‘pincha baytlardagi so‘zlarning o‘rni almashtirilib, ba’zan esa baytlarni chapdan o‘ngga yoki yuqoridan pastga qarab o‘qib, yangi baytlar hosil qilinadi. Bobur lirikasida o‘ndan ortiq masnu she’r bor. Masalan, quyidagi birinchi baytning birinchi misrasi ikkinchi baytning ikkinchi misrasida; birinchi baytning ikkinchi misrasi ikkinchi baytning birinchi misrasida teskari holda kelgan (yana ham aniqroq bo‘lishi uchun qaysi so‘z qayerda takrorlanishi turli ranglarda ko‘rsatilgan):

Tishing dur, labing marjon, xading gul, xating rayhon,
Yuzung hur, soching anbar, so‘zung mul, menging meynon.

Meynon menging, so‘zing mul, anbar soching, yuzung hur,
Rayhon xating, xading gul, marjon labing, tishing dur.

Keling, muhokama qilamiz

1. Mumtoz adabiyotimizda yorning so‘zi bolga (asalga) qiyoslanishini bilasiz. Ammo mazkur g‘azalda nimaga o‘xshatilgan? Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz? G‘azal mazmuni bilan bog‘lab, tahlil qiling.
2. G‘azalda ba’zi o‘xshatishlar takror keladi. Bu asar mazmuniga qanchalik ta’sir qilgan? Bunday takrorlarni qo‘llash orqali shoir nimani ifoda etmoqchi?
3. Shoir ko‘z va ko‘ngilni tafoxur qiluvchilar (faxrlanuvchilar) deb ataydi. Nima uchunligini asoslang.
4. Baytlarda ***tazod san’atini*** hosil qilgan so‘zlarning oshiq ahvolini ifodalashdagi ahamiyati haqida mulohaza bildiring. Misollar keltirib, fikringizni dalillang.
5. “*Chu Bobur sanga quldur, nazar qil anga zinhor*” va “*Zinhor anga nazar qil, quldur sanga chu Bobur*” misralarini o‘zaro qiyoslang. Sizningcha, qaysi misrada hukm qat’iyroq? Javobingizni asoslang.

Bilib oling!

Tardi aks (arabcha “teskari qilib takrorlash”) – bayt tarkibidagi ikki so‘z yoki birikmani avval muayyan tartibda keltirib, so‘ng ularning o‘rnini almashtirib takrorlash san’ati.

O‘ylab ko‘ring!

G‘azalda boshdan oxirigacha *tardi aks* san’ati qo‘llangan deyish mumkinmi? Nima uchun?

Guruhlarda ishlash

Uch guruhga bo‘lining. **1-guruh** toq baytlar bilan boshlanuvchi misralarni, **2-guruh** juft baytlar bilan boshlanuvchi misralarni doskaga (yoki A4 qog‘ozga) ko‘chirib yozsin. Har bir guruh hosil bo‘lgan g‘azalning qofiya tizimi va raviy harfini aniqlasin. G‘azalda ikkita matla va ikkita matla qo‘llangan deyish mumkinmi? Nima uchun?

3-guruh g‘azalning dastlabki baytlarida yorga berilgan ta’riflarni, ya’ni o‘xshatilmish va o‘xshatishlarni quyidagi namuna asosida jadvalda aks ettirsin:

O‘xshatilmish	**Tish**	**Lab**						
O‘xshatish	*Dur*							

Tavsiya

“Tishing dur...” g‘azali asosida ijro etilgan qo‘shiqni quyidagi havola orqali tinglang va uni she’r matni bilan solishtiring.

11

Ijrochi: O‘zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov.

Manba: Ozodbek Nazarbekovning YouTube ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasi.

Ko‘rsatma

Quyida berilgan ikki g‘azal, “Boburnoma”dagi lavha va “Armon” suratini qiyosiy o‘rganing.

“JONIMDIN O‘ZGA...”	“KELDI UL VAQTKI...”
Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim, Ko‘nglumdin o‘zga mahrami asror topmadim. Jonimdek o‘zga jonni dilafgor ko‘rmadim, Ko‘nglim kibi ko‘ngulni giriftor topmadim. Usruk ko‘ziga toki ko‘ngul bo‘ldi mubtalo, Hargiz bu telbani yana hushyor topmadim. Nochor furqati bila xo‘y[1] etmisham, netay, Chun vaslig‘a o‘zumni sazovor topmadim. Bore[2] boray eshigiga bu navbat, ey ko‘ngul, Nechaki borib eshigiga, bor topmadim. Bobur, o‘zingni o‘rgatako‘r yorsizki, men Istab jahonni muncha qilib yor topmadim.	Keldi ul vaqtki, boshimni olib ketgaymen, Olam ichra ayog‘im yetganicha yitgaymen. Istaram o‘zni aziz elga ko‘runmasliktin, Necha o‘zumni ulus ko‘zida xor etgaymen? Xalq yuz javr ila ishlar buyurur, kosh[3] elning Ne yuzin ko‘rgaymen-u ne so‘zin eshitgaymen! Har sori borsa bu devona ko‘ngul, ayb etma, O‘yla devona emaskim, ani berkitgaymen. Dema Boburga netarsen, bosh olib ketmak ne? Tengrining xosti[4] mundoq esa, men netgaymen?

[1] **Xo‘y** – o‘rganish, ko‘nikish.
[2] **Bore** – endi, loaqal, bir marta.
[3] **Kosh** – koshki, zora, shoyad.
[4] **Xosti** – xohish, iroda.

* * *

Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqandni ikki bor egallab, yana qo‘ldan boy bergach, bir muddat sargardonlikdan so‘ng 1500–1501-yillarda yordam istab Toshkentga – xon tog‘alari va xon bobosi Yunusxon huzuriga boradi. Ular Boburga biror viloyat berilishini aytadi, ammo bu gaplar va’daligicha qolib ketadi. **“Boburnoma”da bunday lavha bor**:

“Toshkandda bo‘lgan paytimda xiyla muhtojlik va xorlik tortildi, viloyat yo‘q, viloyat umidvorligi yo‘q, navkarlar aksar tarqadi, men bilan qolgan sanoqli kishilar esa yo‘qsillikdan mening bilan yurolmas edilar… Oxiri bunday sargardonlik va bu xil qo‘nimsizlik jonimga tegdi. Dedimki: “Bunday qiyinchilik bilan tirik bo‘lguncha, bosh olib yo‘qolib ketsam yaxshiroq. Bu xil xorlik va zorlik bilan elga ko‘ringuncha oyog‘im yetgancha ketsam yaxshi…” Saltanat ham ketdi. Onam ham onalariga, inilariga qo‘shildi… Shayboqxondek[1] g‘anim paydo bo‘ldi, uning zarari turkka va mo‘g‘ulga bab-baravardir. Hali-hozircha u yerli xalqni yaxshi bosib olmay turib, ko‘p kuchaymasidan turib buning fikrini qilmoqlik kerak... Yana mening atrof-tevaragimda yurgan bir necha katta-kichiklarning har biri umidvorlik bilan menga ergashib sargardonlikni birga tortmoqdalar”.



Armon.
Rassom Akmal Nur

[1] **Shayboqxon** – Muhammad Shayboniyxon (1451–1510). Shayboniylar sulolasi asoschisi.

Keling, muhokama qilamiz

“Boburnoma”dagi lavha, ikki g‘azal va “Armon” suratini solishtirib, tahlil qilishga urinib ko‘ramiz. Masalan, quyidagi birinchi savol tepasida **lavha va ikki g‘azal** qayd etilgan, demak, siz javobni mushtarak tarzda – ham lavha, ham ikki g‘azal misolida berishingiz kerak. Ammo qaysidir ustun uchun alohida savol qo‘yilgan bo‘lsa, demak, javobini ham faqat shu ustun nomiga bog‘liq tarzda berishingiz lozim.

<table>
<tr><th>T/r</th><th>“Boburnoma”-dagi lavha</th><th>“Jonimdin o‘zga…”</th><th>“Keldi ul vaqtki…”</th><th>“Armon” surati</th></tr>
<tr><td>1</td><td colspan="3">Bobur chekkan iztiroblarni nomlang. Ushbu tuyg‘ular lavhadagi qaysi jumlada, ikki g‘azaldagi aynan qaysi misralarda yorqin aks etgan? Aniqlang va javobingizni asoslang.</td><td>Suratdagi qaysi element umidvorlik timsoli? Nima uchun?</td></tr>
<tr><td>2</td><td colspan="3">Boburning har ishga etak silkish holatini qanday tushundingiz? Lavha va ikki g‘azaldan misollar keltirib, fikringizni asoslang.</td><td>“Har ishga etak silkish” tasvirlangan o‘rinni aniqlang va unga asosli izoh bering.</td></tr>
<tr><td>3</td><td></td><td colspan="2">Boburning o‘ziga o‘zi taskin berishi va bu orqali taqdir qazosi haq ekaniga iqrorligi qaysi misralarda yaqqol ifodalangan? Javobingizni asoslang.</td><td>Boburning taxtga ters tasvirlangani va o‘ng qo‘li bilan taxt qubbasini ushlab turishi sababini izohlang. Rassomning niyati nima?</td></tr>
<tr><td>4</td><td></td><td>“Mahrami asror”, “usruk ko‘z”, “furqat”, “vasl”, “mubtalo” so‘zlarini sharhlang. G‘azaldagi “yor”ni Vatan timsoli deyish mumkinmi? Nega?</td><td>Matladagi “Keldi ul vaqtki” jumlasi orqali nima demoqchi? Fikringizni g‘azal matniga tayanib, misollar bilan asoslang.</td><td>Surat nega “Armon” deb nomlangan bo‘lishi mumkin? Tushuntirib bering.</td></tr>
<tr><td>5</td><td colspan="3">Qay o‘rinlarda Boburning el-ulus uchun qayg‘urishi, qay o‘rinlarda bu ishi uchun o‘ziga jiddiy e’tirozi ifodalangan? Lavha va ikki g‘azaldan misollar keltirib, javobingizni dalillang.</td><td></td></tr>
</table>

Ijodiy ish

1. O‘rganilgan g‘azallar mazmunidan kelib chiqib, nasriy shaklda ***“Bobur monologi”***ni yozing.
2. Monologda g‘azallardagi so‘z va jumlalardan ijodiy foydalaning.
3. Ushbu monologni sinfda ijro qilishga tayyorlaning (monolog yoddan aytilishi kerak).

Tavsiya

Bobur g‘azallaridan birini yod oling.



JEK LONDON (1876–1916)

Dars davomida:

- Jek Londonning murakkab hayot yo‘li va ijodiy faoliyati bilan tanishamiz;
- “Hayotga muhabbat” hikoyasining bosh g‘oyasi va mavzusini aniqlaymiz;
- inson va tabiat: kuchlar nomutanosibligi haqida bahslashamiz.

Jek London 1876-yil 12-yanvarda AQShning Kaliforniya shtati San-Fransisko shahrida dunyoga kelgan. Asl ismi **Jon Griffit**. Yoshlik yillari ancha mashaqqatli kechgan, o‘gay ota qo‘lida tarbiyalangan bo‘lajak yozuvchi bir necha bor kasbini o‘zgartirib ko‘radi. Yaponiya sohillari va Bering dengizidagi kemada oddiy matros sifatida faoliyat yuritadi. Ishsizlarning Vashingtonga ko‘chishida qatnashadi. Alyaskadagi oltin konlariga ish izlab boradi.

Jek London Kaliforniya universitetiga o‘qishga kiradi, lekin oilaviy sharoiti tufayli universitetni erta tark etadi.

Kasb tanlashda omadi chopmasa-da, hayotning turfa ko‘rinishlari badiiy gavdalantirilgan asarlari uchun zarur materiallar to‘plashga muvaffaq bo‘ladi.

Jek London yozuvchilikni tasodifan boshlagan. U bir kuni onasining maslahati bilan mahalliy gazetalardan biri tashkil etgan tanlovda qatnashadi hamda kutilmaganda birinchi o‘rinni oladi. “Yaponiya sohillaridagi tayfun” ocherki esa shahar gazetasida chop etiladi. Shundan so‘ng u daromad topish ilinjida poytaxtga yo‘l oladi. Lekin endi Vashingtonga yetdim, deganida daydilikda ayblanib, hibsga olinadi va ona shahriga qaytarib yuboriladi. Keyinroq Jek London o‘z sargardonligini “Yo‘l”, “Martin Iden” kabi asarlarida tasvirlaydi.

Yozuvchining “Dengiz bo‘risi”, “Oq so‘yloq”, “Temir tovon”, “Martin Iden”, “Uch qalb” kabi romanlari, “Olis o‘lkada”, “Ayol mardligi”, “Chandiqli odam”, “Bo‘ri bolasi”, “Oltin dara”, “Hayot uchquni” kabi qissa va hikoyalar to‘plami jahon adabiyotidan alohida o‘rin egallaydi.

Yozuvchining “Hayotga muhabbat”, “Qish haqida”, “Martin Iden” singari asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Jek London 1916-yil 22-noyabrda vafot etgan.

MUTOLAADAN OLDIN

“Hayotga muhabbat” hikoyasi Jek Londonning eng mashhur asarlaridan biri bo‘lib, 1905-yilda nashr etilgan. U yozuvchining tabiat va inson o‘rtasidagi omon qolish uchun kurashni tasvirlashdagi o‘ziga xos uslubi va chuqur falsafiy yondashuvini namoyon etadi.

Hikoyadagi voqealar Shimoliy Amerikaning qahraton va shafqatsiz tabiatida kechadi.

O‘ylab ko‘ring!

1. Insonning hayotga muhabbati tabiat qonunlaridan ustun kelishi mumkinmi? Siz bu fikrga qo‘shilasizmi?
2. Sizning hayotga muhabbatingiz nimalarda aks etadi? Ular uchun har qanday sinovga tayyorman deb o‘ylaysizmi?

HAYOTGA MUHABBAT

(Hikoya)[1]

1

Ular oqsoqlanib soy tomon tushib borardi. Hamrohlardan biri, oldinda borayotgani toshloq yerda qoqilib, gandiraklab ketdi. Ikkalasi ham charchab holdan toygan va tishini tishiga qo‘yib, taqdirga tan bergan, yuzlaridan ko‘rinib turardi – bu uzoq vaqt chekkan qiyinchiliklari oqibati edi. Orqalaridagi qayish bilan tortib bog‘langan og‘ir yuk yelkalarini ezardi. Ikkalasida ham bittadan miltiq. Ikkalasi ham bukchayib, ko‘zlarini yerdan uzmay borardi.

– Qani endi yashirib qo‘ygan joyimizdagi o‘qlardan hozir ikkitaginasi bo‘lsa, – deb qo‘ydi ulardan biri.

Azbaroyi madorsizlikdan ovozi zaif chiqdi. U juda behafsala gapirardi. Toshlarga urilib, ko‘piklanib oqayotgan sutdek oppoq suvga endi oyoq bosgan sherigi esa unga hech narsa deb javob bermadi.

Ikkinchisi ham sherigining orqasidan suvga tushdi. Suv muzdek, sovuq bo‘lishiga qaramay, ular oyoq kiyimlarini yechmadilar. Suv shu qadar sovuq ediki, oyoqlari barmoqlarigacha uvushib qoldi. Ba’zi joylarda suv tizzadan kelardi. Shunda suv shitob bilan urganda, ular o‘zlarini tutolmay, gandiraklab ketardilar.

Orqada kelayotgan yo‘lovchi silliq toshga toyg‘anib ketib, yiqilishiga oz qoldi, og‘riqdan qattiq ihrab yubordi, ammo yiqilmadi. Boshi aylandi, shekilli, munkib ketib, xuddi havodan madad so‘raganday bo‘sh qo‘lini oldinga cho‘zdi. O‘zini o‘nglab oldi-da, oldinga qadam bosdi, lekin yana toyib

[1] Hikoya matni ichidagi illyustratsiyalar amerikalik rassom Ernest L. Blumenschein (1874–1960) tomonidan *McClure’s Magazine* jurnalining 1905-yil dekabr soni uchun maxsus ishlangan.

ketib, yiqilishiga sal qoldi. Shundan keyin to‘xtab, sherigiga qarab qo‘ydi: sherigi esa orqasiga ham qaramay, hamon oldinga ketmoqda edi. Orqada qolgani bir narsani o‘ylagandek birpas qimirlamay turdi, keyin:

– Menga qara, Bill, oyog‘imni chiqarib oldim, shekilli! – deb qichqirdi.

Bill oyoqlarini sudrab, sutdek oppoq suvdan kechib borardi. U orqasiga biror marta ham qayrilib qaramadi. Sherigi uning orqasidan qarab turardi. Uning yuzi avvalgidek hech narsani ifoda qilmasa-da, ko‘zlarida yaralangan bug‘uniki singari chuqur qayg‘u ifodasi aks etdi.

Mana Bill qarshi qirg‘oqqa o‘tib oldi-da, kalovlanib yurib ketdi. Suvning o‘rtasida turgan hamrohi undan ko‘zini olmay qarab turdi. Uning lablari shu qadar titrar ediki, o‘siq sariq mo‘ylovi uchib-uchib ketardi. U tilining uchi bilan qovjiragan lablarini bir yalab oldi-da:

– Bill! – deb qichqirdi.

Bu falokatga yo‘liqqan odamning jon achchig‘idagi qichqirig‘i edi, ammo Bill qayrilib ham qaramadi. Ketib qolgan sherigining orqasidan uzoq vaqt qarab turdi: sherigi lapanglab, oqsoqlanib, qoqinib-surinib, tepalikda ko‘ringan egri-bugri chiziqlar tomon asta-sekin ko‘tarilib borardi. Bill to tepalikdan oshib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha sherigi orqasidan qarab turdi. Shundan keyin u tarafdan ko‘zini uzdi-da, Bill ketgandan keyin yolg‘iz o‘zi qolgan yerni bir-bir ko‘zdan kechirib chiqdi.

U butun og‘irligini bir oyog‘iga solib turib, soatini oldi, soat to‘rt edi. So‘nggi ikki haftada u hisobni yo‘qotib qo‘ydi: iyulning oxiri yoki avgustning boshlari bo‘lgani sababli quyosh shimoli-g‘arbda bo‘lishi kerak edi. U janub tomon qaradi. Mana shu ko‘rimsiz tepalik orqasida, allaqayerdadir, Katta ayiq ko‘li bor, xuddi o‘sha tomonda Kanada sahrosidan mudhish Shimoliy qutb doirasi o‘tadi, deb o‘ylab qo‘ydi. U turgan soy Koppermayn daryosining irmog‘i, Koppermayn esa shimol tomon oqib, Koronatsiya ko‘rfaziga, Shimoliy muz dengiziga quyiladi. Uning o‘zi u yerlarga hech qachon bormagan, lekin buning hammasini Gudzon ko‘rfazi kompaniyasining xaritasida ko‘rgan edi.

U o‘zi yolg‘iz qolgan joyni yana bir marta ko‘zdan kechirdi. Tevarak-atrof jimjit, ko‘rimsiz edi. Na daraxt, na buta, na o‘t-o‘lan ko‘rinadi – poyonsiz va dahshatli sahrodan boshqa hech narsa yo‘q. Uning ko‘zlarida qo‘rquv ifodalari ko‘rindi.

– Bill! – deb pichirladi.

– Bill! – deb takrorladi u yana ketidan. Poyonsiz sahro go‘yo qudratli kuchi bilan bosayotganday, o‘zining mudhish sokinligi bilan ezayotganday bo‘ldi: u loyqalanib oqayotgan soy o‘rtasida cho‘qqayib o‘tirib qoldi. U xuddi bezgak tutayotgandek qaltirab ketdi, shu payt miltig‘i shalp etib suvga tushdi. Bu uni o‘ziga keltirdi. U qo‘rquvni yengib, es-hushini yig‘di, keyin qo‘lini suvga tiqib, paypasladi-da, miltig‘ini topdi. So‘ng mayib oyog‘iga og‘irlik kamroq tushsin, deb yukni chap yelkasiga oldi-da, og‘riqdan basharasini burishtirib, juda ehtiyotlik bilan asta-sekin qirg‘oq tomon yurdi.

U to‘xtamay yuraverdi. Og‘riqqa sira parvo qilmay, Bill oshib o‘tgan tepalik ustiga shosha-pisha dadil chiqaverdi. Tepalikka chiqib qarasa, vodiyda hech kim ko‘rinmadi. Uni yana qo‘rquv bosdi, keyin qo‘rquvni yengib, qopini chap yelkasiga yana ham ko‘proq surib, oqsoqlanib-oqsoqlanib pastga tusha boshladi. Vodiyning pastligi chalchiqzor[1] bo‘lib, chimliq jiqqa suv edi. U har qadam bosganda suv sachrar, nam chimliqdan oyog‘ini har ko‘targanda, shalop-shulup etgan tovush chiqardi. U Billning izidan yurishga intilib, ko‘loblarni aylanib o‘tar yoki chimliqlarda xuddi orol singari cho‘qqayib turgan toshlar ustidan borardi.

[1] **Chalchiqzor** – balchiq; iflos, loyqa suv.

U yolg‘iz qolgan bo‘lsa ham yo‘lidan adashmadi. Yana biroz yurgandan keyin atrofini pastakkina, nimjon, quruq pixta va archalar o‘rab olgan kichkina Titchinichili ko‘liga yetib borishini bilardi, bu ko‘lning nomi mahalliy tilda “Kichik og‘ochlar o‘lkasi” degan ma’noni anglatardi. Shu ko‘lga bir ariq kelib quyiladi, suvi ham loyqa emas. Ariq bo‘ylarida qamish o‘sadi. Buni u yaxshi eslaydi, lekin u yerda daraxt yo‘q. Shu yerdan g‘arb tomon boshqa bir ariq oqadi, shu ariq yoqalab u Diz daryosiga qadar boradi. Xuddi o‘sha yerda to‘nkarib, ustiga tosh bostirib qo‘yilgan qayiqni topadi. U qayiqning ostida miltiq o‘qi, qarmoq, qarmoq iplari, kichik bir to‘r, umuman ovqat topish uchun zarur narsalarning hammasi yashirib qo‘yilgan. Bundan tashqari, o‘sha yerda oz bo‘lsa-da un, bir parcha go‘sht, loviya ham bor.

Bill uni o‘sha yerda kutib turadi, keyin ikkisi Diz daryosi bilan Katta ayiq ko‘liga boradilar, undan keyin ko‘ldan o‘tib janubga, to Makkenzi daryosiga yetib olguncha, janubga qarab yuraveradilar. Janubga, hamma vaqt janubga qarab boraveradilar, qish esa ularni quvib boradi. Tezoqar soy va jilg‘alar muz bilan qoplanadi, sovuq tushadi, ular esa janubga, Gudzon ko‘rfazidagi faktoriyalardan biriga yetib oladilar, u tomonlarda baland-baland azamat daraxtlar o‘sadi va oziq-ovqat ham istagancha topiladi.

Zo‘rg‘a sudralib borayotgan yo‘lovchi mana shular haqida o‘ylar edi. Lekin yurish qanchalik og‘ir bo‘lmasin, Bill uni yolg‘iz tashlab ketmaydi, degan fikrga ishonish undan ham qiyin edi. Bill, hech shubhasiz, uni narsalar yashirilgan joyda kutib o‘tiradi. U shunday deb o‘ylashi kerak, aks holda bundan keyin kurashni davom ettirishning hech hojati yo‘q – unda oyoqni cho‘zish-u o‘lib qo‘ya qolishdan boshqa iloj yo‘q. Quyoshning xira gardishi shimoli-g‘arb tomon sekin-asta yashirinayotgan qishdan qochib, janub tomon qo‘yiladigan har qadamini bir necha bor hisoblab chiqdi. U narsalar yashirilgan joydagi va Gudzon kompaniyasi omboridagi oziq-ovqat zaxirasini qayta-qayta xayolidan kechirdi. Ikki kundan beri u hech narsa yegani yo‘q, lekin undan ilgari ham to‘yib ovqat yemagan edi. U tez-tez egilib, rangsiz botqoq mevalarini uzib og‘ziga solar va chaynab yutib borardi. Mevalar juda sersuv, suvi ichiga ketib, og‘zida faqat taxir va qattiq urug‘largina qolardi. Bu mevalar qorin to‘yg‘azmasligini u bilardi, shunday bo‘lsa ham ularni sabr bilan chaynar, chunki umid achchiq haqiqat bilan hisoblashishini istamas edi.

Soat to‘qqizlarda u oyog‘ining katta barmog‘ini o‘tkir tosh qirrasiga urib oldi. Charchoq va darmonsizlikdan gandiraklab, yiqilib tushdi. Bir yonboshiga ag‘nab, anchagacha qimirlamay yotdi. Birozdan keyin orqasidagi qop qayishini yelkasidan chiqarib, ihrab-ihrab o‘tirib oldi. Hali uncha qorong‘i tushganicha yo‘q edi, g‘ira-shirada toshlar orasini paypaslab, quruq xas-cho‘p yig‘a boshladi. Bir tutam xas-cho‘p yig‘ib, o‘t yoqdi, keyin dekchaga suv solib, burqsib yonayotgan o‘tga qo‘ydi.

U qopini ochib, hammadan burun gugurtlarni sanab ko‘rdi. Hammasi bo‘lib oltmish yetti dona gugurt cho‘pi bor edi. U yanglishgan bo‘lmay, deb gugurt cho‘pini uch marta sanab chiqdi. Gugurtni uch bo‘lakka ajratib, har bir bo‘lagini bir qog‘ozga o‘radi. Bir bo‘lagini bo‘sh hamyonga solib qo‘ydi, ikkinchisini ohori to‘kilgan shapkasining astariga tiqdi, uchinchisini esa ko‘kragiga yashirib qo‘ydi. Shundan keyin uni birdan qo‘rquv bosdi: uch bo‘lak gugurtni yana qaytadan ochib sanab ko‘rdi. Gugurt cho‘plari avvalgidek oltmish yetti dona edi.

Oyoq kiyimini o‘tga tutib quritdi, mokasini[1]ning julduri chiqib ketgan, odeyaldan tikilgan paypoqlari teshik, oyoqlari qontalash, to‘pig‘i shishib, xuddi tizzasidek yo‘g‘on bo‘lib ketgandi. U odeyallardan bittasining chetidan uzun qilib yirtib oldi-da, to‘pig‘ini mahkam siqib bog‘ladi. Keyin yana bir necha parcha yirtib, mokasini va paypoq o‘rnini bosar, deb oyog‘iga aylantirib o‘radi-da,

[1] **Mokasini** – qalin matodan tikilgan poyabzal.



qaynagan suvdan ichib oldi, soatni buradi, so‘ng odeyalga o‘ranib yotdi.

U dong qotib uxladi. Yarim tunga borib qorong‘i tushdi, lekin bu uzoqqa cho‘zilmadi. Shimoli-sharqdan quyosh ko‘tarildi, to‘g‘rirog‘i, o‘sha tomondan tong yorisha boshladi, chunki quyosh yuzini quyuq tuman qoplagan edi. Soat oltida u chalqancha holda uyg‘ondi, kulrang osmonga qaradi va och qolganini sezdi. Tirsagiga suyanib, qaddini ko‘targan edi, qulog‘iga qattiq pishqirgan tovush eshitildi. Qarasa, unga hushyorlik va qiziqish bilan bir bug‘u qarab turibdi. Bug‘u undan ellik qadamcha narida turardi. Shu ondayoq tovada jizillab qovurilayotgan bug‘u go‘shti hidi dimog‘iga urilgandek, o‘zi go‘sht mazasini totgandek bo‘ldi. Beixtiyor o‘qi yo‘q miltig‘ini olib o‘qtaldi, tepkisini bosib yubordi. Bug‘u cho‘chib bir chekkaga tashlandi va tuyoqlarini tapillatib qochib ketdi.

U so‘kinib, miltig‘ini uloqtirib tashladi, ihrab-ihrab o‘rnidan turishga urinib ko‘rdi, ancha uringandan keyin zo‘rg‘a turib oldi. Bo‘g‘inlari xuddi zanglab qolgandek edi, qaddini rostlash yoki bukish juda mashaqqatli edi. Nihoyat u oyoq bosgandan keyin ham odamga o‘xshab tik turib olish uchun rosa bir daqiqacha urindi.

U chog‘roq bir tepalik ustiga chiqib, atrofga nazar tashladi. Bo‘zrang chimliq dengizdan boshqa hech narsa – na daraxt, na biron buta – hech narsa ko‘rinmasdi. Osmon bo‘zrangda edi. Quyosh na nur sochadi, na yilt etgan shu’lasini ko‘rsatadi. U shimol qayoqda ekanini, kecha kechqurun bu yerga qaysi tomondan kelganini eslay olmadi. Lekin u yo‘ldan adashmagan edi. Buni yaxshi bilardi. U tezda Kichik og‘ochlar o‘lkasiga yetib oladi. O‘lka shu yaqin orada, chap tomonda bo‘lishi kerak, ehtimol xuddi mana shu ko‘rinib turgan tepalikning narigi tomonidadir.

U tepalikdan qaytib tushib, yo‘lga otlandi. Tugunini tugdi, uch bo‘lak qilib yashirgan gugurtlari turibdimi-yo‘qmi, deb paypaslab ko‘rdi, lekin sanab o‘tirmadi. U bug‘uning terisidan tikilgan xaltachaga qarab turib, xayol surib qoldi. Xalta uncha katta emas, ichidagi narsalari bilan bir hovuch kelardi. Lekin og‘irligi o‘n besh qadoq bo‘lib, boshqa yukning og‘irligidan qolishmasdi – uni mana shu tashvishga solardi. U xaltani bir tomonga surib qo‘yib, boshqa narsalarni o‘ray boshladi. Keyin xaltachaga qaradi-da, uni shartta qo‘liga oldi, xuddi sahro uning qo‘lidan oltinni tortib olayotgandek atrofga xo‘mrayib qaradi. Yana o‘rnidan turib yo‘lga tushganda boshqa narsalar qatori xaltacha ham uning orqasida edi…

Keling, muhokama qilamiz

1. Bill nima uchun sherigining chaqirig‘iga javob bermadi? Yoki eshitmadimi?
2. Yolg‘iz qolgan yo‘lovchi nimaga Bill uni tashlab ketganiga ishongisi kelmasdi?
3. Billning sherigini tashlab ketishiga, sizningcha, xiyonat kuchlimi yoki omon qolish istagi? Fikringizni asoslab bering.
4. *“Ko‘zlarida yaralangan bug‘uniki singari chuqur qayg‘u ifodasi”* bor insonning holati haqida nima deyish mumkin? Muallif bu o‘rinda nega aynan bug‘u timsolidan foydalangan deb o‘ylaysiz?
5. Yolg‘iz qolgan yo‘lovchining geografiyadan bu qadar xabardorligi sizni hayratga solmadimi? Nima deb o‘ylaysiz: bu ko‘p o‘qiganlik belgisimi yoki ko‘p sayohat qilganlik alomati?

O‘ylab ko‘ring!

Sizningcha, asarning bosh qahramoni aslida kim? Billmi yoki sherigi? Agar Billning sherigi bosh qahramon bo‘lsa, nega ismi keltirilmagan? Siz unga qanday nom bergan bo‘lardingiz?

Tadqiq qiling!

1. Hikoyada keltirilgan geografik nomlar asosida voqealar tasvirlangan hudud (mamlakat) nomini aniqlashga urinib ko‘ring. Turli manbalardan **tundra** tabiati haqida ma’lumot oling. To‘plagan ma’lumotlaringizni hikoyadagi daraxtlar, butalar, hayvonlar tasviri bilan qiyoslang. Ular siz yashaydigan hudud tabiatidan nimasi bilan farq qilishi haqida o‘ylab ko‘ring.
2. Yo‘lovchilar safarga qanday buyum va anjomlar bilan chiqqanini aniqlang va ularning ro‘yxatini izohi bilan quyidagi jadvalda aks ettiring:

Miltiq	Gugurt	Xalta			
O‘qi yo‘q					

Topshiriq

Hikoyaning davomini (2) o‘qing.

HAYOTGA MUHABBAT

2

U chapga burildi. Ahyon-ahyonda to‘xtar va botqoq mevalaridan terib yer edi. Uning oyog‘i butunlay qotib qoldi, o‘zi borgan sari kuchliroq oqsar, lekin oyoq og‘rig‘i qornidagi og‘riqqa qaraganda hech gap emasdi. Ochlik azobi uni ko‘proq qiynar, qornidagi og‘riq esa unga ich-ichidan azob berardi. Endi u Kichik og‘ochlar o‘lkasiga yetib olish uchun qaysi tomonga yurishni bilmasdi. Mevalar uni ochlik azobidan qutqarolmas, til va tanglaylarini lovullatib achitardi. Kichikroq bir soylikka yetib borganda, toshlar orasidan qanotlarini qoqib, qirqirlashib bir to‘p oq kaklik ko‘tarildi. U kakliklarga qarab tosh otdi, lekin tekkizolmadi. Keyin u yukini yerga qo‘yib, xuddi chumchuq poylagan mushukdek, kakliklarning orqasidan pusib-o‘rmalab bora boshladi. Shimi o‘tkir tosh qirralariga tegib yirtilib ketdi, tizzalaridan oqqan qon iz qoldirib borardi. Lekin ochlik azobi shu qadar kuchli ediki, u boshqa hech qanday og‘riqni sezmasdi. U chalchiqzor chimliqlar ustidan o‘rmalab borar, kiyimlari shalabbo bo‘lib ketgan, badani sovuqdan dir-dir titrardi-yu, lekin faqat ovqat haqida o‘ylar, boshqa hech narsani sezmasdi. Atrofidan hadeganda par etib uchib ketayotgan kakliklarning qir-qiri endi uni masxara qilayotgandek tuyuldi. U kakliklarni so‘kib qo‘ydi-da, ularga qarab qichqirmoqqa boshladi. Bir gal u kaklikka juda yaqin kelib qoldi, qush chamasi uxlab yotgan bo‘lsa kerak. U qush toshlar orasidagi uyasidan parillab uchib chiqmaguncha odam uni ko‘rmadi. Kaklik bexosdan parillab chiqib qolganiga qaramay, odam changal soldi. Qo‘lida qushning uchta pati qoldi. U uchib ketayotgan qush orqasidan uzoq qarab turdi, kaklik go‘yo uning boshiga katta halokat keltirgandek odam ko‘nglida qushga nisbatan cheksiz nafrat uyg‘ondi. Keyin orqasiga qaytib, yukini ko‘tarib oldi.

Choshgohda u bir botqoqqa yetib keldi, bu yerda ov ko‘proq edi. Xuddi unga o‘chakishganday oldidan yigirmatacha bug‘u o‘tib ketdi, ular shunday yaqindan o‘tdiki, miltiq bilan bemalol otib olsa bo‘lardi. Bug‘ularni quvlagisi keldi, quvlasa ushlab olishiga juda ishonardi. Uning oldidan kaklik tishlagan bir qora tulki ham o‘tib ketdi. U qichqirib yubordi. Shunday qattiq qichqirdiki, cho‘chib ketgan tulki o‘zini bir chetga urdi, ammo kaklikni og‘zidan tushirmadi.

Kechqurun u qamishlar orasidan oppoq ohakdek loyqalanib oqayotgan ariqcha yoqalab borardi. Bir qamishning ostidan mahkam ushlab, xuddi piyozga o‘xshagan bir narsani sug‘urib oldi. Qamishning tomiri yumshoq bo‘lib, chaynaganda qars-qars ovoz chiqarar edi. Lekin mazasi taxir, xuddi chalchiqzor mevasiga o‘xshagan sersuv bo‘lib, och qornini to‘yg‘azmasdi. U yukini yerga tashladi-da, xuddi kavsh qaytarayotgan molga o‘xshab kavshana-kavshana qamishlar orasidan o‘rmalab ketdi. U juda charchagan, biroz orom olgisi, yotib uxlagisi kelardi, lekin Kichik og‘ochlar o‘lkasiga yetib olish orzusi, undan ham zo‘rroq bo‘lgan ochlik azobi unga tinchlik bermasdi. U bunday uzoq shimolda qurt va qurbaqa bo‘lmasligini bilsa ham chuqurchalardan qurbaqa axtarar, oyoqlari bilan yerni titkilab, qurt qidirar edi.

U har bir ko‘lmakka sinchiklab qaradi. Nihoyat qosh qorayganda, bir chuqurda bittagina baliq suzib yurganini ko‘rib qoldi. U qo‘lini yelkasigacha suvga tiqdi. Lekin baliqcha qo‘lidan sirg‘alib chiqib ketdi. U baliqni ikki qo‘llab tutmoqchi bo‘lib suvni loyqalatib yubordi. Esi-dardi baliq bilan bo‘lib, hayajondan suvga tushib ketdi, beligacha suvga botdi. Suvni shunday loyqalatib yubordiki, baliqni ko‘rib bo‘lmay qoldi. Shundan keyin u suvning tinishini kutib turdi.

U yana baliqni tutish bilan ovora bo‘ldi, suvni yana loyqalatib yubordi. Ortiq kutishga toqati qolmadi. Yukka qo‘shib bog‘langan paqirchani oldi-da, chuqurdagi suvni chetga olib to‘ka boshladi.

Avvaliga u zo‘r berib ishladi, ust-boshi shalabbo bo‘lib ketdi, shoshganidan suvni chuqurga shunday yaqin to‘kar ediki, suv yana qaytib oqib tushardi. So‘ngra u qo‘lining titrashi va yuragining qattiq urishiga qaramay, xotirjam ishlashga qaror berdi. Yarim soatdan keyin chuqurchada bir hovuch ham suv qolmadi. Biroq baliq yo‘q bo‘lib qolgandi. Uning ko‘zi toshlar orasidagi bir yoriqqa tushdi. Baliq shu yoriqdan katta bir chuqurga o‘tib ketibdi, u chuqurda suv shu qadar ko‘p ediki, uning suvini bir kecha-yu bir kunduzda ham tamom qilib bo‘lmasdi. Yoriq borligini ilgari bilganida, hammadan burun uni tosh bilan berkitib qo‘ygan bo‘lardi, shunda baliq uning qo‘lidan qochib qutulolmasdi.

Odam chalchiq yerga o‘tdi-da, alamiga chiday olmay yig‘lab yubordi. Boshida sekin-sekin yig‘ladi. Keyin atrofni o‘rab olgan shafqatsiz cho‘lni uyg‘otmoqchi bo‘lgandek ovozining boricha ho‘ngrab yig‘layverdi. A’zoyi badani titrab, uzoq yig‘ladi.

U o‘t yoqdi. Qaynagan suvdan ancha ichib, biroz isidi, yotish uchun tosh ustiga kechagidek joy qildi. Yotishdan avval gugurtning ho‘l-quruqligini tekshirib ko‘rdi va soatini burab qo‘ydi. Odeyal ho‘l va muzdek edi. Og‘riqdan oyoqlari o‘tday yonar, lekin u faqat ochlik azobini sezar edi xolos. Kechasi har xil ziyofatlar, mehmondorchiliklar va dasturxonga tortilgan turli noz-ne’matlarni tushida ko‘rib chiqdi.

U sovuq qotib uyg‘ondi, tobi qochgandi. Quyosh ko‘rinmasdi. Yer-u ko‘kning bo‘zrang tusi yana ham quyuqlashgan, qattiq shamol esar, birinchi qor tepaliklarni oppoq libosga burkagan edi. U o‘t yoqib suv qaynatguncha havo yana ham quyuqlashgandek, yana ham sovuqlashgandek tuyuldi. Laylakqor yog‘a boshlagan edi. Qor avvaliga yerga tushishi bilan eriyverdi, lekin bora-bora ko‘payib, yer betini qoplab oldi-da, quruq xas-cho‘plarni ho‘l qilib, o‘tni o‘chirdi.

Bu unga yukini orqasiga ko‘tarib, boshi oqqan tomonga qarab yo‘lga chiqish uchun ishora bo‘ldi. U endi Kichik og‘ochlar o‘lkasi haqida ham, Bill haqida ham, Diz daryosi sohilida qayiq ostiga yashirilgan narsalar haqida ham o‘ylamasdi. Uning xayoliga ovqatdan bo‘lak narsa kelmasdi. Ochlik uni aqldan ozdirdi. U qayoqqa ketayotganini ham o‘ylamay qo‘ydi. Unga endi ikki dunyo bir qadam bo‘lib qolgandi. Ishqilib tekis yerda yursa bo‘lgani edi. Yo‘lda ketarkan, u mazasi achchiq bir o‘simlik topdi, giyohdan qancha topsa, hammasini yedi. Lekin bu giyoh juda oz ekan, u yerga yoyilib o‘sganidan qor tagida qolgan edi.

Shu kecha u o‘t yoqmadi, suv ham qaynatmadi, odeyal ichiga kirib oldi-da, ochligicha yotib qoldi. Qor asta-sekin sovuq yomg‘irga aylandi. Yuziga yomg‘ir tomchilari tushayotganini sezib, tez-tez uyqusidan uyg‘onardi. Tong otib, yana quyoshsiz, bulutli kun boshlandi. Yomg‘ir tingan. U endi ochlik to‘g‘risida o‘ylamay qo‘ygandi. Qorni sal-pal og‘irdi xolos, ammo bu og‘riq unga unchalik azob bermasdi. Uning fikri biroz ravshanlashdi. Endi u yana Kichik og‘ochlar o‘lkasi haqida, Diz daryosi bo‘yiga yashirib qo‘yilgan narsalar haqida o‘ylay boshladi.

U yirtiq odeyaldan qolgan qismini yana uzunasiga yirtib, shilinib qontalash bo‘lib ketgan oyog‘ini bog‘ladi, chiqqan to‘pig‘ining lattasini yangiladi-da, yana yo‘lga tushishga hozirlandi. Yukni ko‘tarib olishdan oldin bug‘u terisidan tikilgan xaltaga uzoq tikilib turdi-yu, yana xaltani o‘zi bilan olib ketdi.

Yomg‘ir qorni eritib yuborgandi, tepachalarning cho‘qqilarigina oqarib turardi. Quyosh ko‘rinib qoldi, bundan foydalanib yo‘lovchi dunyoning to‘rt tomonini belgilab oldi, yo‘ldan adashganligi aniq bo‘ldi. So‘nggi kunlarda chap tomonga ko‘proq ketib qolgan bo‘lsa kerak, endi u to‘g‘ri yo‘lga tushib olish uchun o‘ng tomonga qarab yura boshladi.

Ochlik azobi unga kor qilmay qolgan edi, lekin o‘zining holdan ketganini sezdi. Dam olgani tez-tez to‘xtar, yerdan meva terar va qamishlarni tomiri bilan sug‘urib olardi. Uning tili qaqrab, shishib ketdi. Og‘zida ham achchiq va bemaza ta’m bor edi. Hammadan ko‘proq uni yuragi bezovta qilardi. U bir necha qadam bosmasdan, yuragi duk-duk urib ketar, qinidan chiqib ketay deb dukullab ura boshlardi-da, nafasi bo‘g‘ilib, boshi aylanar, o‘zidan ketib qolay derdi.

Tush paytida u katta bir chuqurda ikkita tangabaliq suzib yurganini ko‘rib qoldi. Chuqurning suvini quritib bo‘lmasdi. Lekin u o‘zini ancha bosib olgandi, paqirchasi bilan baliqlarni tutib oldi. Baliqlar jim-jiloqdek-jimjiloqdek kichkina edi. Lekin uning uncha ovqat yegisi yo‘q edi. Qorin og‘rig‘i ancha pasaygandi. U baliqlarni xomligicha og‘ziga solib, hafsala bilan chaynay boshladi. Ishtahasi bo‘lmasa ham ovqat yeyishga o‘zini majbur qildi, chunki yashamoq uchun ovqat yeyish zarurligini yaxshi bilardi.

Kechqurun u yana uchta tangabaliq tutdi, ikkitasini yeb, uchinchisini ertalabga olib qo‘ydi. Quyosh onda-sonda uchrab turgan xashaklarni quritgandi, u suv qaynatib ichib, biroz isidi. O‘sha kuni u o‘n mildan ortiq yo‘l bosolmadi. Ertasiga yuragi qattiq urib, besh milga yaqin yo‘lni bosib o‘tdi. Qorni ortiq og‘rimay qo‘ydi. Endi u notanish yerlardan borardi, bug‘ular tez-tez uchrar, hatto bo‘rilar ham ko‘rinib qolardi. Uning qulog‘iga ularning uvullagani tez-tez chalinardi. Bir marta u pisib yo‘lni kesib o‘tayotgan uchta bo‘rini ko‘rib qoldi.

Yana tun kirdi. Tongda u biroz o‘ziga kelib, xaltaning qayishini yechdi-da, ichidagi oltinni yerga to‘kdi. Oltinni bab-baravar ikki qismga bo‘ldi. Bir bo‘lagini lattaga o‘rab, uzoqdan yaxshi ko‘rinib turadigan bir tepalikka, toshlar orasiga yashirib qo‘ydi. Ikkinchi qismini yana xaltaga solib, og‘zini bog‘ladi. Keyin u bitta-yu bitta odeyalini yirtib, oyoqlarini o‘radi. Lekin u hamon miltig‘ini tashlamasdi, chunki Diz daryosi bo‘yida yashirib qo‘yilgan narsalar orasida patronlar bor, axir.

Bugun hamma yoqni quruq tuman qopladi. Shu kuni u yana ochlik azobini tortdi. Yo‘lovchi juda zaiflashib qolgan, tez-tez boshi aylanar, vaqti-vaqti bilan hech narsani ko‘rmay qolardi. U endi tez-tez qoqilar, yiqilar edi. Bir marta u kaklik uyasi ustiga yiqilib tushdi. Uyada endigina tuxumni yorib chiqqan kaklik bolalari bor ekan. U shoshib-pishib ularni tiriklayin og‘ziga sola boshladi. Kaklik bolalarining suyaklari uning tishlari orasida xuddi tuxum po‘stlog‘i singari qasirlar edi. Ona kaklik uning tepasida charx aylanib uchar va achchiq-achchiq faryod qilardi. Odam miltiq qo‘ndog‘i bilan kaklikni urib tushirmoqchi bo‘ldi, lekin qush chap berib qochdi. Keyin u kaklikka tosh ota boshladi, qanotini sindirdi. Kaklik yaralangan qanotini sudrab, bir tomonga qarab qochdi. Odam uning orqasidan quvlashga tushdi.

Kaklik bolalari uning ishtahasini yana ham ochib yubordi. U kalovlanib, oqsoqlanib, goh kaklikka tosh otib bo‘g‘iq tovush bilan qiyqirar, goh har yiqilganda chidam bilan o‘rnidan turib, qovog‘ini solib, indamay qadam tashlar edi, boshi aylanganda hushidan ketmaslik uchun ko‘zlarini ishqalar edi.

Kaklik orqasidan quvib borayotib, pastlikdagi bir chalchiqzorga duch keldi. Uning ko‘zi ho‘l chimliqdagi odam iziga tushdi. Bu izlar uniki emasligi ravshan edi. Billning izlari bo‘lsa kerak. Lekin u to‘xtab turolmasdi, chunki kaklik tobora undan uzoqlashar edi.

U qushni quvlay berib charchatdi, lekin o‘zining ham tinkasi quridi. Kaklik yonboshiga ag‘darilib og‘ir-og‘ir nafas olib yotardi, lekin odam ham o‘n qadamcha berida entikib yotar, qushga yetib olishga sira ham madori qolmagandi. Odam biroz dam oldi, lekin qush ham nafasini rostlagandi. U qo‘l uzatishi bilan qush tipirlab qochdi. Yana quvishga tushdi. Qosh qorayib, qush ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Odam juda charchaganligidan madori qurib qoqildi va orqasidagi yuki bilan yiqildi-da, yuzlari shilinib

ketdi. U anchagina qimirlamay yotdi, keyin yonboshiga ag‘darilib, soatini burab qo‘ydi-da, tong otguncha shu holatda yotib qoldi.

Yana tuman bosdi. Odeyalning yarmi oyoqni o‘rashga ketdi. Billning izini u qaytib topolmadi. Endi unga baribir edi. Ochlik uni tinmay olg‘a haydardi. Bordi-yu... Bordi-yu, Bill ham adashib qolgan bo‘lsa-chi? Tushga borib u juda ham holdan toydi. U yana oltinni ikkiga bo‘ldi. Bu gal o‘lchab o‘tirmay, yarmini yerga to‘kib qo‘ya qoldi. Kechga borib, odeyalning yarmini, paqircha va miltiqni olib qolib, oltinning hammasini yerga to‘kib tashladi.

Ba’zi fikrlar uning miyasini juda chulg‘ab olgandi. Tasavvurida miltiqda xuddi bir o‘q bordek, u esa buni ko‘rmay qolgandek edi. Shu bilan bir vaqtda miltiqda o‘q yo‘qligini yaxshi bilardi. Lekin bu xomxayol uni sira tinch qo‘ymasdi. Pirovardida miltig‘iga qarab, o‘qning yo‘qligiga ishonch hosil qildi. Shunday hafsalasi pir bo‘ldiki, go‘yo u, haqiqatan ham, o‘q borligini kutgan edi.

Yarim soat o‘tdi. Keyin miyasiga yana o‘sha fikr keldi, u bu fikrni miyasidan chiqarib tashlay olmadi-da, o‘zini biroz ovutish uchun miltig‘ini yana tekshirib chiqdi. Ahyon-ahyonda miyasi ishlamay qolar, o‘zi esa jonsiz narsadek beixtiyor kalovlanib borar edi; g‘alati xayollar va bema’ni tasavvurlar uning miyasini qurtday kemirar edi. Lekin u tez o‘ziga kelardi, chunki ochlik uni hamma vaqt haqiqatga qaytishga majbur qilardi. Bir marta uning ko‘z oldida shunday bir ajib manzara paydo bo‘ldiki, hushidan ketib qolishiga sal qoldi. Uning oldida bir ot turardi. Ot! U ko‘zlariga ishonmadi. Ko‘z oldi jimirlashib, atrofni tuman bosganday bo‘ldi. U zo‘r berib ko‘zini ishqaladi, ko‘z oldi ravshanlanganda qarasa, qarshisida ot emas, kattakon bir targ‘il ayiq turibdi. Ayiq unga o‘qrayib-o‘qrayib qarardi. U miltig‘ini yelkasidan oldi-yu, shu ondayoq esini yig‘di. Miltiqni qo‘yib, munchoq qadab tikilgan qinidan pichog‘ini sug‘urdi. Uning oldida go‘sht va hayot turardi. Bosh barmog‘i bilan pichoqning tig‘ini tekshirib ko‘rdi. Pichoqning tig‘i ham, uchi ham o‘tkir edi. U hozir ayiqqa tashlanib, uni o‘ldiradi. Lekin uning yuragi xuddi xavfdan ogohlantirayotgandek duk-duk ura boshladi. Keyin birdan yuragi qinidan chiqar darajada sakrab ketdi; miyasi xuddi iskanjaga olgandek qattiq og‘ridi, ko‘z oldi qorong‘ilashdi.

Hozirgina jo‘sh urib turgan botirlik o‘rnini qo‘rquv egalladi: u shu qadar zaif tortib ketdiki ayiq hujum qilsa, nima bo‘ladi? U mumkin qadar haybatliroq bo‘lib ko‘rinish uchun qaddini rostladi, pichoqni qo‘liga olib, to‘g‘ri ayiqning ko‘zlariga tikildi. Yirtqich lapanglab oldinga bir qadam bosdi, ikki oyog‘ini ko‘tarib o‘kirib yubordi. Odam qochganda, ayiq uning orqasidan quvgan bo‘lardi. Lekin odam qo‘rquvni bosib, o‘rnidan qimirlamadi; u ham yirtqich hayvonday dahshat bilan o‘kirib yubordi, bu o‘kirik qo‘rquv ifodasi edi, chunki qo‘rquv yashash uchun kurash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ayiq undan qo‘rqmay tik turgan mana shu sirli maxluqdan hayiqib, o‘kirgancha bir tomonga chekindi. Lekin odam o‘rnidan qimirlamadi. U xavf o‘tib ketguncha qaqqayib turaverdi, keyin xuddi bezgak tutgandek titrab-qaqshab ho‘l chimliqqa yiqildi. U biroz o‘ziga kelib, qo‘rquv ichida yana yo‘lga tushdi. U endi ochlikdan o‘lishdan emas, balki hayot uchun kurashning so‘nggi intilishlari so‘nguncha yirtqich hayvonlar panjasida o‘lib ketishdan qo‘rqardi. Atrofida bo‘rilar izg‘ib yuribdi.

Bo‘rilar ikkita-ikkitadan, uchta-uchtadan bo‘lib, tez-tez uning yo‘lini kesib o‘tardi. Lekin ular odamga yaqin kelmasdi. Ular juda ham ko‘p emasdi. Bundan tashqari, ular qarshilik ko‘rsatmaydigan bug‘ularni ovlashga o‘rgangan edi, ikki oyoqli g‘alati maxluq esa chang solib qolsa ham, tishlab olsa ham ajab emasdi.

Kechga borib u yerda sochilib yotgan suyaklarni ko‘rib qoldi. Bo‘rilar xuddi mana shu yerda ovni qo‘lga tushirgan edi. Bir soat ilgari bu bug‘ucha sakrab-sakrab, ma’rab yurgandi. Odam top-toza

qilib qo‘yilgan, yarqiroq qizg‘ish suyaklarga qarab turdi. Suyaklarning rangi qizg‘ish edi, chunki undagi hayot hali so‘nmagandi. Kechqurunga borib, ehtimol uning taqdiri ham shunday bo‘lar. Hayot shunaqa, hayot bevafo va bebaqo. Lekin hayot alam chektiradi, o‘limda esa qiynalish yo‘q. O‘lmoq uxlamoqdir, o‘lim orom olmoqdir. Bo‘lmasa nima uchun u o‘lishni istamaydi?

Lekin u uzoq o‘ylab o‘tirmadi. Ko‘p o‘tmay u cho‘kka tushdi-da, suyaklarni kemira boshladi, suyaklarga qizg‘ish tus berib turgan hayotning oxirgi nishonalarini so‘rmoqqa tutindi. Go‘shtning o‘tmishdan qolgan xotira singari bo‘lib tuyulgan sezilar-sezilmas mazasi uni o‘zini yo‘qotar darajada hayajonga soldi. Suyakni tishlari orasiga olib, g‘ajiy boshladi. Goh suyak sinar, goh uning tishi sinardi. Keyin u suyakni tosh bilan yanchib, ochko‘zlik bilan yuta boshladi. Shoshilganidan toshni barmoqlariga urar, ammo qancha hovliqmasin, nima uchun og‘riqni sezmayotirman, deb ajablanib qo‘yardi…

Keling, muhokama qilamiz

1. Oziq-ovqat va o‘q-dori yashirib qo‘yilgan joyga yetib borish istagi yo‘lovchiga qanday ta’sir qildi?
2. Uning yo‘l yurishdan to‘xtamagani, xas-cho‘p yig‘ib olov yoqishi, suv qaynatib ichishi, gugurt donalarini qayta-qayta sanashini qanday tushunish mumkin?
3. Nega ayiq ham, bo‘rilar ham oyoqda bazo‘r turgan yo‘lovchiga tegmadi? Bu inson bolasiga rahmdillik belgisi edimi yoki boshqa sabab bormi?
4. Nima deb o‘ylaysiz: nega yo‘lovchi tishlari sinib, barmoqlari jarohatlansa ham og‘riqni sezmadi?
5. Yo‘lovchining o‘qsiz miltiqni olib qolib, oltinlardan birma-bir voz kechishi, avval yashirib qo‘yib, keyin butunlay to‘kib yuborishini qanday tushunish mumkin? Axir u oltin izlab yo‘lga chiqmaganmidi? Fikringizni matnga tayanib, dalillang.
6. Insonning bo‘rilar o‘ljasidan qolgan suyaklarni hayajon bilan kemirishi qanchalik haqiqatga yaqin? Aslida aksincha bo‘lishi kerak emasmi?

Tadqiq qiling!

Jadval chizing. Uning chap tarafiga hikoyaning o‘qilgan qismi uchun kalitso‘zlar ro‘yxatini tagma-tag yozing. Jadvalning o‘ng tarafiga nega shu so‘zni kalitso‘z sifatida tanlaganingizni izohlang.

Masalan:

Talvasa	Oltin ilinjidagi va jon vahmidagi odam holatini ifodalaydi.

Topshiriq

Hikoyaning davomini (3) o‘qing.

HAYOTGA MUHABBAT

3

Qor va yomg‘irli kunlar yetib keldi. U endi qachon yotib, qachon yo‘lga tushganini eslay olmasdi. Vaqtni surishtirmay, kechasi ham, kunduzi ham yo‘l bosdi, yiqilgan yerida dam oldi, undagi so‘nayotgan hayot uchquni alangalandi deguncha yana oldinga qarab o‘rmaladi. Odam endi hayot uchun kurashmay qo‘ydi. Undagi hayotning o‘zi o‘lishni istamas, shuning uchun ham uni ilgariga haydardi. U ortiq azob chekmasdi. Uning asablari uyushib qolgan, miyasi esa g‘alati xayollar, shirin tushlar bilan to‘la edi.

U yo‘lda borarkan, bitta qo‘ymay yig‘ishtirib olgan suyaklarni tinmay so‘rar va chaynar edi. U ortiq tepaliklarga ko‘tarilmas, ariqlarni kechib o‘tmasdi, u endi keng vodiydan oqib o‘tayotgan anhor yoqalab borardi. Uning ko‘ziga xayoliy manzaralar ko‘rinardi. Uning tani bilan joni birga borardi-yu, shunday bo‘lsa ham, ular bir-biridan ajralgandek edi: ularni bir-biriga bog‘lab turgan hayot rishtasi shu qadar ingichka edi.

Bir kuni u yassi tosh ustida yotganida hushi o‘ziga keldi. U uzoq vaqtgacha qimirlamay yotdi. Quyosh saxiylik bilan nur sochib, uning ayanchli badanini isitar edi. U ming azob-uqubat bilan bir yonboshiga ag‘darildi. Pastda katta sokin bir daryo oqib yotardi. Bu daryo odamga notanish edi: bu uni ajablantirdi. U notanish daryoning oqimini shoshmasdan, sovuqqonlik bilan to ufqqa qadar kuzatdi-da, uzoqda yarqirab turgan dengizga quyilayotganini ko‘rdi. Shunday bo‘lsa ham bu narsa uni sira hayajonlantirmadi. “Qiziq, – deb o‘yladi u. – Ko‘zimga shunday ko‘rinyaptimi yoki miyam aynib qoldimikan?” Dengiz o‘rtasida langar tashlab turgan kemani ko‘rganda bu fikrning to‘g‘ri ekaniga yana bir bor ishondi. U bir zum ko‘zlarini yumib, yana ochdi. Qiziq, o‘sha narsalar yana ko‘rindi. Bunga ajablanmasa ham bo‘lardi. Miltig‘ida patron bo‘lmaganidek mana shu sahroning qoq o‘rtasida dengizning ham, kemaning ham bo‘lishi mumkin emasligini bilardi u.

Orqadan xirillagan bir tovush eshitildi, bu xo‘rsinishmi, yo‘talmi – bilib bo‘lmas edi. G‘oyat zaiflik va karaxtlikni juda sekinlik bilan yengib, u ikkinchi yonboshiga ag‘darildi. Yaqinida hech narsa ko‘rinmadi. U sabr bilan kuta boshladi. Yana xirillagan va yo‘tal tovushi eshitildi. Yigirma qadamcha narida o‘tkir qirrali ikki toshning orqasidan bir bo‘rining kulrang boshi ko‘rindi. Uning quloqlari boshqa bo‘rilarniki singari tik emas, ko‘zlari xira va qon quyilgan, boshi solingan. Bo‘ri kasal bo‘lsa kerak: u tinmay aksa urar va yo‘talar edi.

“Hech bo‘lmaganda bunisi haqiqatdir”, deb o‘yladi u va sarob pardasi bilan qoplanmagan, haqiqiy dunyoni ko‘rish uchun boshqa yonboshiga ag‘darildi. Lekin dengiz hali ham ilgarigidek uzoqda yaltirab turar, kema ham aniq ko‘zga chalinardi. Ehtimol bu rostdan ham haqiqatdir. U ko‘zlarini yumib o‘ylay boshladi. Pirovardida hamma narsa ayon bo‘ldi. U shimoli-sharqqa qarab yurgan va Diz daryosidan uzoqlashib, Koppermayn daryosi vodiysiga kelib qolgan. Sokin oqayotgan shu daryo Koppermayn daryosining xuddi o‘zginasi. Yaltirab turgan dengiz Shimoliy muz dengizi. Bu kema kit ovchilarining kemasi bo‘lib, Makkenzi daryosi dengizga quyiladigan joydan sharq tomon ancha ketib qolgan. Bu kema Koronatsiya ko‘rfazida turibdi. U bir vaqtlar ko‘rgan Gudzon ko‘rfazi kompaniyasining xaritasini esladi-yu, shunda bor gap ravshan va tushunarli bo‘lib qoldi.

U yerga o‘tirib oldi-da, eng zarur ishlar haqida o‘ylab ketdi. O‘rab bog‘langan odeyal parchalari titilib ketganidan oyoqlari shilinib, qip-qizil go‘sht bo‘lib qolgandi. Eng so‘nggi odeyalni ham ishlatib

bo‘lgan. Miltiq bilan pichoq yo‘qolgan. Qalpog‘i ham tushib qolibdi, qalpoq bilan birga astariga yashirilgan gugurt ham yo‘qolgandi, lekin qog‘ozga o‘rab, hamyoniga yashirib qo‘ygan gugurt hali ham turibdi. U soatiga qaradi, soati yurib turar va o‘n birni ko‘rsatardi. Soatni burab turgan bo‘lsa kerak.

U xotirjam, aqli joyida edi. Juda ham holdan toyganiga qaramay, og‘riqni sezmas, ovqat yegisi ham kelmasdi. Ovqat haqida o‘ylagisi ham kelmasdi. U nima qilmasin, hammasini idrok hukmi bilan qilardi. U shimining pochasidan to tizzasigacha yirtib oldi-da, to‘pig‘ini o‘rab bog‘ladi. Chelakchasini nima uchundir tashlamagan edi. Kemaga qarab yo‘l solishdan avval suv qaynatib ichish kerak, bu safarning juda og‘ir bo‘lishini u oldindan bilardi.



U juda sekin qimirlar, shol odamdek qaltirar edi. Quruq xashak yig‘moqchi bo‘ldi-yu, o‘rnidan turolmadi. Bir necha marta o‘rnidan turishga urinib ko‘rdi, bo‘lmagach, emaklab ketdi. Bir gal hatto kasal bo‘rining oldiga juda yaqin borib qoldi. Bo‘ri istar-istamas o‘zini chetga oldi va zo‘rg‘a tilini qimirlatib, tumshug‘ini yaladi. Uning tili sog‘lom bo‘rinikidek qizil emas, kulrang, sarg‘ish bo‘lib, yelim singari quyuq shilliq bilan qoplangan. Odam qaynagan suvdan ichdi-da, deyarli kuch-quvvatdan qolgan bo‘lsa ham, o‘rnidan turishga, hatto yurishga ham madori yetishini his qildi. Daqiqa sayin to‘xtab dam olardi, bazo‘r qadam tashlar, bo‘ri ham uning orqasida xuddi shu yo‘sinda sudralib borardi.

Qorong‘i tushib, yarqirab turgan dengiz zulmat ichiga g‘arq bo‘lganda, u oraliqdagi masofa ko‘p emas, to‘rt milga qisqarganini angladi.

Tun bo‘yi kasal bo‘rining yo‘talishi va ba’zan bug‘u bolalarining ma’rashi eshitilib turdi. Atrofda hayot qaynamoqda, kuch-quvvatga to‘la, sog‘lom hayot. U esa orqasidan kasal bo‘ri ergashib kelayotganini, kasal odam avval o‘ladi, degan umidda ekanini tushunar edi. Ertalab turib qarasa, bo‘ri unga g‘amgin va ochko‘zlik bilan tikilib turibdi. Bo‘ri dumini qisib, xuddi tinkasi qurigan it kabi boshini quyi solib turardi. Bo‘ri sovuq shamolda qaltirar, odam xirillagan tovush bilan unga so‘z qotganda, tishini tirjaytirib, irillar edi…

Ufqdan yorqin quyosh ko‘tarildi. Odam choshgohga qadar yiqilib-surinib yaltiroq dengizda turgan kemaga qarab yurdi. Tushdan keyin u bir izga duch keldi. Bu boshqa bir odamning izi bo‘lib, u odamning emaklab yurgani bilinib turardi. “Ehtimol, bu Billning izidir”, deb o‘yladi u xotirjam. Unga baribir edi. To‘g‘risi, u hech narsani sezmay, hech narsadan hayajonlanmay qo‘ygan edi. U hatto og‘riqni ham sezmasdi. Qorin bilan asablari go‘yo mudrab qolgandek. Lekin hali so‘nmagan hayot uchquni uni olg‘a boshlardi. U juda charchagan, lekin sira o‘lgisi kelmas edi. Shuning uchun ham u chalchiqzordan meva terib yer, tangabaliq ovlar, suv qaynatib ichar va olazarak bo‘lib, kasal bo‘rini kuzatar edi.

U o‘rmalab o‘tgan boshqa odamning izidan borardi. Ko‘p o‘tmay, o‘zidan oldingi odamning manziliga yetib keldi. Ho‘l chimliq ustida kemirib tashlangan suyaklar va bo‘rining iziga ko‘zi tushdi. Yerda xuddi o‘zinikiga o‘xshash, o‘tkir tishlar tortqilab yirtgan bug‘u terisidan tikilgan xalta yotardi. Bunday og‘ir yukni ko‘tarishga madori kelmasa ham kuchsiz barmoqlari bilan qopni yerdan ko‘tarib oldi. Bill oltinlarini so‘nggi daqiqalarga qadar tashlamagan. Ha-ha-ha! U hali Billning ustidan masxara

qilib kuladi, tirik qoladi va xaltani yarqirab turgan dengizdagi kemaga olib ketadi. U xuddi qarg‘aning qag‘illashiga o‘xshagan bo‘g‘iq ovozda dahshatli kulardi. Kasal bo‘ri ham unga jo‘r bo‘lib xirillagan tovush bilan uvulladi. Odam darhol jim bo‘ldi. Agar mana shu suyaklar Billniki bo‘lsa, shu toza kemirilgan, qizg‘ish suyaklar Billniki bo‘lsa, qanday qilib uning ustidan kulyapti-ya!

U yuzini o‘girib oldi. Nima qilsin, Bill uni tashlab ketdi, lekin u Billning oltinlarini olmaydi, uning suyaklarini kemirmaydi. Agar mening o‘rnimda Bill bo‘lganda, shunday qilardi, deb o‘ylab qo‘ydi va kalovlanib yo‘lga tushdi.

U kichkina bir ko‘lga duch keldi. Baliq yo‘qmikan deb chuqurchaga engashib qaradi-yu, xuddi ilon chaqqandek seskanib o‘zini orqaga tashladi. Suvda o‘z aksini ko‘rib qoldi. Basharasi shu qadar qo‘rqinchli ediki, bu diydasi qotib qolgan odamning ham ko‘ngliga vahima soldi. Ko‘lchada uchta baliq suzib yurardi, lekin ko‘lcha kattagina bo‘lib, suvni quritishga uning qurbi yetmasdi. U baliqlarni chelakcha bilan tutishga urinib ko‘rdi, keyin bu fikrdan qaytdi. O‘lgudek charchaganidan suvga yiqilib, cho‘kib ketaman, deb qo‘rqdi. Cho‘kib ketishidan qo‘rqib u qumloq sohilda yog‘och xodalar ko‘p bo‘lsa ham, sol yasab, daryoda suzib ketishga jur’at qilolmadi. O‘sha kuni u kemagacha bo‘lgan masofani uch milga qisqartirdi. Ertasiga esa ikki mil yo‘l bosdi. Endi u xuddi Billga o‘xshab o‘rmalab borardi. Beshinchi kuni kechqurun kemaga yetish uchun yana yetti mil yo‘l qolgan edi; endi bir kunda bir mil yo‘l bosishga ham madori qolmadi. Erta kuzning iliq kunlari hali tugamagan edi, u esa goh o‘rmalar, goh hushidan ketib yiqilardi, kasal bo‘ri esa yo‘talib, aksa urib, uning orqasidan qolmay sudralib borardi. Odamning tizzalari qip-qizil go‘sht bo‘lib ketgan, tovonlari bundan ham battar edi. Ko‘ylagidan yirtib olib, tizza va tovonlarini o‘rab bog‘lagan bo‘lsa ham orqasidan chimliq va toshlar ustiga qonli iz qoldirib borardi. U bir marta orqasiga qayrilib qarab, bo‘rining ochko‘zlik bilan qonli izlarni yalayotganini ko‘rib qoldi. Agar bo‘rini biryoqli qilmasa, holi nima kechishini juda yaxshi bilardi. Shundan keyin hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan kurashlarning eng shiddatlisi boshlandi: emaklab borayotgan kasal odam, uning orqasidan sudralayotgan kasal bo‘ri – ikkisi ham chala o‘lik holda bir-birini poylab, sahroda sudralib borardi.

Bo‘ri sog‘ bo‘lganda, odam bunchalik qarshilik ko‘rsatib o‘tirmagan bo‘lardi, lekin mana shu badburush, deyarli o‘laksa bo‘lib qolgan razil maxluqning qorniga tushishini o‘ylasa, ko‘ngli aynir edi. U yana alahlay boshladi, yana ko‘ziga allanimalar ko‘rina boshladi, bu safar uning o‘ziga kelishi ancha qiyin bo‘ldi. Bir marta xuddi qulog‘i ostida kimdir tez-tez nafas olayotganini eshitib, hushiga keldi. Tepasida turgan bo‘ri o‘zini orqaga tashladi va qoqilib ketdi-da, nimjonligidan yiqilib tushdi. Bu juda kulgili edi, lekin odam kulmadi. U hatto qo‘rqmadi ham. U endi qo‘rqish nimaligini ham sezmay qolgan edi. Uning ongi bir daqiqaga ravshanlashdi, u o‘ylab ketdi. Kemaga qadar endi ko‘pi bilan to‘rt mil yo‘l qolgandi. U tuman bosgan ko‘zlarini ishqalab, kemani juda ravshan ko‘rdi, yarqirab turgan dengizni kesib o‘tayotgan oq yelkanli qayiqchani ham ko‘rdi. Lekin bu to‘rt millik masofani bosib o‘tishga holi qolmagan edi. Odam buni bilardi, shuning uchun ham bezovtalanmadi. Yarim mil ham yo‘l bosa olmasligiga aqli yetardi. Shunday bo‘lsa ham yashashni istardi. Shuncha azob-uqubatlardan keyin o‘lib ketish bema’nilik bo‘lardi. Taqdir undan juda ko‘p narsa talab qilardi. Joni halqumiga tiqilganda ham u o‘limga bo‘ysunishni istamasdi. Ehtimol bu aqlsizlik edi, lekin u o‘lim changaliga tushib qolgan bo‘lsa ham, uning changalidan qutulib chiqish uchun jon-jahdi bilan kurashaverdi.

U ko‘zlarini yumib, bor kuchini to‘pladi. Xuddi to‘lqin singari uning vujudini bosib olayotgan alahsirashga yon bosmaslik uchun o‘zini tetik tutishga urinardi. Bu to‘lqin o‘qtin-o‘qtin ko‘tarilib, uning



ongini xiralashtirardi. Ba’zan u chorasiz tipirchilab, o‘zini bilmay qolar, keyin yana bir amallab hushini yig‘ar edi.

U qimirlamasdi, chalqancha yotganicha kasal bo‘rining xirillagan tovushi tobora yaqinroq eshitilayotganiga quloq soldi. Bo‘rining nafasi juda yaqindan eshitila boshladi-yu, quruqshab qolgan til xuddi shildiroq qog‘oz singari uning yuzini timdaladi. Qo‘llari yuqoriga cho‘zildi, barmoqlari xuddi changak singari bukildi, lekin mehnati zoye ketdi. Tez va ishonch bilan harakat qilish uchun kuch kerak, unda esa kuch yo‘q. Bo‘ri sabrli edi, lekin odam undan ham sabrliroq edi. U hushdan ketib qolmaslik uchun urinib va bo‘rini poylab, yarim kun qimirlamasdan yotdi. Bo‘ri uni yemoqchi edi, qo‘lidan kelsa, odam ham bo‘rini yemoqchi edi. Vaqti-vaqti bilan u hushidan ketib qolar, shunda u uzoq-uzoq tushlar ko‘rar edi; lekin tushida ham, o‘ngida ham mana hozir bo‘ri tili bilan meni yalaydi, deb kutib yotardi.

Nafas tovushini eshitmadi, lekin bo‘ri uning qo‘lini yalayotganini sezib o‘ziga keldi. Odam kutib yotdi. Bo‘ri uning qo‘lini tishlari orasiga olib, kuchining boricha qisdi, keyin tishini shuncha vaqtdan beri kutgan g‘animatiga qattiqroq botiraverdi. Lekin odam ham shu paytni sabrsizlik bilan kutgandi, uning tishlangan qo‘llari bo‘rining jag‘ini qisdi. Bo‘ri bazo‘r o‘zini himoya qilardi, odam bir qo‘li bilan uning jag‘ini qisardi, ikkinchi qo‘lini ham uzatib bo‘rining tomog‘idan bo‘g‘a boshladi. Besh daqiqadan keyin odam o‘zining butun og‘irligi bilan bo‘rini bosib tushdi. Bo‘rini bo‘g‘ib o‘ldirish uchun uning kuchi yetmas, shunda odam tishi bilan bo‘rining tomog‘iga yopishdi, uning og‘zi yungga to‘ldi. Yarim soat o‘tdi, odam o‘z tomog‘iga issiq qon quyilayotganini sezdi. Xuddi og‘ziga eritilgan qo‘rg‘oshin quyilayotgandek uni yutish bir azob edi. Lekin u o‘zini chidashga majbur qildi. Keyin odam chalqanchasiga ag‘darildi-da, uyquga ketdi.

Kit ovlovchi “Bedford” kemasida ilmiy ekspeditsiya a’zolari bor edi. Ular kema palubasida turib, qirg‘oqda g‘alati bir maxluqni ko‘rib qolishdi. Bu maxluq qum ustida zo‘rg‘a o‘rmalab, dengiz tomon kelardi. Olimlar buning nima ekanini bilolmadilar, tabiiyotshunos bo‘lganliklari uchun qayiqchaga o‘tirib, qirg‘oqqa suzib ketdilar. Ular tirik bir maxluqni ko‘rdilar, lekin uni odam deb bo‘ladimi?! U hech narsani eshitmas, hech narsani tushunmas, qum ustida ulkan qurt singari buralar edi. U oldinga deyarli siljimas, lekin orqasiga ham qaytmasdi, buralib-buralib oldinga qarab harakat qilar va soatiga yigirma qadamdan yo‘l bosardi.

Uch hafta o‘tgandan keyin u “Bedford” kemasida karavotda yotgan holda ko‘z yoshlarini oqizib, o‘zining kimligi va qanday mashaqqatlarni boshidan kechirganini hikoya qilib berdi. U onasi, serquyosh janubiy Kaliforniya apelsin daraxtlari va gullar orasiga ko‘milgan uyi haqida poyma-poy gapirib berdi.

Bir necha kun o‘tgandan keyin u olimlar va kapitan bilan birga kayut-kampaniyada o‘tirar edi. U ovqatning mo‘lligidan quvonar, boshqalarning og‘ziga tushib yo‘q bo‘lib ketayotgan har bir luqma uni zo‘r tashvishga solardi. Uning aqli joyida, lekin stol atrofida o‘tirgan odamlarga nafrat bilan boqardi. Ovqatning tamom bo‘lib qolishidan qo‘rqib, bezovta bo‘lardi. U hadeb oshpazdan, xizmatchi boladan, kapitandan ovqat zaxirasini surishtirardi. Ular yuz martalab tasalli bersalar ham ishonmas, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani ovqat omboriga tez-tez tushib turardi. Kemadagilar uning o‘nglanayotganini

sezib qoldilar. U kun sayin semiraverdi. Olimlar bosh chayqab turli taxminlar qilishardi. Unga ovqatni kamroq bera boshladilar, lekin shunda ham semirib, qorin sola boshladi...

Olimlar indamay uni o‘z holiga qo‘yib qo‘ydilar. Ular o‘ziga bildirmay uning karavotini tekshirdi. Karavotning osti qotgan non bilan to‘la edi. To‘shakning ichini ham qotgan non bilan to‘ldirgan ekan. Har bir burchakka non yashirilgan. Lekin uning miyasi joyida edi. U faqat yana och qolguday bo‘lsam, deb shuning chorasini ko‘rardi xolos. Olimlar bu kasallik tez o‘tib ketadi, degan fikrda edi. Haqiqatan ham “Bedford” kemasi San-Fransisko gavaniga langar tashlamasdanoq bu kasallik o‘tib ketdi.

F. Abdullayev tarjimasi

Keling, muhokama qilamiz

1. Yo‘lovchi bug‘u terisidan tikilgan xaltaga qarab, Billning keyingi taqdiri haqidagi haqiqatni qanday bilib qoldi?
2. Nega yo‘lovchi Billning xaltasini olishga oldi-yu, oltinlariga tegmadi?
3. Odamning *“Bill oltinlarini so‘nggi daqiqalarga qadar tashlamagan”* degan gapi Billning tabiatiga xos qanday xususiyatni ochib beradi deb o‘ylaysiz? Sizningcha, Billning hayoti bunday yakun topishiga sabab nima? Billni oqlash mumkinmi?
4. *“Billning oltinlarini olmaydi, uning suyaklarini kemirmaydi. Agar mening o‘rnimda Bill bo‘lganda, shunday qilardi, deb o‘ylab qo‘ydi va kalovlanib yo‘lga tushdi”.* Nega yo‘lovchi bunday to‘xtamga kelganini mulohaza qilib, fikringizni ayting.
5. Omon qolgan yo‘lovchi nega kemadagilarga faqat onasi haqida so‘zlab berdi, boshqa oila a’zolarini eslamadi? Bu holat bevosita yozuvchining tarjimayi holiga aloqador bo‘lishi mumkinmi?

Tadqiq qiling!

Quyi sinflarda o‘qiganingiz Ernest Hemingueyning “Chol va dengiz” qissasini yodga oling. Ushbu asar bilan “Hayotga muhabbat” hikoyasini qiyoslang: asar g‘oyasi, umumiy va farqli jihatlarini aniqlang.

Asarlar	“Chol va dengiz”	“Hayotga muhabbat”
Asar g‘oyasi		
Umumiy jihatlar		
Farqli jihatlar		

Tavsiya

Internet manbalari orqali oltin talvasasiga tushgan insonlar haqidagi biror filmni topib, tomosha qiling. Xulosalaringizni yondaftaringizga qayd eting.

ADABIY LABORATORIYA

FANFIKSHN YARATISH

Fanfikshn (inglizcha “fanfiction”dan olingan) – bu mavjud adabiy asar, film, serial yoki boshqa san’at asaridagi personajlar, joylar yoki voqealar asosida ijodiy yondashgan holda yaratiladigan yangi asar.

Fanfikshn – o‘qilgan asarga o‘ziga xos tasavvur bilan yangi voqea va personajlar yoki muqobil hikoyalar qo‘shilgan ijodiy ish. Masalan, “Alpomish” dostoniga yangi personaj qo‘shish yoki asar voqealarini zamonaviy davrga ko‘chirib tasvirlash fanfikshn hisoblanadi.

Fanfikshn yozishni quyidagi ketma-ketlikda bajaring:

1. **Yangi g‘oya o‘ylab topish.** Asar syujetida bo‘lmagan yangi voqea, holat yoki davomiy voqeani tasavvur qiling.
2. **Asar tanlash.** Qaysi adabiy asar yoki qahramonga asoslanishini aniqlashtiring.
3. **Qahramonlar xarakterini saqlash yoki o‘zgartirish.** Aslidagidek qoldirishingiz yoki yangicha xarakter berishingiz mumkin.
4. **Voqea rivojini tuzish (syujet).** Kirish, voqea rivoji, cho‘qqisi (kulminatsiya) va yakuniy qismlarini rejalashtiring.
5. **Yozishni boshlash.** Badiiy uslubda, adabiy til me’yorlariga amal qilib yozishni boshlang.
6. **Tahrirlash.** Tayyorlagan ijodiy ishingizni qayta ko‘rib chiqing, izchillikni ta’minlang va imlo xatolarini tuzating.
7. **Qo‘lbola kitob holiga keltirish.** A4 qog‘ozni ikki buklagan holda 2-sahifasidan yangi ijodiy ishingizni yozing. 1-sahifa uchun muqova dizayni ishlang.

Fanfikshn yozish uchun quyidagilardan birini yoki sinfdan tashqari o‘qigan istalgan asaringizni tanlashingiz mumkin.

- “Alpomish” dostoni
- “Chinor” romani
- “Ulug‘bek xazinasi” romani
- “Farhod va Shirin” dostoni
- “Hayotga muhabbat” hikoyasi



ABDULHAMID CHO‘LPON (1897–1938)

Dars davomida:

– shoir hayoti va ijodini yaqindan o‘rganamiz;
– shoir ijodidagi mavzular va g‘oyaviy yo‘nalishlarni tahlil qilamiz;
– turli amaliy topshiriqlarni bajarish orqali shoir ijodini tadqiq etamiz.

Milliy uyg‘onish davri jadid adabiyotining yorqin namoyandasi, yangi o‘zbek she’riyatining asoschisi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon 1897-yilda Andijonning Qatorterak mahallasida gazlamafurush savdogar va ziyoli Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus o‘g‘li oilasida dunyoga kelgan.

Abdulhamid dastlab eski maktabda, keyin esa Andijon va Toshkent madrasalarida tahsil olgan. U rus-tuzem maktabida ham o‘qib, o‘z ustida tinimsiz ishlashi natijasida *turk, fors, arab va rus* tillarini chuqur o‘zlashtirgan. Qolaversa, Fitrat boshchiligidagi **“Chig‘atoy gurungi”** adabiy jamoasining faol a’zosi bo‘lgan.

1914-yilda Toshkentda Munavvarqori va Ubaydulla Xo‘jayev bilan tanishishi uning milliy uyg‘onish harakati vakili sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynadi. U “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” gazetalari va “Sho‘ro” jurnalida faol ishtirok etdi.

Cho‘lpon 1937-yil kuzida hibsga olinguniga qadar Hamza teatri (hozirgi O‘zbek milliy akademik drama teatri)da adabiy emakdosh, “Mushtum” va “Guliston” jurnallarida adabiy xodim sifatida faoliyat yuritgan.

Umrining so‘nggi yillarida siyosatdan uzoq turishga qanchalik harakat qilmasin, millat ziyolilariga uyushtirilgan qatag‘on tufayli 1938-yil 4-oktyabrda otilgan.

Cho‘lpon she’riyat, nasr, dramaturgiya, tarjima va adabiy tanqid yo‘nalishlarida samarali ijod qilgan. Asarlarida o‘zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy ahvoli, mustamlakachilikka qarshi kurashi va milliy ozodlik g‘oyalari aks etgan.

Shoirning “Uyg‘onish”, “Buloqlar”, “Tong sirlari”, “Soz” kabi she’riy to‘plamlari, “Adabiyot nadir?”, “Muhtaram yozuvchilarimizg‘a”, “Yo‘lda bir kecha”, “Sharq poyezdi keldi”, “Sharq uyg‘ongan”, “Quturgan mustamlakachilar”, “Yo‘l esdaligi” kabi maqola va ocherklari, “Yorqinoy”, “Xalil farang”, “Cho‘rining isyoni”, “Yana uylanaman”, “O‘rtoq Qarshiboyev”, “Hujum”, “Zamona xotini” dramalari, “Kecha va kunduz” roman-dilogiyasi kabi asarlari bor.

Cho‘lponning U. Shekspir, A. Blok, M. Gorkiy, R. Thakur singari mashhur adiblar ijodidan qilgan tarjimalari bugun ham muhim ahamiyatga ega.

Bu qiziq!

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li “Cho‘lpon” taxallusidan tashqari ***“Abdulhamid Sulaymon”, “Abdulhamid Sulaymoniy”, “Qalandar”, “Mirzaqalandar”, “Andijonlik”*** *kabi* taxalluslar bilan ham ijod qilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, unga ***Cho‘lpon – “tong yulduzi”*** taxallusini *Munavvarqori Abdurashidxonov* bergan.

Tavsiya

“Xalq yuragi” turkumida suratga olingan **“Cho‘lpon. Qush esdaligi”** hujjatli filmini tomosha qiling.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi milliy kinofondi.

12



MUTOLAADAN OLDIN

Bugun siz mutolaa qiladigan “Ko‘ngil”, “Buzilgan o‘lkaga”, “Binafsha” va “Go‘zal” kabi she’rlarida Cho‘lponning badiiy tafakkuri, ruhiy holati va jamiyatga munosabati yuksak darajada ifodalangan. Ushbu she’rlarning barchasida shoirning yurak urishi, iztiroblari, tuyg‘ular girdobidagi inson qalbi tasvirlanadi. Har bir she’rda Cho‘lpon poetik mahorati, obrazlar yaratish san’ati orqali o‘quvchini o‘ylantiradi. U adabiyotga yangi she’riyat nafasini olib kirgan shoir sifatida bu asarlarida ham yangilikka intilgani, hurlikni kuylagani namoyon bo‘ladi. Cho‘lpon inson qalbi, jamiyat dardi, go‘zallik va orzular uyg‘unligida betakror she’riy olam yaratgan. Bu she’rlar nafaqat badiiy yuksakligi, balki milliy ong va ruhning uyg‘onishiga xizmat qilishi bilan ham qadrlidir.

KO‘NGIL



Ko‘ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do‘stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?

Haqorat dilni og‘ritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi?
Qilichlar endi sinmasmi?

Tiriksan, o‘lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsan,
Kishan kiyma, bo‘yin egma,
Ki, sen ham hur tug‘ilg‘onsan!

Keling, muhokama qilamiz

1. Shoir o‘zini qiynagan savollarga javobni nima uchun aynan ko‘ngildan so‘rayapti deb o‘ylaysiz?
2. Ko‘ngilning faryod solmasligi – sustlashgani sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. Shoir yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib fikr bildiring.
3. “*Haqorat dilni og‘ritmas, tubanlik mangu ketmasmi?*” misralarida qanday ijtimoiy muammo aks etgan deb o‘ylaysiz? Nima uchun?
4. She’rning uchinchi bandida *“Sen ham hur tug‘ilg‘onsen”* degan fikr orqali Cho‘lpon qanday g‘oyani targ‘ib qilmoqda? Shuningdek, *“kishan”, “qilich”, “bo‘yin egma”* kabi so‘z va iboralar qanday ramziy ma’noga ega? Fikringizni asoslang.

Ijodiy ish

Tasavvur qiling: “Ko‘ngil” she’ridagi **ko‘ngil obrazidasiz**. Shoirning savollariga qanday javob bergan bo‘lardingiz? Nima uchun? Quyidagi jadvalni to‘ldiring:

Shoirning savollari	Ko‘ngilning javoblari	Javob uchun asoslar
Nega kishanlar birla do‘stlashding?		
Nechun sen muncha sustlashding?		
Tubanlik mangu ketmasmi?		
Kishanlar parchalanmasmi?		
Qilichlar endi sinmasmi?		

O‘ylab ko‘ring!

Mustamlakachilik siyosati nima? Uning **ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy oqibatlarini** yurtimiz tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning 90-yillarigacha bo‘lgan davr) misolida tushuntiring.

BUZILGAN O‘LKAGA

Ey tog‘lari ko‘klarga salom bergan zo‘r o‘lka,
Nega sening boshing uzra quyuq bulut ko‘lanka?
Uchmoxlarning[1] kavsaridek pokiza,
Sadaflarning donasidek top-toza
Salqin suvlar tog‘dan quyi tusharkan,
Tomchilari yomg‘ir kabi ucharkan,
Nima uchun yig‘lar kabi ingraylar?
Yov bormi, deb to‘rt tarafni tinglaylar?
Tabiatning o‘tini yo‘q o‘tida,
Sharaq-sharaq qaynab chiqqan buloqlar
Har qorong‘i, qo‘rqinch tunning betida
Shifo istab kelmasin der qo‘noqlar.
– Bu nega?
Ayt menga.
Ko‘m-ko‘k, go‘zal o‘tloqlaring bosilg‘on,
Ustlarida na poda bor, na yilqi,
Podachilar qaysi dorg‘a osilg‘on?
Ot kishnashi, qo‘y ma’rashi o‘rniga
– Oh, yig‘i,
Bu nega?
Tumorchalar, hamoyillar taqingan,
Dalalarda lola bargi yopingan,
Tog‘-toshlarda o‘yin qilgan,
Chopingan
Go‘zal qizlar, yosh kelinlar qayerda?
Javob yo‘qmi ko‘klardan-da, yerdan-da,
Xarob bo‘lgan eldan-da.
Ot minganda qushlar kabi uchguvchi,
Erkin-erkin havolarni quchg‘uvchi,



Vayronaga aylangan Bibixonim masjidi. Samarqand. XX asr boshlari

[1] **Uchmox** – jannat.

Ot chopganda uchar qushni tutquvchi,
Uchar qushday yosh yigitlar qayerda?
Tog‘ egasi – sor, burgutlar qayerda?

* * *

Sening qattiq sirt-bag‘ringni ko‘p yillardir ezganlar,
Sen bezsang-da, qarg‘asang-da, ko‘kragingda kezganlar.
Sening erkin tuprog‘ingda hech haqqi yo‘q xo‘jalar
Nega seni bir qul kabi qizg‘anmasdan yanchalar?
Nega sening qalin tovshing “ket”, demaydi ularga?
Nega sening erkli ko‘ngling erk bermaydi qo‘llarga?
Nega tag‘in tanlaringda qamchilarning kulishi?
Nega sening turmushingda umidlarning o‘lishi?
Nega yolg‘iz qon bo‘lmishdir ulushing?
Nega buncha umidsizdir turishing?
Nima uchun ko‘zlaringda tutashguvchi olov yo‘q?
Nima uchun tunlaringda bo‘rilarning qorni to‘q?
Nima uchun g‘azabingni uyg‘otmaydi og‘u-o‘q?
Nima uchun borlig‘ingda bu daraja buzg‘unlik?
Nima uchun o‘ch buluti sellarini yog‘dirmas?
Nima uchun kuch tangrisi bor kuchi-la soldirmas?


* * *

Kel, men senga qisqagina doston o‘qiy,
Qulog‘ingga o‘tganlardan ertak to‘qiy.
Kel, ko‘zingning yoshlarini so‘rib olay,
Kel, yarali tanlaringni ko‘rib olay, to‘yib olay…

Nima uchun ag‘darilgan, yiqilgan
Og‘ir tojning zahar o‘qi ko‘ksingda?
Nima uchun yovlaringni bir zamon
Yo‘q qilg‘unday temirli o‘ch yo‘q senda?

* * *

Ey har turli qulliklarni sig‘dirmagan hur o‘lka,
Nega sening bo‘g‘zingni bo‘g‘ib turar ko‘lanka?..



To‘pga tutilgan Minorayi kalon. Buxoro.
1920-yillar

Keling, muhokama qilamiz

1. She'rda shoir yurtini *"tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r o'lka"*, deb tasvirlaydi. Bu tasvirdan o'lkaning qanday go'zalligi va qudratini his qildingiz? "*Quyuq bulut ko'lanka"* ramzi orqali esa shoir nima demoqchi? Fikringizni asoslang.
2. Dostondagi *"quyuq bulut ko'lanka", "qo'noqlar", "sirt-bag'ringni ko'p yillardir ezganlar", "ko'kragingda kezganlar", "hech haqqi yo'q xo'jalar", "bo'rilar", "og'u-o'q"* kabi ifodalar sizda qanday hislarni uyg'otdi? Shoir bu orqali kimlarni nazarda tutyapti? Nima uchun?
3. Shoir yurtdagi "*go'zal qizlar, yosh kelinlar", "yosh yigitlar", "tog' egasi – sor, burgutlar"*ni qidiradi. Nega? Ular qayerda bo'lishi mumkin? Bu jumlalar orqali qanday milliy fojiaga ishora borligini tarix fanida olgan bilimingizga tayanib tushuntiring.
4. She'rda *tog'lar, buloqlar, o'tloqlar* juda go'zal va pok, deya tasvirlangan. Ammo *"sharaq-sharaq qaynab chiqqan"* buloqlar ham *"yig'laydi", "ingraydi".* Nega aynan ular vositasida milliy fojia ifodalangan?
5. She'rda yurtning *"tovushi", "g'azabi", "olovi" va "o'ch kuchi"* yo'qolgani ta'kidlanadi. Cho'lpon bu tasvirlar orqali xalqning qanday ruhiy holatini ko'rsatmoqchi bo'lgan? Ushbu holatga olib kelgan sabablarni she'r matni va o'sha davrdagi tarixiy sharoitga asoslanib tushuntiring.
6. She'rning "*Kel, ko'zingning yoshlarini so'rib olay... Kel, yarali tanlaringni ko'rib olay, to'yib olay..."* misralarida lirik qahramonning qanday tuyg'ulari aks etgan deb o'ylaysiz? Nima uchun?

Guruhlarda ishlash

Qur'a tashlash yo'li bilan uch guruhga bo'lining va quyidagilardan birini tanlab, bajaring:

1-guruh. **Nega** so'rog'ining hayotiy ahamiyati nimada? Unga javob berish nimalarni oydinlashtiradi deb o'ylaysiz? Endi esa shoir she'rda ***"nega?", "nima uchun?"*** kabi so'roqlarni bot-bot qo'llaganining sabablari haqida ham o'ylab ko'ring. Ushbu takrorlarning she'r g'oyasini ochib berishdagi ahamiyati haqida fikr bildiring.

2-guruh. She'r oxirida shoir: *"Kel, men senga qisqagina doston o'qiy…"*, deydi. Shoir bu murojaat orqali o'quvchiga qanday maqsadda yuzlanmoqda? Mulohazalaringizni dalillang.

3-guruh. She'rning dastlabki ikki misrasi bilan oxirgi ikki misrasiga e'tibor bering. Misralardagi o'zgarishlarni va buning sababini yozma izohlashga harakat qiling.

Misralar	Izohlar
Ey tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r o'lka, *Nega sening boshing uzra quyuq bulut ko'lanka?*	
Ey har turli qulliklarni sig'dirmagan hur o'lka, *Nega sening bo'g'zingni bo'g'ib turar ko'lanka?*	

Topshiriq

Quyidagi topshiriqlardan birini tanlab (xoh yakka, xoh bir necha sherik bilan) bajaring:

1-variant. She'rdagi *obrazlar va ramziy tasvirlarni* aniqlang. Har bir obraz va tasvir ma'nosini **izohlovchi rasmlar yordamida plakat yoki taqdimot tayyorlang**. Darsda ularni o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan bog'lab tushuntirib bering.

2-variant. XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni ko'rsatuvchi **taqdimot tayyorlang.** Unda o'sha davr ruhiyatini ochib beruvchi rasmlar va tarixiy manbalardan foydalaning.

3-variant. Cho'lponning **"Go'zal Turkiston"** she'ri asosida kuylangan qo'shiqni internet manbalaridan topib, tinglang. Qo'shiqni yod olib, darsda (xoh yakka, xoh jamoaviy jo'r bo'lib) ijro eting.

Ko'rsatma

Quyidagi she'rni oldin she'r ritmida, keyin esa qo'shiq ohangida o'qing.

UYQU

("Bormayman dedi" kuyiga)

Jim turing, shovqunlamang,
Uyqu ichinda ul pari,
Yurma, tek tur, ey shamol,
Yursang-da yur, biroz nari!

Ko'kda bir to'p qiz-malak
Uyqu kuyini boshladi,
Ilgari chalgan tirik,
Jonli kuyini tashladi.

Bosh uchida aylanar
Bir to'p farishta jimgina,
Ko'k elining tangrisi –
Oy ham qaraydir tinchgina.

Ul olos ko'zlar yumulgan…
Kuyni yondirgachgina,
Ko'p go'zal ko'zlarni yumdirgach,
Uyaldirgachgina…

Charchagan, tolgan, umidsiz
Ko'zlarim to'ymay qarar,
Har qarashda ko'nglima
Ming turli o'ylarni solar…

Bu yotish, bu uyqu, bu –
Qanday shirin, qanday go'zal,
Jonlanar, yuz ko'rsatar
Singan va yastangan amal.

Bu yotish, uyqu na yerda,
Na xayoliy ko'kda bor,
Bu go'zal sirli tomosho
Menda, men o'ksukda bor.

Jim turing, shovqunlamang,
Uyqu ichinda ul pari,
Ko'zlarim to'ymay qarar,
Borliq ko'rinma, tur nari!

Keling, muhokama qilamiz

1. She’rni she’r va qo‘shiq ritmida o‘qiganingizda qanday tafovutni aniqladingiz va nimalarni his qildingiz?
2. Oshiqning shamolga (“*Yurma, tek tur, ey shamol, Yursang-da yur biroz nari!”),* borliqqa *(“ko‘rinma, tur nari”)* dakki berishida unga xos qanday tuyg‘ular ko‘zga tashlanadi?
3. She’rda *“ko‘kda bir to‘p qiz-malak”*ning *“uyqu kuyi”*ni boshlashida qanday ramziy ma’nolar bor deb o‘ylaysiz? *“Bosh uchida aylan”*gan farishtalar obrazidan qanday maqsadda foydalanilgan bo‘lishi mumkin? Fikringizni asoslang.
4. “*Charchagan, tolgan, umidsiz ko‘zlarim to‘ymay qarar*” misrasida shoirning qanday ruhiy holati aks etgan?
5. “*Charchagan, tolgan, umidsiz ko‘zlari*” bilan yorning shirin va go‘zal uyqusini “*sirli tomosho*” qilgan oshiq nega o‘zini “*o‘ksuk*” sifatida ko‘radi? She’r matniga tayanib, mulohazangizni asoslang.
6. Qaysi ibora yoki jumlalar she’rdagi umumiy lirik kayfiyatni kuchaytirib, sizda yoqimli, sokin tasavvur uyg‘otdi? Misol keltirib, asoslang.

Guruhlarda ishlash

Ikki guruhga bo‘lining. Har bir guruh quyidagi topshiriqlardan birini tasodifiy tanlov asosida tanlab, bajarsin:


1. She’rning to‘rtinchi bandini diqqat bilan, tinish belgilariga amal qilib qayta o‘qing. Mazmunini tushuntiring. She’r matniga tayanib, notanish so‘zlarning mag‘zini chaqishga urining. Shoir nima demoqchiligini aniqlang.
2. She’rning oltinchi bandini diqqat bilan o‘qing. Bandning oxirgi ikki misrasini tushuntirib bering.

Topshiriq

Cho‘lpon she’rlaridan birini yod oling.

Tavsiya

“Uyqu” she’ri bilan aytilgan qo‘shiqni O‘zbekiston xalq artisti Nuriddin Hamroqulov va Botir Qodirov talqinida tinglang. Qaysi ijro sizga ko‘proq manzur bo‘lgani va nima uchunligi haqida so‘zlab bering. Botir Qodirov ijrosidagi qo‘shiq klipi haqida ham fikr bildiring.



13

Nuriddin Hamroqulov ijrosi



14

Botir Qodirov ijrosi



SHAVKAT RAHMON (1950 – 1996)

Dars davomida:

- shoirning ichki tug‘yonlaridan xabardor bo‘lamiz;
- shoir she’rlaridagi mavzular va g‘oyalar bilan tanishamiz;
- tasvir va ifoda vositalarining badiiy ta’sirchanlikni ta’minlashdagi amaliy ahamiyatini tahlil qilamiz.

Shavkat Rahmon 1950-yil 12-sentyabrda Qirg‘izistonning O‘sh shahrida tug‘ilgan.

Otasi Rahmonberdi va onasi Oftobxon Andijonning Shahrixon tumanidan. Taqdir taqozosi bilan ular O‘sh shahriga borib qolgan.

Shoirning dastlabki she’rlari O‘sh viloyati gazetalarida bosilgan. Shundan so‘ng turli yillarda “Rangin lahzalar”, “Yurak qirralari”, “Ochiq kunlar”, “Gullayotgan tosh” , “Uyg‘oq tog‘lar”, “Hulvo”, “Saylanma”, “Abadiyat oralab” kabi she’riy to‘plamlari nashr etilgan.

Shavkat Rahmon turk, rus, polyak va eston she’riyatidan namunalarni o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Ayniqsa, ispan adibi Federiko Garsia Lorka ijodiga chuqur qiziqish shoirni ispan tilini o‘rganishga undaydi. Natijada u Lorka she’rlarini rus tilidan emas, bevosita asliyatdan – ispan tilidan tarjima qila boshlaydi. Ushbu mehnati mahsuli o‘laroq, 1989-yilda Federiko Garsia Lorka she’rlari Shavkat Rahmon tarjimasida “Eng qayg‘uli shodlik” nomli to‘plam holatida chop etilgan.



Federiko Garsia Lorka

Taniqli shoir “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni va “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan.

Shavkat Rahmon 1996-yil 2-oktyabrda og‘ir xastalik tufayli hayotdan ko‘z yumgan.

MUTOLAADAN OLDIN

Shavkat Rahmon XX asr o‘zbek adabiyotiga o‘z ovozi, o‘z uslubi bilan kirib kelgan, haqiqatni qo‘rquvsiz kuylagan, milliy ruhiyatni ulug‘lagan shoirlardan biridir. Uning poeziyasi shunchaki she’rlar emas, balki xalq ruhiyatining, tarixiy xotiraning teran aks sadosidir. Shoirning boy adabiy-badiiy merosi bugun ham milliy tafakkurimiz rivojiga xizmat qilmoqda.

She’rlarini mutolaa qilish asnosida shoir satrlarida bezovta qalb, ruh uyg‘oqligi qisman ramz va majozlar orqali o‘z ifodasini topganiga guvoh bo‘lasiz.

O‘ylab ko‘ring!

Ramz, majoz, allegoriya haqida nimalar bilasiz? Ushbu badiiy usullarni qo‘llashdan ijodkorning asl maqsadi nimalardan iborat bo‘lishi mumkin? Fikringizni asoslang.

Topshiriq

Quyidagi ikki she’rni mustaqil xirgoyi qiling.

TUNGI MANZARA

O‘rmonlar jim, yig‘lamas shamol,
soy sayramas, baqalar jimdir.
Ingroqlarga to‘lib ketgan tun,
g‘amgin qo‘shiq aytadi kimdir.

Otim o‘lgan, qilichim singan,
majaqlangan sovut, qalqonim.
Kim tashladi meni bu chohga,
qayda qoldi yorug‘ osmonim?!

Qayerdaman, qayga borarman,
qora zindon naqadar chuqur,
faqat toqning burjidagi oy –
tuynukchadan tushar xira nur.

Barcha azob kamlik qilganday
soy sayramas, baqalar jimdir,
go‘yo mazax qilganday goh-goh,
yopib turar tuynukni kimdir...



“TONG OCHAR KO‘ZLARIN...”

Tong ochar ko‘zlarin erinib,
sevinchdan yig‘laydi qiyoqlar[1],
chechaklar jilmayar sevinib,
shamolda cho‘milar giyohlar.

O‘ynoqi shu’lalar – bolalar
jimgina tarqalar sayhon[2]ga,
o‘rgimchak to‘qiydi tolalar,
xonqizi boradi mehmonga.

Qurbaqa varaqlar bayozin,
guldan bol so‘radi arilar,
chigirtka qayraydi ovozin,
parvozda ninachi – parilar.

Chumoli, mehnatkash chumoli,
kuyunma, atrofga bir qara –
maysalar, oh, qanday himo[3]li,
dunyoni qilma ko‘p masxara.



Keling, muhokama qilamiz

1. Birinchi (“Tungi manzara”) va ikkinchi (“Tong ochar ko‘zlarin…”) she’r mutolaasidan so‘ng sizda qanday tuyg‘u va kechinmalar uyg‘ondi?
2. Ikki she’rdagi lirik qahramonlar holatini solishtiring. Ular tushgan vaziyatlarni qiyosiy tahlil qiling. Qaysi biri kayfiyatingizga qanday ta’sir qildi va nima uchun?
3. Hech tunda yolg‘iz qolganmisiz? Nimalarni his etgansiz? Endi ayting-chi, birinchi she’rda lirik qahramonning tunni *chohga, qora zindonga* taqqoslashini qanday tasavvur qildingiz? Oyning tuynukchaga qiyoslanishini-chi?
4. “Ko‘z ochmoq” iborasining qanday ma’nolari bor? She’rda qaysi ma’nosidan unumli foydalanilgan?
5. “Tungi manzara” she’rida sokin tunda ingroqlar eshitilishi, kimdir g‘amgin qo‘shiq aytayotgani ta’kidlanadi. Nima deb o‘ylaysiz: buning sababi nima? Qo‘shiq aytayotgan kim bo‘lishi mumkin?
6. Turmushimizda chumoli har doim mehnatsevarlik namunasi sifatida ibrat qilib ko‘rsatiladi. Ammo lirik qahramon chumolining mehnatkashligiga salbiy munosabat bildiradi. Go‘yo chumoli dunyoni masxara qilayotgandek… Nega? She’rning oxirgi bandi orqali fikringizni asoslang.

[1] **Qiyoq** – ingichka, uzun-uzun keskir bargli ko‘p yillik o‘t.
[2] **Sayhon** – katta tekis ochiq joy, maydon.
[3] **Himo** – jalb etuvchi, chiroyli.

Guruhlarda ishlash

Uch guruhga bo‘lining. Qur’a tashlash yo‘li bilan quyidagi topshiriqlardan birini guruhda bajaring:

1-guruh

“Tungi manzara”dan qorong‘ilik va umidsizlikni ifodalovchi uchta obraz, “Tong ochar ko‘zlarin...”dan esa yorug‘lik va quvonchni ifodalovchi uchta obraz tanlang. Ushbu obrazlarni qiyoslab, she’rlarning umumiy g‘oyasiga ta’siri haqida ***esse*** yozing (150 – 200 so‘zdan iborat bo‘lsin).

2-guruh

Ikki she’rda ham tabiat tasvirlangan. Bundan qanday maqsad ko‘zlangan bo‘lishi mumkin? Tabiat tasvirlari (obrazlari) shoirning ichki dunyosini qay darajada aks ettiradi? Fikringizni asoslagan holda kichik ***taqriz*** (150 – 200 so‘zdan iborat) qoralang. Badiiy tasvir vositalarining ushbu ikki she’rdagi ahamiyati haqida ham yozing (masalan, *“qora zindon”, “yorug‘ osmonim”* nimalarning ramzi, “*o‘ynoqi shu’lalar*”ning “*bolalar*”ga, “*parvozdagi ninachi*”larning “*pari*”larga o‘xshatilishi sabablari va boshqa).

3-guruh

Ikki she’rda qo‘llangan badiiy tasvir vositalarini aniqlab, quyidagi jadvalni to‘ldiring. Har biriga izoh yozing:

	“Tungi manzara”	“Tong ochar ko‘zlarin…”
O‘xshatish (metafora)		
Jonlantirish (tashxis)		
Ramz, majoz (allegoriya)		
Sifatlash (epitet)		
Ritorik savol yoki ritorik murojaat		

O‘ylab ko‘ring!

Qo‘rqoqlik faqat jur’atsizlikmi yoki u boshqa shakllarda ham namoyon bo‘lishi mumkinmi?

“JANGDA O‘LGAN EMAS...”

Jangda o‘lgan emas biror bahodir,
bari halok bo‘lgan xiyonatlardan,
toshday uxlaganda to‘shlarin ochib
yo zahar qo‘shilgan ziyofatlardan.

Biror asotirda bahodirlarni
hattoki yuz boshli ajdar yemagan,
ming bir sinoatli yalmog‘izlar ham
tog‘larni o‘ynagan devlar yengmagan.

Bari halok bo‘lgan xiyonatlardan,
bariga orqadan sanchilgan xanjar.

Shunday bo‘lib kelgan azal-u azal
Mana shu jafokash, ko‘hna Vatanda.

Har gal bahodirlar yiqilar ekan
kurakka sanchilgan nomard tig‘idan,
qayta tirilganday bo‘lardi nogoh
har bir bolakayning qorachig‘ida.

Ishongil, hech qachon seni aldamas
sofdil elatlarning asotirlari,
birorta bahodir o‘lganmas jangda,
qo‘rqoqlar o‘ldirgan bahodirlarni.



Keling, muhokama qilamiz

1. Xiyonat nima, xoin kim? She'r matni va hayotiy tajribangizdan kelib chiqib misollar keltiring.
2. Bahodirlarning she'rda tasvirlangan qahramonliklari aks etgan ertak va afsonalarni eslang. Bularni shoir xulosasi bilan taqqoslang: nega "*shunday bo'lib kelgan azal-u azal*?"
3. *"Mana shu jafokash, ko'hna Vatan"* jumlasida muallifning Vatanga qanday munosabati aks etgan deb o'ylaysiz?
4. She'rda bahodirlar xiyonat tufayli mahv etilsa-da, ular *"har bir bolakayning qorachig'ida"* qayta tirilishi ta'kidlanadi. Shoir bu bilan nima demoqchi? Bolalar obrazining keltirilishi she'rning asosiy g'oyasini qanday kuchaytiradi?
5. She'rda *"sofdil elatlarning asotirlari"* haqida aytiladi. Sizningcha, xalq asotirlari va hikoyalarida bahodirlarni ideal tasvirlashdan maqsad nima? Bugun bunday hikoyalar yosh avlodga qanday ta'sir qilishi mumkin?
6. Yengilmas bahodirlarning xiyonat oldida ojiz qolishi ulardagi qaysi xislatlar tufayli bo'lishi mumkin? Eslang: Farhodning o'limiga nisbatan ham "*Jangda o'lgan emas biror bahodir, Bari halok bo'lgan xiyonatlardan*" degan satrini qo'llash mumkinmi? Nima uchun?
7. She'rda ko'tarilgan mavzularning bugungi kundagi dolzarbligini qanday baholaysiz? Qo'rqoq va xoin kishilarning xalq va millat taraqqiyotiga keltiradigan zararini matnga tayanib asoslashga harakat qiling.


Guruhlarda ishlash

Uch-to'rt kishilik guruhlarga bo'linib, bugun bahodirlik qanday ko'rinishda namoyon bo'lishi (masalan, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash, ekologik muammolarni hal qilish va boshqa) mumkinligini tasvirlab beruvchi ijodiy ish (masalan, hikoya, ssenariy, videolavha va boshqa) tayyorlang. Ijodiy ishlaringizni sinfda taqdim eting. Taqdimotda she'rdagi "bahodirlik" g'oyasi bilan ijodiy ishlaringiz mazmuni o'zaro bog'liqligiga diqqat qarating.

Topshiriq

She'rda keltirilgan quyidagi jumlalarda qanday badiiy tasvir vositalari qo'llanganini aniqlab yozing:

"toshday uxlaganda to'shlarin ochib"	
"jafokash, ko'hna Vatan"	
"xanjar" va "nomard tig'i"	
"qo'rqoqlar o'ldirgan bahodirlarni"	
"ming bir sinoatli yalmog'izlar ham tog'larni o'ynagan devlar yengmagan…"	



RICHARD BAX (1936)

Dars davomida:

– yozuvchi ilgari surgan mavzu va g‘oyalarni aniqlaymiz;

– “Oqchorloq Jonatan Livingston” rivoyat-qissasidagi majozlarni tahlil etamiz;

– maqsad, intilish, izlanish va topa olish – komillik kaliti ekanini muhokama qilamiz.

Amerikalik yozuvchi, faylasuf, essenavis, uchuvchi va aviamexanik Richard Devid Bax 1936-yil 23-iyunda AQShning Illinoys shtatida dunyoga kelgan. Ona tomondan buyuk olmon bastakori Iogann Sebastyan Baxning uzoq avlodi. Adabiyotga maktab yoshidanoq qiziqqan Richardning uchuvchilikka ham havasi bor edi. Parvozga ishtiyoqi va aviatsiyaga qatnash istagiga qaramay, ota-onasining talabi bilan Kaliforniyadagi Long Bich universitetida tahsil olgan. Keyinchalik o‘z ixtiyori bilan armiyaga ketadi. Harbiy xizmatda bo‘lganida Richard Bax AQSh harbiy-dengiz kuchlari zaxirasining 141-havo otryadida F-84F qiruvchi samolyotini boshqargan.

Richard Baxning “Biplan”, “Hech narsa tasodifiy emas”, “Oqchorloq Jonatan Livingston”, “Qanot tuhfasi”, “Uzoqda bunday joy yo‘q”, “Uchish uchun tug‘ilganlarga sovg‘a”, “Illyuziyalar”, “Mangulik ko‘prigi”, “Tanho”, “Parvoz” kabi asarlari bor.

Uchuvchi adibning barcha asari u yoki bu tarzda parvoz mavzusiga bag‘ishlangan.

Eslang!

R. Baxning hayot yo‘li quyi sinflarda siz tanishgan qaysi adibni yodingizga soldi?

MUTOLAADAN OLDIN

Richard Baxning “Oqchorloq Jonatan Livingston” rivoyat-qissasi o‘tgan asrning 60-yillari so‘ngida yozilgan. Asar chop etilgach, kutilmaganda mashhur bo‘lib ketadi. Shu tariqa R. Baxga “Oqchorloq Jonatan Livingston” rivoyat-qissasi adabiy shon-shuhrat olib keladi. Asar ***hikoya*** sifatida e’lon qilingan bo‘lsa-da, janr jihatidan ***falsafiy ertak,*** nasrda yozilgan ***doston*** yoki ***masal*** kabi tavsiflarga ham ega. O‘zbek tiliga tarjima qilinganda ***rivoyat-qissa*** sifatida taqdim etilgan. Ko‘rinadiki, asar tuzilishi, mazmuni, mavzusi, g‘oyasi bir necha janr talablarini mujassam qila olgan.

U hozirga qadar qirqqa yaqin tilga tarjima qilingan.

Richard Bax asar nomini sinovchi-uchuvchi, saksondan ortiq havo poygasida g‘olib bo‘lgan Jon X. Livingston sharafiga shunday nomlagan.

Asar asosida “Jonatan Livingston otli chayka”, “Hech narsa tasodifiy emas” kabi filmlar suratga olingan.



Bilasizmi?

Oqchorloq (boshqa nomlari: chag‘alay, chayka) haqida nimalar bilasiz? Uni qayerlarda uchratish mumkin?

OQCHORLOQ JONATAN LIVINGSTON

(Rivoyat-qissa)

Asl Jonatanga – har birimizda yashaydigan Oqchorloqqa bag‘ishlanadi.

1

Tong pallasi edi, bo‘y ko‘rsatgan quyosh jimirlab yotgan dengiz betini oltin tusga belagan.

Baliqchi qayig‘i qirg‘oqdan bir milya[1] narida. Suv uzra chaqiriq tovushi taraladi – bu nonushta xabari. Katta yig‘in. Chorlov tag‘in bot-bot yangraydi, nihoyat minglab oqchorloqlar uchib kelib, o‘zini to‘daga urmaguncha takrorlanadi. Har qaysi qush ayyorlik va abjirlik bilan tashlanib, yog‘liroq luqmani yulib qochishga urinadi. Biroq Jonatan Livingston otli oqchorloq to‘dada yo‘q edi. U mashq qilardi – boshqalardan olisda, yolg‘iz o‘zi, qayiqdan va qirg‘oqdan juda balandda parvoz etardi.

Osmonga yuz fut[2] yuksalib, pardali panjalarini bo‘sh qo‘ydi, tumshug‘ini ko‘tardi va butun kuchini yig‘ib, qanotlarini egdi, juda qattiq og‘riqqa chidab, ularni yoy shakliga keltirdi.

Qanotlarni bunday shaklga keltirish, uning fikricha, parvozni imkon qadar sekinlatishi lozim edi. Va Jonatan havoda tobora sekin-sekin sirg‘ana bordi. Qulog‘iga urilayotgan shovullagan tovush eshitilar-eshitilmas shivirlashga aylandi va tubanda okean muallaq qotdi. Jonatan ko‘zlarini qisib, zo‘r berib diqqatini jamlagancha nafasini ichiga yutdi.

Yana... birgina... bir... dyuym[3]... birdan... bu... egri... Uning parlari titradi, chuvalashdi, tezlikni butkul yo‘qotib qo‘ydi, chalqanchasiga ag‘darilib ketdi va pastga quladi. Sizga ma’lum bo‘lsa kerak – oqchorloqlar hech qachon bunday tang ahvolga tushmaydi.

Oqchorloqning parvoz chog‘ida tuyqusdan to‘xtagani, tezligini yo‘qotgani kechirilmas hol.

Bu – uyat, bu – sharmandalik.

Biroq ayni damda oqchorloq Jonatan Livingstonga uyat hissi begona edi. U tag‘in, juda qattiq og‘risa-da, qanotlarini egik shaklga keltirdi – sekinlik bilan, ohista sirg‘aldi va mashqi tag‘in muvaffaqiyatsiz chiqdi. U mashqni takrorlayverdi. Chunki u oddiy qushlardan emas edi.

Aksar oqchorloqlar uchishning jo‘ngina qoidalari bilan qanoatlanadi, jiddiyroq parvoz qilishni o‘rganishga o‘zlarini urintirib o‘tirmaydi. Qirg‘oqdan oziqqacha uchib borib, uchib qaytilsa, ular uchun shuning o‘zi kifoya. Ko‘pchilikka parvoz emas, faqat ozuqaning o‘zi zarur xolos. Biroq Jonatan Livingston otli oqchorloq uchun muhimi – parvoz. Ozuqa esa – bu shunchaki... Chunki dunyoda Jonatan barchasidan ham uchishni yaxshi ko‘radi.

Hayotga bunday munosabat, Jonatanning anglashicha, oqchorloqlar galasida unga obro‘ keltirmasdi. Hatto ota-onasi ham uning har kuni yolg‘iz o‘zi yuz martalab sekin pastlab sho‘ng‘ib uchishni mashq qilishidan sarosimaga tushardi.

U hali ko‘p narsani, misol uchun, qanotlarini yarim qoqib ucharkan, havoda o‘zining uzoqroq va deyarli zo‘riqishsiz turishining sababini tushunmasdi. Jonatan hech qachon sekin pastlab qo‘nishni odatdagi tarzda yakunlamas – panjalarini kerib, qanotlarini keng yoygancha qorni bilan

[1] **Milya** – asosan dengiz uzunlik o‘lchovi birligi. 1 dengiz milyasi 1852 metrga, geografiya milyasi esa 7420 metrga teng.

[2] **Fut** – qadimiy ingliz o‘lchov birligi bo‘lib, faqat quruqlikda ishlatiladi. Bir fut taxminan 30 santimetrga teng.

[3] **Dyuym** – 25,4 millimetrga teng uzunlik o‘lchovi.

tap etib suvga o‘tirib olmasdi. Buning o‘rniga u havoda davomli bir tekis sirg‘alib, tanasi bo‘ylab oldinga uzalgan panjalari bilan suv betiga tegib-tegmay uchishni mashq qilardi. Qushloq sohilga sirg‘alib uchib qo‘nishni o‘rgana boshlagan paytda, har gal mahkam siqilgan panjalari bilan qum-loqqa tepadan tushib kelarkan, uni ko‘rgan ota-onasining o‘takasi yorilguday bo‘lardi.

– Nega bunday qilasan, Jon, nega? – deb qayg‘urardi onasi. – Nahotki hamma qatori uchib-qo‘nib yurish shuncha qiyin bo‘lsa?! Saqoqush shunday past uchadi. Albatroslar ham. O‘shalar mashq qilaversin suv ustida pastlab uchishni! Axir, sen – oqchorloqsan! Nega hech ovqat yemaysan? O‘zingga bir qara, o‘g‘lim, pating suyagingga yopishib ketibdi-ku!

– Mayli, yopishsa yopishar. Biroq men o‘zimni hecham yomon his etayotganim yo‘q, ona. Menga shunisi qiziq: osmonda nimaga qurbim yetadi, nimaga yetmaydi – shuni bilishni xohlayman xolos.

– Gapimni eshit, Jonatan, – deya g‘azabdan xoli ohangda gapirdi unga otasi. – Hademay qish kiradi, dengizda kemalar siyraklashib qoladi. Suv betida yashaydigan baliqlar tubroqqa ketadi. Agar senga biror-bir narsani o‘rganish zarur bo‘lsa, ozuqa topish yo‘llarini o‘rgangin. Sening bu uchish mashqlaring – ular, albatta, yaxshi, biroq o‘zing tushunasan, sekin pastlab qo‘nishni mashq qilish bilan qorin to‘ydirib bo‘lmaydi. Sening uchishdan maqsading – ovqat topish. Buni unutish yaramaydi.

Jonatan itoatkorona bosh irg‘adi va bir necha kun mobaynida o‘zini tiyib, xatti-harakatlari boshqa barcha oqchorloqlarnikidan farq qilmasligiga urindi. Buni u baliq ovlaydigan kemalarda va ular to‘xtaydigan joyda oqchorloqlar galasi uyushtiradigan jangga – baliq ichak-chavog‘i, qotgan non bo‘laklari uchun kechadigan qiy-chuv to‘polonga qo‘shilib, o‘zicha halol va hafsala bilan talashib-tortishib ko‘rsatishga harakat qildi. Biroq yashash uchun bunday kurashishga nisbatan o‘zida jiddiy munosabat uyg‘otish Jonatanga muyassar bo‘lmadi.

– Qandaydir bema’nilik, – o‘yladi u uchib borarkan va ming mashaqqat bilan talashib tortib olgan luqmani atay tushirib yubordi.



Jonatanning ortidan quvib kelayotgan qari oqchorloq luqmani ilib oldi. Jonatan o‘yladi:

– Shuncha vaqtimni parvoz sirlarini o‘rganishga sarflasam bo‘lardi. Axir hali qancha narsani bilishim kerak! Shunday qilib, hayal o‘tmay oqchorloq Jonatan yana dengizda paydo bo‘ldi – u tag‘in yolg‘iz o‘zi, tag‘in och-nahor, biroq xush kayfiyatda uchish ilmini o‘rgana boshladi.

… U qayta-qayta urindi. Bor imkoniyatini ishga soldi. U hushyor va ehtiyotkor edi. Biroq har gal katta tezlikka erishganida boshqaruvni eplay olmay qolardi.

… O‘n soniya o‘tib tag‘in tepaga ko‘tarilib olganidan so‘ng Jonatan to‘qson milli chegarani zabt etdi. Bu oqchorloqlar uchun jahon rekordi! Biroq g‘alaba quvonchi g‘alabaning o‘zi kabi uzoqqa cho‘zilmadi. Jonatan tepaga ko‘tarilishni to‘xtatib, muvozanatni saqlash uchun qanotlarining holatini o‘zgartirishga uringani hamon uni kuchli havo oqimi halokatli tiyiqsiz kuch bilan uloqtirib yubordi. Soatiga to‘qson mil tezlikda parvoz qilayotgan qush uchun bu dinamit zaryadining portlashiga monand holat edi. Jonatan pastga qulab tushdi, okean sathi g‘isht yotqizilgan yo‘lakday qattiq edi.

Jonatan hushiga kelganida qosh qorayib qolgan, u oy shu’lasida yiltillab yotgan dengiz betida qalqib suzib yurardi. Jiqqa ho‘l qanotlar qo‘rg‘oshindan quyulganday edi. Biroq shafqatsiz mag‘lubiyat uni bundan-da ortiq ezardi. Jonatan umidlandi, boshiga tushgan shu ko‘rgilikning o‘zi uni suv qa’riga tortib ketishi uchun yetarli bo‘lar. Shu bilan barchasi barham topsa, koshkiydi. Jonatan suvga chuqurroq sho‘ng‘idi va shu tobda ich-ichidan g‘alati bir ovoz jarangladi: “Barchasi bekor. Men – oqchorloqman. Qismatim – imkoniyatim cheklanganidan. Tez uchishni va parvoz san’atini mukammal egallashim uchun, aslida, tug‘ilganimdayoq tanam shunga mos sifatlarga ega bo‘lishi lozim edi va o‘shanda aqlim ham shuni taqozo etadigan darajada ishlardi. Tez uchish uchun qirg‘iyning qanotlari zarur, menda esa bunday qanotlar yo‘q. Men qaynoq qumdagi kalamushlar bilan emas, suvdagi sovuq baliqlar bilan oziqlanaman. Otamning aytgan gaplari to‘g‘ri. Bu befoyda mashg‘ulotlarni bas qilish kerak. Uyga – galaga qaytay va tirik yurganimga, borligimga shukr qilib yuraveray. Axir men bir notavon oqchorloqman, imkoniyatlarim cheklangan va men bunga tan berishim lozim”.

… Endi to‘daga – oqchorloqlar qatoriga qo‘shilib, ular kabi yashashga qaror qilganidan vujudida yengillik his etdi. Bu qarori bilan u uchish ilmini egallashga o‘zini tobe qilib qo‘ygan kuchga bog‘langan rishtalarni uzgan edi. Shu tariqa kurashlardan ham, mag‘lubiyat alamlaridan ham biryo‘la qutulgan edi. O‘ylamay, bosh qotirmay shunchaki yashash istagi, tun qo‘ynida uzoq qirg‘oq ortida jilvalangan gulxanga talpinib jimgina uchish unga huzur bag‘ishladi.

– Zulmat! – tuyqusdan yangragan tashvishli ovoz sukunatni buzib yubordi. – Oqchorloqlar tunda uchmaydi! Hech qachon!

Negadir Jonatan ovozga zarracha e’tibor ham qilmadi. Bunga uning holi yo‘q edi.

– Biroq shunday bo‘lgani yaxshi! – o‘yladi u. – To‘lin oy, qirg‘oqdagi gulxanlar, jimirlagan suv betida yo‘l ko‘rsatib, belgi berib turgan shu’lalar... Tinch-osuda, xotirjam... Juda yaxshi!

– Darhol qirg‘oqqa tush! Hech qachon oqchorloqlar qorong‘i zulmatda uchgan emas! Bunga tug‘ma qobiliyat kerak! Boyqushning ko‘zlari, qirg‘iyning kalta qanotlari kerak!

Tuyqusdan tunda, yuz fut tepada g‘oyibdan eshitildi bu ovoz va vujududagi og‘riqlar, haligina ont ichib kelgan qat’iy qarori – barisi, go‘yo hech qachon bo‘lmagandek, zumda yo‘qoldi.

Mana, parvozning siri qayerda! “Qirg‘iyning kalta qanotlari! Jumboqqa javob – shu! Naqadar ahmoq bo‘lmasam! Axir qanotni kaltaroq qilolsam kifoya edi-ku! Buning uchun qanotlarni yig‘ib olib, faqat dum qismini yoyiq holda tutib harakatlanish kerak edi, xolos. Kalta qanotlar – shu-da!”

Borliqni unutib, na o‘lim va na mag‘lubiyatni o‘ylab, Jonatan shu zumdayoq tungi qoramtir dengiz uzra ikki ming fut osmonga ko‘tarildi, qanotlarining keng-mo‘l qismlarini badaniga mahkam yig‘ib-bosib, faqat yoysimon uchqur dumini bostirib kelayotgan havo oqimiga qarshi yoydi va quyiga tik tashladi.

Boshida shamolning vahimali guvullashi... Soatiga yetmish mil, to‘qson, bir yuz yigirma...

Soatiga bir yuz qirq milga yetdi, bosim esa yoyilgan qanotlari bilan soatiga yetmish mil uchgandagiga qaraganda behisob darajada sust; qanotlarining uchini bilinar-bilinmas harakatlantirgani shiddatli sho‘ng‘ishdan chiqib olishiga kifoya qildi va u oy yog‘dusida misoli zambarakning kulrang o‘qiday to‘lqinlar uzra uchib o‘tdi.

Jonatan shamoldan ayab, ko‘zlarini qisdi. Ko‘zlari bir chiziqday ensiz tirqishga aylandi. U mamnun edi. Soatiga bir yuz ellik mil! Va yana boshqaruvni yo‘qotmagan holda! Agar ikki ming emas, besh ming futga ko‘tarilsa-chi... Qiziq, unda tezlik qanaqa bo‘larkan...

Bundan atigi bir necha daqiqa oldingi ahd-u qarori unut bo‘lgan, shiddatli shamolda to‘zg‘ib uchib ketgan edi. Jonatan o‘ziga bergan va’dasini buzdi, biroq o‘zini aybdor his etmadi. Bunday va’dalar kundalik oddiy hayot tarziga ko‘nikib ketganlar uchun qandaydir ahamiyat kasb etar, ehtimol. Biroq bilimi va uquvi bilan favqulodda hodisalarni anglab yetadiganlar uchun – ahamiyatsiz. Quyosh bo‘y ko‘rsatgan pallada Jonatan mashq qilardi. Besh ming fut balanddan baliqchi qayiq suvga tashlangan cho‘pga o‘xshaydi, nonushtaga yig‘ilgan to‘da – ko‘z ilg‘ar-ilg‘amas gir aylanayotgan g‘uborday.

Jonatan o‘zining tirik ekanini his qildi va qoniqish hissidan tuygan quvonchdan vujudi yengilgina titradi, botinidagi qo‘rquvni yenga olganidan g‘ururlandi. Deyarli qiyinchiliksiz qanotlarining old qismini yig‘ib, ularning o‘tkir uchini shamolga to‘g‘rilagancha dengiz sari – quyiga sho‘ng‘idi… Agar bunday tezlikda qanotlari yoyilguday bo‘lsa, halokat muqarrarligini, ayovsiz oqim zarbasi o‘zini million bo‘laklarga titib yuborishini va okean betiga faqat shu bo‘laklargina yetib borishini bilib yutindi. Biroq bu shiddatli parvozda o‘zgacha kuch bor edi, quvonch va shaffof bir go‘zallik mujassam edi. Ming fut balandlikda Jonatan sho‘ng‘ishdan chiqishga kirishdi. Quturib bostirib kelayotgan oqimda qanotlarining uchi g‘uvullab titradi, kema va oqchorloqlar to‘dasi ko‘z o‘ngida bezovta to‘lg‘andi va uchar yulduz tezligida yiriklasha bordi, ular shundoq Jonatanga ko‘ndalang turardi. Jonatan o‘zini to‘xtata olmas, chetlab o‘tib ketishning ham iloji yo‘q edi. Bunday vaziyatda qanday amalni qo‘llash zarurligini u bilmasdi. Har qanday to‘qnashuv esa bir lahzada kechadigan o‘lim bilan yakun topishi aniq edi. Va u ko‘zlarini chirt yumdi. Shunda, ayni tong mahali, quyosh endi bo‘y ko‘rsatgan pallada oqchorloq Jonatan Livingston nonushtaga yig‘ilib, gir aylanib uchayotgan oqchorloqlar to‘dasining qoq o‘rtasiga yorib kirdi. Soatiga ikki yuz o‘n ikki mil tezlikda to‘daning o‘rtasidan shuvullab uchib o‘tdi – ko‘zlari chirt yumilgan – bir siqim par va shamoldan iborat misoli zambarak o‘qiday. Faqat bu gal omad kulib boqdi, hech kim halok bo‘lmadi. Sho‘ng‘ishdan chiqib olgach, uning tumshug‘i tag‘in tepaga ko‘tarildi – Jonatan hanuz olg‘a uchar va uchish tezligi soatiga oltmish milni tashkil etardi. Tezlik yigirma milgacha kamayganda esa to‘rt ming fut balandlikda kema suvga tashlangan xasday bo‘lib ko‘rindi. Bu chinakam zafar edi. U buni bilardi. Tezlikning eng yuksak nuqtasi – shu! Soatiga ikki yuz o‘n to‘rt mil! Oqchorloqlar to‘dasi tarixida eng ulug‘vor yutuq – chinakam yuksalish. Oqchorloq Jonatan Livingston hayotida bu mutlaqo yangi davrning boshlanishi edi.

… Kun botgunga qadar mashq qildi. Kumrovni ochib, yarim charxpalak, to‘la charxpalak yasab, tik ko‘tarilib, doira yasab tik tashlab uchish sirlarini kashf etdi.

… “Ularga buning hammasini aytib bersam, ular bu kashfiyotlarni eshitsa, boshlari osmonga yetguday xursand bo‘lishadi, – deb o‘yladi Jonatan. – Endi hayot juda qiziqarli bo‘ladi! Avvallari zerikarli mayda tashvishlarda qirg‘oqdan kemaga, kemadan qirg‘oqqa uchib-qo‘nib umr o‘tardi, endi parvozning mazmuni o‘zgacha bo‘ladi, endi uchishda katta maqsad bo‘ladi!”

“Bizda g‘aflatni tark etishga imkon bor, endi o‘zimizdagi kuch-qudratni, aql-idrokni ishga solishimiz kerak. Biz o‘z ozodligimizni qo‘lga kiritishga qodirmiz. Nihoyat chinakam parvozga o‘rgana olamiz!”

Oldinda quvonchlarga to‘la, orzu-umidlarning ushalishini daraklayotgan baxtiyor damlar kutayotir, ochilayotgan beqiyos imkoniyatlar ishtiyoqida yurak hapriqadi. Yerga qo‘nib, Jonatan to‘daning umumiy majlisi ustidan chiqqaniga guvoh bo‘ldi. Majlis allaqachon boshlangan, oqchorloqlar Jonatanni kutishayotgandi.

– Oqchorloq Jonatan Livingston!

Jamoa oqsoqoli xuddi tantanali marosimdagiday dabdabali ohangda gapirdi.

– Sen Oqchorloqlar kengashi muhokamasiga chaqirilgansan!

Kengashga chaqirish kimnidir muhokamaga tortib, sharmanda-yu sharmisor qilmoqni yoki olqishlarga ko‘mmoqni anglatardi.

“Tushunarli, – o‘yladi Jonatan, – demak, gap ertalab nonushta mahali ro‘y bergan voqea haqida. Ular to‘dani yorib uchib o‘tganimni ko‘rishgan! Biroq olqish-u maqtovlarning menga keragi yo‘q. Sardor bo‘lishga ham xohishim yo‘q. Men o‘zim kashf etgan usullarni o‘rgatishim, aslida har birimizda bor bo‘lgan aql bovar etmaydigan imkoniyatlarni namoyish etishim mumkin xolos”.

U shu o‘ylar bilan kengash ahli davrasi tomon odimladi.

– Oqchorloq Jonatan Livingston! – davom etdi o‘sha ohangda jamoa raisi. – O‘rtaga o‘t, qilmishlaring uchun ta’na-dashnomlarni eshit, to‘dadagi birodarlaring guvoh bo‘lishsin buning barisiga…

Bu zardali gaplar xuddi tomdan tarasha tushganday qo‘qqisdan aytildi – Jonatan boshiga zarba yeganday gangib qoldi. Tizzalari qaltiradi, qanotlari shalvirab tushdi, quloqlari esa tushunarsiz shovqindan tom bitdi. Sharmandalik? To‘daning o‘rtasiga – ta’na-dashnom eshitish uchun?! Biroq bunday bo‘lmasligi kerak! Axir u kashfiyot qildi-ku! Ular buni tushunmabdi! Bu yerda qandaydir tushunmovchilik bor! Ha, ha, xato qilishayotir, ular nohaq!

– Zotan sen yo‘l qo‘ygan mislsiz beandishalik va mas’uliyatsizlik Oqchorloqlar jamoasining yuksak axloqiy an’analarini oyoqosti qilish bilan barobarki, shu bois sen sharmanda-yu sharmisor etilishga loyiqsan…

Umumiy majlisda ta’na-dashnom olgan jamoa a’zosi, albatta, Oqchorloqlar jamoasi safidan quvg‘un qilinadi. To‘dadan haydalib, olis qoyalarga surgun etilgan quvg‘undi oqchorloqning qismati esa yolg‘izlikka mahkumdir.

– … va sen – oqchorloq Jonatan Livingston – bir kun kelib mas’uliyatsizlik qanday oqibatlarga duchor etishini anglab yetasan. Bizga hayot mohiyatini anglashga urinish buyurilmagan. Faqat bir narsa ayon: bu dunyoga biz rizqimizni topib yeyish va shuning evaziga imkon boricha uzoqroq umr ko‘rish uchun kelganmiz xolos.

Kimki Oqchorloqlar kengashi muhokamasiga tortilgan bo‘lsa, to‘da ahli bilan majlisda bahslashishi taqiqlangan edi, biroq Jonatan o‘zini tutib turolmadi:

– Beandishalik deysizmi?! – xitob qildi u. – Sizlarga nima bo‘ldi, birodarlar?! Hayotning mohiyatini tushunishga urinish, katta maqsadlarga olib boradigan yo‘llarni izlash – axir, buning nimasi beandishalik? O‘zingni bu oliyjanob ishlarga bag‘ishlash – mas’uliyatni to‘la his etish-ku! Axir biz hozirgacha nimani tushunib yetdik – baliqning ichak-chavog‘ini talashib, minglab yillarni boy berdik... Endi bizda ibtidomizni – nima uchun yashayotganimizni anglash imkoniyati paydo bo‘ldi. Kashf etish, tushunish, ozod bo‘lish imkoniyati! Menga bir martagina imkon bering, nima topganimni ko‘rsatishga izn so‘rayman...

Jonatanning qarshisidagi to‘da tosh qotdi.

– Biz senga birodar emasmiz, sayoq! – Bir ovozdan baqirdi oqchorloqlar va quloqlarini mahkam bekitishib, unga orqa o‘girib oldi.

Qolgan kunlarini oqchorloq Jonatan Livingston yolg‘izlikda o‘tkazdi, u olis qoyalardan ham uzoqroqqa uchib ketgan edi. Uning bag‘rini ezayotgan alam yolg‘izlik azobi emas, balki oqchorloqlarning yuksak parvoz shavqini tuyishni istamagani ed. Ular ko‘zlari ochilishini va olamni ochiq ko‘z bilan ko‘rishni rad etdi. Kun osha Jonatanning bilimi ortib bordi. U katta tezlikda sho‘ng‘ishni o‘rganib olgach, o‘n futlar suv ostida to‘da-to‘da bo‘lib suzadigan kamyob va juda xushta’m baliqlarni ovlay boshladi. Endi uning tirikchilik g‘amida baliqchi kemalarga uchib-qo‘nib yurishiga, mog‘orlagan, ivib ketgan non bo‘laklariga ehtiyoji qolmagan edi. U endi yo‘lidan adashmay, uchayotib ham uxlab olishga o‘rgandi. Bunda unga tunda quruqlikdan esadigan yengil shabada qo‘l keladi, kun botgandan tong otgunga qadar yuzlab mil masofani shu zayl bosib o‘tadi. Jonatan quyuq dengiz tumani orasida uchishda ham o‘zining ichki nazorat tartibini saqlay bildi, muntazam yuqorilab parvoz etib, tumandan tepaga – shaffof osmonga ko‘tarila bildi... bu payt boshqa barcha oqchorloqlar yer bag‘irlab o‘tirar va ularning ko‘rgan-bilgani faqat yomg‘ir-u rutubatli g‘ira-shira qorong‘ilik edi. Yuksak-yuksaklarda yelday uchgan Jonatan esa qirg‘oqdan uzoqlarga – quruqlikning ichkarisiga kirib borar, bu joylarda turli-tuman hasharotlar – mazali ozuqalar serob edi.

U erishgan ne’matlaridan yolg‘iz o‘zi bahramand bo‘lar, ularni to‘dadagi barcha oqchorloqlar bilan baham ko‘rishni niyat qilardi. U chuqur shamollarga basma-bas uzoq-uzoqlarga uchishni o‘rgandi va bu yo‘lda chekkan ranj-u alamlariga hecham o‘kinmadi. Yurakni siqadigan xunobgarchilik, qo‘rquv, kin-adovat – umrning zavoli. Shuni anglab yetib, Jonatan fikr-u xayolini diqqatbozlikdan, qo‘rquv va adovatdan xalos etdi va chinakam baxt-saodatga muyassar bo‘ldi.

Keyin ular shom mahali keldi va uni topishdi. Bu payt u yolg‘iz o‘zi jonajon osmonida xotirjam uchib yurardi. Bir juft oqchorloq yonginasida paydo bo‘ldi va qanotlarini uning qanotlari bilan bir zaylda qoqib, ikki yonida ucha boshladi. Bu oqchorloqlar qorong‘i tun osmonida tiniqligi yulduz nuriga monand yog‘du taratar va bu yog‘du ezgulik bilan yo‘g‘rilgan edi. Biroq hammasidan ham ularning parvoz mahorati hayratlanarli edi – bu oqchorloqlarning qanotlari uchlari bilan Jonatanning qanotlari uchlari orasidagi bir dyuymli oraliq har qanday harakatdan keyin ham hech o‘zgarishsiz qolardi.

Jonatan bir so‘z demay, ularni sinovga oldi – bu sinovga biror-bir oqchorloqning bardosh berishi dargumon edi. U qanotlarini shunday bir holatga keltirgan ediki, uchish tezligi keskin tushdi. Yana bir milgina shunday uchsa, qulab tushishi tayin edi. Ikkala qush ham uning harakatini aynan

takrorladi, biroq Jonatanning harakatiga nisbatan ularning holatida tirnoqcha o‘zgarish sezilmadi. Ular ohista uchish san’atini ipidan ignasigacha egallagan ko‘rinardi.

Jonatan qanotlarini yig‘ib, o‘zini bir o‘ngga, bir so‘lga tashlab oldi. Va soatiga bir yuz to‘qson mil tezlikda tuyqusdan quyiga sho‘ng‘idi. Ular ham safdagi harakat va holatni to‘la saqlagan ko‘yi Jonatan bilan bir zayl sho‘ng‘idi. Va nihoyat Jonatan tezlikni tushirmay, tepadan tik tashlab “ko‘r tugun” usulini amalga oshirdi. Ikkala qush beg‘araz kulib, u bilan birday ayni usulni bajardi.

– Juda zo‘r-ku! Xo‘sh, sizlar kim bo‘lasizlar?

– Biz sening to‘dangdanmiz, Jonatan. Biz – sening birodarlaring. Seni izlab keldik. Yuksaklarga ko‘tarilish fursati keldi, endi uyga qaytish vaqti yetdi.

– Mening uyim yo‘q, to‘dam ham yo‘q. Axir men quvg‘undiman. Boz ustiga, hozir biz shamollarning buyuk cho‘qqisida – eng yuqori nuqtada uchyapmiz. Chamamda, qartayib qolgan tanamni yana ikki-uch yuz futlar tepaga ko‘tarilishga majbur qilolmasam kerak.

– Uddalaysan. Chunki sen parvoz ilmini egallading. Bir maktabning sabog‘ini olding, endi navbatdagisini boshlashing kerak.

Bu madadkor dalda umr bo‘yi uning yo‘lini yo‘lchi yulduzday yoritib keldi, ayni damda esa yana yaraqlab qalbiga shavq va ishtiyoq nurini soldi. Ular haq gapni aytdi. U bundan-da yuksakroqqa ko‘tarila oladi, uyiga ham qaytadi, axir uyga qaytish fursati ham haqiqatan yetgan ko‘rinadi.

U oxirgi marta yer osmoniga va yerning o‘ziga bir qur nazar soldi – bepoyon bir diyor kumushday tovlanib yotardi. O‘zi juda ko‘p narsani o‘rgangan aziz makonga uzoq tikilib qaradi. Keyin dedi:

– Men tayyorman.

Va ular uchovlon – oqchorloq Jonatan Livingston hamda yulduzsifat bir juft qush – shitob bilan yuqorilab, qorong‘i samo qa’riga singib ketdi.

– Ajabo, osmon-u falak deganlari shunaqa ekan-da, – o‘yladi u va o‘zining hayratlanganidan kulgisi qistaganini yashira olmadi. Ehtimol bepoyon falakka baho beradigan nazar bilan qarash endigina uchib kelgan qush uchun odobdan sanalmas. Yerdan uzoqlashib, uchovlon bir ixcham bo‘g‘in bo‘lib bulutlarni quyida qoldirib tobora yuqorilab borarkan, Jonatan vujudi shaffoflanib, o‘ziga hamroh qushlarning vujudiday nur tarata boshlaganini ko‘rdi. Shubhasiz, botinida u aslicha qolgan – o‘sha yovqur, ko‘zlarida olov chaqnab turgan Jonatan, biroq tanasining shakl-u shamoyili o‘zgargan edi. Garchi tani oqchorloqniki esa-da, Jonatanga hozirgiday parvoz hech qachon nasib etmagandi. “G‘alati-ya, – o‘yladi u, – ikki baravar kam kuch sarflayapman, biroq ikki karra tez uchyapman, Yerda o‘tgan eng omadli damlardan ko‘ra ikki hissa ko‘p ishlashga kuch topa olyapman!”

Uning patlaridan haroratli nur taralar, qanotlari esa ishlov berilgan kumushday silliq edi. Jonatan harakatlarining muntazamligini oshira borib, yangi mukammal qanotlar xosiyatini izchil o‘rganishga kirishdi. Tezlikni soatiga ikki yuz ellik milgacha oshirib, to‘g‘riga uchish tezligining so‘nggi nuqtasiga yeta boshlaganini his etdi. Ikki yuz yetmish uch mil tezlik olganida esa bundan ortiq tez ucholmasligini angladi…

Jonatan qirg‘oq tarafga burildi, yerdan bir dyuym yuqorilagancha to‘xtamoqchi bo‘lib, qanotlarini silkidi va qumga ohista qo‘ndi. Boshqa oqchorloqlar ham qo‘ndi, biroq qanot qoqmay, hatto biror pat-parini silkimay turib yerlashishdi. Ular yoyilgan qanotlari bilan qarshidan esgan shamolni tutar va quyiga sho‘ng‘ishning yakunida bir tekis ko‘tarilib olar, keyin qandaydir sezilmas tarzda qanotlarining

holatini o‘zgartirib, yerga yetgan daqiqada ayni nuqtaga aniq qo‘nardi.

– Mana buni uchishni nazorat qilish desa bo‘ladi! – dedi Jonatan ichida tan berib. – Chiroyli qo‘nish! O‘zi ham bunga bir urinib ko‘rardi, biroq juda charchadi. Shuning uchun u qo‘ngan joyi-dayoq uyquga ketdi. Hech kim uning oromini buzmadi. Keyingi kunlar mobaynida Jonatan bu yangi makonda parvoz san’ati borasida umr bo‘yi o‘rganganlaridan ko‘proq ilmni egallashi lozimligini angladi. Bu yerda xuddi o‘zi kabi fikrlaydigan oqchorloqlar bor edi. Ularning har birida dildan mehr qo‘ygan mashg‘ulotini mukammal egallashga ishtiyoq kuchli edi. Uchishni hamma narsadan ortiq ko‘rishar, barisi birday – chindan matonatli qushlar edi. Ular kunning har bir soatini osmonda o‘tkazishar, tinimsiz mashq qilishardi.

O‘ylab ko‘ring!

Muallif oqchorloq Jonatanni “*oddiy qushlardan emas edi*”, deb ta’riflaydi. Uning o‘ziga xosligi nimada? Matnga tayanib, fikr bildiring.

Topshiriq

1. Quyida berilgan uch fikrni o‘qing:

Kengash-dan oldin Jonatan	Ularga buning hammasini aytib bersam, ular bu kashfiyotlarni eshitsa, boshlari osmonga yetguday xursand bo‘lishadi. Endi hayot juda qiziqarli bo‘ladi! Avvallari zerikarli mayda tashvishlarda – qirg‘oqdan kemaga, kemadan qirg‘oqqa uchib-qo‘nib umr o‘tardi, endi parvozning mazmuni o‘zgacha bo‘ladi, endi uchishda katta maqsad bo‘ladi!
Kengash oqsoqoli	– Zotan sen yo‘l qo‘ygan mislsiz beandishalik va mas’uliyatsizlik Oqchorloqlar jamoasining yuksak axloqiy an’analarini oyoqosti qilish bilan barobarki, shu bois sen sharmanda-yu sharmisor etilishga loyiqsan...
Jonatan	– Beandishalik deysizmi?! – xitob qildi u. – Sizlarga nima bo‘ldi, birodarlar?! Hayotning mohiyatini tushunishga urinish, katta maqsadlarga olib boradigan yo‘llarni izlash – axir buning nimasi beandishalik? O‘zingni bu oliyjanob ishlarga bag‘ishlash – mas’uliyatni to‘la his etish-ku! Axir biz hozirgacha nimani tushunib yetdik – baliqning ichak-chavog‘ini talashib, minglab yillarni boy berdik... Endi bizda ibtidomizni – nima uchun yashayotganimizni anglash imkoniyati paydo bo‘ldi. Kashf etish, tushunish, ozod bo‘lish imkoniyati!

2. Kengashdan oldingi Jonatanning o‘y-fikrlari bilan unga to‘daning munosabatini, kengash oqsoqolining gaplariga munosabatini qiyosiy tahlil qiling.
   Quyidagi kalitso‘zlar fikringiz markazida bo‘lsin:

maqsad | **katta maqsad** | **beandishalik va mas’uliyatsizlik** | **kashf etish, tushunish, ozod bo‘lish imkoniyati**

Bahs

Quyidagi uch holatni o‘zaro qiyoslab, sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling. Bahs davomida o‘zingizga manzur fikrlarni daftarga qayd qilib boring. Munozara yakunida yozib olganlaringizni o‘qituvchingizga o‘qib bering.

- *Ota-onasining dakkisidan keyin Jonatan ularga quloq soldi, odatdagidek “baliq ichak-chavog‘i, qotgan non bo‘laklari uchun kechadigan qiy-chuv to‘polonga qo‘shilib, o‘zicha halol va haf-sala bilan talashib-tortishishga harakat qildi”, ammo yana fikri o‘zgardi. U tashlab yuborgan luqmani qari oqchorloq ilib ketdi… Yolg‘iz o‘zi, tag‘in och-nahor, biroq xush kayfiyatda uchish ilmini o‘rgana boshladi.*
- *Parvoz mashqlarining birida okean sathiga qulab tushgan Jonatan: “… Axir men – bir notavon oqchorloqman, imkoniyatlarim cheklangan va men bunga tan berishim lozim”, dedi.*
- *“Bundan atigi bir necha daqiqa oldingi ahd-u qarori unut bo‘lgan, shiddatli shamolda to‘zg‘ib uchib ketgan edi. Jonatan o‘ziga bergan va’dasini buzdi, biroq o‘zini aybdor his etmadi”.*

Topshiriq

Muallifning *“umr zavoli”* sifatida keltirgan uch sababiga *(“yurakni siqadigan xunobgarchilik, qo‘rquv, kin-adovat”)* oqchorloq Jonatanning hayotidan misollar keltiring. *“Umrning zavoli”*ga yana nimalarni qo‘shgan bo‘lardingiz. Yozing va asoslang.

	Umrning zavoli	
Jonatan uchun:	*yurakni siqadigan xunobgarchilik*	*Masalan: …*
	qo‘rquv	*Masalan: …*
	kin-adovat	*Masalan: …*
Men uchun:	…	Chunki …
	….	Chunki …
	…	Chunki …

Topshiriq

Asarning davomini (2) o‘qing.

OQCHORLOQ JONATAN LIVINGSTON

2

Jonatan o‘zi voyaga yetgan muhitni hecham eslamasdi. O‘sha muhitda oqchorloqlar to‘dasi – jonzotlar jamoasi istiqomat qilardi. Ular ko‘zlari ochilishini va parvoz zavqini ko‘rishni mutlaqo istashmas, shu bois, o‘z qanotlarini qorin to‘yg‘izadigan va ozuqa uchun talashib-tortishadigan bir vositaga aylantirib olishgan edi… Biroq gohi-gohida ular bexosdan Jonatanning yodiga tushib qolardi.

Shu zayl bir kuni tong pallasi Jonatan – yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi ustozi bilan qanotlarni yig‘ib aylanib uchish mashqini bir necha marta takrorlagach, qirg‘oqda dam olib o‘tirganida – ular yodiga tushdi.

– Menga qara, Salliven, qolganlar qayerda? – ovoz chiqarmay so‘radi Jonatan. U allaqachon bu joyda odat tusiga kirgan telepatik aloqa san’atini o‘zlashtirib ulgurgan, bu usul chirqillab yoki chug‘urlab, dudmol va chalkash gapirishdan ming bor afzal edi.

– Nega biz bu yerda kamchilikmiz? Axir u yoqda – men kelgan yoqda…

– … behisob – ming-minglab oqchorloqlar bor edi, demoqchisan, tushundim. – Salliven boshini sermadi. – Mening javobim bunday: sen kamyob qushlar sirasidansan. Sendaylar, nari borganda, milliontadan bitta. Biz qanday bo‘lsak shundayligimizcha, qayerdan kelganimizni unutib va qayerga ketayotganimizning hech bir tashvishini tortmay, bir olamdan boshqasiga uchib o‘taveramiz. Biz shunchaki o‘tayotgan lahzalar bilan qanoat qilib yashaymiz. Sen tasavvur qilasanmi: yashashdan maqsad – qorin to‘yg‘azish, ozuqa talashib janjallashish yoki to‘daga hokim bo‘laman, deb kuyib-pishishdan iborat emasligini anglab yetish uchun har qaysimiz nechta umrni yashab ko‘rishimiz lozim bo‘larkan?.. Minglab umrni, Jon, o‘n minglab umrni. Shundan keyin esa dunyoda komillik degan tushuncha ham borligini fahmlashimiz zarur. Bunga yana necha yuzlab umrlar kerak. Yana yuzlab umrlar esa hayot mazmuni – komillik yo‘lidagi izlanishlarga sarflanadi; bizning har birimizning vazifamiz – botinimizda komillikka xos fazilatlarni tarbiyalash va ayni paytda turish-turmushimizni, xatti-harakatlarimizni ham shu maqsadga uyg‘unlashtirib bormoqdan iborat. Tiriklikning barcha bosqichida bitta qonun ustuvor: keyingi olamga biz shu yerda – bu olamda orttirgan ilmimiz vositasidagina kirib bora olamiz. Agar avomligimizcha qolsak hamda bilimimizning sayozligiga befarq bo‘lsak, keyingi olamimiz hozirgisidan hech qanday farq qilmaydi, jamiki to‘siqlar yo‘limiz ustida yana ko‘ndalang bo‘lib turaveradi va o‘zimiz tag‘in qo‘rg‘oshinday og‘ir qanotlarimizni sudrab, o‘sha to‘siqlardan o‘tishga baribir majbur bo‘lamiz.

Salliven qanotlarini yoydi va yuzini shamol esayotgan tomon burdi.

– Biroq sen, Jon, bir umr mobaynidayoq juda ko‘p ilmni egallay bilding, shu bois ham to‘g‘ri bu yoqqa kelib tushding, sen kamida mingta umr sarf bo‘ladigan mehnatni ado qilding.

Bir lahza o‘tib, ular yana osmonda paydo bo‘ldi. Mashg‘ulot davom etdi…

Shom pallasi edi. Tungi parvozga chiqmagan oqchorloqlar to‘dalashib qumda o‘tirishar va churq etmay o‘y surishardi. Jonatan o‘zini qo‘lga olib, qat’iyat bilan ulug‘ ustoz qoshiga yo‘l oldi. Yaqin orada u bu olamni tark etib, koinot sari yo‘l oladi, degan gaplar yurardi.

– Ustoz Chiang… – biroz hayajonli ohangda Jonatan ulug‘ ustozga murojaat qildi.

– Nima gap, o‘g‘lim? – Ulug‘ ustozning qarog‘ida mehr nurlari balqidi. Yoshi bir joyga borganiga qaramay, u kuchdan qolmagan, aksincha – o‘tgan yillar mobaynida kuch-g‘ayratda yanada yuksalgan edi. U tengsiz bir san’at bilan parvoz etardi va to‘dada u bilan bellasha oladigan jo‘mard topilmasdi. Chiang allaqachon zabt etgan mahorat cho‘qqisiga boshqalar yaqinlashishga endigina urinib ko‘rayotgan edi.

– Ustoz Chiang, bu olam… harqalay osmon-u falak emas-ku, to‘g‘rimi?

Oy nur taratardi. Ulug‘ ustoz tabassum qilayotgani ko‘rinib turardi.

– Oqchorloq Jonatan, sen tag‘in bilim olishga kirishyapsan, – javob qildi u.

– Bu yaxshi, biroq bizni oldinda nimalar kutayotir? Biz qayoqqa yo‘l olganmiz? Aftidan Falak deganlari aslida yo‘q joymikan?

– Sen haqsan, Jonatan, bunday joy chindan ham yo‘q. Zotan falak na makon va na zamon, balki o‘zimiz erishgan komilligimizdir.

Biroz jim qolib, ulug‘ ustoz beixtiyor so‘radi:

– Sen juda tez uchasan, to‘g‘rimi?

– Men… ha, men tezlikni yaxshi ko‘raman, – dedi Jonatan biroz iymanib, biroq ulug‘ ustoz o‘zining san’atiga e’tibor qaratganidan xiyla g‘ururlandi.

– Nima ham derdim, demak, sen falakka chiqa olasan, Jonatan, sen mukammal tezlikni egallaganingda shunday bo‘ladi. Mukammal tezlik esa – soatiga minglab mil ucha olish emas. Million mil uchish ham emas. Bu yorug‘lik tezligi ham emas. Zotan har qanday son mohiyatan chegarani, me’yorni anglatadi, chegara esa har doim cheklab qo‘yadi. Komillik chegara nimaligini bilmaydi. Demak, mukammal tezlik, o‘g‘lim, bu – borishga taraddudlangan joyingda hozir bo‘lishing.

Shunday deb Chiang g‘oyib bo‘ldi va shu lahzadayoq suv yoqasida – oldin turgan joyidan o‘n besh fut narida ko‘rindi. Keyin yana ko‘zdan yo‘qoldi va bir sekundning mingdan bir ulushicha fursatda Jonatanning yonida paydo bo‘ldi.

– Bu shunchaki hazil, – dedi u.

Jonatan hayratda qolgan edi. Osmon-u falakka taalluqli savollar bir zumda unut bo‘ldi.

– Bu qanday qilinadi? Bu tarzda qancha masofagacha ko‘chib o‘tish mumkin?

– Xohlagan makonga borish va istalgan zamonga ko‘chib o‘tish mumkin, – javob qildi ulug‘ ustoz. – Hammasi sening tanlovingga bog‘liq: qayerda hozir bo‘lishni niyat qilgan bo‘lsang, o‘sha joyda paydo bo‘lasan. Shu tariqa makon va zamonda sayohat qilib, men o‘zim istagan barcha joylarda xohlagan vaqtimda hozir bo‘ldim.

Chiang dengizga qaradi.

– Qiziq, – deya davom etdi u. – Sayohatni afzal ko‘rib, komillikka intilishni rad etgan oqchorloqlar hech bir manzilga borolmaydi, chunki ularning harakatlari juda sust. Aksincha, makonda u yoqdan-bu yoqqa uchib-qo‘nib yurishdan voz kechish evaziga komillikka erishish yo‘lini tanlaganlar ko‘z ochib-yumguncha fursatda o‘zlari xohlagan joyda bo‘la olishadi. Demak, Jonatan, yodingda tut: falak makon va zamonda mavjud allaqanday joy emas, zero bunda joy va vaqt hech qanday ahamiyatga ega emas. Falak – bu…

– Menga qara, sen meni shunday uchishga o‘rgata olasanmi? – Jonatan o‘ziga noayon olamning yana bir ko‘chasini zabt etish imkoniyati ochilayotganini his etib, sabrsizlikdan titrardi.

– Agar sen o‘rganishni xohlasang, albatta.

– Xohlayman. Qachon boshlaymiz?

– Hoziroq boshlashimiz mumkin, sen e’tiroz bildirmasang.

… Jonatan tong otgandan kun botguncha tinimsiz mashq qilar, bir zum qarab turmasdi. Biroq qanchalik ter to‘kib mashq qilmasin, turgan joyidan bir qarich ham jila olmadi…

Bir kuni Jonatan qirg‘oqda ko‘zlarini yumib, diqqatini bir nuqtaga jamlashni mashq qilardi. Shunda favqulodda hammasini lahzada anglab yetdi – bu yarq etib chaqnagan chaqmoqday ro‘y berdi – Chiangning saboqlarini tushundi.

– Ha-ya, men allaqachon kamolga erishganman, men aslida komil edim! Hech qanday kuch meni cheklangan doirada majbur qilib ushlab turolmaydi, chunki tabiatimga ko‘ra mening imkoniyatlarim chek-chegarasiz.

U vujudida ishonchdan tug‘ilgan quvonchning qudratini his qildi.

– Yasha! – dedi Chiang va uning ovozida g‘alabadan masrurlik ohangi ustuvor edi. Jonatan ko‘zlarini ochdi. Ular ikkovlon – ulug‘ ustoz va Jonatan mutlaqo notanish qirg‘oqda turardi. Yonlarida biror-bir jonzot yo‘q edi. Suvning kanorigacha tushib kelgan daraxtlarning uchida bir juft oltin tusli quyosh porlardi.

– Xayriyat, nihoyat maqsadni anglab yetding, – dedi Chiang, – biroq ongingni boshqarish ustida yana biroz shug‘ullansang yomon bo‘lmasdi…

Jonatan hayratga tushgandi:

– Biz qayerdamiz?

Ulug‘ ustoz esa boshqa joyda hozir bo‘lganidan, o‘zga shart-sharoitdan hecham ajablanmasdi. Shu bois u odatdagiday bemalol javob qildi:

– Aftidan boshqa bir sayyoradamiz, quyoshning o‘rnida – bir juft yulduz.

Jonatan quvonchini ichiga sig‘dirolmay qichqirdi – bu uning Yerni tark etganidan beri birinchi xitobi edi:

– AMALGA OSHDI!!!

… Biroq bir kun kelib Chiang g‘oyib bo‘ldi. Bungacha u oqchorloqlar bilan osoyishta suhbat qurdi, ularni ilm olishni har qanday holatda ham to‘xtatmaslikka da’vat etdi, umrning mazmunini ta’min etuvchi, ko‘z bilan ilg‘ab bo‘lmaydigan ulug‘ maqsad – komillik sari izchil intilish zarurligini tayinladi. U gapirar, parlari esa tobora yorqin yog‘du taratardi; nihoyat Chiangdan taralayotgan nur ko‘zlarni qamashtiradigan darajada yaraqlay boshladiki, oqchorloqlar endi unga ortiq qarab turolmadilar.

– Jonatan, – dedi Chiang va bu uning so‘nggi kalomi edi, – muhabbat nimaligini anglashga harakat qil.

Oqchorloqlarning qamashib qolgan ko‘zlari yana ko‘ra boshlaganda Chiang g‘oyib bo‘lgan edi.

Kunlarni quvib kunlar o‘tardi. Jonatan keyingi paytda Yer haqida, o‘zi uchirma bo‘lgan o‘sha makon – zaminni tez-tez o‘ylayotganini payqadi. Bu joyda bilganlarining o‘ndan bir, hatto yuzdan bir qismigina o‘sha paytda – Yerdaligida ma’lum bo‘lganida edi, umrining yerda kechgan pallasi naqadar mazmunli va samarali o‘tgan bo‘lardi! U qumloqda o‘tirib o‘y surardi: qiziq, hozir u yoqda – yerda o‘zining cheklangan tug‘ma imkoniyatlari doirasini yorib chiqishga, parvoz mohiyatini anglashga, o‘ziga ato etilgan qanotlar dengizdagi kemaga uchib borish va undagi baliqning

ichak-chavoqlari-yu yuvundiga qorishib yotgan non bo‘laklariga chang solishdan boshqa ishga ham yarashini tushunishga intilgan oqchorloq bormikan?! Ehtimol, u yoqda hatto to‘daga o‘zining haqiqat deb bilgan to‘g‘ri so‘zini oshkora aytib, quvg‘unga uchragan birorta qush bordir. Jonatan ezgulik ilmini chuqur egallagani, mehr-muhabbat mohiyatini aniq-tiniq idrok eta boshlagani sayin Yerga qaytishga xohishi ortib borardi. Zero umr yo‘li yolg‘izlikda o‘tganiga qaramay, oqchorloq Jonatan murabbiy bo‘lish uchun yaralgan edi. U qalbini to‘ldirgan mehr-muhabbatni, o‘zi ming mashaqqatlar bilan anglab yetgan haqiqatlarni bilimga chanqoq va ularni egallashning imkonini qidirayotgan oqchorloqlarga berishni ko‘zlardi. Bu paytga kelib, fikr tezligida uchish san’atini to‘la-to‘kis egallagan va boshqalarga ham allaqachon ko‘maklashayotgan Salliven Jonatanning niyatlarini ma’qullamadi. U Jonatanga shunday dedi:

– Jon, seni bir paytlar quvg‘un qilgandilar. Endi sen nimaga ishonib o‘sha oqchorloqlar hozir gapimga quloq tutadi, deb o‘ylaysan? Sen shunday hikmat borligini bilasan va uning haqqoniyligiga ishonasan: oqchorloq qancha baland uchsa, shuncha uzoqni ko‘radi. Sen tark etgan o‘sha oqchorloqlar yer bag‘irlab ivirsib, bir-biriga baqirib-chaqirib, tortishib-yulishib yuribdi. Ular falakdan minglab mil quyida yashadi, sen esa ularga falakni – o‘sha yoqdan, yerdan turib ko‘rsataman, deb o‘ylaysan! Axir ular qanotlarining uchidan narini ko‘rolmaydilar-ku! Shu yerda qol, sen shu yerda keraksan. Bu yerga Yoshlar kelishadi – ular ancha yuqorilab ucha olishadi, shu bois aytganlaringni tushunishga, ko‘rsatganlaringni uqishga qobil.

Salliven biroz jim qoldi, keyin qo‘shimcha qildi:

– Tasavvur qilib ko‘r, agar Chiang o‘z vaqtida bu yerdan ketib, o‘zining eski dunyosiga qaytganida nima bo‘lardi? Unda sening o‘zing bugun qayerda bo‘larding?

Sallivenning gapida jon bor, shubhasiz, u haq edi. Oqchorloq qancha baland uchsa, shuncha uzoqni ko‘radi – buni tan olmay iloj yo‘q.

Va Jonatan shu yerda qolib, yoshlar bilan shug‘ullandi. Ularning barisi g‘oyat iqtidorli bo‘lib, bir ko‘rganini ilib-o‘zlashtirib olardi. Biroq unutilayozgan tuyg‘u yana paydo bo‘ldi va hammasi qaytadan boshlandi: Jonatanni o‘sha yoqda, yerda ham bilim olishga mushtoq ikkita yoki hech bo‘lmaganda bitta oqchorloq bor, degan o‘y bezovta qilardi. Axir agar o‘zi o‘sha quvg‘unga uchragan kunlarda Chiangga duch kelganida juda ko‘p narsani bilib olgan bo‘lardi!

Oxir-oqibat Jonatan chiday olmadi:

– Salli, men qaytishim zarurligini sezyapman. Yoshlarni boshqarishda senga shogirdlaring ko‘maklashar – endi ularning qo‘lidan keladi bu ish.

Salliven xo‘rsindi, biroq e’tiroz bildirmadi. Faqat shunday dedi:

– Menga qadring o‘tadi baribir, Jon.

– Salli, uyalmaysanmi? – dedi yozg‘irib Jonatan. – Bo‘lmag‘ur gapni gapirma! Ayt-chi, marhamat qilib, bu yerda biz kun bo‘yi nima bilan mashg‘ulmiz o‘zi? Agar bizning birodarligimiz va o‘rtamizdagi ahil aloqa makon va zamon kabi shartlilikka bog‘liq bo‘lsa, demak, biz o‘zimiz, makon va zamonni yenga olgan paytda – o‘sha daqiqadayoq do‘stligimiz ham barham toparkan-da! Biroq makondan ustun kelgach, bizning tark etadiganimiz yolg‘iz Shu yer. Zamondan ustun kelganimizda esa qoladigani – faqat Hozir. Nahotki bizga endi Shu yer va Hozirning orasidagi biror-bir joyda bir-ikki marta uchrashish boshqa nasib etmaydi, deb o‘ylasang.

Oqchorloq Sallivenga bu gaplar qattiq botdi, biroq u kulib turib javob qilishga o‘zida kuch topdi.

– Sen g‘alatisan, – dedi u mehrli ohangda. – Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi: agar kimdir yerda birovni minglab mil masofadagi narsani ko‘rishga o‘rgata olsa, o‘sha kimdir, shubhasiz, oqchorloq Jonatan Livingston bo‘ladi.

Shunday deb Salliven qumga termildi.

– Xayr, omon bo‘l, Jon.

– Xayr, Salli. Biz hali uchrashamiz.

Shu so‘zlarni ayta turib Jonatan qalb ko‘zi bilan o‘zga vaqt o‘lchamida okean qirg‘og‘ida oqchorloqlarning juda katta to‘dasini ko‘rdi. Va tajribasi bois, hech qanday zo‘riqishlarsiz shubhaga o‘rin qoldirmaydigan bir haqiqatni teran his etdi: yo‘q, u – bir siqim par, suyak va etdan iborat emas, u – ozodlik va parvoz g‘oyasining mukammal mujassami, uning imkoniyatlari chek-u chegarasiz.

* * *

Oqchorloq Fletcher Lind hali juda yosh edi, shunga qaramay, o‘zining to‘dasi boshqa biror-bir To‘da hech qachon qilmaydigan o‘ta qo‘pol va adolatsiz qarorga qo‘l urganini bilardi. “Menga baribir, xohlagancha javrayverishsin, – deb o‘ylardi u uzoq qoyalar tomon yo‘l olarkan; ichidan toshib kelgan g‘azabdan ko‘zlari xira tortardi. – Parvoz bu – shunchaki qanotlarni qoqish, degani emasku, u yoqdan bu yoqqa uchib-qo‘nishmas axir, xuddi… xuddi… allaqanday pashshaga o‘xshab! Shu ham bahona bo‘ldi-yu – oqsoqolning tevaragidan charx urib, aylanib uchganmishman! Men axir shunchaki bir hazil uchun… Mana, evaziga berishgan tuhfalari – quvg‘unlik! Ko‘zi ochiq basirlar! Miyalarini mog‘or bosgan – hech nimaning fahmiga borishmaydi! Nahotki chinakam parvozni o‘rgansalar, oldilarida naqadar keng imkoniyatlar ochilishini bir daqiqa o‘ylab ko‘rmaydilar.

Ne bo‘lsa bo‘lar – menga endi baribir. Nima xayolga borishsa borishaversin. Men hali ularga ko‘rsatib qo‘yaman! Hali ular ko‘zlari moshday ochilib uchishimni, chinakam parvoz nimaligini ko‘rishadi. Qonundan tashqari, deyishdimi?.. Yaxshi, tashqarida bo‘lsak bo‘la qolaylik, agar shu bilan ko‘ngillari joyiga tushsa… Biroq ular buning uchun afsuslanishadi, o‘ho‘ hali juda qattiq afsuslanishadi!..”

Shunda u qandaydir ovozni eshitdi, bu ovoz uning botinidan kelayotgan edi. G‘oyat sokin, muloyim ovoz edi… Biroq baribir kutilmagan bu ovozdan Fletcher sarosimalanib, havoda go‘yo ko‘z ilg‘amaydigan to‘siqqa urilganday titrab ketdi.

“Ularni qoralama, Fletcher. Seni quvg‘unga duchor etib, ular faqat o‘zlariga ziyon yetkazdilar. Va vaqt-soati kelib, buni ular anglab yetadilar. Faqat bugina emas – ular bugun senga ayon bo‘lgan narsalarni ham tushunadilar. Sen esa ularni kechirmog‘ing va ulardan o‘z yordamingni ayamasliging kerak”.

Oqchorloq Fletcherning o‘ng qanoti bilan yonma-yon bir qush uchib kelardi. O‘zidan ko‘zni qamashtiradigan oppoq nur taratayotgan bu oqchorloq dunyodagi eng shaffof qush edi. U Fletcherning qabatida kuch ishlatmay bir maromda suzar, birorta patini ham sermamas, uning uchish tezligi Fletcher o‘zi uchun eng yuksak tezlik hisoblagan darajada edi.

– Nimalar bo‘lyapti?! Men aqldan ozdimmi?! O‘ldimmikan yo?! Bu kim?!

Ayni damda o‘sha muloyim va sokin ovoz yana uning behalovat botinidan taraldi. Bu gal savol talabchan ohangda eshitildi:

– Oqchorloq Fletcher Lind, parvoz qilishni istaysanmi?

– Albatta! Men parvoz qilishni istayman!

– Oqchorloq Fletcher Lind, sening parvozga ishtiyoqing to‘dani kechirish va so‘ngra bir kun kelib ular oldiga qaytish hamda ular bilan birga bo‘lib, parvoz ilmini egallashlari uchun ularga yordam berishing uchun yetarli darajada kuchlimi?

Bu ustozning ovozi edi. Fletcher qanchalik mag‘rur bo‘lmasin va dili qanchalik og‘rigan bo‘lmasin, bu nurli mavjudotni aldashning hech qanday iloji yo‘qligini bildi. Va u itoatkorona javob qildi:

– Ha.

– Kelishdik, Fletch, – nurli mavjudotning ovozidan mehr-muhabbat yog‘ilardi, – demak, mashg‘ulotni to‘g‘riga parvoz qilish san’atini mashq qilishdan boshlaymiz…

Oradan uch oy o‘tdi. Jonatanning shogirdlari yana oltitaga ko‘paydi. Oltovi ham quvg‘undi edi va barchasi g‘aroyib yangi g‘oyaga – parvoz quvonchini his etish uchun uchishga behad ishtiyoqmand edi… Albatta, ular uchun o‘ta murakkab amaliy usullarni o‘zlashtirish bu mashqlarning nimaga kerakligini tushunib yetishdan ko‘ra xiyla oson edi.

Shom pallasida qumloq sohilda Jonatan ularga shunday derdi:

– Har birimizda buyuk oqchorloq g‘oyasi mujassam – bu har qanday to‘siqlardan xoli, mutlaq ozodlik g‘oyasi. Shuning uchun ham parvozda aniqlik va mukammallikka erishish – botinimizdagi haqiqiy mohiyatni kashf etish va namoyon qilish yo‘lidagi ilk qadam. Bu yo‘lda to‘siq bo‘ladigan narsalardan xalos bo‘lish zarur. Katta tezlikda uchish, tezlikni me’yorida saqlash, yuksak parvoz sirlarini egallash – mashqlarning muhim jihati shunda…

Oradan atigi bir oycha vaqt o‘tganiga qaramay, Jonatan ularga to‘daga qaytib borish fursati yetganini aytdi.

– Biz hali tayyor emasmiz! – e’tiroz bildirdi oqchorloq Genri Kevin. – Qolaversa, bizga hech kimning ko‘zi uchib turgani yo‘q! Biz – quvg‘undilarmiz! Chaqirilmagan joyga borishga or qilamiz. To‘g‘rimasmi axir?

– Biz – ozod qushlarmiz, qayerga borish xohish-irodamizga bog‘liq va qayerda bo‘lmaylik, o‘z aslimizcha qolishga haqlimiz. – Shunday deb Jonatan havoga ko‘tarildi va sharqqa – to‘da istiqomat qiladigan qadrdon qirg‘oqlar tomon burildi.

Shogirdlari esa bir necha daqiqa nima qilishni bilmay sarosimalanib turdi. To‘da qonuni qat’iy edi: quvg‘undi ortiga qaytmasligi shart va keyingi o‘n ming yil mobaynida bu qonunni hech kim buzolgani yo‘q. Qonun taqiqlaydi: qaytishni xayolga ham keltirmaslik kerak. Jonatan esa o‘ylab o‘tirmay, qaytaveringlar, dedi.

Suv ustida uchib borayotgan Jonatan ulardan ancha uzoqlashib ketdi. Agar ular yana o‘y o‘ylab o‘tirishadigan bo‘lishsa, g‘anim to‘da bilan Jonatan yolg‘iz o‘zi yuzma-yuz kelishi tayin edi.

– Bizni quvg‘un qilishdi. Biz to‘daga mansub emasmiz. Qaysi mezonga ko‘ra to‘da qonuniga bo‘ysunishimiz kerak ekan? – dedi Fletcher boshqalardan ko‘ra ko‘proq o‘ziga o‘zi murojaat etayotgan ohangda. – Boz ustiga, agar Jonatanga tashlanib qolgudek bo‘lishsa, u yoqda biz kerak bo‘lamiz.

Biroq bu… bunday bo‘lishi mumkin emas! Fletcher janjal bo‘lishidan behuda xavotirlangan ekan – to‘da esankirab qolgan edi.

– Xo‘sh, nima bo‘pti quvg‘undilar bo‘lsa. Albatta, ular quvg‘undi, biroq bunday uchishni qayerda o‘rganishgan ekan?

Oqsoqolning buyrug‘i to‘dadagilarning qulog‘iga yetib borguncha bir soatcha vaqt o‘tdi:

– Ularga e’tibor qaratishga jur’at etilmasin. Inkor etilsin. Quvg‘undilar bilan muloqotga kirishgan har qanday nokasning o‘zi ham quvg‘unga mahkum etilsin. Quvg‘undilar parvozini kuzatish qonunga xilof deb hisoblansin.

Shu daqiqadan e’tiboran to‘dadagi oqchorloqlar Jonatanga ters o‘girilib olishdi, biroq u aftidan bunga e’tibor qilmadi. U majlis o‘tadigan qirg‘oq ustida mashg‘ulot o‘tkazar va birinchi marta o‘z shogirdlarining nimaga qodir ekanini to‘la yuzaga chiqarishi uchun urinardi.

– Martin! – Osmonda uning ovozi yangradi. – Sen kichik tezlikda ucha olaman, deysan. Aytish boshqa, lekin buni amalda ko‘rsatish kerak. Qani, uch!

Kichkina Oqchorloq Martin Uilyam ustozining qahriga duchor bo‘lishdan qattiq qo‘rqardi, shu boismi, o‘zi ham hayron qoladigan darajada kichik tezlikda uchib, mo‘jizali usullarni namoyish etdi.

… Asta-sekin Jonatanni qurshagan shogirdlari tegrasida yana bir doira hosil bo‘ldi. Bu to‘dadagi qiziquvchan oqchorloqlar edi; ular yashirincha kelishar, soatlab Jonatanning gaplariga quloq tutishardi. Qorong‘ilik quyuqlashganda kelishib, bir-biridan yuzlarini bekitib o‘tiradigan bu oqchorloqlar tun pardasi ko‘tarilmay g‘oyib bo‘lishar – tanilib qolish yoki o‘zlari kimnidir tanib qolishdan o‘lgudek hayiqishardi. Jonatan shogirdlari bilan qaytib kelganidan so‘ng oradan bir oy o‘tib shunday voqea ro‘y berdi – taomilni buzgan birinchi oqchorloq to‘dadan ajralib chiqdi va uchishni o‘rganish ishtiyoqi borligini izhor etdi. Bu Terrens Louell otli oqchorloq bo‘lib, sarkashligi uchun o‘sha kuniyoq quvg‘unga hukm etildi va … Jonatan uni sakkizinchi shogird sifatida safga qabul qildi. Ertasi tunda Kerk Meynard otli oqchorloq ham to‘dani tark etdi. U oqsoqlanib, qumda zo‘rg‘a sudralar, o‘ng qanoti esa harakatsiz osilib qolgan edi. Shu alpozda kelib u Jonatanning oyoqlari ostiga yiqildi va jon taslim etayotganday xirqiroq tovushda:

– Menga yordam ber. Bu dunyoda yagona orzum – parvoz qilish, – dedi.

– Parvozga shaylan, – dedi Jonatan. – Men bilan baravar o‘rningdan qo‘zg‘al, birga mashg‘ulotlarni boshlaymiz.

– Yo‘q, sen bilmaysan, mening qanotim… u menga bo‘ysunmaydi, uni qimirlatolmayman.

– Oqchorloq Meynard, bilib qo‘y: sening erking o‘zingda, sen o‘zligingni anglash ixtiyoriga egasan va shu yerda, ayni chog‘da bunga erisha olasan, buning uchun senga biror narsa to‘siq bo‘lolmaydi. Buyuk Oqchorloq qonunida shunday deyilgan va bu – mavjud yagona xolis qonundir.

– Sen menga ucha olasan, deb aytyapsanmi?

– SEN OZODSAN – men shuni aytyapman.

Xuddi aytilganiday, Kerk Meynard qanotlarini osongina yoydi – hecham zo‘riqmadi – va tun osmoni uzra ko‘tarildi. Uning tantanavor qiyqirig‘i uyqudagi to‘dani uyg‘otib yubordi. Yuz futlar balandda parvoz etarkan, Kerk ovozi boricha qichqirardi:

– Men uchyapman! Eshityapsizlarmi?! Men ucha olaman!!!

Quyosh bo‘y ko‘rsatgan pallada Jonatan va uning shogirdlari yoniga mingtacha qush keldi, ular Meynardga hayrat bilan qarashardi…

– To‘dada seni yerga tushgan Buyuk oqchorloqning o‘g‘li bo‘lsa kerak, deyishmoqda, – dedi Fletcher ertalabki yuqori tezlikda uchish mashqidan so‘ng Jonatanga, – agar bunday bo‘lmasa, u holda, demak, sen o‘z zamoningdan ming yil ilgarilab ketgan emishsan.

Jonatan chuqur nafas oldi. “Tushunmovchilik oqibati bu, – o‘yladi u. – Seni osongina iblisga yo farishtaga chiqarib qo‘yishadi”.

… To‘da oqsoqollari birortamizning falokatga yo‘liqishimiz va barcha ishlarimiz oxir-oqibat fojia bilan yakun topishini kutishgan…

– Jonatan, eslaysanmi, bir paytlar – bunga ko‘p bo‘ldi – sen: “Qalbingda to‘daga muhabbat bo‘lsa bas, ortga qaytish va ularga ta’lim berish uchun shuning o‘zi kifoya”, – deganding?

– Eslayman, albatta.

– Men tushunmayman, sen qanday qilib bu aqldan ozgan qushlar to‘dasini yaxshi ko‘ra olasan, axir, haligina ular seni o‘ldirmoqchi bo‘lishdi-ku?

– Oh, Fletch! Sen jaholatga botgan qushlar to‘dasini sevishing shart emas. Sen nafrat va g‘azabga mehr-muhabbat bilan javob qilishga ham majbur emassan. Sen uzluksiz mashq qilishing va mana shu qushlarning har birida haqiqiy oliyjanob oqchorloqni ko‘ra bilishing hamda botinlaridagi oliyjanoblikni yuzaga chiqarishlari uchun ularga yordam berishing kerak. Men muhabbat haqida gapirganimda ana shuni nazarda tutganman. Bilasanmi, bu amalga oshishi qanchalik quvonarli! Darvoqe, men bir jo‘mard yigitni eslayman – chamamda uning ismi oqchorloq Fletcher Lind edi – ana shuni quvg‘un qilishganda, u butun bir to‘da bilan yoqalashishga tayyor edi. Va uzoq qoyalarda u o‘zi uchun chinakam azob-uqubatlar maydonini – mislsiz og‘ir sinovlar joyini hozirladi. O‘sha Fletcher hozir o‘zining osmonini yaratayotir va butun to‘dani o‘sha yoqqa boshlab ketayotir.

Fletcher Jonatanga qaradi, uning ko‘zlarida qo‘rquv alomatlari aks etdi:

– Men?! Men boshlab ketyapmanmi?! Jon, bu bilan nima demoqchisan? Bu yerda muallim – SENSAN. Sen bizni tashlab ketolmaysan.

– Tashlab ketolmayman? Nahotki sen boshqa to‘dalar ham, boshqa Fletcherlar borligini, ehtimol, ularga murabbiy sendan ham ko‘ra zarurroq ekanini o‘ylamasang. Axir, sen endi nurli manzilga olib chiqadigan o‘z yo‘lingni topding… ularning men haqimda ahmoqona mish-mishlar tarqatishiga yo‘l qo‘yma, mendan farishta yasashlariga izn berma, xo‘pmi, Fletch? Men – oqchorloqman. Men uchishni yaxshi ko‘raman, ehtimol…

– JONATAN!

– Sho‘rlik Fletch! Ko‘zlaringga ishonmagin. Chunki ko‘zlarga ozodligimizni chegaralaydigan panjaralargina ko‘rinadi. Eng muhim narsani ko‘rmoq uchun tafakkurni ishga solmoq lozim. Sen hammasini bilasan, faqat buni tushunishing zarur va shunda barchasi oyday ravshan bo‘ladi, qanday uchish kerakligi-yu… – Jimirlash tugadi.

Fletcher chuqur nafas oldi… U o‘quvchilari ko‘ziga qattiqqo‘l bo‘lib ko‘rinishga harakat qildi, biroq kutilmaganda… ularni aslida qanday bo‘lishsa, shundayligicha ko‘rdi – ularning botiniga nazari tushdi. Bu uzoqqa cho‘zilmadi, qandaydir lahzada kechdi, biroq ko‘rganlari unga yoqdi, u juda shod bo‘ldi. Fletcher qalbida barcha shogirdlariga cheksiz mehr-muhabbat hissini tuydi. “Cheklovlar yo‘q, deysanmi, Jonatan?” – xayolidan o‘tkazdi u va mamnun jilmaydi. Endi komillik sari uning safari boshlandi.

Ahmad Otaboy tarjimasi

Keling, muhokama qilamiz

1. Salliven bilan so‘zsiz – “telepatik aloqa” orqali gaplashishi nima uchun Jonatanga “*chirqillab yoki chug‘urlab dudmol va chalkash gapirishdan ming bor afzal*” edi? So‘zsiz tushunish darajasiga erishish uchun insonlar qanchalik bir-biriga yaqin va dildosh bo‘lishi kerak?
2. Sallivenning Jonatanga qarata:*“… yashashdan maqsad – qorin to‘yg‘azish, ozuqa talashib janjallashish yoki to‘daga hokim bo‘laman, deb kuyib-pishishdan iborat emasligini anglab yetish uchun har qaysimiz nechta umrni yashab ko‘rishimiz lozim bo‘larkan?.. Minglab umrni, Jon, o‘n minglab umrni”,* – deb aytgan fikrlarini insoniyatning ba’zi toifalariga nisbatan ham qaratilgan dashnom yoki tanbeh sifatida qabul qilish mumkinmi? Nima uchun?
3. Ustoz Jonatan bir qanoti singan oqchorloq Meynardni ucha olishiga qanday ishontirdi? “SEN OZODSAN” – shu birgina jumla zamirida qanday kuch-qudrat mujassam? Fikringizni hayotiy misollar bilan ham asoslang.
4. Nima uchun Jonatan o‘ziga nisbatan aytilayotgan tahsinlarga qarshilik qildi? Uning ishlari haqiqatan ham maqtovga loyiq edi-ku! Undagi qaysi fazilatni payqadingiz?
5. Fletchning: *“Men tushunmayman, sen qanday qilib bu aqldan ozgan qushlar to‘dasini yaxshi ko‘ra olasan, axir haligina ular seni o‘ldirmoqchi bo‘ldi-ku?”* degan xitobiga Jonatanning javobini tahlil qiling. Unga xos qanday sifatlarni payqadingiz?
6. Jonatan Fletcher Lindga yangi ufqlar sari otlanganini qanday asoslaydi? Fletcher uning so‘zlarini to‘g‘ri qabul qildimi?

Ijodiy ish

Quyidagilardan birini bajaring:

1. Jadvalni to‘ldiring va fikrlar taqdimoti o‘tkazing.

“Buyuk oqchorloq g‘oyasi” nimalardan iborat edi?	Asar matniga tayanib, “Ozodlik qonuni”ni tuzing.	Asar matniga tayanib, “To‘da qonunlari”ni tuzing.
…	…	…

2. Insho yoki esse yozing. Quyidagilarga amal qiling:

- *Komillik nima? Asar matniga, egallagan bilim va ko‘nikmalaringizga tayanib, izoh tayyorlang.*
- *Sharq adabiyotidan o‘qigan asarlaringizga tayanib, ulardagi “komil inson” g‘oyasi bilan Richard Bax asarda keltirgan asoslarni solishtiring.*
- *Komillik kaliti nimalar bo‘lishi mumkinligi haqida yozing.*
- *Asardagi **ramzlar**ni aniqlash va asoslab fikr bildirishga harakat qiling.*



HALIMA XUDOYBERDIYEVA (1947–2018)

Dars davomida:

– shoira she’riyatidagi mavzu va g‘oyalarni aniqlaymiz, tahlil qilamiz;

– ijodkor uslubi va poetik mahoratini tadqiq etamiz.

Halima Xudoyberdiyeva 1947-yil 17-mayda Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida dunyoga kelgan. Shoira bolaligi haqida ***“Men tunda qanot yozaman”*** nomli suhbatda quyidagicha eslaydi: *“Eng pokiza xotiralar bolalikdan esdalikdir. Boyovutning yo‘lidan burilishim bilan hatto teraklar ham “Meni taniyapsanmi?” deyayotgandek bo‘laveradi. Men ham ularga ichimda o‘zimcha javob beraman. Onam agronom edi. To‘q ko‘k oti bo‘lardi. “Olaqashqa” edi nomi. Yettinchi sinfda shu ot to‘g‘risida she’r yozganman. Endi ijod qilishni boshlaganimda onam kelib, chiroqni o‘chirib ketardi. Chiqib ketgach, yana turib chiroqni yoqardim. Onam o‘chirardilar, men yoqardim. Shu tariqa tonggacha onam xonamga qatnardi”.*

Halima Xudoyberdiyevaning **“Ilk muhabbat”, “Oq olmalar”, “Chaman”, “Suyanch tog‘larim”, “Bobo quyosh”, “Issiq qor”, “Sadoqat”, “Muqaddas ayol”, “Bu kunlarga yetganlar bor”, “Hurlik oti”, “To‘marisning aytgani”, “Saylanma”, “Yo‘ldadirman”, “Osoyishta sham”, “Buyuk qushlar”** kabi ko‘plab to‘plamlari chop etilgan.

“O‘zbekiston Respublikasi xalq shoiri” unvoni, **“El-yurt hurmati”** ordeni sohibasi Halima Xudoyberdiyeva 2018-yil 17-avgustda vafot etgan.



Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi. Sirdaryo

2019-yilda shoira nomini abadiylashtirish va boy adabiy merosini keng targ‘ib qilish maqsadida Sirdaryo viloyatida Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi tashkil etildi.

MUTOLAADAN OLDIN

Halima Xudoyberdiyeva she'rlari qalblarga yetib boradigan sohir ohangga ega. Har bir misrasi o'ziga xosligi, qadimiylik va zamonaviylik uyg'unlashgani bilan ajralib turadi.

"She'r bu – sir, – deydi shoira. – O'zim she'r nima ekanini bilganimda yozmagan bo'larmidim, balki. She'r men uchun sirligicha qolgani sabab ham umr bo'yi unga talpinib yashayotgandirman, ehtimol. Gohida she'rni izohlab bering, deyishadi. She'rni izohlab bo'lmaydi. U qalb qo'ridan yaraladi va to'g'ri yurakka yetib boradi. Demak, she'rni yurakda his etish kerak xolos".

Siz bugun mutolaa qiladigan she'rlarda millatning chuqur azoblari, ezgu orzulari va hech qachon o'chmaydigan umidlarini, qolaversa, ayolning sof muhabbati tarannumini ko'rasiz.

"Dorilamon kunlar keldi…", "Shunchaki", "Ayol o'tib borar…", "Yo'ldadirman" kabi she'rlari tahlili orqali shoirning qalb kechinmalari, bir ijodkor sifatida xalqqa, Vatanga mehr-u muhabbati, quvonch va iztiroblari haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.

SHUNCHAKI

Men shunchaki o'ylagim kelmas,
Xayol – sharob misol qilsin sarxush, mast.
Men shunchaki kuylagim kelmas,
Ovoz pardalarim chidab bersa bas.

Qo'lingga tusharkan jajji chaqaloq,
Shunchaki sevmoqda qanday lazzat bor?
Kerak chinqirtirib o'pib, tishlamoq,
Biz ham go'daklikda topganmiz ozor.

Shunchaki sevilmoq – baxtiqoralik,
To'la tole uchun bu kemtik, bu kam.
Mening qalbim shunday sevgiga molik,
Bir charsillab yonay, so'ngra so'nsam ham.

Ohangga shunchaki solmasdan quloq,
Tarjima qilib yoz sim sadolarin.

Axir buloqmasmish tog'dagi buloq,
Ko'z yoshlarimish u ishq gadolarin.

Shunchaki kulmoq ham istehzodek gap,
Birdan qah-qah uray, cho'chib ketsinlar.
Boshlariga osmon tushganday qulab,
G'aflat bandalari yoqa tutsinlar.

Shunchaki yig'lash ham yarashmas bizga,
Uni eplar faqat yuragi toshlar.
Shunday yig'lay, hojat qolmasdan so'zga,
Qurg'oq ko'zlardan ham to'kilsin yoshlar.

Shunchaki yozmoqqa ko'ngil to'lmaydi,
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo'lim.
Shunchaki yozganga chidab bo'lmaydi,
Shunchaki yozmoq bu – shoirga o'lim.

Topshiriq

"O'zbek tilining izohli lug'ati"dan *"shunchaki"* so'zi anglatadigan ma'noni aniqlang. She'rda mazkur so'z bilan yonma-yon kelgan fe'llarni ajratib, yozib chiqing.

Masalan, shunchaki o'ylamoq, shunchaki yozmoq, …

Keling, muhokama qilamiz

1. She'rning g'oyasini, muallifning hayot, sevgi va ijodga qarashlarini aniqlay oldingizmi? She'r davomida *"shunchaki"* so'zi takror (11 marta) qo'llanishi ortidan qanday hayotiy haqiqatlarga e'tibor qaratilmoqda?
2. She'rda *"shunchaki sevmoq"* baxtning to'laqonli ifodasi emas, balki qandaydir kemtik, yetarli bo'lmagan holat sifatida tasvirlangan. *"Shunchaki"* asosga qurilgan sevgining sabablari va oqibatlari haqida o'ylab ko'ring. Fikringizni hayotiy misollar hamda Alisher Navoiyning "*Farhod va Shirin*" dostonidagi *ishq falsafasi* bilan bog'lab tahlil qiling.
3. Muallif "*shunday yig'lay, hojat qolmasdan so'zga*", deganda so'z va his-tuyg'u o'rtasidagi munosabatni qanday talqin qiladi?
4. She'rning to'rtinchi bandini qayta o'qing va quyidagi savollarga javob bering:
   – "*Sim sadolari*" nima, uni tarjima qilib yozish, deganda nimani tushundingiz?
   – Buloq nega "*ishq gadolari*"ning ko'z yoshiga o'xshatilyapti? Buning sabablari haqida o'ylab ko'ring. Javobingizni dalillang.
5. Kulgi, qah-qah otmoq va istehzo o'rtasidagi farqlarni ayting. She'r matnidan dalillar keltiring.
6. *"Shunchaki yozmoq bu – shoirga o'lim"* degan yakuniy misrada qanday ichki qat'iyat (prinsip) yoki san'atga munosabat ifodalangan? Bu so'z ijodkorlari (shoir-u yozuvchilar) uchun qanday mas'uliyatni eslatib turibdi deb o'ylaysiz? Fikringizni isbotlang.
7. She'rning ma'no qatlamida muallifning hayot, sevgi va ijodga bo'lgan qarashlari qay darajada aks etgan va bu qarashlar zamonaviy o'zbek she'riyatidagi tendensiyalarga qanchalik mos?

O'ylab ko'ring!

She'r mutolaasi va tahlilidan so'ng hayotingizdan qaysi "shunchaki"larni o'chira olasiz? Izoh bering.

Topshiriq

Quyidagi tasviriy ifodalar kimlar haqida va nima uchunligini yozing:

Tasviriy ifodalar	Kimlar haqida?	Nima uchun?
g'aflat bandalari		
yuragi toshlar		
qurg'oq ko'zlar		

DORILAMON KUNLAR KELDI...

Onaginam!
Dorilamon kunlar keldi, shafaqlari ol,
Qayon boqsang, shaylanishar va sozlashar tor.
Olcha gulin ko‘zlaringga surtasan behol,
“Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor”.
So‘lg‘in-so‘lg‘in lablaringdan ucharkan shu so‘z,
Otaginam xayolimda rostlay boshlar qad.
Dorilamon kunlarga qayt, onam, yumib ko‘z,
O‘ksik dilda boshlanmasin, desang qiyomat...
Belginangga tirgak bo‘lay, onajonim, tur.
Dorilamon quyoshga boq, unga qasdma-qasd
Yuzing ardoqli quyoshday issiq va mahvash.
Ko‘zlaringda umid yonar tikilgan oni,
Qorli kunlar bilan ketsin dilingdagi g‘ash,
Qizg‘ish, lolarang qoplaydir bu kun dunyoni.
Bu dunyoning qir-darasin xosiyati mo‘l,
Yerni yalangoyoq bossang, yayraydi taning.
Yashamoq – bir tansiq taom, unga ursang qo‘l,
Borgan sari ochiladir ishtahang saning.
Bog‘lardagi yetilgusi har mevali shox,
Rizqdir bizga, rizqqa doim dil ilinjlikdir.
O‘g‘lonlaring kelar ana, ochishib quchoq,
O‘g‘lonlaring meva qadar bir shirinlikdir.
Onaginam!
O‘zing tortma davralardan, el chorlaganda,
“Tiriklikning bayrami”, deb sozlaganda tor,
O‘zing so‘lg‘in lablar bilan pichirlaganday:
“Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor”.



Ona o‘ylari. Rassom Rahim Ahmedov.

O‘ylab ko‘ring!

“Ona o‘ylari” portretiga razm soling. Ushbu rasm va she’r matni o‘rtasida qanday uyg‘unlik sezdingiz? “Rasmni o‘qish” orqali mulohazalaringizni bildiring.

Keling, muhokama qilamiz

1. Onaning olcha gulini behol ko‘zlariga surtib, so‘lg‘in lablari bilan “*Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor”,* deyishi ortidan farzandning xayolida otasi qad rostlashi tasviri orqali ona va farzandda kechayotgan **ikki ruhiy holatni** tahlil qiling. Ona nega “**behol”** va **“so‘lg‘in”**? Fikrlaringizni asoslang.
2. She’r 1967-yili, ayni ***sho‘rolar zamonida*** yozilganiga diqqat qiling. ***“Qorli kunlar”*** *va* ***“dorilamon kunlar”*** qarama-qarshi **metafora** sifatida keltirilgan. Bu orqali shoira qanday tarixiy yoki ijtimoiy haqiqatni ko‘zda tutganini tahlil qiling.
3. She’rda takrorlanuvchi *“Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor”* misrasi qanday tarixiy, ijtimoiy yoki shaxsiy ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin? Shoiraning *“Yashamoq – bir tansiq taom...”* degan fikri bilan bog‘liq holda tahlil qiling.
4. Shoira she’r oxirida onasini *“dorilamon quyoshga boq”ishga, “davralardan tortinmaslik”ka* chaqiradi. Sizningcha, bu chaqiriq ortida qanday ruhiy holat, tarixiy o‘zgarish yoki umid yotibdi? **“Tiriklikning bayrami”** iborasi bilan bog‘lab fikr yuriting.
5. “*O‘g‘lonlar*” timsoli orqali shoira nima demoqchi? Ular nega “*meva qadar bir shirinlik*”ka o‘xshatilgan?
6. She’rda **tabiat manzaralari** *(olcha guli, quyosh, bog‘, mevali shox)* qanday poetik vosita sifatida ishlatilgan? Bu obrazlar insoniy ruhiy holatlarini qanday ifodalaydi?
7. *“Belginangga tirgak bo‘lay, onajonim, tur”* misrasi orqali qanday sharqona tarbiya aks etgan, deb o‘ylaysiz? Fikr bildirish davomida “belga tirgak” iborasini ham sharhlab o‘ting.


Topshiriq

O‘zbekiston xalq artisti Sherali Jo‘rayev ijrosidagi “Onaginam” qo‘shig‘ini tinglang va undagi dardni so‘z bilan tasvirlashga urining.

15

O‘ylab ko‘ring!

Kutish va intizorlikni boshdan o‘tkazganmisiz? Nimalarni tuygansiz?



YO‘LDADIRMAN

Yigirma yil o‘tdi intizorlikda.
Andrey Voznesenskiy

Siz kutasiz. Menam boraman,
Uchib borodurman xuddi o‘q.
Faqat... oldin xat yuboraman,
O‘sha xatni yozganimcha yo‘q.
Ko‘ngil ichga to‘kib borini,
Bir yil, o‘n yil o‘tdi, bu ko‘pmi?
Ayriliqning alafzorini
Birgalashib o‘ramiz, xo‘pmi?
Yigirma yil, o‘ttiz yil o‘tdi,
Ko‘zingizga malol inmasmi?
O‘ttiz yillab g‘ovlagan o‘tni,
O‘rar chog‘i chalg‘i sinmasmi?!
Qirq yil o‘tdi. Men tez boraman,
Ranjimangiz, guvoh yer-u ko‘k!
Faqat... oldin xat yuboraman,
Xatni... hali yozolganim yo‘q.
Uchib borodurman xuddi o‘q,
Bu holatni qanday sharhlayman.
Borgan sari o‘rmonzor quyuq,
Men kuyinib chalg‘i charxlayman.
Siz kutasiz... Menam boraman...

Keling, muhokama qilamiz

1. She’rda “men” va “siz” obrazlari orqali qanday hissiy munosabat tasvirlanadi? Sizning shaxsiy holatingiz qaysi obrazga yaqinroq va nima uchun?
2. She’rda *orzu, umid, sadoqat, armon, intizorlik* kabi tuyg‘ulardan qaysilari ustunlik qiladi? Misralar asosida dalillab bering.
3. “Men”ning “siz”ga xatni hali yozmagani (balki yozolmasligi), borishni istasa-da, manziliga yetolmasligi sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. She’r matniga tayanib, fikringizni asoslang.
4. Qaysi tinish belgisi bilan tugagan misralarda yorning *noz aralash gina-kudurati, arazi* yaqqol namoyon bo‘lgan? Shunday misralarni aniqlab, fikringizni bildiring.
5. Lirik qahramon qirq yildan keyin ham yo‘ldaligini ta’kidlab, ***“Ranjimangiz, guvoh yer-u ko‘k”*** deyishi haqida nima deysiz? Sizningcha, bu uzrxohlik zamirida qanday ko‘ngil kechinmalari yashirin?
6. Chalg‘i sinishidan xavotiri *(“O‘rar chog‘i chalg‘i sinmasmi?!”)* kuchli bo‘lsa-da, ***“kuyinib chalg‘i charxlash”i*** orqali yordagi qanday istak namoyon bo‘lmoqda? Fikr bildirishda ***“kuyinib”*** so‘ziga alohida to‘xtaling.
7. *“Siz kutasiz. Menam boraman”* misrasini ***“Men kutaman. Sizam kelasiz”*** shakliga keltirsak, she’rdagi tuyg‘ular tasviri qanday o‘zgaradi? Lirik qahramonning istagi aslida o‘zi borish emas, balki yorning kelishiga umid *(“Ayriliqning alafzorini Birgalashib o‘ramiz, xo‘pmi?”)* bo‘lishi mumkinmi? Nima uchun?
8. Yorga “siz” deb murojaat qilish orqali qanday o‘zbekona fazilatlar ta’kidlanadi? Muallifning maqsadini milliy qadriyatlar misolida tahlil qilib, fikringizni dalillang.

Xulosa ↔ tahlil

Quyidagi **xulosani** o‘rganing. Nega shunday talqin etilganini tahlil qiling.

She’rning to‘rtinchi misrasidagi (“O‘sha xatni yozganimcha yo‘q”) ***“yozganimcha yo‘q”*** *jumlasida yorning xat yozishga ishtiyoqi, o‘ziga ishonchi, qachondir yozishga qat’iyati borligi bayon etilgan, ammo hali yozgani yo‘q. O‘n oltinchi misrada esa (“Xatni... hali yozolganim yo‘q”) yorning xatni yoza olishiga xavotiri kuchayadi, natijada ishtiyoqi susayganday, ishonchi so‘nayotganday, qat’iyati bo‘shashganday…*

Topshiriq

Quyidagi so‘zlar nimalarning ramzi bo‘lishi mumkin? Jadvalni to‘ldiring.

So‘zlar	Nimaning ramzi?	Asoslarim
o‘q		
yo‘l		
chalg‘i		
xat		
g‘ovlagan o‘t		
o‘rmonzor		

Ijodiy ish

She’rda oshiq yozmagan (balki, yozishga botina olmagan) maktubni yozishga urinib ko‘ring. Ushbu xat mazmuniga shoiraning kechinmalaridan tashqari o‘z hissiyotlaringizni ham singdiring.

Tavsiya

Halima Xudoyberdiyeva she’rlaridan birini yod oling.



SHAROF BOSHBEKOV (1951–2022)

Dars davomida:

– “Temir xotin” dramasi va davr muammolarini tahlil qilamiz;

– dramadagi voqealar rivoji (tugun, ziddiyat, kulminatsiya va yechim)ni tahlil qilamiz;

– dramaning muayyan epizodlarini sahnalashtiramiz, baholaymiz.

Sharof Boshbekov 1951-yil 4-yanvarda Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanining G‘ubir qishlog‘ida dunyoga kelgan. Adabiyot olamiga kirib kelishi haqida adibning o‘zi bunday yozadi:

“Talabalik yillarimda suxandonlik qilmoqchi ham bo‘ldim. Olishmadi. Radioga ovozim to‘g‘ri kelmadi. Televizorga – basharam. Oliygohni bitirib, Muqimiy nomidagi teatrda aktyor bo‘lib ishlay boshladim. Avvaliga shuncha tomoshabin gaplarimni eshitayotganidan mast bo‘lib yuraverdim. O‘n yillar ishlaganimdan keyin birdaniga aqlim kirib qoldi. Bilsam, aktyorlar ham o‘zining emas, birov yozib bergan gaplarni gapirarkan. Hafsalam pir bo‘lib ketdi va o‘zim ularga gap yoza boshladim. Bu hunar bilan shug‘ullanadiganlarni “dramaturg”, deyishar ekan. Dramaturg bo‘lsa, dramaturg-da! Ana shu tariqa adabiyotning sirli va mashaqqatli olamiga kirib keldim...”

Sharof Boshbekov “Tikansiz tipratikanlar”, “Musiqa sayyorasi”, “Tentak farishtalar”, “Tushov uzgan tulporlar”, “Eshik qoqqan kim?”, “Eski shahar gavroshlari”, “Temir xotin” kabi dramalar, bir qancha kinossenariy va kinoqissalar muallifi.

“Masxaraboz” kinosi Sharof Boshbekovning ilk rejissyorlik ishidir.

Dramaturg “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni, “Mehnat shuhrati” ordeniga sazovor bo‘lgan.

Ijodkor 2022-yil 26-yanvarda vafot etgan.

MUTOLAADAN OLDIN

Besh pardali “Temir xotin” dramasi (muallif asar janrini “jiddiy komediya” deb belgilagan) 1989-yili yozilgan bo‘lib, ilk bor Samarqand viloyati teatrida sahnalashtirilib, tomoshabinlar e’tiboriga havola etilgan. “Temir xotin” nafaqat O‘zbekiston, balki xorij teatrlarida ham sahnaga qo‘yilib, keng ommaning mehrini qozonadi. Asarning mashhurligi ortidan 1990-yilda badiiy film ham suratga olingan.

Dramaturg komediya syujeti haqida bunday yozadi:

“Kechagidek yodimda… U paytlari… xalq o‘z yurtida qo‘rquv va tahlikada yashagan paytda paxta qayg‘usi hayot-mamot masalasidan ham muhim bo‘lgan. Agar onam dalaga bir kun chiqmasa, tong sahardan uyimizga kolxozning oddiy brigadiri kelib, ot ustidan tushmay, onamga do‘q-po‘pisa qilgani, paxta ishi joniga tekkan volidam uning kechirishini so‘rab, oyog‘iga tiz cho‘kkan paytlari bo‘lgan… Mana shularning barini umumlashtirib, “Temir xotin”ga singdirib yubordim… Achchiq dorini bemor tuflab tashlaydi, lekin shirin narsaga o‘rab bersangiz, bemalol qabul qiladi. “Temir xotin”da uncha-muncha ijodkor aytolmaydigan gaplarni aytib oldim. Sababi haligi – haqiqat achchiq, hazil-mutoyiba shirin. “Bilsa – hazil, bilmasa – chin” qabilida ish tutganman”.

Drama shu vaqtga qadar **20 dan ortiq** tilga tarjima qilingan. 2023-yilda qozoq kinoijodkorlari tomonidan “Temir xotin” filmi syujeti asosida **“Yap-yangi Alomatxon”** filmi (kover versiya) suratga olindi.

Eslatma

Dramatik asarlarning o‘ziga xosligini belgilovchi eng muhim xususiyat uning **sahna uchun** moslab yozilishidir. Bunda **ijroni** ham ko‘zda tutish zarur. Bu turdagi (drama, komediya, tragediya va boshqa) asarlar uchun muhim bo‘lgan quyidagi tushunchalar haqida bilib oling:

- **Pardalar**: drama odatda bir necha pardaga bo‘linadi. Har bir parda muayyan voqea bosqichini ifodalaydi. Voqealar ko‘pi bilan to‘rt-besh joydagina kechishi kerak. Shuning uchun ham aksariyat asarlar uch-besh pardali bo‘ladi.
- **Sahnalar (sahna ko‘rinishlari)**: pardalar ichida kichikroq bo‘limlar bo‘lib, har bir sahna muayyan harakat yoki dialogni qamrab oladi. Sahnalar personajlarning chiqishi yoki muhit o‘zgarishi bilan farqlanadi.
- **Dialog va monolog**: asosiy voqealar dialog va monolog orqali rivojlanadi. Monologik nutqda personajlarning mushohadalari **ovoz chiqarib o‘ylash** shaklida beriladi.
- **Remarkalar**: muallifning sahna ko‘rinishi, personajlarning harakati yoki muhitni tasvirlovchi qisqa izohlari. Ular matnda qavs ichida beriladi, sahnada esa xatti-harakatlar bilan ijro qilib ketiladi:

*QO‘CHQOR **(uy tomonga)**. Ho‘, tirikmisan?.. **(Tipirchilaydi.)** Yechib qo‘y darrov, ho‘o‘!.. Qumri, deyapman, jahlim chiqsa nima bo‘lishini bilasan-a? Yaxshilikcha bo‘shat! **(Biroz kutib.)** Iye, bir balo bo‘lganmi bunga?..*

“Temir xotin”dan.

Tavsiya

Ustozingiz tavsiyasi bilan “Temir xotin” dramasidagi rollarni taqsimlab oling. Har bir rol ijrochisi quyidagilarga amal qilishi kerak:

- *rolingizga tegishli so‘zlarni, avvalo, bir sidra ichingizda o‘qib chiqing;*
- *remarkalarni o‘qimang, balki ularni harakat orqali ifodalang;*
- *o‘qiyotgan obrazingizning xususiyatlari (yoshi, ovozi, nutqi, xatti-harakatlari)ga moslashishga harakat qiling.*

TEMIR XOTIN

(Jiddiy komediya)

ISHTIROK ETUVCHILAR:

QO‘CHQOR – traktorchi.
“ALOMAT” – robot.
OLIMJON – yosh olim.
QUMRI – Qo‘chqorning xotini.
SHAROFAT – qo‘shni juvon.
SALTANAT – qo‘shni ayol.
SUVON – mulla.
TUROBJON – Qo‘chqorning o‘g‘li.

Birinchi sahna

Qishloq. Oddiy, kamtarona hovli. To‘g‘rida bir necha ustunli peshayvon, o‘ngda pastakkina ko‘cha eshigi, oldinroqda yog‘och karavot. Sahnadagi har bir jihoz, har bir buyumda nimadir yetishmaydi: eshik-deraza romlarining yarmi bo‘yalgan, yarmining rangi o‘chib ketgan; yog‘och karavotning bitta oyog‘i yo‘q, o‘rniga g‘isht terib qo‘yilgan; ko‘rpa-yostiqqa yamoq tushgan; piyolalarning labi uchgan yoki chegalangan, choynakning jo‘mragiga tunuka kiygizilgan va hokazo.

Peshayvon ustuniga Qo‘chqor arqon bilan chandib tashlangan, ust-boshi, aft-angoriga qarab bo‘lmaydi. Shu ko‘yi uxlab qolgan bo‘lsa kerak, avval sekin qimirlab qo‘yadi, so‘ng ko‘zini ochmay esnaydi. Oyoq-qo‘li o‘ziga bo‘ysunmayotganiga hayron bo‘lib, bir-ikki chiranib ko‘radi.

QO‘CHQOR *(uy tomonga)*. Ho‘, tirikmisan?.. *(Tipirchilaydi.)* Yechib qo‘y darrov, ho‘o‘!.. Qumri, deyapman, jahlim chiqsa nima bo‘lishini bilasan-a? Yaxshilikcha bo‘shat! *(Biroz kutib.)* Iye, bir balo bo‘lganmi bunga?.. Oxirgi marta aytyapman, agar hozir yugurib kelib, qo‘limni bo‘shatmasang...

(Ichkaridan Qumri chiqadi. U o‘ttiz-o‘ttiz beshlarda, lekin yoshiga nisbatan ancha katta ko‘rinadi.)

QUMRI *(arazli)*. Nima qilasiz?

QO‘CHQOR. Qo‘yvoraman!

QUMRI *(xo‘rligi kelib)*. Nima?..

QO‘CHQOR. Pattangni qo‘lingga tutqazaman!

QUMRI *(Birpas eriga ta’na aralash qarab turadi-da, dordagi kiyim-kechaklarini yig‘ishtira boshlaydi)*. Hozir eridan patta so‘rab o‘tiradigan zamonmas.

QO‘CHQOR. Iye! Bepatta ketaveraman, de? *(Javob ololmagach.)* Hech bo‘lmasa, bitta qo‘limni bo‘shatib qo‘y, nomard!

QUMRI. Bitta qo‘lingizni bo‘shatganim bilan foydasi yo‘q.

QO‘CHQOR. Nega bo‘lmas ekan, qashinib olaman.

QUMRI. Qayeringiz qichishyapti, ayting, o‘zim qashib qo‘yaman.

QO‘CHQOR *(bu gapni kutmagan edi, dovdirab qoladi)*. Sening bo‘ying yetmaydi...

QUMRI. Ixtiyoringiz... *(Kiyim-kechaklarni katta ro‘zg‘or sumkasiga joylay boshlaydi.)*

QO‘CHQOR. Menga qara, o‘zing bog‘ladingmi yo bitta-yarimtasi qarashib yubordimi?

QUMRI. Sizga bas kelib bo‘larkanmi, bunaqa vaqtda traktor bo‘p ketasiz-ku!

QO‘CHQOR. Kim keldi?

QUMRI. Qishloqning yarmi keldi. Baqiraverib, dunyoni boshingizga ko‘tardingiz. Olti kishi arang epladi-ya.

QO‘CHQOR. Olti kishi? *(To‘ng‘illab.)* Ko‘pchilik yaxshi-da, ko‘pchilikdan o‘rgilay... Safar ham bormidi? A? *(Qumri indamay ishini qilaveradi.)* Sendan so‘rayapman, garangmisan?!

QUMRI. Ha, bor edi.

QO‘CHQOR. Tag‘in kim chiqdi?

QUMRI. Nima farqi bor?

QO‘CHQOR. Farqi bor! Ertaga kimdan uzr so‘rashimni bilishim kerakmi? E... bugun, deganim.

QUMRI. Muhiddin akaning o‘g‘li ikkita o‘rtog‘i bilan armiyadan kelgan ekan. Otpuskaga. Avval uch kishi bo‘lib o‘shalar chiqishdi. Hech bo‘y bermadingiz.

QO‘CHQOR. Hm, armiya ham bas kelolmadi, degin?

QUMRI. Keyin Muhiddin aka bilan Safar akalar chiqishdi.

QO‘CHQOR. Yana?

QUMRI. Shu...

QO‘CHQOR. Olti kishi, deding-ku!

QUMRI. Men ham sal-pal qarashvordim...

QO‘CHQOR. “Sal-pal”mish! Yechilmayotganidan ham biluvdim, sening qo‘ling tegganini! Mol arqonlab o‘rganib qolgansan-da, bog‘lagan tuguningni matroslar ham yecholmaydi! E, qarashvormay ket! Bo‘pti, kechirdim, qo‘lni bo‘shat. *(Qumri “yo‘q” deganday bosh chayqaydi.)* Bu uyda men kimman o‘zi, a? *(Baqirib.)* Qo‘chqormanmi yo Qo‘chqormasmanmi?! Qo‘chqorman!!! *(Birdan past tushib.)* Qo‘chqor ekan, deb bog‘lab tashlayveradimi?.. Sho‘ri bor odam ekanman o‘zi... *(Yana baqirib.)* Hech bo‘lmasa, suv ber, ichim yonib ketyapti! *(Qumri dastasiz krujkada suv olib chiqib, ichirib qo‘yadi.)* Qo‘ldan berganga qush to‘ymas... O‘tir mundoq. *(Qumri itoatkorlik bilan o‘tiradi.)* Endi bir boshdan gapirib ber: kim nima dedi, nima qildi? Yo‘q, nima qilgani kerak emas, qilgan ishi boshidan qolsin! Kim nima dedi?

QUMRI. “Qo‘chqormas, ho‘kiz ekansan”...

QO‘CHQOR. O‘chir ovozingni! *(Tipirchilab.)* Hozir, lekin...

QUMRI. Voy, Muhiddin akaning gaplari-da, menga nima deysiz?

QO‘CHQOR. Muhiddin aka, degin?.. *(Birdan.)* O‘zining ko‘zi ukkinikiga o‘xshaydi, bildingmi?! Keyin-chi?

QUMRI. Safar aka “bunga hech aql kirmadi-kirmadi-da”, dedilar. “Na kattaning gapini oladi, na kichikning, tovuqnikichalik aqli yo‘q...”

QO‘CHQOR. O‘zingdan qo‘shmay gapir!

QUMRI. Voy, o‘zimdan qo‘shib, nima?..

QO‘CHQOR. Haa?

QUMRI. “Hukumat ichmanglar, deb qaror chiqarib qo‘yibdi, bu ahmoqqa shuyam ta’sir qilmaydi”, dedilar.

QO‘CHQOR. Hoo, qarorniyam bilarkanlarmi?! O‘zi sakkizinchi sinfda qolib ketgan! Chalasavod! Rasmi yo‘q ekan, deb gazit o‘qimaydi!

QUMRI. O‘zingiz ham o‘qimaysiz-ku?

QO‘CHQOR. Men vaqtim yo‘qligidan o‘qimayman, u savodi yo‘qligidan o‘qimaydi! Safar-ku, mayli. Sen-chi, sen? Shuncha gapni eshitib, qanaqa qilib chidab turding? Eringni shularga talatib qo‘yaverdingmi? E, seni xotin qilib yurgan menga ming rahmat-e! Xo‘p, soldatlar nima deyishdi?

QUMRI. “Ras, duva, vzali”, deyishdi.

QO‘CHQOR. Nima-li?

QUMRI. “Vzali”.

QO‘CHQOR. “Vzyali”, o‘qimagan! “Raz-dva”mish! Nima, armiyada faqat ikkigacha sanashni o‘rgatar ekanmi? Bir munday, yuz–yuz ellikkacha sanamaydimi, men o‘zimga kelib olmaymanmi! Sulayib yotgan bokschigayam o‘ngacha sanaydi-ku, shunchalik ham bo‘lmadikmi? Mayli, bo‘lar ish bo‘pti, qo‘lni yech.

QUMRI *(achinib, sidqidildan).* Yecholmayman, dadasi, mendan xafa bo‘lmang. Tushlikdan keyin qishloq oqsoqollari kelamiz, bir yaxshilab gaplashib qo‘yaylik, bo‘lmasa, dumini ushlatmaydi, deb ketishdi...

QO‘CHQOR. Nima, mening dumimni ushlashdan boshqa ishi yo‘q ekanmi ularning? Oqsoqollarmish yana!..

QUMRI *(ichkariga).* Turobjon, bo‘la qol, bolam!

QO‘CHQOR *(xotinining taraddudga tushganini endi payqab)*. Ha, yo‘l po‘stak?

QUMRI. Kecha nima dedingiz?

QO‘CHQOR. Nima debmiz?

QUMRI *(yig‘lamsirab)*. Aytadiganingizni aytdingiz...

QO‘CHQOR. Aytadiganimiz nima ekan?

QUMRI. Hali odamlar kelib, tushuntirib berishadi. Men bolalarimni olib, oyimlarnikiga ketdim. Maktabdan to‘g‘ri o‘sha yoqqa borishadi.

QO‘CHQOR. Iye, jinnimisan, vey? Ozgina sho‘xlik qilsak, qilibmiz endi. Yigitchilikda nimalar bo‘lmaydi...

QUMRI *(yig‘lamoqdan beri bo‘lib)*. Bu sho‘xliklaringiz o‘n olti yildan beri *(qo‘lini bo‘g‘ziga olib borib)* mana bu yerimga kelgan...

QO‘CHQOR. Nolima, ho‘, nolima! Bola-chaqang oldingda, yeb-ichishdan kaming yo‘q, yana nima kerak senga?

QUMRI. Birov sizga och qoldim, deyaptimi?

QO‘CHQOR. Nega bo‘lmasam, “u yerimga kelgan, bu yerimga kelgan”, deyverasan? Kelgan bo‘lsa, kelgandir...

(Shu payt besh-olti yoshlar chamasidagi Turobjon yugurganicha hovlining narigi betiga o‘tib keta boshlaydi. Dadasiga ko‘zi tushib, suyunchi olmoqchiday, hovliqib axborot beradi.)

TUROBJON. Dada, biz buvimlarnikiga ko‘chib ketarkanmiz! *(Qo‘chqorning bog‘liq turganiga hayron bo‘lib.)* Iye, nima qilib turibsiz, dada?

QO‘CHQOR. Kim?.. Menmi?.. Ha endi, buvingnikiga ko‘chib ketadigan bo‘lsak, uyni tashlab ketamizmi, orqalab opketamiz-da, o‘g‘iltoy! Hozir, birpas nafas rostlab olay, keyin “yo pirim”, deb ko‘taramiz-u, ketaveramiz.

(Turobjonning ishi shoshilinch shekilli, dadasining gapini oxirigacha eshitmay, yugurib chiqib ketadi.)

(Qumriga.) Bolaning oldida sharmanda qilding-ku odamni!

QUMRI. Meni el-yurt oldida sharmanda qilganingiz-chi?

QO‘CHQOR. Ichgan men, sen nega sharmanda bo‘lasan?

TUROBJON *(qaytib kelib, tomga qaraganicha)*. Kuchingiz yetmaydi-yov, dada.

QO‘CHQOR *(ma’yus)*. Bitta imorat nima bo‘pti, o‘g‘iltoy, bu yelkalar qanaqa yuklarni ko‘tarmagan...

QUMRI. Bo‘la qol, bolam. *(Sumkani olib, o‘g‘lini yetaklaganicha.)* Yaxshi-yomon gap o‘tgan bo‘lsa, xafa bo‘lmang, dadasi...

QO‘CHQOR. Ketsang, yechib ket, ho‘! Insofing bormi o‘zi, qanaqa odamsan?! *(Qumri chiqib ketgach.)* Mastligimda urib, mayib-payib ham qilib qo‘ymagan ekanman – jimgina uyda o‘tirardi... *(Atrofga chorasiz alanglaydi. Alam bilan qandaydir kuyni xirgoyi qiladi, so‘ng qo‘shni hovli tomon qichqiradi.)* Bozortoy! Ho‘o‘, Bozortoy! Bir turqingizni ko‘rsatvoring, Bozortoy-ho!..

Devor osha Sharofat mo‘ralaydi.

SHAROFAT. Ha? Voy, o‘lay...

QO‘CHQOR. Haligi... Yaxshimisiz, kelin?

SHAROFAT. Rahmat...

QO‘CHQOR. Bolalar yaxshimi?

SHAROFAT. Ha, yurishibdi...

QO‘CHQOR. Shu, desangiz... Bozortoy uydami?

SHAROFAT. Bozorvoy akam ikki qopgina bodring olib, bozorga ketuvdilar.

QO‘CHQOR. Haa... Uyda bo‘lsa tok qaychisini berib tursin, devdim. Ishkom ja tarvaqaylab ketibdi...

SHAROFAT. Kelsalar o‘zlaridan so‘rarsiz, bo‘lmasa urishib beradilar. *(G‘oyib bo‘ladi.)*

QO‘CHQOR. Qurumsoq! Eng yaqin jo‘rammish yana! *(Bir-ikki chiranib ko‘rib.)* E, Xudo! Senga nima yomonlik qiluvdim-a? (Yana tipirchilaydi, xavotirlanib tepaga qarab qo‘yadi.) Bosib qolmasmikan?.. *(To‘satdan ko‘cha tomon.)* E, ketsang, ketaver! Onasi o‘pmaganiga uylanmasam, men ham yurgan ekanman! *(Alam bilan.)* Hech bo‘lmasa, ketayotganida qo‘limni yechib ketadiganiga uylanaman...

(Tashqaridan mashinaning kelib to‘xtagani eshitiladi. Ko‘p o‘tmay, Olimjon bilan shofyor odam bo‘yi keladigan yog‘och qutini qiynala-qiynala ko‘tarib kirishadi.)

OLIMJON *(shofyorga).* Rahmat, og‘ayni. *(Pul berib.)* Mana. Yaxshi boring. *(Shofyor chiqib ketgach, u yoq-bu yoqqa alanglaydi.)* Kim bor? Qo‘chqor aka! Turobjon! *(O‘zicha.)* Iye, eshik ochiq-ku... *(Chaqirib.)* Kennoyi!

QO‘CHQOR. Kennoying onasinikida. Ketib qoldi... Xotin – jafo, Olimtoy!..

OLIMJON. Ee, Qo‘chqor aka, assalomu alaykum! Mana, tag‘in keldik-da. (*Ko‘rishmoqchi bo‘lib qo‘l cho‘zadi.)* Iye?.. Kim bunaqa qildi?

QO‘CHQOR. Kim bo‘lardi, bunaqa bema’ni narsa faqat bizning xotindan chiqadi!

OLIMJON. Ee, chatoq bo‘pti-ku... Ketib qoldilar, deng? Attang... Nega bog‘ladilar?

QO‘CHQOR. E, Olimtoy, surishtirib nima qilasiz, avval qo‘lni yechsangiz-chi! Kechadan beri onamni Uchqo‘rg‘ondan ko‘rdim!

OLIMJON. Ha-ya... *(Yechadi, uni belidan olib, karavotga o‘tqazadi).* Kechadan beri turibman, deng?

QO‘CHQOR. Voy jonim-ey!.. Shu, xotin zotini kim o‘ylab chiqargan ekan-a, Olimtoy?

OLIMJON *(kulib)*. Birovni birov o‘ylab chiqaradimi, qiziqmisiz? Xo‘sh, sog‘liq yaxshimi, Qo‘chqor aka?

QO‘CHQOR. Zo‘r! Otday! *(Ustunga ishora qilib.)* Ana, otga o‘xshab tikka turib uxlayapmiz!

OLIMJON. Ha-a, kennoyimning ketib qolganlari yaxshi bo‘lmabdi. Jiyanlarga har xil o‘yinchoq olib keluvdim...

QO‘CHQOR *(asabiy)*. Qo‘yaver, o‘zimiz o‘ynaymiz!

OLIMJON *(hovlini ko‘zdan kechirib)*. Xafa bo‘lmang-u, Qo‘chqor aka, kennoyimgayam qiyin-da. Ahvolni qarang: haliyam o‘choq, haliyam tezak yoqiladi. Progress yo‘q.

QO‘CHQOR. Nima-gres?

OLIMJON. Progress. Taraqqiyot.

QO‘CHQOR. Progress bor. Ilgari tezak yoqilardi, endi tezakni solyarka bilan yoqyapmiz. Yaxshi yonyapti. To‘g‘ri, ovqatdan sal-pal hidi keladi-yu, lekin o‘rganib ketar ekan odam.

OLIMJON. Bir hisobda, sizgayam qiyin, shuncha bola-chaqa... Hechqisi yo‘q. Qo‘chqor aka, yaqinda hammasi yaxshi bo‘p ketadi. Mana, hozir “oilani planlashtirish” degan bir gap chiqib turibdi.

QO‘CHQOR. Nimalashtirish?

OLIMJON. Planlashtirish. Bu gapning ma’nosi shuki, yaxshi yashash uchun bolani uch-to‘rttadan oshirmaslik kerak.

QO‘CHQOR. I!.. Xudoning o‘zi berib tursa nima deysan?

OLIMJON. Ha endi, Xudo “bermaydigan” qilinadi-da.

QO‘CHQOR *(go‘yo tushunganday).* Haa... Shunaqa de? U... qanaqa bo‘ladi o‘zi, xotinlarimizni bir balo qilishadimi yo biz, erkaklarni axtalashadimi?

OLIMJON *(kulib).* Obbo, Qo‘chqor aka-yey!..

QO‘CHQOR *(xijolatli).* Ha endi, tushunmagandan keyin qiyin-da...

OLIMJON. Bu tadbir siz va sizga o‘xshaganlarning manfaati yo‘lida bo‘lyapti. Bola-chaqa deb umri o‘tib ketmasin, bular ham odamga o‘xshab yashasin, degan gap bor buning tagida.

QO‘CHQOR. Yo‘q, tagidagi gap yaxshi ekan-u, lekin boshimizga qo‘ylarning kuni tushmasmikan, deyman-da.

OLIMJON. Qaysi qo‘ylar?

QO‘CHQOR. Bilmayman, esingda bormi-yo‘qmi, bir paytlar SJKmi, PJKmi degan bir balo chiquvdi. Haligi, qo‘ylarni sun’iy urchitib, ko‘proq qo‘zi olish uchun-da. Natija nima bo‘ldi? Qo‘yning

zoti aynidi, qorako‘ldan sifat qochdi, har xil kasallikka chalindi. Shu, turib-turib olimlaringgayam tushunmay qolaman-da, Olimtoy. Bir qarasang, qo‘ylarga qarab “ko‘p tug‘” deydi, bir qarasang, o‘zbekka qarab “kam tug‘”, deydi...

OLIMJON. Kechirasiz-u, Qo‘chqor aka, odam degan og‘ziga nima kelsa, qaytarmay gapiraveradimi?! Nima deyotganingizni tushunyapsizmi? O‘zbek qayoqda-yu, qo‘y qayoqda! E, tavba... *(Kuyinib.)* Bu yerda gap xalqning turmushini yaxshilash haqida boryapti! O‘zingiz mundoq bir atrofingizga qarang, ayniqsa, qishloqlarimizda turmush darajasi nihoyatda past! Chidab bo‘lmaydigan darajada past!

Baholang!

Asarni o‘qishdan oldin **ko‘rsatmalar** asosida sinfdoshlaringizning berilgan rollarni qay darajada o‘zlashtirgani, remarkalarga amal qilgani (ijrosi)ga baho bering.

Rol (obraz)ga kirisha olmagan o‘quvchi (ijrochi)larga kerakli tavsiyalar yoki ularni almashtirish uchun asosli taklif bering.

Keling, muhokama qilamiz

1. Asarning **ekspozitsiyasi** (drama boshlanishidagi ma’lumotlar)ga diqqat qiling va quyidagi savollarga javob bering:
   - sanalgan *“har bir jihoz, har bir buyumda nimadir yetishmasligi”* ta’kidlanishi orqali nima deyilmoqchi? Tushunganingizni ayting.
   - Qumrining *“o‘ttiz–o‘ttiz beshlarda, lekin yoshiga nisbatan ancha katta”* ko‘rinishining sabablari nimada? Matnga tayanib, javob bering.
2. Qo‘chqorning Qumriga: *“Nolima, ho‘, nolima! Bola-chaqang oldingda, yeb-ichishdan kaming yo‘q, yana nima kerak senga?”* – deb ta’na qilishi qanchalik o‘rinli? Qumrining iztiroblari sababi nimada edi deb o‘ylaysiz?
3. Qo‘chqorning o‘g‘li bilan suhbatiga e’tibor bering: otaga xos qanday xislatni payqadingiz?
4. Qo‘chqorning Olimjon bilan dialogiga diqqat qarating: ikkisiga xos nimalarni sezdingiz?
5. Qo‘chqorning taraqqiyot (progress) sifatida keltirgan misolini tahlil qiling. Uning Olimjonga javobi kulgingizni qistatdimi yoki yo‘qmi? Javobingizni asoslang.

Topshiriq

Qaysi o‘rinlarda Qo‘chqorga xos *piching, kinoya, tagdor* gaplarga duch keldingiz? Ulardan namunalarni daftaringizga qayd eting. Yozib olganlaringiz asosida “Qo‘chqor atay shunday gapiradimi yoki bu uning odatiy gapirish usulimi?” degan savolga javob bering.

Ijodiy ish

Ikki guruhga bo‘lining. Asar matnida Qo‘chqorni daraxtga bog‘lagan kishilar (Muhiddin aka, Safar aka, uch askar)ning suhbati aks etmagan. Qumrining Qo‘chqorga aytganlariga tayanib, **dialog tuzing.** Remarkalarni yozishni ham esdan chiqarmang.

Birinchi sahna

(davomi)

QO‘CHQOR *(og‘rinib)*. Past, degin? Senlarniki balandmi? *(Asabiy.)* O‘qigan, olim odamsan, ko‘tar-da past bo‘lsa! “Prigres-mrigres” qilasan bu yerga kelib olib! Xotinlarning qorniga osilguncha paxta teradigan mashinani eplanglar!

OLIMJON. Nima, bizni hukumatning pulini shundoq yeb yotibdi, deb o‘ylayapsizmi? Biz ham qidiryapmiz, izlanyapmiz, o‘ylayapmiz.

QO‘CHQOR. E, bitta paxta teradigan mashinani ellik yil o‘ylaydimi?! Goh rulini o‘zgartirasanlar, goh kabinasini, goh o‘tirg‘ichini – bo‘ldi! Biz, yangi mashina kelar ekan, deb do‘ppimizni osmonga otib yuramiz. Qarasak, o‘sha-o‘sha boyagi – Xolxo‘janing tayog‘i!

OLIMJON. To‘g‘ri, lekin bu muammoni asosiy maqsaddan kelib chiqib, kompleks hal qilish kerak.

QO‘CHQOR. Nima-pleks?

OLIMJON. Kompleks. Asosiy maqsad nima? Paxtani sifatli terib olishmi? Ana shu maqsaddan kelib chiqish kerak. Paxta teradigan mashinaning shakli qanaqa bo‘ladi – buning ahamiyati yo‘q. Muhimi, yaxshi tersin. Men bu borada boshqa yo‘ldan ketyapman, Qo‘chqor aka. Ko‘proq masalaning estetik tomoniga e’tibor beryapman.

Bir tasavvur qiling-a: paxtazordan xotin-qizlarning quvnoq kulgisi eshitilib turibdi! Qiy-chuv, hazil-huzul! Kechqurunlari qishloq ko‘chalarini to‘ldirib, qiz-juvonlar o‘tishyapti! Ko‘rib ko‘z quvonadi, dil yayraydi! “Tar-tar-tar” qilib ko‘chadan traktor o‘tgani qayoqda-yu, qo‘ng‘iroqday ovozi bilan ko‘ngillarni entiktirib, qizlar o‘tgani qayoqda! Farqi bormi? Shuning uchun men paxta teradigan mashina emas, paxta teradigan elektron robot ustida ishlayapman. Tashqi ko‘rinishi odamdan farq qilmaydi. Ko‘radi, eshitadi, gapiradi! Tanasi ham plastik materialdan yasalgan...

QO‘CHQOR. Nima-stik?

OLIMJON. Plastik. Faqat tashqi ko‘rinishi emas, xatti-harakati, imo-ishoralari, gap-so‘zi odamga maksimum darajada yaqinlashtirilgan.

QO‘CHQOR. Nima-simum?

OLIMJON. Maksimum. Masalan, boshqaruv blokiga yumor hissi bilan bog‘liq mikrosxema o‘rnatilsa...

QO‘CHQOR. Nima-sxema?

OLIMJON. Mikrosxema. O‘rnatilsa, nihoyatda hazilkash, quvnoq, biroz shaddod ayolga aylanadi. Lirik hisli mikrosxema o‘rnatilsa, ayollarga xos nazokat, ibo paydo bo‘ladi.

QO‘CHQOR. Nega ayollarga xos?

OLIMJON. Iya, boyadan beri nima deyapman? Robot ayol shaklida bo‘lishi kerak-da, bo‘lmasa nima qizig‘i bor? Ko‘rdingizmi, bir o‘q bilan ikki quyonni uryapmiz: ham xotin-qizlarimizni og‘ir qo‘l mehnatidan xalos qilamiz, ham paxtazordan qiz-juvonlarning kulgisi jaranglab turadi!

QO‘CHQOR. Kuladiyammi?

OLIMJON. Bo‘lmasam-chi! Kuladi, baqiradi, shivirlaydi! Bu mikrosxemalarning xarakteriga bog‘liq.

QO‘CHQOR. Shunaqa de? Xo‘p, o‘sha... ayol-robotlaring ishdan keyin garajga borib yotadimi?

OLIMJON. Shunday desayam bo‘ladi. Lekin garajlar yotoqxona tipida quriladi. Keyin, Qo‘chqor aka, bu robotlar juda arzon tushadi, yonilg‘i kerak emas – batareyalardan quvvatlanadi. Ikkinchidan, ularni beto‘xtov ishlatish mumkin. Issiq demaydi, sovuq demaydi, kechasimi, kunduzimi – ishlayveradi!

QO‘CHQOR. Oylik ham so‘ramaydi?!

OLIMJON. Albatta-da! Muhimi, buyruqni so‘zsiz bajaradi, g‘idi-bidi qilib o‘tirmaydi. “Hamma paxta terimiga!” deb buyruq berilsa, har qanday ishini tashlab, dalaga chiqib ketaveradi!

QO‘CHQOR. Unda chindan ham odamga o‘xshar ekan. Mana, biz ham “Paxta terimiga!” degan gapni eshitishimiz bilan hamma ishimizni yig‘ishtirib qo‘yib, dalaga chiqib ketaveramiz. Bolalarimiz o‘qishini tashlaydi, xotinlarimiz emizikli bolasini.

OLIMJON. Ana shuning uchun ham robotlar kerak-da! Mana siz, bolalarimizning o‘qishi nima bo‘ladi, deysiz, ayollarimiz yosh bolalarini qayerga qo‘yadi, deysiz. Robotga buning ahamiyati yo‘q. Tushunyapsizmi? U faqat ishlaydi! Ishlayveradi, ishlayveradi, ishlayveradi!

QO‘CHQOR. Biz ham ishlayveramiz.

OLIMJON. Lekin siz odamsiz! U – robot, tushunyapsizmi, robot! Mashina!

QO‘CHQOR. Haa... Buni-ku durust o‘ylabsan, Olimtoy. Lekin u mashinang qachon tayyor bo‘ladi, tuyaning dumi yerga tegganidami?

OLIMJON. Siz, Qo‘chqor aka, olimlarni ja unaqa yerga uravermang. Biz ham bir nimalar qilib yurgandirmiz. Mana, men yetti yildan beri o‘shanaqa robot ustida ishlayapman. Yetti yil-a! Nihoyat, Qo‘chqor aka, birinchi, tajriba nusxasi tayyor bo‘ldi! Laboratoriya sinovidan yaxshi o‘tdi, endi tabiiy sharoitda, dalada sinab ko‘ramiz! *(Qutining atrofida ham hayajon, ham faxr bilan aylanadi.)* Yuragim urib ketyapti, Qo‘chqor aka!..

QO‘CHQOR. Shuning ichidami? Yo‘g‘-e...

OLIMJON. Diqqat!

(Olimjon qutining qopqog‘ini ochgan edi, u yerda qo‘g‘irchoqqa o‘xshab ketadigan nihoyatda go‘zal qiz turardi. Badaniga silliq, yaltiroq mato tortilgan.)

QO‘CHQOR *(hayratdan og‘zi ochilib)*. Voo!..

OLIMJON *(faxrlanib)*. Qalay?

QO‘CHQOR *(birdan).* Ee, odamning boshini qotirasan-a! Magazinning oynasiga kiyim kiygizib qo‘yadigan-ku bu!

OLIMJON *(xafa bo‘lib)*. Yetti yillik mehnatim bu! “Magazin”mish-a!

QO‘CHQOR Rostdan-a? *(Yaqin borib uzoq tikiladi, ushlab ko‘radi.)* Alomaat, alomat!..

OLIMJON *(sevinib ketib)*. Yashang, Qo‘chqor aka! E, bormisiz! Qarang, bunga nom topolmay yuruvdim o‘zi. Demak, “Alomat-1”!

QO‘CHQOR Nega “bir”?

OLIMJON. Keyin “ikki” “uch”, “to‘rt”lari ham bo‘ladi-da! Butun respublika uchun, bilasizmi, buna-qaday hali qancha-qanchasi kerak?

QO‘CHQOR. Haa... Xuddi tirikday-a, tavba!.. Gapiradi, dedingmi, Olimtoy?

OLIMJON. Hozir... *(“diplomat”idan gugurt qutisiday keladigan bir qancha yupqa plastinkalarni olib.)* Mana, manavilar – mikrosxemalar. Hammasi har xil maqsadda ishlatiladi. *(Robotning yelkasidagi qopqog‘ini ochib.)* Mana bu yeriga kerakli mikrosxemani o‘rnatamiz. Keyin munday qilib, qopqog‘ini yopib qo‘yamiz. Ana, tayyor! E Xudo, sharmanda qilma! *(Robotning tugmachasini bosadi.)*

(Alomat avval ko‘zlarini pirpiratib qo‘yadi, so‘ng bir necha qadam oldinga yurib, to‘xtaydi.)

ALOMAT. Allo, allo!.. Voy, o‘rtoqjon, o‘zingmisan? Ovozingni eshitadigan kun ham bor ekan-ku. Biram sog‘indim, biram sog‘indim, o‘lib qolay, deyapman!.. Ha, kecha-chi, o‘sha sen aytgan zorman-dani Muqaddasning qulog‘ida ko‘rdim. Quloq o‘lgur supraday bo‘lganidan keyin hamma narsayam yarashavermas ekan, o‘rgilay!

OLIMJON *(o‘chirib)*. E, bu sekretar-mashinistkalarniki-ku... *(Boshqa mikrosxema olib.)* Bu nima ekan? Ko‘ramiz... *(Qo‘yib, tugmachasini bosadi.)*

ALOMAT *(o‘ta jiddiy)*. ... shunday xulosa kelib chiqadiki, planlashtirish tashkilotlari va xalq xo‘jaligi organlari davlat planlarini ishlab chiqishda respublikamizdagi suv resurslarini hisobga olish-lari zarur...

OLIMJON *(o‘chirib).* Buyammas... Shu, yozib qo‘yish kerak ekan-da. *(Boshqa sxema o‘rna-tadi.)*

ALOMAT *(avval biroz qitirlab turib, so‘ng baland va yoqimli ovoz bilan kuylaydi).* “Yana o‘ynaylik, yana kuylaylik, iqbolimiz porloq ekan, davron suraylik! Yana o‘ynay...”

Olimjon robotni o‘chiradi. Qo‘chqorning hayratdanmi, qo‘rquvdanmi, og‘zi ochilib, ko‘zi xonasi-dan chiqqudek bo‘lib turardi.

QO‘CHQOR. O-olimtoy!.. Buyam, haligi, magnitofonday gap ekan-da, a? Qanaqa kasseta qo‘ysang, o‘shanaqasidan aytsa...

OLIMJON. Ha, prinsip deyarli bir xil.

QO‘CHQOR. Nima-sip?

OLIMJON. Prinsip.

QO‘CHQOR. Haa... Sherali[1]dan yo‘qmi?

OLIMJON. Yo‘q. Radiodan tajriba uchun duch kelgan ashulaning ikki satrini yozib qo‘yuvdik-da. *(Yangi sxema o‘rnatadi.)*

ALOMAT *(kutilmaganda)*. Ha, og‘izginangdan qoning kelsin sening! Sochingni bittalab yulib, boshingni koptok qilib qo‘yaymi?! Qirilibgina ket, iloyim! G‘ing deb ko‘r-chi, nima qilar ekanman!

QO‘CHQOR *(esxonasi chiqib).* Yo‘-yo‘, g‘ingmas… Unaqamas, haligi…

ALOMAT. E, qo‘ng‘izga o‘xshamay o‘l! G‘ing-g‘inglashniyam biladi shu ahvoliga!

OLIMJON. Gap qaytarmang, Qo‘chqor aka, gap qaytarmang!

[1] O‘zbekiston xalq artisti Sherali Jo‘rayev nazarda tutilmoqda.

ALOMAT *(Olimjon tomon burilib).* Voy sho‘rtumshuq-ey! Sen nega burningni tiqasan?

OLIMJON *(shosha-pisha o‘chirib).* Bu yigitlarimizning hazili bo‘lsa kerak, doim shunaqa qilib yurishadi. Yaxshiyam komissiya-pomissiyaning oldida qo‘yvormadik, sharmanda bo‘larkanmiz.

QO‘CHQOR *(hamon o‘ziga kelolmay).* Shunaqa hazildan yana bitta bo‘lsa, Qo‘chqorvoy akang yo‘q-da...

(Olimjon boshqa sxema o‘rnatadi.)

ALOMAT (*odob bilan).* Assalomu alaykum.

QO‘CHQOR *(qo‘rqa-pisa).* Va... Vaalay...

OLIMJON. Sening isming – Alomat. Tushundingmi?

ALOMAT. Tushundim. Mening ismim – Alomat.

OLIMJON. Bu kishi – Qo‘chqor aka.

QO‘CHQOR *(arang jilmayib).* Shundoq, shundoq...

ALOMAT. Qo‘chqor aka.

QO‘CHQOR. Labbay?..

ALOMAT. Ko‘nglingizga kelmasin-u, nega sizga hayvonning nomini qo‘yishgan, “Qo‘chqor”, deb?

QO‘CHQOR *(Olimjonga).* Iye?..

ALOMAT. Qo‘chqor – qo‘yning erkagi-ku.

QO‘CHQOR. Haligi... nima deydi... Ha endi, biz odamning erkagimiz-da, Alomatxon...

ALOMAT. Menga nima xizmat bor, odamning erkagi?

OLIMJON. Alomat, “Qo‘chqor aka”, de, “Qo‘chqor a-ka”. Tushundingmi?

ALOMAT. Tushundim. Xo‘sh, nima xizmat bor, Qo‘chqor aka?

QO‘CHQOR. Xiz... Xizmat yo‘q... *(Karavotga ishora qilib.)* Qani, bu yoqqa o‘ting, Alomatxon... Yo‘q, yo‘q, ko‘rpachaga, ko‘rpachaga...

ALOMAT (*karavotning bir chetiga qimtinibgina o‘tirib).* Rahmat, yaxshi o‘tiribman.

(Qo‘chqor haliyam o‘ziga kelolmas, lekin og‘zi qulog‘ida – go‘yo yuzida kechagi tabassum qotib qolganday edi. Kashfiyotining unga shu qadar ta’sir etganidan Olimjon ham xursand.)

OLIMJON. Bo‘lmasa, Qo‘chqor aka, siz bemalol gaplashib o‘tiravering, men narsalarimni joylashtiray. O‘sha hujra bizniki-da, a?

QO‘CHQOR *(beixtiyor “sizlash”ga o‘tib).* Iye, so‘rab o‘tirasizmi, o‘zingizning uyingiz-ku, Olimtoy!..

(Olimjon yig‘ma karavot, sumka va boshqa anjomlarini ko‘tarib, ichkariga kirib ketadi.)

(Anchadan keyin.) Haa... Zap kelibsiz-da... *(Dovdirab.)* Ichkarida muzday ayron bor, bir kosagina olib chiqaymi?

ALOMAT. Ayron? Uni nima qilaman?

QO‘CHQOR. Ichasiz... Ha-ya, esim qursin... Xo‘sh... Ishlaringiz yaxshimi?

ALOMAT. Qaysi ishlarim? Hali hech ish qilganim yo‘q-ku.

QO‘CHQOR. Ha endi, gap-da... *(Birozdan keyin.)* Obbo, Alomatxon-ey, shunaqa deng?.. *(Sukut.)* Haa, ishqilib omon bo‘laylik... Bu, Olimtoy ja ajoyib yigit-da, lekin. Shu deng, shaharda, qaysidir bir institutda ishlaydi. Olim. Kolxozimizda o‘sha institutning tajriba uchastkasi bor. Qirq gektar. Qudrat quyonchiqning brigadasiga shundoq tutashib ketgan. Olimtoy har kelganida biznikida turadi. Uy ko‘p... O‘zimizning ukaday bo‘p qolgan. Yo‘q, yaxshi bola. Haa, shunaqa gaplar...

Sukut.

(Xijolatli.) Bugun, deng, kennoyingiz bilan sal g‘ijillashib qoldik... Endi ro‘zg‘or ekan-da – goh unday, goh munday... Bolalarini olib, onasinikiga ketib qoldi. Keladi-da, qayoqqa borardi shuncha bola bilan, nima dedingiz? Haa... Bu, o‘zingizning bolalaringiz yaxshi yurishib... Ha-ya... Yo‘q, o‘zi durust ayol. Endi ja sizchalik bo‘lmasayam... xotin-da, ishqilib. Lekin aytdim – oldidan o‘tib qo‘ydim-da – agar, dedim, yaxshilikcha qaytmasang, dedim, shartta boshqasiga uylanvoraman, dedim. To‘g‘ri-da, qattiqroq yo‘talsang ham arazlab ketib qoladigan xotin kimga kerak, nima dedingiz? Ee, ishqilib, zamon tinch bo‘lsin... Choy qo‘yvoraymi? E, ha... Siz ham gapirib o‘tiring, Alomatxon, nuqul men sayrayapman... *(Alomat ko‘zlarini bir nuqtaga qadaganicha jim o‘tirardi.)* Olimtoy, lekin ja savob ish qilyapti-da. Rakatopsin. Mana, xotin-xalaj, bola-chaqa yil bo‘yi daladan beri kelmaydi. Na dam olish bor, na bayram bor, ertadan kechgacha – ish, ish, ish! Qor demaydi, yomg‘ir demaydi, issiq demaydi. Bu yoqda issiq deganingiz qirq daraja bo‘lsa, paxtaning ichida ellik! E, temir bo‘p ket-e, haliyam chidar ekan odamzod! *(Xijolatli.)* “Temir” deganimga xafa bo‘lmang tag‘in, og‘zimdan chiqib ketdi-da... Olimtoy shularni ko‘rib chidolmadi. Odamlarning og‘irini yengil qilaman, deb kechalari uxlamaydi. O‘ziga o‘zi gapiradimi-yey, bir balolarni chizadi, birovlarni so‘kib-so‘kib o‘chiradi, yana chizadi! Bir men nominiyam bilmaydigan idoralarga qatnaydi, kimlar bilandir janjallashib, asabi qaynab keladi. Tinmaydi-da, tinmaydi! Yomoon yaxshi bola lekin! Rakatopsin! *(Olimjon chiqadi.)* Olimtoy, seni gapiryapman. Hech tinib-tinchimaydigan bola, deyman.

OLIMJON *(Alomatga qarab turib).* Iye, bu o‘chib qopti-ku...

(Robotning yelkasidagi blokni kovlashtira boshlaydi.)

QO‘CHQOR. I!.. O‘chib qopti, deganing nimasi?! Men shuncha gapni kimga gapirdim bo‘lmasa? Butun o‘zbekning dardini dasturxon qilib o‘tiribman! *(Xafa bo‘lib.)* Doim shu – bizga o‘xshagan odam gapirsa, yo hech kim eshitmaydi, yo eshitadigani temir chiqadi...

OLIMJON. Shu blokni almashtirish kerak ekan-da, qayeridadir kontakt bo‘lmayapti.

QO‘CHQOR. Nima-takt?

OLIMJON. Kontakt. O‘qtin-o‘qtin tutib qolyapti. *(Boshqa sxema qo‘yadi.)*

ALOMAT *(nozli).* Unaqa qaramang odamga... Biram nigohingiz o‘tkirki...

QO‘CHQOR *(dovdirab).* Kim?.. Menmi?.. Yo‘-yo‘, qaraganim yo‘q... O‘libmanmi, sizga qarab... Men tomga qarayapman...

ALOMAT. Doim shunaqa deysiz, odamni xijolat qilib qo‘yib... Yomonsiz, Qo‘chqor aka...

QO‘CHQOR *(jon holatda).* Shunisini qo‘y, Olimtoy, shunisini qo‘y, uka! O‘chirma, o‘chirma!.. *(Robotga.)* Alomatxon!.. Gapiring, Alomatxon!.. Shunaqa gaplaringizdan gapiring!..

ALOMAT. Voy, anavi kishimni!.. Nima deyman?..

QO‘CHQOR. E, mayli-da, nima desangiz ham!.. Sizday ayolga gap qahatmi, Alomatxon!.. Ishqilib ovozingizni eshitsam bo‘ldi!..

ALOMAT. E, boring-e.

QO‘CHQOR. Olimtoy!!! Yaratib qo‘yganingdan aylanay! Endi mundoq o‘tir. *(Olimjon o‘tiradi.)* Olimtoy! Jigarim! Gap mundoq. Shu... *(Alomatga qarab qo‘yib.)* Alomatxonning oldilarida noqulay bo‘lyapti-ku...

OLIMJON. Unda o‘chirib qo‘yamiz. *(Robotni o‘chirib.)* Xo‘sh?

(Qo‘chqor o‘chdimi-yo‘qmi, deb Alomatga tikiladi, keyin uning ko‘zi oldida qo‘lini u yoqdan bu yoqqa o‘ynatib ko‘radi. Alomat tek qotib turaveradi.)

QO‘CHQOR. Gap munday, Olimtoy. Ukammisan?

OLIMJON. Albatta.

QO‘CHQOR. Jonajon ukammisan?

OLIMJON. Bo‘lmasam-chi.

QO‘CHQOR. Agar jonajon aka-uka bo‘lsak... *(Alomatga qarab qo‘yib.)* Eshitmaydi-ya?

OLIMJON. Eshitmaydi.

QO‘CHQOR. Agar jonajon aka-uka bo‘lsak, bitta ukalik qilasan, uka.

OLIMJON. Xo‘sh?

QO‘CHQOR. Bilasan, kennoying ketib qoldi. Shu desang, xotinsiz uy – uymas-da. Na kiyinishingda tartib bor, na issiq-sovug‘ingda tayin bor, qidirgan narsang topilmaydi, padariga la’nat! Xullas, qiyin. Shu, Alomatxon ro‘zg‘orga sal munday... nima deydi, qarashib tursa, devdim-da.

OLIMJON. Bemalol. Nima ish buyursangiz ham qilaveradi.

QO‘CHQOR. To‘g‘ri-yu, lekin... *(Alomatga qarab qo‘yib.)* Eshitmaydi-ya? Shu desang, uy ishlarini-ku, qilaveradi, gap undamas. Ishdan charchab kelganingdan keyin mundoq yostiqlarga yonboshlab, dunyoning past-balandidan suhbat qursang, a? Haligidaqa ikki og‘iz shirin so‘z bilan choy uzatsa, a? Charchoqlar yozilib, dildagi g‘uborlar ketarmidii, degan gap-da bizniki. Vey, yaxshi gapning gadosimiz, Olimtoy!

OLIMJON. Mayli, Qo‘chqor aka. Qaytanga ishlab turgani yaxshi, bahonada men ham u-bu kamchiligini ko‘rib olaman. *(Turmoqchi bo‘ladi.)*

QO‘CHQOR *(yengidan tortib).* O‘tir. Gap, Olimtoy, Alomatxonning menga ko‘rsatadigan xizmatida emas. Gap – ko‘ngilda! Bitta ovqat-u sigir sog‘ish bo‘lsa, qo‘shniyam qilib beraveradi. Lekin ertalab ishga ketayotganingda “yaxshi borib keling, dadasi”, desa, a?

OLIMJON. A?..

QO‘CHQOR. Mayli, “dadasi” kerak emas. “Yaxshi borib keling”, desa yoki kechqurun charchab kelganingda “yaxshi keldingizmi?” desa, a? Mana buni, Olimtoy, qo‘shning qilib berolmaydi-da! *(Ilmoqli.)* Anglayapsanmi?

OLIMJON *(beparvo).* Mayli, dedim-ku, Qo‘chqor aka. Ishdan qochmaydi, gapingizdan chiqmaydi. Bemalol. *(Turmoqchi bo‘ladi.)*

QO‘CHQOR. E, o‘tir! Endi, Olimtoy... *(Alomatga qarab qo‘yib.)* Eshitmaydi-ya? Endii, Olimtoy, o‘zingdan qolar gap yo‘q. Bu yog‘i – qishloqchilik: birov u deydi, birov bu deydi – el og‘ziga elak tutib bo‘lmaydi, xo‘pmi? *(Olimjonning hayron bo‘lib turganini ko‘rib.)* Yo‘q, yo‘liga-da, yolg‘ondakamiga!.. Shu, bir-ikkita mo‘ysafidni chaqirib, bir oshamgina osh bilan fotihaga o‘xshagan gap qivorsak, a? O‘zbekchilik-da...

OLIMJON. Iye, o‘ylab gapiryapsizmi, Qo‘chqor aka? Nima, el-yurtga kulgi bo‘lmoqchimisiz? Hamma ishingizni qilsa – sigir sog‘ishmi, kir yuvishmi, ovqat-povqatmi – fotihaga balo bormi? Qiziq gapni gapirasiz-a! E tavba!.. Xo‘p, erta yo indin terim boshlanadi, Alomat sinovga chiqishi kerak. Unda nima bo‘ladi?

QO‘CHQOR *(Olimjonni taslim bo‘lyapti, deb o‘ylab)*. Yo‘q, paxtaga gap yo‘q, gap yo‘q. Ayol zotining-chi, vey, joni temirdan bo‘ladi – uyniyam eplaydi, dalaniyam! Ko‘rib yuribmiz-ku.

OLIMJON. Birov eshitsa nima deydi, Qo‘chqor aka, o‘ylayapsizmi?

QO‘CHQOR. Menam shuni aytaman-da, Olimtoy. “Uyingizda bir zaifa paydo bo‘p qopti, Qo‘chqorvoy, kim bo‘ldi u?” deb so‘rashsa, nima deyman? Ammamning qizi, deymanmi? Odamlarning qaysi biriga tushuntiraman, bu shunaqa, odam emas, Olimtoy yaratgan robot, deb? Bitta mulla chaqirib, yo‘liga nikohga o‘xshagan narsa qivorsak – bo‘ldi. Yuraveramiz, gap yo‘q, so‘z yo‘q. Shu bilan bir nima bo‘p qoladimi?

OLIMJON. Axir bu odam emas-ku, Qo‘chqor aka, temir-ku, nega tushunmaysiz?! Ichi to‘la sim, plastmassa, yarimo‘tkazgichlar! Bu – mashina! E, gapiraveradimi har narsani! Ertaga sinovdan o‘tolmasa-yu, buzib tashlasam nima bo‘ladi? Bir uyum temir qoladi!

QO‘CHQOR. Ha endi, buzmang-da, Olimtoy. Shunday narsani buzsangiz, uvoli tutib, qo‘lginangiz akashak bo‘p qolmaydimi! Ee, yetganlar bor, yetmaganlar bor... Xo‘p de, Olimtoy, dil ketdi-da endi. Senga nima, bu bo‘lmasa boshqasini yasab olaverasan, bizga o‘xshagan so‘qqaboshga qiyin... *(Bechorasifat.)* Yolg‘izlik yomon, Olimtoy, buni boshiga tushgan biladi...

OLIMJON *(toqati toq bo‘lib)*. E, bilganingizni qilmaysizmi!.. *(Turib.)* Men idoraga borib kelaman. Bilay-chi, terim qachon ekan? *(Chiqib ketadi.)*

(Qo‘chqor Olimjondan rozilik oldim, deb o‘ylab o‘zida yo‘q shod. Sekin Alomatning orqasiga o‘tib, ehtiyotlik bilan tugmachasini bosadi. Alomat jonlanadi.)

QO‘CHQOR. Zerikmaygina o‘tiribsizmi, Alomatxon?

ALOMAT *(hech gap bo‘lmaganday)*. Rahmat.

QO‘CHQOR. Endii, Alomatxon, mana shu ro‘zg‘orning og‘ir-yengili ikkovimizning bo‘ynimizda, xo‘pmi? Yaxshisini oshirib, yomonini yashirib, deganday, tebrataveramiz. Birpas turib mulla Suvonni chaqirib chiqaman, nikoh o‘qib qo‘yadi. Maylimi?

ALOMAT. Nima o‘qitsangiz o‘qitavering, ixtiyoringiz.

QO‘CHQOR *(erib ketib)*. Qarang, vey, odamlar gap qaytarmaydigan xotin yo‘q bu dunyoda, deyishadi! Mana! Bu katta xolangmi? Voy omilar-ey! Voy dunyobexabarlar-ey!.. Rakatoping, Alomatxon, rakatoping! *(Yayrab.)* Shu, turib-turib Olimtoygayam qoyil bo‘lmay ketaman-da, lekin. Sizni, deyman, ilgariroq yasamaydimi... e, haligi, olib kelmaydimi?! Ha esi yo‘g‘-a, esi yo‘q... Lekin Alomatxon, sizning omadingiz bor ekan. Nimaga, deng.

ALOMAT. Nimaga?

QO‘CHQOR. Nasibangiz menday odam bilan qo‘shilgan ekanmi, omadning kelgani shu-da! Qo‘chqor aka, desangiz, qishloqning yetti yoshdan yetmish yoshigacha “ho‘ ana uyi”, deydi! Kolxozda obro‘ yomonmas. Necha yildan beri suratimiz “Hurmat taxtasi”dan tushmaydi. Anovi kuni qarasam, sarg‘ayib ham ketibdi. Kelayotib ko‘rgandirsiz, shundoq idoraning oldida-da... Ha-ya... Xullas, idoraning oldida. Esimni tanibmanki, traktor haydayman. Yomon bo‘lganimiz yo‘q, birovdan oldin, birovdan keyin, deganday... *(Xijolatli.)* Bir marta, deng, rayondagi bayram namoyishida minbarda turganman, kattalar bilan. G‘alati bo‘lar ekan... Xo‘sh, deganingizdan bilsak, ikki marta Toshkentgayam borganman! Shaharmisan shahar-da, lekin! E, ko‘raman deganga dunyo keng ekan, Alomatxon. Ana, bitta kolxozchiga bundan ortiq yana nima kerak? Xullas, men bilan kam bo‘lmaysiz. Ha, aytganday, mulla kelsa, nima deyishni bilasizmi?

ALOMAT. Gapiga qarab javob qilaveraman.

QO‘CHQOR. Yo‘q, hamma gapigayam javob qilmang-da. “Falonchi pismadonchi qizi, siz falonchi pismadonchi o‘g‘liga erga tegishga...” Erga tegishgami, turmushga chiqishgami, ishqilib, shunga o‘xshash gap bo‘ladi-da. “Erga tegishga rozimisiz?” deb birinchi marta aytganida indamang.

Ikkinchi marta so‘raydi, yana indamaysiz. Uchinchisida sekingina “rozimaan”, deb qo‘yasiz. Xo‘pmi?

Alomat jim turaveradi.

(Qo‘rqib ketib.) Alomatxon... Alomatxon!

ALOMAT. Labbay, Qo‘chqor aka?

QO‘CHQOR. E, xayriyat-e... Men tag‘in o‘chib qoldingizmi, debman…

Parda

Keling, muhokama qilamiz

1. Nima deb o‘ylaysiz, aholining turmush darajasi yuqori yoki pastligi qanday omillarga bog‘liq? Fikrlaringizni Olimjonning qishloqlarda turmush darajasi pastligi haqidagi gapiga Qo‘chqorning munosabatini ham qo‘shib tahlil qiling.

Umumiy tahlillar yakunida chiqargan xulosalaringiz asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring:

Turmush darajasi yuqoriligini ko‘rsatuvchi omillar	Turmush darajasi pastligini ko‘rsatuvchi omillar

2. a) Quyidagi parchada qora bilan belgilanganlarni qayta o‘qing:

“QO‘CHQOR. Oylik ham so‘ramaydi?!

*OLIMJON. Albatta-da! Muhimi, **buyruqni so‘zsiz bajaradi**, g‘idi-bidi qilib o‘tirmaydi. “Hamma paxta terimiga!” deb **buyruq berilsa, har qanday ishini tashlab, dalaga chiqib ketaveradi!***

*QO‘CHQOR. **Unda chindan ham odamga o‘xshar ekan.** Mana, biz ham “Paxta terimiga!” degan gapni eshitishimiz bilan hamma ishimizni yig‘ishtirib qo‘yib, dalaga chiqib ketaveramiz. **Bolalarimiz o‘qishini tashlaydi, xotinlarimiz emizikli bolasini...***

*OLIMJON. Ana shuning uchun ham robotlar kerak-da! Mana, siz, bolalarimizning o‘qishi nima bo‘ladi, deysiz, ayollarimiz yosh bolalarini qayerga qo‘yadi, deysiz. Robotga buning ahamiyati yo‘q. Tushunyapsizmi? **U faqat ishlaydi! Ishlayveradi, ishlayveradi, ishlayveradi!***

*QO‘CHQOR. **Biz ham ishlayveramiz.***

*OLIMJON. **Lekin siz odamsiz! U – robot**, tushunyapsizmi, robot! **Mashina!***

QO‘CHQOR. **Haa...** ”

b) Qo‘chqor va Olimjon suhbati zamiridagi haqiqatlarni ayting;

d) Qo‘chqorning parcha so‘ngidagi ***“Haa…”*** deyishi orqali Olimjonning gaplaridan keyin nimalarni tushunib yetganini ayting.

3. Qo‘chqor va Alomat dialogi orqali muallif Qo‘chqorga xos qanday xususiyatlarni ko‘rsatib berishni reja qilgan deb o‘ylaysiz? *“Birinchidan,... Ikkinchidan, ...”* shaklida fikringizni bayon eting va har birini dalillang.

4. Dramaturgning Qo‘chqor ilmiy-texnikaviy atamalarni to‘la aytolmasligini ko‘rsatishdan maqsadi nima, sizningcha?

Topshiriq

1. Traktorchi Qo‘chqor “baxt” deb qabul qilgan tushunchalarni bir ustunga, o‘zingiz “baxt” deb biladigan tushunchalarni ikkinchi ustunga yozing. Qo‘chqorning va sizning nazdingizdagi “baxt” o‘rtasida qanchalik o‘xshash va farqli tomonlar borligini izohlang. Nima uchun shundayligini tushuntiring.

Qo‘chqor uchun “baxt” tushunchasi	Men uchun “baxt” tushunchasi	Izoh

2. Dramaning ikkinchi va to‘rtinchi sahnalarini o‘qing.

Ikkinchi sahna

(O‘sha joy. Oradan bir necha soat o‘tgan, yog‘och karavotda Qo‘chqor bilan mulla Suvon o‘tirishibdi. O‘rtada kamtarona dasturxon.)

SUVON. Qo‘chqorbek, bu, xotinni yangilash niyatida ekansiz?

QO‘CHQOR. Labbay? U nima deganingiz, taqsir? Nima, xotin moshinaning pokrishkasimi yangilaydigan?

SUVON. Ha endi, gap-da, mulla Qo‘chqor, gap-da...

(Shu payt oshxonaning eshigida choynak ko‘rinadi, nozik qo‘llar uning qopqog‘ini urib, ovoz beradi.)

QO‘CHQOR. Hozir, taqsir... *(Choyni olib kelib.)* Qani, dasturxonga qarab o‘tiring... (*Kerilibroq.*) Buyuraymi, jiz-biz qivorsinmi?

SUVON. Endii, mulla Qo‘chqor, taom yeb yurgan joyimiz. Xudo xohlasa, hali ko‘o‘p kelamiz...

QO‘CHQOR. Iye! Bu endi, hali ko‘o‘p uylanasiz, deganingizmi, taqsir?

SUVON. Gap-da, mulla Qo‘chqor, gap... Xo‘sh. Vaqt ziqroq, bo‘lg‘usi kelinni chaqiring.

QO‘CHQOR *(chaqirib).* Alomatxon, bir ko‘rinish bering!

(Alomat o‘ziga nihoyatda yarashib turgan milliy libosda, usti sochiq bilan yopilgan allanimani ushlaganicha chiqib keladi.)

ALOMAT *(odob bilan).* Assalomu alaykum.

SUVON. Vaalaykum assalom varahmatullo. Tuzuk, tuzuk... Qani, mundoq o‘tiring. *(Qo‘chqorga.)* Siz bir kosada suv keltiring.

QO‘CHQOR *(o‘rnidan turib).* Xo‘p, taqsir.

ALOMAT *(qo‘lidagi usti sochiq bilan yopilgan kosani ochib, uzatadi.)* Mana, mulla aka.

(Qo‘chqorning hayratdan og‘zi ochilib, sekin joyiga o‘tiradi.)

SUVON. Borakalloo... *(Kosani olib, bir nimalarni pichirlaydi.)* Kelin bo‘lmishning ismi shariflari, otalarining nomlari?

QO‘CHQOR. Ismlari – Alomatxon. Eshitdingiz-ku. Xo‘sh, deganingizdan bilsak, taqsir, otalari-i... qazo qilib ketganlar, taqsir. Sariq bo‘lganlar-da. Bilasiz-ku, hozir nima ko‘p – sariq ko‘p. Do‘xtirga oborishsa, “jigarni qozonsochiq qivoribsiz-ku”, deyishibdi. O‘tib ketgan ekan-da, taqsir. Keyin qizilo‘ngachlariyam ko‘ndalangiga...

SUVON. Qazo qilgan bo‘lsalar ham ismlari bordir axir?

QO‘CHQOR *(Alomatga umidvor boqib)*. Bordir... Xo‘sh... Keyin, desangiz, Alomatxon yetimxonada o‘sganlar, taqsir.

SUVON *(asabiy).* Qo‘chqorbek, men otalarining ismini so‘rayapman, qayerda o‘sganlar, deb emas!

QO‘CHQOR. Tiqilinchda esimdan chiqib qoldi-da, taqsir, odamni hadeb shoshiltiraverasizmi! Aytyapman-ku, otalarining ismi... Olimtoy, deb! Yo‘g‘-e, Olimjon, deb. Ha, Olimjon, taqsir.

SUVON. Xo‘sh, Qo‘chqorbek Abdusattor o‘g‘li...

QO‘CHQOR *(o‘rnidan turib)*. Labbay, taqsir?

SUVON. E, o‘tiring! Qo‘chqorbek Abdusattor o‘g‘li, siz Alomat Olimjon qizini o‘z inon-ixtiyoringiz ila xasmingizga qabul etasizmi?

QO‘CHQOR. Hali tushuntirdim-ku, taqsir...

SUVON. “Ha”, deng!

QO‘CHQOR. Ha! *(Tomoq qirib qo‘yib.)* Uch marta so‘ramaysizmi, taqsir?

SUVON. Nimangizdan uch marta so‘rayman, o‘lib turibsiz-ku? Mana, kelin bo‘lmishdan uch bor so‘rasak arziydi. *(Alomatga.)* Siz, Alomat Olimjon qizi, Qo‘chqorbek Abdusattor o‘g‘liga o‘zingizni tanmahramlikka bag‘ishladingizmi? *(Alomat nigohini bir nuqtaga qadaganicha o‘tiraveradi.)* Taqdiringizni bu kishiga o‘z inon-ixtiyoringiz bilan qo‘shmoqqa rozimisiz? Alomat Olimjon qizi, o‘zingizni mana shu odamga tanmahramlikka bag‘ishladingizmi? *(Alomat yana indamaydi.)*

QO‘CHQOR. Uch marta bo‘ldi, Alomatxon...

SUVON. Iye, Qo‘chqorbek, bu yog‘i pishmaganmidi hali?

QO‘CHQOR. Hozir, taqsir... Alomatxon, haligi gap-da, esingizdami? *(Alomat hamon o‘sha ko‘yi qimirlamay o‘tirardi. Qo‘chqor nima qilishni bilmay, uning atrofida aylanadi, sekingina boshqaruv blokini urib ko‘radi…)* Shu yerida tomiri tortishib qoladigan odati bor, taqsir... Uqalab qo‘ymasangiz, shunaqa haykal bo‘lib turaveradi!.. *(Boshqaruv blokini titkilab ko‘radi, hech ish chiqmagach, Olimjonning hujrasidan o‘n-o‘n beshtacha mikrosxema olib chiqib, duch kelganini o‘rnatadi.)*

ALOMAT. O‘rtoqlar! Hali dalalarimizda hosil ko‘p! Yana bir harakat qilsak, marra bizniki! Kechani kecha, kunduzni kunduz demay “zangori kema” shturvallarini boshqarayotgan azamatlarimizning jasorati osmon qadar hurmat va olqishga loyiqdir! Bugun paxta dalalariga qarar ekanmiz, yosh-u qari etak tutib, ulkan xirmonga o‘z ulushlarini qo‘shish ishtiyoqi bilan javlon urayotganiga qoyil qolmay ilojing yo‘q...

SUVON *(ko‘zi xonasidan chiqqudek bo‘lib).* Melisa chaqiraymi, Qo‘chqorbek?.. *(Karavotdan tusha boshlaydi.)*

QO‘CHQOR. Hozir, taqsir, hozir... *(Bir amallab o‘chiradi.)* Siz o‘tirib turing, taqsir, hozir to‘g‘rilaymiz, deyapman-ku! *(Bir uyum mikrosxemaga tikilib.)* O‘ziniki qayoqda qoldi-ya?..

SUVON *(yoqasiga tuflab qo‘yib, qo‘rqa-pisa karavotga chiqadi).* Qo‘chqorbek, uylanaman, desangiz sog‘rog‘i qurib qolganmidi?.. Buni boshingizga urasizmi?

QO‘CHQOR *(mikrosxema tanlay turib).* Ko‘ngil ekan-da, taqsir. Qo‘yavering, do‘xtir-po‘xtirga qaratib odam qilib olarman... *(Boshqa mikrosxema o‘rnatadi.)*

ALOMAT *(qo‘shiq aytadi).* “Yana o‘ynaylik, yana kuylaylik, iqbolimiz porloq ekan, davron suraylik...”

SUVON. Yo qudratingdan!.. “Davron suraylik”, deydimi, Qo‘chqorbek?!

QO‘CHQOR *(o‘chirishga urinib).* Deydi, taqsir, deydi...

(U Suvonning oldida nihoyatda xijolat chekar, asabiylashar va ishni battar chalkashtirib yuborardi. Shosha-pisha boshqa mikrosxema qo‘yadi. Shu payt quloqni qomatga keltirib ajabtovur qo‘shiq yangraydi. Alomat Suvon bilan Qo‘chqorni dahshatga solib raqs tusha ketadi. Chatoq jihati shunda ediki, keskin harakatlar bilan raqs tushayotgan Alomatga endi mutlaqo yaqinlashib bo‘lmas, zero o‘chirishning ham iloji yo‘q edi. Qo‘chqor uning atrofida behuda girdikapalak bo‘lar, robotning kutilmaganda kelib tushgan zarbalaridan uchib ketardi. Suvon o‘zini karavotdan tappa tashlab, darvoza tomon qocha boshlaydi va shoshib kelayotgan Olimjonga urilib ketadi. Olimjon yugurib kelib, Alomatning harakatlariga chap bera-bera, arang o‘chiradi. Alomat tek qoladi.)

OLIMJON *(jahldan bo‘zarib).* Es-hushingiz joyidami, Qo‘chqor aka?! Ming marta aytaman, mening narsalarimga so‘roqsiz tegmang, deb! Xudo ko‘rsatmasin, Alomat bir falokat qilib qo‘ysa, men qamalib ketaman, Qo‘chqor aka! Axir bu odam o‘ldirib qo‘yishi ham mumkin!

QO‘CHQOR. Bu o‘ldirsa, nega seni qamaydi?

OLIMJON. Iye!.. Traktoringiz bilan odam bosib ketsangiz, sizni qamaydimi, traktoringiznimi? Alomat ham mashina-da. Kerakli mikrosxemani qo‘yib berdim, nima qilasiz boshqasini olib chiqib?! Yo‘q, bunaqada meni bir falokatga giriftor qilasiz... Ba’zan sizga umuman tushunmay qolaman, yoshingiz qirq–qirq beshga borgan bo‘lsa, yetti-sakkizta bolaning otasi bo‘lsangiz!.. E tavba!.. *(Biroz o‘zini bosib olib.)* Baribir domlani chaqiribsiz-da?

QO‘CHQOR *(ko‘zlarini begunohlarcha pirpiratib).* O‘zing “bilganingizni qilavering”, deding-ku...

OLIMJON. “Bilganingiz” shu bo‘ldimi?

QO‘CHQOR. Ha endi, hamma aqli yetgan ishni qiladi-da, Olimtoy. Bizniki shunga yetdi...

OLIMJON. Hozir idoradan kelyapman, ertaga terim boshlanar ekan. Xo‘sh, bizning eksperiment nima bo‘ladi?

QO‘CHQOR. Nima-periment?

OLIMJON. Eksperiment. Alomatni dalada sinab ko‘rish kerak, komissiya keladi.

QO‘CHQOR. Yo‘q, men bir nima deyapmanmi, Olimtoy? Xotin bo‘lganidan keyin el qatori dalaga chiqadi-da. Ko‘pga kelgan to‘y.

OLIMJON. Shunisigayam shukr. *(Mikrosxemalarni yig‘ishtira turib, birdan qizil rangli mikrosxemani ko‘rib qoladi.)* Qo‘chqor aka!.. Manavini qo‘ydingizmi? Sizdan so‘rayapman, qo‘ydingizmi, yo‘qmi?!

QO‘CHQOR. Nega baqirasan? *(Mikrosxemani olib, qaraydi.)* Bunimi? Qo‘ymadim, shekilli.

OLIMJON *(holsiz o‘tirib qoladi).* Xayriyat... Yuragim to‘xtab qolay, dedi-ya...

QO‘CHQOR. Nima o‘zi bu, Olimtoy?

OLIMJON. UES.

QO‘CHQOR. Nima-es?

OLIMJON. UES. Universal elektron sxema.

QO‘CHQOR. Nima karomat ko‘rsatadi bu?

OLIMJON. Alomatga o‘shani qo‘ysangiz – bo‘ldi, boshqa mikrosxemaga hojat qolmaydi, hammasining o‘rnini bosaveradi.

QO‘CHQOR. Iye, yaxshi ekan-ku. Shu kassetani qo‘yaylik, Olimtoy. Hadeb almashtiraveramizmi – etagini ko‘tarib, yoqasiga qo‘l tiqib, a?

OLIMJON. Ee, nima deyapsiz, Qo‘chqor aka? Bu faqat laboratoriya sharoitida sinaladi. Shundayam qat’iy ehtiyot choralari ko‘rilganidan keyin.

QO‘CHQOR *(sirli).* Nima, xavflimi?

OLIMJON. Nima desa bo‘ladi... Mana, hozir Alomat gaplaringizga shunchaki, mexanik ravishda javob qilyapti.

QO‘CHQOR. Nima-nik?

OLIMJON. Mexanik. Gapida piching yo‘q, kinoya yo‘q, to‘g‘risini gapiraveradi. Nima deyayotganingizni tahlil qilib o‘tirmaydi, aytdingizmi – bajaradi. Buni qo‘ysak-chi? Unda o‘ylaydi, fikr qiladi, hamma narsaning mohiyatiga tushunib yetadi!

QO‘CHQOR. O‘ylasa yaxshi-ku, Olimtoy.

OLIMJON. Yaxshimish! Robot o‘ylasa, fikr qilsa, bilasizmi nima bo‘ladi?

QO‘CHQOR. Nima bo‘ladi?

OLIMJON. Qiyomat qoyim bo‘ladi! Aytdim-ku, hali Alomatga o‘xshagan robotlar ming-minglab yaratiladi. Millionlab yaratiladi! Endi bir tasavvur qiling: millionlab robot kallasini ishlatsa, o‘ylasa! Xudoning o‘zi asrasin-u, unda oxirzamon bo‘ldi, deyavering! Ular borib-borib o‘zining hozirgi ahvolidan norozi bo‘la boshlaydi! Tushunib qoladi-da! Nega, deydi, odamlar maza qilib yurishibdi, men ertadan kechgacha eshakday ishlashim kerak, deydi! Nega endi ularning inon-ixtiyori o‘zida-yu, men manavinaqa programmalashtirilgan mikrosxemalarga bo‘ysunishim kerak, deydi! Tushunyapsizmi gap qayerda? Qarang, ularning o‘zi kim-u, insonlikka da’vo qilishadi! Hamma gap shundaki, fikr qilsa, aqlini taniydi. Aqlini tanisa, ko‘zi ochiladi! Ko‘zi ochilsa, ularni boshqarish mumkin bo‘lmay qoladi! Ana shuning uchun, Qo‘chqor aka, robot robotligini qilishi kerak. Buyruq berildimi – bajarsin! U yog‘i bilan ishi bo‘lmasin!

QO‘CHQOR. Haa, bundan chiqdi, saal ahmoqroq bo‘lishi kerak ekan-da, a, Olimtoy?

OLIMJON. Shunday desayam bo‘ladi. Ularning tanasi, qo‘li, oyog‘i, mayli, ishlasin. Lekin kallasi ishlashiga yo‘l qo‘ymaslik kerak! Bo‘pti, men borib, biroz ishlay endi.

(Olimjon mikrosxemalarni yig‘ishtirib, ichkariga kirib ketadi…)

To‘rtinchi sahna

(O‘sha hovli. Oradan ikki kun o‘tgan. Alomat karavotda o‘tiribdi. Qo‘chqor tog‘orada bug‘i chiqib turgan qaynoq suv olib kelib, uning qarshisiga qo‘yadi. Alomatning qo‘llarini kaftlari orasiga olib, birpas tikilib turadi, yuziga bosadi. Sekin-sekingina qaynoq suvga botiradi. Kutadi. O‘rnidan turib, ayvon shiftidagi qizil mikrosxemani oladi. Birpas o‘ylanib turib, ehtiyotkorlik va hadik bilan robotga o‘rnatadi. Alomat xuddi uyqudan uyg‘ongandek ajablanib atrofni kuzatadi, Qo‘chqorga bosh-oyoq razm soladi.)

ALOMAT *(bir Qo‘chqorga, bir tog‘oradagi suvga qarab).* Qo‘chqor aka?

QO‘CHQOR *(uzrli).* Shu, desangiz, qo‘lingiz ja muzday-da... yuzimni silaganingizda temirga o‘xshab ketadi... *(Uning qo‘lini yuziga bosib ko‘radi.)* Hali bor... *(Yana tog‘oraga tiqib qo‘yadi.)* Xafa bo‘lmang-u, Alomatxon, shu, Qumrining qo‘llari qadoq bosib, yorilib ketgan bo‘lsayam bir nimasi bor edi-da... O‘sha nima ekan-a? Bo‘lmasam, barmoqlarini ko‘sak tilib, g‘adir-budur qilib tashlagan. Qo‘lidan, desangiz, kirsovun aralash tappi hidi keladi. *(Xo‘rsinib.)* Lekin nimasidir bor edi... Keyin, ko‘zingiz ham g‘alati. Yo‘q, uzoqdan qarasam durust, yaqiningizga kelsam, shishaga o‘xshaydimi-yey...

ALOMAT. Kvars.

QO‘CHQOR. Nima-ars?

ALOMAT. Kvars. Kvarsdan yasalgan.

QO‘CHQOR. Haa... Shishaning bir turi-da, a? Ja sovuq narsa bo‘larkan lekin. Bilasizmi, ko‘nglingizga olmang-u, Qumri bilan-chi, jim o‘tirib ham gaplashaverardik. Ichimizda-da... Nima deyotganini ko‘zidan bilardim. Uyam shundoq qarardi-yu, ichimdagini topardi, qurg‘ur...

ALOMAT. Men maqsadingizni, xohish-istagingizni ko‘zingizga qarab bilolmayman. Tashqi olam bilan faqat manusonik metodda aloqa qilaman.

QO‘CHQOR. Nima-sonik?

ALOMAT. Manusonik. Tabiatdagi barcha tirik mavjudot, shuningdek, odam ham o‘zidan elektromagnit to‘lqini tarqatadi.

QO‘CHQOR. Men hammi?

ALOMAT. Siz ham.

QO‘CHQOR. Qumri bo‘lsa, “Sizdan faqat solyarka hidi taraladi”, derdi... Qarang, gapi yolg‘on ekan-da, a?

ALOMAT. Sizdan tarqalayotgan elektromagnit to‘lqinini qabul qilaman va shunga ko‘ra nima zarur bo‘lsa, o‘sha ishni bajaraman.

QO‘CHQOR *(tushunishga harakat qilib).* Demak, biz o‘zimizdan elektromagnit to‘lqini chiqaramiz, siz uni qabul qilasiz. Iye, bundan chiqdi, siz kelguningizgacha bekordan bekorga elektromagnit to‘lqini chiqarib yotgan ekanmiz-da, a? Uni hech kim qabul qilmasa...

ALOMAT. Mana, masalan, ikki kundan beri ishingizga ovqat olib boraman-a? Hech mahal qaysi brigadada yoki qaysi qartada ishlayotganingizni so‘raganmanmi?

QO‘CHQOR. Yo‘q...

ALOMAT. Ovqatni olaman-u, to‘ppa-to‘g‘ri topib boraveraman. Elektromagnit to‘lqini menga yo‘l ko‘rsatadi.

QO‘CHQOR *(xo‘rsinib).* Qumri ham adashmay topib borardi... Unga nima yo‘l ko‘rsatar ekan-a yoki deylik, har kuni ko‘chamizdan qancha-qancha traktor o‘tadi. Bolalarim bo‘lsa, mening traktorimni ovozidan tanib, yugurib chiqishadi... Bo‘lmasa, uncha-muncha usta mexanik ham traktorlarni ovozidan ajratolmaydi... *(O‘kinch bilan.)* E Xudo, men tushunmaydigan jumboqlaring muncha ko‘p-a?..

ALOMAT. Tushunmagan narsalaringizni so‘rang, bajonidil javob beraman.

QO‘CHQOR. Mana, deylik, men nimadandir xursand bo‘ldim-a? Siz ham menga qo‘shilib sevinasizmi?

ALOMAT. Yo‘q, men unda xotirjam bo‘laman. Negaki sog‘-salomatsiz, qorningiz to‘q, hech nima bezovta qilmayapti – demak, hammasi joyida.

QO‘CHQOR *(ruhi tushib)*. Ha... *(Umidvor.)* Xo‘p, xafa bo‘lsam-chi? Undayam baribirmi?

ALOMAT. Baribir emas. Siz xafa bo‘lgan narsaning sababini topib, bartaraf qilaman.

QO‘CHQOR. E-e, unda siz ham o‘zimizning rahbarlarga o‘xshagan gap ekansiz-da. Bir ish bilan borsang, na dardingga sherik bo‘ladi, na xursandchiligingga. Nomi “mahalliy hokimiyat” bo‘lgani bilan, bilmayman, narigi mahallaga qaraydimi... *(Birdan.)* Alomatxon, siz yig‘lay olasizmi?

ALOMAT. Yo‘q.

QO‘CHQOR. Ayol kishining har zamonda yig‘lab turgani yaxshi. Yengil tortadi. Erkakning yo‘rig‘i boshqa – uyat bo‘ladi. Mana, men sira yig‘lamaganman. *(O‘ychan.)* Lekin uyat bo‘lmaganida yig‘lardim...

ALOMAT. Uyat bo‘lmaydi, yig‘layvering.

QO‘CHQOR *(xijolatli)*. E, qo‘ysangiz-chi, qiziqmisiz...

ALOMAT. Rost, uyat bo‘lmaydi, chunki men uyatni tushunmayman. Elektromagnit to‘lqinlari bo‘lsa, boshqa gap. Mana, hozir siz yig‘iga ehtiyoj sezyapsiz – buni tushunaman. Bemalol yig‘layvering, Qo‘chqor aka. Men robotman-ku, temirdan ham uyaladimi odam?

QO‘CHQOR *(hayron).* Iye... Nima deb yig‘layman?

ALOMAT. Xohlasangiz, nima deb yig‘lashingizni yozib beraman.

QO‘CHQOR. Yo‘g‘-e, endi yig‘lashniyam qog‘ozga qarab yig‘lasak uyat bo‘lar?..

ALOMAT. Men odamlar haqida boshqacha tasavvurda edim. Ularning erki qo‘lida, nimani xohlasa, shuni qiloladi, deb o‘ylardim. Nahotki xulosalarim noto‘g‘ri bo‘lsa?

QO‘CHQOR. Haliyam erkimiz qo‘limizda.

ALOMAT. Nega bo‘lmasa yig‘lolmayapsiz?

QO‘CHQOR. Endi, Alomatxon, dabdurustdan qiyin-da. Bir sabab bo‘lmasa...

ALOMAT. Sabab topamiz.

QO‘CHQOR. Qanday qilib?

ALOMAT. Gipnoz qilib.

QO‘CHQOR. Nima-pnoz?

ALOMAT. Gipnoz. Qoida bo‘yicha gipnoz faqat yolg‘ondan iborat bo‘ladi. Masalan, tishi og‘rib turgan odamga “tishingiz og‘rimayapti”, deb yolg‘on gapiriladi.

QO‘CHQOR. Yo‘q, men yolg‘on gapga yig‘lamayman.

ALOMAT. Axir yolg‘on xuddi rostday qilib gapiriladi-da! Hamma ishonadi, hatto gapirayotgan odamning o‘zi ham! Qani, mundoq o‘tiring-chi. Boshladik. Ko‘zimga qarang... Bo‘shashing... G‘o‘daymang, bo‘shashing, deyapman. Yaxshi...

QO‘CHQOR. Qo‘ying, nima keragi bor, baribir yig‘lamayman...

ALOMAT. Yig‘laysiz... *(Qo‘llarini uning boshi uzra harakatlantirib.)* Yig‘laysiz... Chunki juda ezilgansiz... Yuragingizga qil ham sig‘maydi... Ich-ichingizdan bir nima toshib kelyapti... Hech kimning rahmi kelmaydi, birov dardingizga sherik ham bo‘lmaydi... O‘z yog‘ingizga o‘zingiz qovurilib yashayapsiz... Aft-angoringizga bir qarang, qirqqa kirgan qirchillama yigitsiz-u, ko‘rgan odam sizni ellikdan oshgan, deb o‘ylaydi. Qurib-qaqshab boryapsiz... Esingizni tanibsizki, tinmay mehnat qilasiz, lekin hech biringiz ikki bo‘lmaydi. Ro‘zg‘or, bola-chaqa tashvishi, deysiz, afsuski, bu tashvishlarning cheki yo‘q. Ertalabdan kechgacha chumoliday g‘imir-g‘imir qilasiz-u, rohatini ko‘rmaysiz. “Paxtakorman”, deb ko‘kragingizga mushtlaysiz-u, ko‘rpangizga paxta topolmaysiz! Kiyib olgan kiyimingizni qarang, yengil sanoat yetishtirayotgan hamma brak mahsulot siz va sizga o‘xshaganlarga nasib qiladi. Manavi nima? Shu issiqda kim neylon ko‘ylak kiyadi?

QO‘CHQOR. Magazinga kelgan ekan, arzongina, deb...

ALOMAT. O‘zingizga bir tashqaridan qarang, qaysi zamonda yashayapsiz? Kimga o‘xshaysiz? Oyog‘ingizga ilib olgan kalishingiz qayerdan chiqqan? Yangiyo‘ldanmi, Toshkentdanmi?

QO‘CHQOR *(oyog‘ini tortib).* Kalishmas, patinka...

ALOMAT. Bu dunyoga kelib nima ko‘rdingiz, Qo‘chqor aka? “Ikki marta Toshkentga borganman”, deb maqtanasiz, odamlar “Oq dengiz-u Qora dengiz” qilib yurishibdi! “Ha endi, ular boshqacha odamlar-da”, deysiz. Qanaqa boshqacha? Nimasi boshqacha? Nahotki oddiygina insoniy g‘urur bo‘lmasa?! Shu darajaga yetgansizki, bora-bora undaylarga havas ham qilmay qo‘ygansiz! Havas qilaverib, orzu qilaverib charchagansiz, holdan toygansiz!

QO‘CHQOR. Nima qipti, el qatori yashayapmiz...

ALOMAT. Shunday deb o‘zingizni ovutasiz. Qadr-qimmat-chi? Men odam emasman, lekin shularni o‘ylayverib-o‘ylayverib, ichimdagi murvatlarim qizib ketyapti! Menchalik ham emasmisiz, Qo‘chqor aka?! Biron tirik jon siz bilan hisoblashadimi? Birovga gapingiz o‘tadimi? “Shudgorni boshla”, desa boshlayverasiz, “hali yer qurimagan, loy-ku”, deyolmaysiz! To‘y-ma’rakalarda poygakda o‘tirasiz! “Ulug‘lar”ga tayyorlangan dasturxonga yaqinlasholmaysiz! Joyingizni bilib o‘tirishga majbursiz, chunki “mehnatkash” degan mansab bilan to‘rga chiqolmasligingizni yaxshi bilasiz! Shlyapa kiyib, galstuk taqqan ketmondasta ham sizni haqoratlashi, tahqirlashi mumkin! Alam qilmaydimi?

QO‘CHQOR. Ha endi, rahbar bo‘lganidan keyin koyiydi-da...

ALOMAT. Bayram kunlari rayondagi namoyishdan bayroqcha ko‘tarib o‘tganingizga xursand bo‘lib yuraverasiz! Majlislarda qo‘l ko‘tarish-u chapak chalishni bilasiz, boshqa hech baloni hal qilmaysiz! Ko‘pincha o‘sha majlisda nima hal bo‘layotganini ham tushunmaysiz!

QO‘CHQOR *(ta’sirlanib).* Gapingiz noto‘g‘ri, Alomatxon... “Hurmat taxtasi”da suratimiz turibdi...

ALOMAT. Endi bor umidingiz bolalaringizdan, ularni o‘qitib “katta odam” qilmoqchisiz. Lekin ularingizdan “katta odam” chiqmaydi. Qishin-yozin daladan beri kelmaydigan chalasavod bolalardan hech balo chiqmasligini bilasiz. Farzandlaringizning o‘zingizga o‘xshamasligini istaysiz, demak, o‘zingizning kimligingizni ham bilasiz! Aqlingiz yetadi! Lekin yana “ko‘pga kelgan to‘y”, deb yuraverasiz! Axir umr o‘tib ketyapti-ku, Qo‘chqor aka!

QO‘CHQOR *(ko‘ngli to‘lib).* Baribir yig‘lamayman!.. Yaxshi yashayapmiz, bildingizmi?!..

ALOMAT. Yig‘laysiz... Ana, ko‘nglingiz to‘lib turibdi... Labingizni tishlamang, Qo‘chqor aka, foydasi yo‘q. Axir yosh ko‘zdan chiqadi, og‘izdanmas...

QO‘CHQOR *(yig‘lagudek bo‘lib)*. Birov sizga hayotidan noliyaptimi?!

ALOMAT. Hamma gap shunda-da – nolimaysiz. Ko‘nikib ketgansiz. Yaralar toshga aylangan – og‘riq sezmaydi. Dod solib baqirish-ku qo‘lingizdan kelmas, hechqursa ingrab qo‘yishga ham qodir emasmisiz, Qo‘chqor aka? “Hayot deganlari shunaqa bo‘lar ekan”, deb umringizni o‘tkazyapsiz. Qalbingizning unut bo‘lib ketgan, o‘zingiz ham bilmaydigan allaqaysi burchaklarida miltillayotgan ushoqqina norozilikdan qo‘rqasiz, uyalasiz, uni sezmaslikka olasiz! To‘g‘ri, qadr-qimmatingiz oshkora haqoratlanganida o‘sha miltillayotgan cho‘g‘ alanga olganday bo‘ladi va siz uni aroq bilan o‘chirishga urinasiz. Dunyoga shirakayf ko‘zlar bilan qarab taskin topasiz, birqadar yupanasiz ham. Lekin ertasi kuni kayfingiz tarqab, dunyo yana asl holiga qaytadi! Shunda o‘zingizni qo‘yarga joy topolmaysiz, hadsiz-hududsiz olamda mushtdekkina jussangizni qo‘ygani joy yo‘q! So‘ng yig‘lamoqdan o‘zga chorangiz qolmaydi va o‘ksib-o‘ksib yig‘laysiz...

QO‘CHQOR *(ko‘zlarida yosh o‘ynab).* Yol-g‘o-on!.. Men hech qachon yig‘lamaganman!..

ALOMAT. Yig‘lagansiz. Faqat ko‘zingizning narigi tomoni bilan yig‘lagansiz. Ko‘z yoshlaringiz tashqariga emas, ichingizga oqqan. Mana, mening ichim to‘la temir-tersak, sizning vujudingiz esa faqat va faqat ko‘z yoshidan iborat. Lim-lim yosh...

QO‘CHQOR *(baralla yig‘lab yuboradi, sapchib turib oyog‘i ostidagi qutini zarb bilan tepadi)*. E, padariga la’nat hammasining!!!

ALOMAT. Nega unaqa qilyapsiz, Qo‘chqor aka, axir bu shunchaki gipnoz-ku.

QO‘CHQOR. E, gipnozingizning ham padariga ming la’nat! *(Yosh boladay g‘ingshib yig‘laydi. Alomatning yelkasidagi qizil mikrosxemani oladi-da, boshi uzra bir-ikki aylantirib, ko‘cha tomon otib yuboradi.)* Bozortoy!.. Ho‘ Bozortoy! Bir qarab yubor, jo‘ra, ikki og‘izgina gapim bor!.. Bozortoy, jon do‘stim, bir qaragin!.. Senga aytmasam, kimga aytaman, Bozortoy!..

SHAROFAT *(devor osha mo‘ralab).* Bozorvoy akam ikki qopgina baqlajon olib, bozorga ketuvdilar. Nima edi?

QO‘CHQOR *(yig‘laganicha)*. Zerikib ketdim!.. Qartasini olib chiqsa, bir-ikki qo‘l “durrak” o‘ynamoqchi edim...

SHAROFAT. Ha-a... Mayli, kelsalar aytib qo‘yaman. *(G‘oyib bo‘ladi.)*

Qo‘chqor yig‘lay-yig‘lay Alomatga boshqa mikrosxema o‘rnatadi.

ALOMAT *(kuylab).* “Yana o‘ynaylik, yana kuylaylik, iqbolimiz porloq ekan, davron suraylik. Iqbolimiz porloq ekan, davron suraylik...” *(To‘xtovsiz aytaveradi.)*

(Qo‘chqor ancha vaqt hovli bo‘ylab bemaqsad sang‘ib yuradi. Asta-sekin o‘zi ham bilmagan holda yig‘isi “Davron suraylik” ashulasi bilan uyg‘unlashib ketadi.)

Parda

Keling, imtihon olamiz

Shart: quyidagi biletlardan birini *maxfiy, tasodifiy yo‘l* bilan tanlang. Berilgan savolga ikki daqiqa tayyorlaning va hammaning oldida javob bering.

Eslatma

- Ustozga: hakamlar hay’atiga eng faol bir o‘quvchini va bir hamkasbini taklif qilishi mumkin.
- O‘quvchiga: sinfdoshlaringizning biletdagi savolga javoblarini ham tinglab boring. O‘z biletingizdan tashqari o‘sha savollarga qo‘shimcha javob berishingiz ham mumkin.

1-bilet	Asardagi “nikoh” sahnasi orqali Qo‘chqorga xos qanday xarakter namoyon bo‘lgan? Vaziyat kulgilimi yoki?..
2-bilet	Sizningcha, texnokratlashgan bugungi kunimizda, ya’ni texnologiyalar hayotning hamma sohasini egallayotgan bir davrda inson o‘zligini, irodasini va qadriyatlarini qanday himoya qilishi kerak? Olimjonning qo‘rquvini muallifning qo‘rquvi sifatida qabul qilish mumkinmi? Mulohazalaringizni bildiring.
3-bilet	Qo‘chqor doim Bozortoyni chaqirganida u goh ikki qopgina bodring, goh ikki qopgina sabzi, ba’zan ikki qopgina baqlajon olib bozorga ketgan bo‘ladi. Dramaturg ikkisini hech bir sahnada uchrashtirmaydi. Ikki holatda ham muallifning ko‘zlagan maqsadi nima bo‘lishi mumkin?
4-bilet	Alomat va Qumrini solishtirganida Qo‘chqorning ruhiy holatini his qildingizmi? Bu qiyoslash orqali Qo‘chqorga nisbatan sizda qanday fikr paydo bo‘ldi? Nima uchunligini ayting.
5-bilet	Qo‘chqorning yig‘lashi epizodi sizda hamdardlik (empatiya), achinish tuyg‘usini uyg‘otdimi-yo‘qmi? Nima uchunligini izohlab bering. Muallif nima uchun bu og‘riqlarni “toshga aylangan yara”, deb ataydi?
6-bilet	Muallif “Davron suraylik” ashulasini dramatik vaziyatlarga bot-bot kiritishining sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. Fikringiz bilan o‘rtoqlashing.
7-bilet	Asardagi qaysi nuqtani **kulminatsiya** (voqealarning eng yuqori darajada keskinlashgan, hal qiluvchi burilish nuqtasi) sifatida baholash mumkin? Dalil keltiring.
8-bilet	Asardagi qaysi o‘rinlarni **ichki** (qahramonning o‘z ichidagi kurashi) va **tashqi** (qahramonning boshqa qahramon yoki tashqi kuchlar (jamiyat, tabiat, tizim va hokazo) bilan qarama-qarshiligi) **konflikt** sifatida qabul qilish mumkin? “Temir xotin”da qay biri yorqinroq aks etgan?

9-bilet	Asarda bir oilaning kundalik hayoti, munosabatlari va orzulari orqali butun bir xalqning turmush tarzi, ruhiyati va ijtimoiy muammolari aks ettirilgan, deyish mumkinmi? Nega muallif aynan oddiy oila hayoti orqali millatning kechinmalarini ko‘rsatishga urinadi? Sizningcha, aslida “temir xotin” kim va nima uchun shunday hisoblaysiz?
10-bilet	Dramaturg nima uchun pyesa syujetiga ziyoli va qishloq odami dunyoqarashini asos qilib olgan bo‘lishi mumkin? Olimjon va Qo‘chqor obrazlarini qiyoslash mumkinmi? Nega?
11-bilet	Muallif nima sababdan ziyoli Olimjonni emas, balki oddiy traktorchi Qo‘chqorni gapga chechan qilib tasvirlagan deb o‘ylaysiz?
12-bilet	Asar syujeti yumorga boy bo‘lsa-da, fojia bilan yakunlanadi. Muallif asar janrini “jiddiy komediya” sifatida qayd etadi. Sizningcha, asar syujetining nimasi “jiddiy”, nimasi “komedik”? Jiddiylik va yumor bir-biriga mutlaqo teskari tushunchalar emasmi? Muallif nima demoqchiligini topishga urining.

SAHNA ISHI

Guruhlarga bo‘lining. Har bir guruh o‘ziga tegishli vazifalarni bajarsin.

1-guruh	Alomatning Qo‘chqorni gipnoz qilish holati asosida **zamonamiz uchun dolzarb bo‘lgan ijtimoiy muammolar ifodalangan** sahna ko‘rinishi ssenariysini yozing va *bir sahna* orqali ko‘rsatib bering.
2-guruh	**[Qo‘chqor va Qumri], [Qo‘chqor va Olimjon], [Qo‘chqor va Alomat], [Qo‘chqor va Suvon mulla]** epizodlaridan **ikkitasini** tanlab, sahnalashtiring. Bunda: • ***sahna dekoratsiyasi*** *(tomoshabinga vizual ta’sir uchun ishlatiladigan badiiy va texnik elementlar majmuyi) uchun kerakli* ***rekvizitlar*** *(sahna uchun zaruriy buyumlar) to‘plash;* • *muhitni tasvirlash uchun orqa fon rasmlari,* ***maxsus effektlar*** *(shovqin, ovoz, kuy, qo‘shiq va boshqa)dan foydalanishga harakat qiling.*
3-guruh	1- va 2-guruhning sahna ishini (ssenariy, ijro, dekoratsiya, rekvizitlar va maxsus effektlar jihatidan) baholash uchun ustoz yordamida **10 ballik** mezon ishlab chiqing. Har bir sahna ishiga shu mezonlar asosida baho bering.

Eslatma

Tayyorlangan sahna ko‘rinishlari sinfda yoki maktab faollar zalida namoyish etilishi mumkin.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

O‘quv nashri

Jamoliddin Nurmuhammadov, Dilnavoz Yusupova,
Orifjon Olimjanov

ADABIYOT
9-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2025

Muharrir	*Xayriddinmurod Abulfaizov*
Musahhih	*Sanobar Djumanova*
Texnik muharrir	*Alimardon Aqilov*
Badiiy muharrir	*Sarvar Farmonov*
Rassom	*Umid Sulaymonov*
Dizayner	*Sanjar Daniyarov*
Kompyuterda sahifalovchi	*Iqbol Salohiddinov*

Nashriyot litsensiyasi 9341. 08.10.2020-yilda berilgan.
Bosishga 00.00.2025-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 $^{1}/_{16}$.
“Arial” garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 25,2. Nashriyot-hisob tabog‘i 15,7.
Adadi 597 352 nusxa. Buyurtma № ...

Darslik holati haqida ma’lumot

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslikni olish va o‘quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning holati a’lo darajada.
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko‘chmagan.
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba’zi sahifalari yirtilgan.
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to‘liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba’zi sahifalari yo‘q, bo‘yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas.